

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRALARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRALARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



**“O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida
fuqarolik jamiyatining shakillanishi va rivojlanishi”
moduli bo'yicha**

O'QUV – USLUBIY QO'LLANMA

Toshkent 2022

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: O‘zMU “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrasи mudiri, professor A.Utamuradov

Taqrizchilar: O‘zMU “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrasи s.f.d., prof. I.Ergashev,
TDSHU, professori, s.f.d., U.Idirov

MUNDARIJA:

I. ISHCHI DASTUR	3
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI	14
III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	19
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	63
V. GLOSSARIY	103
VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI	
	120

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyatga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasi, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishiga oid qonuniyatlar, tamoyillar, ustuvor yo‘nalishlar, islohotlarni amalga oshirish mexanizmlari va unga doir zamonaviy konsepsiylar ochib berilgan. Modernizatsion o‘zgarishlarning ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy, siyosiy soholar orqali amalga oshirilishi, har bir sohaning miqdoriy, mazmunli, strukturaviy holatining almashinushi natijasida davlat va jamiyat tizimida olib borilayotgan islohotlarningsifat ko‘rsatgichlarini o‘zlashtirib borish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Modulining maqsadi: *tinglovchilarga* Fuqarolik jamiyat, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasining maqsad va vazifalari, asosiy yo‘nalishlari, O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida olib borilayotgan islohotlar, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda O‘zbekistonning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida chuqur bilim berish orqali ularda faol fuqarolik pozitsiyasi, tanqidiy tahlil va shaxsiy mas’uliyatini shakllantirishdan iborat.

Modulning vazifalari: O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun mohiyatini, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning asosiy yo‘nalishlarini, ularni amalga oshirish mexanizmlarini tushuntirish;

fugorolik jamiyatini barpo etishning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va ma'naviy asoslari to'g'risidagi tasavvurlarini boyitish hisoblanadi.

Mutaxassislik fanlari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- fuqarolik jamiyatni to'g'risidagi g'oya va nazariyalarning shakllanishini;
- O'rta Osiyoda fuqarolik jamiyatini shakllantirish to'g'risidagi g'oyalar, qarashlar, konsepsiyalarni;
- Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish to'g'risidagi zamonaviy qarashlar;
- Rivojlangan g'arb mamlakatlarida fuqarolik jamiyatni shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini;
- rivojlangan Sharq mamlakatlarining ilg'or tajribasi. Singapur mo'jizasi: nazariya va amaliyot. Janubiy Koreya modelining xayotiyligi. Yapon modelining o'ziga xosligini;
- Yangi taraqqiyot bosqichida O'zbekistonda fukarolik jamiyatni institutlarining takomillashuv jarayoni xususiyatlarini ***bilishi*** kerak.

Tinglovchi:

- O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi va Fuqarolik jamiyatni fanlarini o'qitish bo'yicha yangi texnologiyalarni amaliyotda qo'llash;
- fuqarolik jamiyatining ilmiy-nazariy metodologiyasi, O'rta Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik jamiyatni to'g'risidagi qarashlari, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirish amaliyoti bo'yicha ma'ruza, amaliy mashg'ulot va nazorat ishlarini tashkil etish;
- O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi, rivojlanishi va amaliy jarayonlarni baholash, tashviqot-targ'ibot qilish;
- pedagogik jarayonda muloqot uslublarini to'g'ri qo'llay olish ***ko'nikmalariga*** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- axborot kommunikatsion texnologiyalari va ularni qo'llashning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini bilish;
- fuqarolik jamiyatining ilmiy-nazariy metodologiyasi, O'rta Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik jamiyatni to'g'risidagi qarashlari, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirish amaliyoti

paketlar fanlarining zamonaviy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ommalashtirish;

□ O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi va Fuqarolik jamiyatni fanlarini turli sohalarga tatbiq qilish;

□ O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi va Fuqarolik jamiyatni fanlarni dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy usullarini qo‘llash **malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

□ O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi va Fuqarolik jamiyatni fanlarning dasturlar paketini o‘quv jarayoniga tatbiq etish;

□ O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi va Fuqarolik jamiyatni fanlarni dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy masalalarini tahlil qila olish;

□ fuqarolik jamiyatini rivojlantirshda ilmiy-nazariy masalalarni yechishda zamonaviy texnologiyalar va usullardan foydalana olish;

□ O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi va Fuqarolik jamiyatni fanlar sohasida kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish;

□ ilg‘or axborot-texnologiyalarida ishslash;

□ videodarslarni tayyorlash;

□ egallangan tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish qobiliyati, zarur bo‘lganda o‘z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o‘zgartira olish;

□ O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi va Fuqarolik jamiyatni fanlarda tizimli tahlil usulidan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish;

□ fuqarolik jamiyatining ilmiy-nazariy metodologiyasi, O‘rtal Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik jamiyatni to‘g‘risidagi qarashlari, fuqarolik jamiyatni va demokratik institutlarni rivojlantirishning ilg‘or xorijiy tajriba, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirish amaliyoti kabi fuqarolik jamiyatni paketlar fanlarining dolzarb masalalariga oid zamonaviy manbalardan foydalana olish **kompetensiylariga** ega bo‘lishi lozim.

III. MUTAXASSISLIK FANLARI

3.1. O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi.

1 mavzu: Fuqarolik jamiyati fanining predmeti, obekti va maqsadi. (2 soat).

Fuqarolik jamiyati fan sifatida. Fuqarolik jamiyati fanining predmeti va obekti. Fuqarolik jamiyati fanining maqsadi, o‘quv, ilmiy, amaliy va tarbiyaviy vazifalari, funksiyalari. Fuqarolik jamiyati fanining tushunchalari, qonuniyatlarini va uning boshqa ishtimoiy fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi, o‘ziga hos xususiyatlari.

2 mavzu: Fuqarolik jamiyati qurish mamlakatimizning asosiy strategik pirovard maqsadi. (2 soat)

Ijtimoiy xayotning turli sohalarida olib borilayotgan isloxtlardan ko‘zlangan asosiy maqsad - adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishdir. Birinchi Prezident I.Karimov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning fuqarolik jamiyatini qurish pirovard maqsad sifatida belgilanganligi to‘g‘risidagi konseptual g‘oyalari. **3 mavzu: Fuqarolik jamiyati g‘oyalari evolyusiyasi. (2 soat)**

Fuqarolik jamiyati tushunchasining tarixiy ildizlari va ularning tavsiflari. Sharq va G‘arb sivilizatsiyalarida fuqarolik jamiyati tushunchasiga oid o‘ziga hos yondoshuvlar. Fuqarolik jamiyatining antik paradigmasi. Sharq mamlakatlarida fuqarolik jamiyati haqidagi ilk qarashlar. O‘rta asrlarda fuqarolik jamiyati g‘oyalaring rivojlanishi. Yangi davrda fuqarolik jamiyatining paradigmalar. Fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalari va yondoshuvlar.

4 mavzu: Fuqarolik jamiyatining shakllanish va rivojlanish bosqichlari. (2 soat)

G‘arb mamlakatlarida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Birinchi bosqichda fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va mafkuraviy asoslarining yaratilishi. Ikkinci bosqichda umumiylar yuridik tenglik, erkinlik, tadbirkorlik, shahsiy tashabbusga asoslangan vertikal munosabatlarning shakllanishi. Uchinchi bosqich fuqarolarning huquqiy tengligi va o‘zaro bitimlarga asoslangan gorizontal munosabatlarning shakllanishi.

5 mavzu: Fuqarolik jamiyati insoniyat taraqqiyotining - yuqori bosqichi. (2 soat)

Fuqarolik jamiyati o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi, o‘zini-o‘zi boshqaruvchi tizim. Iqtisodiy va siyosiy hokimiyatning ajralishi – fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi va qaror topishining asosiy mezoni. Ilmiy adabiyotlarda “fuqarolik jamiyati” va “huquqiy davlat” tushunchalarining o‘zaro nisbati, umumiylar hamda o‘ziga hos jihatlari, unga turli xil yondoshuvlar.

6 mavzu: O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlantirish strategiyasi.

(2 soat).

Fuqarolik jamiyatining shakllantirish va rivojlantirishda demokratik institutlarning tutgan o‘rni. Ko‘ppartiyaviylik – fuqarolik jamiyat barpo etishning muhim sharti. Fuqarolik jamiyatini institutlarini rivojlantirish istiqbollari. “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyat sari” konsepsiysi. Jamoatchilik nazorati tushunchasi, tizimi, subektlari, shakllari va turli ko‘rinishlari. Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonunning (2018) qabul qilinishi va uning takomillashtirilishi. Ijtimoiy sheriklik tushunchasi, va uning talqinlari. Ijtimoiy sheriklikning rivojlanishining nazariy-huquqiy asoslar.O‘zaro manfaatli hamkorlikning samarasii oshirishga qaratilagan davlat – xususiy sheriklikning zamонавиy mexanizmlarini joriy etish.

7 mavzu: “Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” konseptual g‘oyasi.

O‘zbekistonda 2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi (4.03.2021). (2 soat)

“Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” konseptual g‘oyasining mazmun mohiyati. O‘zbekistonda 2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi, Konsepsiada belgilangan ustuvor yo‘nalishlar va “Yo‘l xaritasi”. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari. Davlat subsidiyalari, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar berish tartibi. Jamoatchilik palatasining takomillashtirilishi va uning asosiy vazifalari.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Жами	jumladan		
		Назарий	Амайи машғулот	Кўчма машғулоти	
1.	Fuqarolik jamiyatni fanining predmeti, obekti va maqsadi.	4	2	2	
2.	Fuqarolik jamiyatni qurish mamlakatimizning asosiy strategik pirovard maqsadi	2	2		
3	Fuqarolik jamiyatni g‘oyalar evolyusiyasi.	4	2	2	
4	Fuqarolik jamiyatining shakllanish va rivojlanish bosqichlari.	4	2	2	
5	Fuqarolik jamiyat insoniyat taraqqiyotining - yuqori bosqichi.	4	2	2	
6	O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlantirish strategiyasi.	4	2	2	
7	“Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” konseptual g‘oyasi. O‘zbekistonda 2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi.	4	2	2	
	Jami:	26	14	12	

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-tonli Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-tonli Qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-tonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-tonli Farmoni.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

20. 2021-2025 yillarda Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni Toshkent, 2021 yil 4 mart.

21. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Toshkent, 2021 yil 26 mart.

SH. Maxsus adabiyotlar

1. Moxammad Xotami Islam, dialog i grajdanskoye obshestvo. – M.: “ROSSPEN”. 2001. – 242 s.

2. Djon Kin Demokratiya i grajdanskoye obshestvo. – M.: “Progress Traditsiya”, 2001. – 400 s.

3. Sharifxo‘jayev M. O‘zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. –T.: Sharq, 2003.

4. D.Dj.Grin Vozvrasheniye v grajdanskoye obshestvo: sotsialnoye obespecheniye bez uchastiya gosudarstva. – M.: “Novoye izdatelstvo”. 2008, – 220 s.

5. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyat: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: O‘zbekiston, 2010

6. Djim L. Koen, Endryu Arato Grajdanskoye obshestvo i politicheskaya teoriY. – M.: “Ves mir”, 2011. – 784 s.

7. Jalilov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktriya press, 2015.
8. R.Xasanov, A.Utamuradov Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot (Uslubiy qo'llanma) – T.: 2016. 14 b.t.
9. A.Utamuradov va boshq. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug'ati. Lotin yozuvida. – T.: "Turon-Zamin-Ziyo". 2017. 23 b.t.
10. M.Bekmurodov va boshq. Xarakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari, – T.: "G'ofur G'ulom NMIU". 2017, - 236 b.
11. J.Mavlonov Kommunikativniye osnovi deyatelnosti institutov grajdanskogo obshestva: tendensii i innovatsii (Monografiya) - T.: "Adabiyot uchqunlari", 2018. 12 b.t.
12. A.Utamuradov Fuqarolik jamiyati g'oyalari evolyusiyasi T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018. 12 b.t.
13. A.Utamuradov va boshq. Fuqarolik jamiyati (O'quv qo'llanma) – T.: "Mumtoz so'z", 2018. 24,75 b.t.
14. A.Utamuradov va boshq. Fuqarolik jamiyati: G'oyalari evolyusiyasi (Sharq va G'arb mutafakkirlari talqinida). Lotin yozuvida. – T.: "Adabiyot uchqunlari", 2018. 6 b.t.
15. Mualliflar jamoasi. A.Utamuradov tahririda O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati (Uslubiy qo'llanma) – T.: "Info Capital Group", 2019. – 432 b.
16. Oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida.
https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
17. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.–T.: "TKTI" nashriyoti, 2019.
18. Xakimov N.X., Sadikov A.K. Strategiya razvitiya strani. Grajdanskoye obshestvo (Uchebnoye posobiye) - T.: "Iqtisodiyot", 2020. - 252 s.
19. A.Utamuradov va boshqalar O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati: Darslik – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2020. 24.5 b.t.
20. Harakatlar strategiyasi bilan 3 yil: Kutilgan natijalar, yuqori samaradorlik va yuksak marralar Toshkent 2020 "Taraqqiyo strategiyasi markazi" 185 bet.

IV. Internet saytlar

21. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: www.edu.uz.
22. Bosh ilmiy-metodik markaz: www.bimm.uz
23. [www. Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
24. Otkritoye obrazovaniye. <https://openedu.ru/>
25. <https://foxford.ru/wiki/obschestvoznanie/grazhdanskoe-obschestvo>
26. <https://www.linguee.com/russian-english/translation>
27. https://enc.for.uz/w/index.php?title=Fuqarolik_jamiyati&variant=uz-cyril
28. <http://www.uzbekembassy.ir/Development.aspx>
29. <https://icscentre.org/tag/civil-society/>

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

“Keys-stadi” metodi

“Keys-stadi”— inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruva fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
------------------------	-----------------------------------

1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'inining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



“Xulosalash” (Rezyume, Veyer) metodi.

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroficha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy oxberotlari bilan to‘ldiriladi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod mutaxassislar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarini o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

“Venn Diagrammasi metodi”

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiyligi va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiyligi jihatlarini

(yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.



III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.

1-мавзу: Фуқаролик жамияти фанинин предмети, объекти ва мақсади.

REJA:

- 1.1. Fuqarolik jamiyati fanining ta'limga kiritilishi, predmeti va obekti.
- 1.2. Fuqarolik jamiyati fanining amaliy va tarbiyaviy funksiyalari.
- 1.3. Fuqarolik jamiyati fani qonuniyatlarining o'ziga xosligi.

Tayanch iboralar: *fuqaro, fuqarolik jamiyati, davlat, davlat hokimiyati, demokratik jamiyat, demokratik davlat, huquqiy davlat.*

1.1. Fuqarolik jamiyati fanining ta'limga kiritilishi, predmeti va obekti.

Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 sentabrdagi 07/1-616-sonli topshirig'i va Oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligining 2015 yil 18 sentabrdagi "Oliy ta'limga muassasalarida "Fuqarolik jamiyati" fanini o'qitilishini joriy etish to'g'risida"gi 352-sonli buyrug'iga asosan barcha ta'limga yo'nalishlarida o'qitish belgilangan.

“Fuqarolik jamiyatı” tushunchasi – insoniyatning bir necha asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli bo‘lib, u inson huquqlari va erkinliklarining ta’minlash darajasining naqadar yuksalganligi darjasini mezoniga sifatida namoyon bo‘ldi. Fuqarolik jamiyatining poydevori va asoslarini yaratish uchun avvalombor u haqdagi g‘oyalarning genezisini va rivojlanishini bilishga zarurat tug‘iladi. Fuqarolik jamiyatini shakllanishi uchun uning asoslari (**iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma’naviy**) yaratilishi lozim. Fuqarolik jamiyatining asoslari quyidagilardan iborat:

iqtisodiy asos - shaxs va jamiyat manfaatlarining umumiyligiga asoslangan mulk shakllarining xilma-xilligi, iqtisodiy plyuralizm, ko‘p ukladililik, erkin bozor munosabatlari; jamiyatning har bir a’zosini o‘z mulkiga ega, u bu mulknini o‘z xohishi bilan tasarruf eta olish erkinligining mavjudligi, bu mulkdan foydalanish va uni sarflash huquqiga ega bo‘lishi, xususiy mulk daxlsizligi, har bir shaxsning davlat tomonidan kafolatlangan tadbirkorlik, mexnat va iste’mol faoliyati erkinligi bilan ta’minlanganligi.

ijtimoiy-siyosiy asos – fuqarolik jamiyati qurilayotgan davlatning mustaqil va suveren ekanligi, iqtisodiy va siyosiy hokimiylarning birbiridan ajratilganligi;

fuarolarning o‘z maqsadlarini himoya qilish maqsadida ma’lum nodavlat tashkilotlarga birlashgan bo‘lishi, hokimiylarning urchga bo‘lini prinsipi amalda o‘z aksni topganligi, hokimiylarning turli markazlar, guruhlar yoki shaxslar qo‘lida to‘planib qolmasligi; siyosiy plyuralizmning mavjudligi; davlat hokimiylarning vakolati funksiyalarining sekin-asta sekinlik bilan quyi vakillik organlari va o‘zini o‘zi boshqarish organlariga berib borilishi; **huquqiy asosi** – jamiyatda insonning yashashi va rivojlanishi uchun muhim zarurat bo‘lgan erkinlik, tenglik, adolat qadriyatlarining qaror topganligi, shaxslar va fuqarolar o‘rtasida o‘zaro tenglikning ta’minlanganligi, ularning huquq va erkinliklarini davlat tomonidan to‘liq ravishda e’tirof etilishi; adolat prinsiplariga amal qilinishi; bir shaxsning erkinligi ikkinchi shaxsning erkinligiga daxl etsa, uning erkinligi shu yerda to‘xtalishi, davlat, jamiyat va shaxs manfaatlari o‘zaro mushtarkligining shakllanishi; **ma’naviy asos**

– insonlar o‘z qadr-qimmatini har qanday tajovuzlardan himoya qila olish qobiliyatini shakllanganligi, xalqning jamiyat qadriyatlarini himoya qila olish salohiyatining mavjudligi, vijdon erkinligining amal qilishi, jamiyatda ahloqiy meyorlarga amal qilish urfodatlarining shakllanganligi, biron-bir mafkuraning yakka hokimlik qilishga urinishlarining cheklab qo‘yilganligi, fuqarolarning ma’naviy va ijtimoiy jarayonlarda bevosita va bilvosita ishtirok etishlari uchun barcha shart-sharoitlarning mavjudligi, har bir fuqaroning o‘z mustaqil fikrashi va qarashiga ega ekanligini namoyon qilish uchun barcha sharoitlarning mavjud ekanligi, ma’naviy jarayonlarni faqat jamiyat va fuqarolar tomonidan amalga oshirilishi, har bir fuqaroning qanday dunyoqarash yoki dinga kirishi uning o‘zi tomonidan hal etilishi, diniy erkinlik, barcha dinlar va mafkuralarning

o‘zaro hamkorlikda yashashlari uchun zarur bo‘lgan shartsharoitlarning yaratilganligi.

Umuman olganda “Fuqarolik jamiyat” atamasi turli xorijiy adabiyotlarda umumiy mohiyatga ega, shu bilan birga, har bir mamlakatning milliy an’anlarini ham uyg‘unlashtiradigan tushuncha bo‘lib, u hozirgi davrdagi talqinlarda jamiyatning muayyan shakli (holati va xususiyati)ni, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tabiatini, rivojlanish darajasini ifodalaydi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalari doimo davlatni takomillashtirish, huquq va qonunning rolini yuksaltirish muammolari hal etish bilan chambarchas tarzda o‘zaro bog‘likdir.

Ba’zi olimlarning fikricha, demokratik jamiyat – bu «eng avvalo, fuqarolik jamiyatidir. Chinakam demokratiyaning oliy mazmuni — shaxslararo, millatlararo, davlat va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni uyg‘unlantrishdan iborat. Bunda inson va jamiyat, jamiyat va davlat hokimiyati tinch-totuv yashaydi». Fuqarolarning davlat hayotida ishtirok etishi jarayoni ancha kuchayib bormoqda va siyosiy partiylar, nohukumat tashkilotlar faoliyatida, hayotning barcha jabhalari, shu jumladan inson huquqlari sohasida ham organlar va mansabdor shaxslar faoliyatining ijtimoiy nazoratini hamkorlikda amalga oshirishga qaratilgan ommaviy axborot vositalarining faollashuvida o‘z aksini topmoqda.

Fuqarolik jamiyat — bu, ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etishda faol qatnashadigan, davlatning bedodligi va aralashuviga yo‘l qo‘ymaydigan huquq hukmron bo‘lgan, fuqarolar va davlat hamkorlik asosida ishlaydigan ongli individlar jamiyatidir. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida fuqarolik jamiyatiga ta’rif berilmagan bo‘lsa-da, unda fuqarolik institutlarini tashkil etish va ular faoliyatining huquqiy asoslari e’tirof etilgan, ularning davlat bilan o‘zaro hamkorligi prinsiplari belgilangan¹.

Fuqarolik jamiyati fanining predmeti sifatida fuqarolik jamiyatining shakllanishi, rivojlanishi, har bir milliy davlatda fuqarolik jamiyati qaror topishining umumiy, o‘ziga xos qonuniyatlarini va tamoyillari. Fuqarolik jamiyati fanining **predmeti** – kishilik tarixida insonlarning o‘zaro munosabatlari natijasida yuksak jamiyatga doir qadriyatlar va tuzilmaviy unsurlarning shakllanishi, ularning rivojlanib borishi natijasida ideal jamiyatda insonlar o‘zaro aloqalarining qonuniyatlarini shakllanishi, rivojlangan mamlakatlarda uzoq tarixiy rivojlanish natijasi o‘laroq shakllangan yuksak insoniy birlik – fuqarolik jamiyatining institutlari faoliyati, O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi yo‘nalishilarini amalga oshirish nazariy va amaliy jihatlari tizimli o‘rganishni tashkil etadi. Fanning **obekti** – bu insoniy jamiyatning oddiyidan murakkabga, o‘zini o‘zi takroran yaratib

¹ Фуқаролик жамияти: ютуклар, муаммолар, истиқболлар. Т.: Академия. 2007.

turadigan insoniy birlikka o'sib o'tishi, va nihoyat, rivojlangan mamlakatlarda shakllangan fuqarolik jamiyatni va uning institutlari hisoblanadi. Ana shu tarixiy voqeliklarga uyg'un tarzda O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni unsurlariga doir g'oyalarning rivojlanishi, mustaqillik davriga kelib fuqarolik jamiyatni institutlarining rivojlanishi, undagi tamoyillarning rivojlangan davlatlar bilan qiyosiy tahlillari hisoblanadi.

Fanni o'qitishdan maqsad - talaba yoshlar ongida fuqarolik jamiyatiga doir tasavvurlarni singdirish, ularda jamiyatni rivojlantirishga doir mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi yo'nalishilari, Vatanga sadoqat his-tuyg'ularini yuksaltirish kabilardan iboratdir.

1.2. Fanning vazifalari, funksiyalari quyidagilardan iborat:

-jahon tajribasi va milliy voqeklarni o'rganish asnosida fuqarolik jamiyatiga doir klassik va zamonaviy konsepsiylar mazmun-mohiyatini ochib berish;

-talabalarga fuqarolik jamiyatiga doir tushunchalarni tahlil qilishda, unga doir nazariyalarni o'rganishda har tomonlama ko'maklashish, ularning jamiyatga doir qarashlarini boyitish; O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining asosiy yo'nalishilari bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lish;

-fuqarolik jamiyati qurish islohotlarida shaxsning rolini ochib berish asnosida talabalarda shaxsiy fuqarolik nuqtai nazarlarni shakllantirishga yordamlashish;

-talabalar ongiga fuqarolik jamiyati qurish jarayonida paydo bo'ladigan muammolar va ularning yechimlariga doir bilimlarni singdirish;

-talabalarga fuqarolik jamiyatiga doir nazariy ishlanmalarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishlarida ularga har tomonlama ko'maklashish;

-taraqqiyotning "O'zbek modeli" va fuqarolik jamiyatini barpo etishning ilmiy-metodologik asoslariga doir bilimlarni o'zlashtirishlariga ko'maklashish;

-talabalarga huquqiy davlat vafuqarolik jamiyatining asosiy belgilari va o'zaro ta'sir etish mexanizmlariga doirtushunchalar, bilimlar berish;

-fuqarolik jamiyatini barpo etishning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy asoslarini ochib berish;

-fuqarolik jamiyatining iqtisodiy tayanchi –davlat va xususiy mulkchilik, tadbirkorlik va fermerlikni rivojlantirishga doir bilimlar berish;

-talabalar ongini fuqarolik jamiyatining ma'rifiy va ruhiy asosi – milliy ma'naviyatni tiklash va uni rivojlantirishga doir bilimlar bilan boyitish;

"Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilining mazmun-mohiyatini tushuntirish;

-“Adolat – qonun ustuvorligida” tamoyilining mohiyati va ahamiyatiga doir bilimlar berish;

- Inson manfaatlarining hamma narsadan ustunligi;
- Harakatlar strategiyasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga doir konseptual maqsadlarning mazmun-mohiyati;
- Prezidentning “Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qiladi” degan g‘oyasini ahamiyatini olib berish;
- saylov huquqi erkinligi - fuqarolik jamiyatining muhim mezoni ekanligini asoslash;
- fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishida jahon tajribasining o‘rnini olib berish;
- ijtimoiy innovatsiyalarning fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishiga ta’siri to‘g‘risida bilimlar berish;
- siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarni erkinlashtirish islohotlarini fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini olib berish;
- jamiyatda fuqarolar manfaatlari muvozanatini ta’minlash masalasi haqida tushunchalar berish;
- fuqarolarning moddiy farovonliginioshirish bo‘yicha “xalq boy bo‘lsa, davlat boy bo‘ladi” tamoyilining mohiyatini tushuntirish;
- fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda siyosiy partiyalarning o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib berish;
- nodavlat notijorat tashkilotlarining fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi o‘rnini olib berish;
- ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirishga doir bilimlar berish;
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yoritib berish;
- ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida;
- jamoatchilik nazorati va davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’milanish masalalarini yoritish;
- yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish mexanizmlariga doir bilimlar berish.
- talaba yoshlarda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash intelektlarini shaklantirish.

Fuqarolik jamiyati fanini talabalar tomonidan o‘zlashtirish jarayonida ularda quyidagi bilim, ko‘nikma shakllantirish mo‘ljallanadi:

-fuqarolik jamiyati to‘g‘risida nazariy bilimlar va ularning O‘zbekistondagi islohotlar jarayonida amal qilishi, namoyon bo‘lishining o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risida; talabalarda fuqarolik jamiyatiga doir nazariy bilimlar va ko‘nikmalar; rivojlangan davlatlarda fuqarolik jamiyatining shakllanish va rivojlanishi tajribalari; fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi va faoliyat yuritishi

to‘g‘risida; o‘tmish, bugun va kelajak voqealarini baholashda ilmiy bilishning turli uslublaridan foydalanish; fuqarolik jamiyatini rivojlanishiga uyg‘un ravishda davlat boshqaruv organlarini demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlari; davlat hokimiyati organlari tizimi va fuqarolik jamiyati o‘zaro munosabatlari; fuqarolik jamiyati institutlari va davlat boshqaruvining o‘ziga xos jihatlari; fuqarolik jamiyati qurish islohotlarining mazmun-mohiyatiga doir muayyan bilimlarga ega bo‘lishi;

-fuqarolik jamiyat qurishning milliy va umuminsoniy demokratik tamoyillarini; fuqarolik jamiyat qurishga doir ilg‘or tajriba va usullarni; rivojlangan davlatlarda mamlakatni demokratlashtirish va modernizatsiyalashning asosiy tamoyillari hamda ularning “O‘zbek modeli” tamoyillari bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirishni; fuqarolik jamiyatini qurishning huquqiy asoslarini; taraqqiyotning “O‘zbek modeli” tamoyillari mohiyatini bilishi va ulardan erkin ravishda foydalana olishi, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyatini bilishi va uni amalga oshirish jarayonida ishtirok etishga moyillik tuyg‘ularini uyg‘otish;

-markazlashgan rejali iqtisodiyot va ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotining bir-biridan farqli tomonlarini anglab yetish; mamlakatni demokratlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o‘tishining inqilobiy va tadrijiy (evolyusion) yo‘llarining yutuq va kamchiliklarini baholay olish; mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish va bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tishning mohiyati va bosqichlari; mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, kuchli ijtimoiy siyosatning mohiyatini anglab yetish, ularni amalda qo‘llay olish

ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

-talabalarning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyatini anglagan holda o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ulardan samarali tarzda foydalanish; “O‘zbek modeli” asosida erishilgan natijalarini bilish va ularni aholi o‘rtasida targ‘ib etish; Harakatlar strategiyasi vazifalarini amalga oshirish, unga doir islohotlarning mohiyatini o‘zlashtirish, mamlakatda fuqarolik jamiyatini qurish jarayoniga doir o‘z mustaqil munosabatlarini bildira olish qobiliyatini egallash; mamlakatimizning jahon integratsiyasiga kirib borish jarayonlari, bu sohadagi yutuqlarni erkin tahlil qila olish malakalariga ega bo‘lishi ko‘zda tutiladi **1.3. Fuqarolik jamiyati fani qonuniyatlarining o‘ziga xosligi.**

Fuqarolik jamiyati fanining ham o‘ziga hos qonuniyatları, tushunchaları mavjud. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi to‘g‘risidagi umume’tirof etilgan **qonuniyatlarini** 2 guruhga ajratish mumkin.

1-guruh. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishiga doir umume’tirof etilgan qonuniyatlar.

-mulkiy munosabatlarning qaror topishi va rivojlanishi;

- inson haq-huquqlari va erkinliklarining real va amalda ta'minlanishi;
- davlat hokimiyati boshqaruv organlarining nomarkazlashuvi;
- jamiyatning plyuralistik g'oyalar asosida rivojlanishining ustuvorligi;
- fuqarolarning davlat boshqaruviga oid qarorlarni qabul qilishda ta'siri va mavqeining oshib borishi;
- fuqarolik jamiyati intitutlarining ijtimoiy hayotidagi mavqeining oshib borishi;
- fuqaroviylik va fuqaro faolligining jamiyat hayotiga ta'sirini kuchayib borishi va b.q.

2-guruh. Har bir mamlakatlarning milliy va tarixiy rivojlanishidagi o'ziga xos jihatlarini xisobga oladigan qonuniyatlar.

- O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi asosiy yo'naliшilarining tizimli rivojlanishi;
- o'rta mulkdorlar qatlamining shakllanishi;
- o'z-o'zini boshqarish institutlarining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va rolining oshib borishi;
- ijtimoiy himoyaning manzilli tashkil etilishi va amalga oshirilishi;
- ma'naviy yetuklikka erishish imkoniyatlarinning oshirib borishi va yoshlarning bunyodkor kuchga aylanishi va b.q.

Fuqarolik jamiyati fanini o'qitish jarayonida ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalaniladi.

Ilmiylik – fuqarolik jamiyati to'g'risidagi g'oyalar, nazariyalar, zamonaviy konsepsiyalarni tahlil qilish asosida uning metodologik nazariy asoslarini ko'rsatish.

Tarixiylik - fuqarolik jamiyatining shakllanishining tarixiy bosqichlari, ularning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilgan holda jahon tajribasida erishilgan yutuqlardan foydalanish asosida tahlil etish.

Mantiqiylik – fuqarolik jamiyati shakllanishining genezisidan to bugungi holatigacha bo'lган jihatlarini (asosiy belgilari, omillari, tamoyillari, funksiyalari) uzviylik asosida tahlil qilish.

Tizimlilik – fuqarolik jamiyatini bir butun tizim sifatida va har bir belgilarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va tizimdagi o'rni va rolini aniqlash.

Qiyosiy tahlil – fuqarolik jamiyati shakllanish va rivojlanish tajribalarini solishtirish, har bir davlatdagи o'ziga xos jihatlarini ko'rsatish.

Fuqarolik jamiyati fani bakalavriat bosqichi o'quv rejasidagi O'zbekiston tarixi, Falsafa, Milliy g'oya, Iqtisodiyot nazariyasi, Dinshunoslik kabi fanlar bilan o'zaro bog'liqdir. Bu fanlarda fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishining turli yo'naliшlaridagi holati,

qonuniyatlari, tamoyillari o‘rganiladi. Fuqarolik jamiyati fanning o‘ziga xosligi shundan iboratki, u jamiyatni rivojlanib boruvchi bir butun yaxlit tizim va tizimning tarkibiy qismlari sifatida o‘rganadi. Ijtimoiy fanlarning xulosalari asosida fuqarolik jamiyati fani jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini umumlashtiruvchi funksiyani bajaradi.

Fuqarolik jamiyati fanining *metodologik funksiyasi* ijtimoiy fanlarning rivojlanishi ijtimoiy jarayonlarni o‘rganishning umumiyo yo‘nalishlarini belgilashda, ishlab chiqilgan meyorlarning dasturil amal sifatida foydalanishda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Fuqarolik jamiyati fanining *prognostik (bashorat qilish) funksiyasi* jamiyatning rivojlanish istiqibollarini oldindan ko‘rishga inson huquqlari va erkinliklarining namoyon bo‘lishida ko‘rinadi. Jamiyatning har bir fuqarosi o‘z kasbi-kori va ixtisosligidan qa’tiy nazar jamiyat rivojlanishi to‘g‘risidagi bilimlari chuqr egallashi orqaligina yon atrofida ro‘y berayotgan voqeа hodisalarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini bilishi, ularni boshqarishda bevosita yoki bilvosita ishtirot etish, bunyodkor kuchga aylanishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Fuqarolik jamiyati fani o‘qitishning zarurligi
2. Fuqarolik jamiyati fanining predmeti va obekti.
3. Fuqarolik jamiyati fanining asosiy maqsad va vazifalari.
4. Fuqarolik jamiyati fanining asosiy metodlari.
5. Fuqarolik jamiyati fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog‘liqligi va o‘ziga xos xususiyatlari

2-мавзу: Фуқаролик жамияти қуриш мақоматимизнинг асосий стратегик пировард мақсади

REJA:

- 2.1. *Fuqarolik jamiyati – taraqqiyotning yuqori bosqichi.*

2.2.O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish stratek maqsad sifatida belgilanishi

3.3. “Harakatlar strategiya”da belgilangan ustivor vazifalarni bosqichma bosqich amalga oshirilishi

Tayanch iboralar: fuqaro, fuqarolik jamiyati, davlat, davlat hokimiyati, demokratik jamiyat, demokratik davlat, huquqiy davlat, fuqarolarning huquq va erkinligi, inson huquqlari, fuqarolik jamiyatining rivojlanish bosqichlari.

2.1. Fuqarolik jamiyati – taraqqiyotning yuqori bosqichi.

O‘tgan asrning 90 yillari boshida totalitar tuzumdan endigina xalos bo‘lgan, o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan O‘zbekistonda yangi jamiyat va davlatni bunyod etish islohotlarning jahon tajribasining qanday yo‘lidan borishi hali aniq bo‘lmagan bir sharoitda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A Karimov tomonidan mamlakat rivojining bosh yo‘li tanlandi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq birinchi Prezident I.A. Karimov quyidagi maqsadni ilgari surdi: “ Respublikada sobitqadamlik bilan xalqchil adolatli jamiyat bunyod etish- bosh vazifadir... Yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tarzini erkin tanlab olishni kafolatlashi kerak”².

Tadrijiy isloxoqlar yo‘liga doir g‘oyalar asosida O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishning o‘ziga xosilmiy va amaliy asoslari shakllantirildi. Mustaqillikning dastlabki davrida davlatimizning birinchi rahbari ta’kidlaganidek, “ O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat. Bu- mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu – insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, siyosiy e’tiqodlaridan qat’iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlab beradigan davlatdir. Xalq davlat hokimiyatining manbaidir. Uning xohish- irodasi davlat siyosatini belgilab beradi. Bu siyosat inson va jamiyatning farovonligini, O‘zbekiston barcha fuqarolarining munosib turmushini ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak”³.

Shu asosda demokratik tamoyillar va huquqiy davlat qurish nazariyasini hamda amaliyoti fuqarolik jamiyatining mazmun – mohiyati, shakllanish qonuniyatlariga uzviy bog‘liq bo‘lgan omillar hisoblanib. “O‘zbek modeli” asosida huquqiy davlatning institusional zaminlarini shakllantirish quyidagilardan iborat deb belgilandi:

² Каримов И.А. Каримов Ўзбекистонинг ўз истиқлол ва тараккиёт йўли.// Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мағкура. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. 44-45 бетлар.

³ Каримов И.А. Каримов Ўзбекистонинг ўз истиқлол ва тараккиёт йўли. Тошкент: Ўзбекистон, 1992. 15-16 бетлар.

- Davlat hokimiyatining uchga bo‘linishi prinsipiiga asoslanish;
- Demokratik Konstitusianing qabul qilinishi va qonun ustuvorligi tamoyilini ro‘yobga chiqaruvchi mexanizmlarini yaratilishi; - Erkin demokratik saylov tizimini kafolatlanishi.
- Davlat va jamiyat boshqaruvini amalga oshirishda kuppartiyaviylik tizimining yaratilish
- Jamoat birlashmalarini va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini yo‘lga qo‘yilishi;
- Fuqarolar o‘z- o‘zini boshqarish institutlarini rivojlantirilishi;
- Fuqarolar huquq va erkinliklarini, manfaatlari va extiyojlarini ta’minlashning samarali zaminlarini vujudga keltirilishi, ularni fuqarolik jamiyatini shakllantirish manfaatlaridan kelib chiqqan holda barpo etilishi.

Taraqqiyotning “o‘zbek modeli”ning mohiyati asosiy g‘oyalari dastlab davlatimizning birinchi rahbarining “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” nomli asarida ochib berilgan edi. Keyinchalik mazkur taraqqiyot modeli haqidagi g‘oyalari Birinchi Prezidentimizning boshqa asarlarida yanada rivojlantirildi va takomillashtirildi. Xususan, uning “O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li”, “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish yo‘lida” nomli asarlarida taraqqiyotning “o‘zbek modeli”ning asosiy mazmuni va o‘zagini belgilab beruvchi tamoyillar har tomonlama asoslab berildi. Ta’kidlash joizki, jamiyatimizda demokratiya va fuqarolik jamiyatni g‘oyasini ijtimoiylashuvi va qaror topishida “o‘zbek modeli”ning barcha konseptual g‘oyalardan izchillik bilan foydalaniб kelindi. Taraqqiyotning “o‘zbek modeli” g‘oyasiga ko‘ra yurtimizda yangi jamiyatni amalga oshiriladigan barcha islohotlar zaminiga inson omili qo‘yildi. YA’ni “islohot – islohot uchun emas, balki inson manfaatlari, uning erki va farovonligi uchun”, degan g‘oya barcha yangilanishlarning asosiy o‘zagi etib belgilandi.

Birinchi Prezident I.A. Karimovning qarashicha, fuqarolik jamiyatni nazariyasi va amaliyoti har bir mamlakat milliy qadryatlari, xalqning milliy mentaliteti va milliy ananalarini o‘zida ifodalashi zarur. Bu shuning uchun ham zarurki, fuqarolik jamiyatni nazariyasi va amaliyoti har bir xalq o‘z milliy manfaatlarini ifoda etilishini ham anglash lozim. Bu kabi holatga ega bo‘lish uchun milliy yangi jamiyat mazmuni shaklu shamoyili bilan uyg‘unlashishi lozim.o‘zbekiston esa boshqa mamlakatlarga nisbatanadolatli va xalqchil jamiyat barpo etishga doir milliy meros va qadriyatlarda yangi jamiyat qurish islohotlari inqilobiyo‘lni xam qabul qilmaydi. Chunki bu yil o‘zining vayronagarchiligi, millionlab axolining ijtimoiy axvoli pasayib ketishi, jamiyatni qutplashgan tomonlarga bo‘linib ketishi, kabi salbiy xolatlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun xam davlat tomonidan fuqarolik jamiyatining O‘zbekiston mamlakati uchun o‘ziga xas quyidagi jixati ilgari suriladi: “Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan

shakllangan o‘ziga xos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo‘lmaydi. YA’ni Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta sekin taraqqiy topadi. Bu soxada inqilobiy o‘zgarishlar yasashga urinishlar g‘oyat noxush, xatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni G‘arb olimlari xam “ijtimoiy taraqqiyotning iptidoiy va yovvoyi shakli” deb ataganlar.

Tabiiyki, bunday yo‘l bizga aslo kelmaydi....⁴

Shuningdek birinchi Prezident I.A.Karimov O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishini taminlaydigan asosiy shart-sharoitlardan biri, bu-davlat hokimiyati vakolatlarini chegaralash, fuqarolik jamiyati institutlariga jamiyatda o‘zini o‘zi boshqarish uchun qanchalik zarur bo‘lsa, shunchalik yetarli vakolatlar berish ekanligi masalasini ilgari surdi. Prezident fuqarolik jamiyatining rivojlanishini fuqarolarning siyosiy jarayonlarda nechog‘lik ishtirok etishlari bilan uzviy bog‘liq ekanligini ham chuqur anglab yetgan edi.

Birinchi Prezident I.Karimov davlat vakolatlarini jamiyat institutlariga berish asosida xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsadida quyidagi vazifani qo‘ydi: “Ammo huquqiy milliy ravnaqqa biz faqat davlat hokimiyati vazifalarini qat’iy va mukammal belgilab va shu bilan birga cheklanib qo‘yilgan fuqarolik jamiyati sharoitdagina erishmog‘imiz mumkin. Bunday jamiyatda davlatning bosh vazifasi taraqqiyot strategiyasini aniq belgilash va uni xayotga joriy etish uchun qattiq nazorat olib borishdan iborat bo‘ladi... Ana shunday davlat va jamiyatni qkrish- bizning bosh konsepsiymiz va milliy ravnaqimiz asosidir.⁵

Birinchi Prezident Karimov quyidagi so‘zlari xalqning, butun bir mamlakatning dastur a’maliga aylandi: “bizning bosh strategik maqsadimiz qat’iy va o‘zgarmas bo‘lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustaxkam poydevorini shakllantirishdan iboratdir.”⁵

Birinchi Prezident Karimov fuqarolik jamiyati qurishni mamlakatimizning asosiy strategik pirovard maqsad sifatida e’lon qilar ekan, bu kabi jamiyatni shakllantirishning umuminsoniy jixatlari xaqida quyidagi fikrni bildiradi: “Binobarin, davlatimiz kelajagini o‘z qobig‘imizga o‘zalib qolgan xolda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish, inson xuquq va erkinliklarini, fikrlar rangbarangligini o‘z hayotimizga yanada kengroq joriy qilishda ko‘ramiz”⁶.

Mamlakatda fuqarolik jamiyati uchun muhim bo‘lgan demokratik qadriyatlarni birinchi Prezident I.A.Karimov quyidagicha baholagan edi: “Ma’lumki, demokratik

⁴ И.А Каримов. Ўзбекистон сиёсий –ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари//Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир. Т.3.-Т.: Ўзбекистон, 1996. 9-бет. ⁵ А Каримов. Ўзбекистон сиёсий –ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари//Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир. Т.3.-Т.: Ўзбекистон, 1996. 12-бет.

⁵ Каримов И.А Озод ва обод Ватан, Эркин ва фаровон хаёт-пировард мақсадимиз. Т.8.-Тошкент: Ўзбекистон, 2000.-331-бет.

⁶ Каримов И.А. Ўксак маънавият-енгилмас куч.-Т.: Маънавият, 2008, 114-бет.

jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillari bor. Insonning o'zi xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysinishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlatning asosiy organlari saylanishi, ularning saylovchilar oldida xisob berishi, tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylovchi tashkilotlar oldidagi javobgarligi va boshqalar shular jumlasiga kiradi”⁷.

Mamlakat birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni barpo etishga doir nazariy qarashlari uning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida o'z takomiliga yetganini kuzatish mumkin. Bu asarda fuqarolik jamiyatining eng asosiy institutlari O'zbekiston mamlakati shart-sharoitlari, milliy mentalitetini hisobga olgan holda talqin etiladi. Ayniqsa, bu asarda yangi jamiyat qurish muammolari «shaxs-jamiyatdavlat» o'zaro uygunligi asosida tahlil etiladi. Muhimi, davlat shaxs va jamiyat manfaatlari asosida faoliyat yuritadigan siyosiy institut ekanligi, u doimo jamiyatni rivojlanishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlardan farovon bo'lishi hamda barqarorligi uchun mas'ulligi yuqori darajaga ko'tariladi. Shuningdek, fuqarolik jamiyatining inson erkinligi va huquqlarining eng asosiy himoyachisi ekanligiga muhim e'tibor beriladi. Asardagi quyidagi fikrlar fuqarolik jamiyatining yangi qirralarini ochib beradi: “Biz uchun fuqarolik jamiyat - ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kansitilishiga yo'l qo'yilmaydi. YA'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-birini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kansitmasligi lozim. Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart”⁸.

Shuningdek bu asarda “Hokimiyat tuzilmalarining demokratik mazmuni ko'p jihatdan davlatni boshqarishda fuqarolarning ishtirok etishi masalasi qanchalik hal qilinganligi bilan belgilanishi ma'lum. O'zbekistonda ushbu huquqning amal qilishi uchun qonun asoslari yaratilgan. Biroq hali jamiyat va fuqarolar davlatni boshqarishda ishtirok etish, o'zlar qanday boshqarilayotganligi haqida ma'lumot olish huquqini anglay boshlashiga va huquqsan foydalana oladigan bo'lishlariga erishish kerak. Shunday sharoitdagina davlat va uning institutlari, mansabdor

⁷ А Каримов. Ўзбекистон сиёсий –ижтимоий ва иқтисадий истиқболининг асосий тамойиллари.//Ватан саждаоҳ каби мукаддасидир. Т.3.-Т.: Ўзбекистон, 1996. 8-бет.

⁸ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолatlari. //Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6.- тошкент: Ўзбекистон, 1998. 151-бет.

shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o‘z mas’uliyatlarini his qiladilar. Buning uchun fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish zarur”⁹, - deb ta’kidlagan.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqsa” (1991 y.) asarida mamlakatimizning yangi asrdagi taraqqiyoti uchun 6 ustuvor yo‘nalishni belgilab berdi ¹¹. Unda avvalo siyosiy, iqtisodiy hayotni, davlat va qurilishni yanada erkinlashtirish birinchi ustuvor vazifa qilib qo‘yiladi. Bunda siyosiy sohani erkinlashtrish bilan birga davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda asosiy e’tibor quyidagi masalalarga qaratilgan edi.

- hokimiyat barcha tarmoqlarining mustaqil faoliyatini ta’minalash;
- nodavlat va jamoa tashkilotlarni, fuqarolik jamiyatini bosqichma - bosqich erkinlashtirish. Bunda “Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiysi belgilab berildi.

Bu masalalarni bevosita amaliyotda tadbiq qilish uchun Birinchi Prezident I.A.Karimovning “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz” risolasida (2000 y.) 7 ta ustuvor vazifadan birinchi va ikkinchi vazifa qilib siyosiy sohada quyidagi masalalar belgilab berildi.

Siyosiy sohada:

- siyosiy hayotning barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish;
- ko‘ppartiyaviylik muhitini ta’minalash;
- fikrlar xilma - xilligiga erishish, Ommaviy axborot vositalarini tom ma’nodagi “to‘rtinchchi hokimiyati” darajasiga ko‘tarish; inson huquq va erkinliklarini, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni qaror toptirish;

Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida:

hokimiyat organlarining konstiusiyaviy asosda bo‘linishini ta’minalash;

- ma’muriy sohadagi amalag oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish;
- kadralarni tanlash, joy - joyiga qo‘yish, yangilash tizimini takomillashtirish¹²

Birinchi Prezident I.Karimov ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning VIII sessiyasida o‘z ma’ruzasida fuqarolik jamiyat qurishning yangi bosqichi va tamoyilparini ilgari surdi: “Bizning oldimizda turgan yana bir muhim va dolzarb vazifa - u ham bo‘lsa, «Kuchli davlatdan - kuchli jamiyatga o‘tish» degan tamoyilini amalda ro‘yobga chiqarishdir. Bu maqsadga erishish uchun, birinchidan, davlatimizning markaziy va yuqori boshqaruvi organlari vakolatlarini bosqichma-

⁹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. //Хавфсизлик ва барқарор тараккиёт йўлида. Т.6.- тошкент: Ўзбекистон, 1998. 153-бет.

bosqich quyitizimga, shu jumladan, o‘zini o‘zi boshqarish tuzilmalariga o‘tkazish talab qilinadi. Bular qatorida biz, birinchi navbatda, o‘zini har tomonlama oqlagan mahalla tuzilmasini ko‘zda tutamiz. Ikkinchidan

- jamiyatimizda nodavlat, jamoat tashkilotlarining, avvalo fuqarolik institutlarining rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berish va ularning faolligini oshirishga ko‘mak va yordam ko‘rsatish darkor”¹³.

¹¹ I.Karimov.”Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 2.7 jild, //O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda”-T., “O‘zbekiston”. B.361-362

¹² Karimov I.A Ozod va obod Vatan, Erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.8.-Toshkent: O‘zbekiston, 2000.- B 319-321-bet. ¹³

I.A.Karimov Yangilanish va o‘zgarishlar jarayoni ortga qaytmaydi// Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10.-T.: O‘zbekiston, 2002.325-bet

Mamlakatda fuqarolik jamiyatiga xos bo‘lgan demokratik siyosiy tizimning o‘ziga xos xususiyatlari, uning demokratik tamoyillarini rivojlantirish masalalari birinchi Prezident I.A.Karimovning birinchi va ikkinchi chaqiriq Olny Majlisning sessiyalaridagi (1995-2004 yillar), shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatinish qo‘shma majpisidagi (2005, 28 yanvar) ma’ruzalari «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyagi sari» konseptual siyosiy dasturning asosini tashkil etdi.

Bunda ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida «Kuchli davlatdan -kuchli fuqarolik jamiyati sari» degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish maqsadlaridan kelib chiqib birinchi Prezident I.A.Karimov quyidagi vazifalarni ilgari surdi; «Hammamizga ayonki, bu yo‘nalish ijtimoiyiqtisodiy jarayonlar bilan bog‘liq ko‘p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o‘tkaza borishni taqozo etadi. Buning uchun, avvalambor, davlatning iqtisodiy sohaga, xo‘jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash lozim... Hayotimizni erkinlashtirish yo‘nalishlarining yana bir muhim yo‘li markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma- bosqich o‘tkaza borishni ta’minlashdir»¹⁴.

2.2.O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish stratek maqsad sifatida belgilanishi

Birinchi Prezident I.Karimov O‘zbekistonda fukarolik jamiyati qurish islohotlarini yanada chuqurlashtirish, unga mutanosib ravishda hukuqiy davlat qurish maqsadlaridan kelib chiqib jamiyatning siyosiy sohasini erkinlashtirish (liberallashtirish) konsepsiyasini ishlab chiqdi va uning quyidagi yo‘nalishlarini belgilab berdi:

-mamlakat siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish;

-mamlakat siyosiy hayotida haqiqiy ma’nodagi ko‘ppartiyaviylik muhitini qaror toptirish;

-nodavlat notijorat tuzilmalar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish;

-jamiyatda fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-baranshigi, ularni erkin ifoda etish sharoitini ta’minlash;

-inson hukuqlari va erkinliklarini, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni yanada mustahkamlash va rivojlantirish.

Birinchi Prezident I.A.Karimovning asaralarida adolatli demokratik jamiyat kurishning konseptual nazariy asoslari yanada boyitildi. Prezidentning kuyidagi fikri mamlakatda fuqarolik jamiyatni barpo

¹⁴ Karimov I.A O‘zbekiston demokratik o‘zagishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatni asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari //biz tanlagan yo‘l- demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan xamkorlik yo‘li.T.11- Toshkent: O‘zbekiston, 2003. 27-29 betlar

etishning eng asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi: “Hammamizga ayonki, bu yo‘nalish ijtimoiy-iqgisodiy jarayonlar bilan bogliq ko‘p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o‘tkaza borishni taqozo etadi. Buning uchun, avvalambor, davlatning iqgisodiy sohaga, xo‘jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash lozim... Hayotimizni erkinlashtirish yo‘nalishlarining yana bir muhim yo‘li - markaziy va yuqori davlat boshqaruv vdoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tkaza borishni ta’minlashdir”¹⁰.

Mamlakatda «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilidan kelib chiqib, fuqarolik jamiyati qurish maqsadlarida davlat hokimiyatining aksariyat vakolatlarini mahalliy hokimiyat organlari va o‘zini o‘zi boshqarish organlariga berish jarayonlari boshlandi. Markaziy davlat hokimiyati tasarrufida esa asosan, faqat konstitusion tuzumni, mamlakatning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish, huquqtartibot va mudofaa qobiliyatini ta’minlash, inson huqukdari va erkinliklarini, mulk egalarining huquqlarini, iqgisodiy faoliyat erkinligini himoya qilish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, samarali tashqi siyosat olib borish kabi vakolatlarni qoldirish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, Yurtboshimiz mamlakatda fuqarolik jamiyatining haqiqiy insonparvarlik goyasini quyidagicha ifodalaydi: “Hamma narsa inson uchun, uning

¹⁰ Каримов И.А Ўзбекистон демократик ўзрагишларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари //биз танлаган йўл- демократик тараккӣёт ва маърифий дунё билан хамкорлик йўли.Т.11- Тошкент: Ўзбекистон, 2003. 27-29 бетлар.

kelajagi uchun”, - degan ezgu tamoyilni to‘liq amalga oshirish uchun doim eng muhim ustuvor vazifa bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi”¹¹.

Mustaqillik davridagi buyuk o‘zgarishlar haqida Birinchi Prezident I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bildiradi: “Bugun insonningo‘zi o‘zgarmoqda, uning grajdanlik va siyosiy ongi, huquqiy madaniyati o‘smoqsa. Biz kommunistik mafkura asoratlaridan, boqimandalik kayfiyatidan, turli soxta qoliplardan to‘la xalos bo‘lib bormoqdamiz. Mustaqil fikrلaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga ega, hayotga yangicha qaraydigan, sobiq mustabid tuzumga xos tushunchalardan ozod bo‘lib voyaga yetayotgan, o‘z fikri va qarashlariga ega bo‘lgan navqiron yoshlarimiz hayotga ishonch bilan kirib kelmoqda, jamiyatimizda mustahkam o‘rin olmoqda va mamlakatimizning taraqqiyoti yo‘lida hal qiluvchi kuchga aylanmokda. Hayotimizda amalga oshirilayotgan bunday o‘zgarishlar avvalo nimani anglatadi? ...Bu amaliy ishlар avvalambor mamlakatimizda zamonaviy demokratik jamiyat qaror topayotgani va izchil rivojlanayotganidan, aholining hayot darajasi va sifatining yuksalib borishiga zamin bo‘layotgan iqtisodiyotimizning barqaror sur’atlar bilan o‘sayotganidan, O‘zbekistonimizning xalqaro maydondagi obro‘-e’tibori tobora ortib borayotganidan darak beradi”¹².

Birinchi Prezident Islom Karimov Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida (2010 yil 12 noyabr) ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida fuqarolik jamiyatining shakllanishi hamda ravnaq topishiga alohida e’tibor qaratib, “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilni amalda to‘liq tatbiq etishning aniq va ravshan qirralarini belgilab berdi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mamlakatda “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyili asosida “Mamlakatda islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish” konsepsiyasini amaliyatga qo‘llash jarayoni natijasida fuqarolik jamiyatiga o‘tish jarayoni huquqiy davlat qurish, mamlakatni modernizatsiyalash, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash kabi islohotlarni chuqurlashib borishini ta’miladi.

“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantiri konsepsiysi” da ta’kidlaganidek, “Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari bugungi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqsa... Bugungi kunda jamoatchilik va fuqarolik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan o‘zaro samarali aloqasini ta’minalash, odamlarning

¹¹ Каримов И.А. Ўзбекистон 16 йиллик мустақил таракқиёт йўли. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис, вазирлар Маҳкамаси ва Президент девонининг Ўзбекистон мустақиллигининг 16 йиллигига бағишланган қўшма мажлисидаги маъруза. 2007 й. 30 август. Тошкент: Ўзбекистон, 2007 46бет.

¹² Каримоа И.А. Амалга оширилаётган ислоҳотларимизни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти куриш-ёргуф келажагимизнинг асосий омилидир. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2013 йил 7 декабрь. Т.Ўзбекистон, 2013.-Б.12

кайфиятини, мамлакатда кечайотган о‘згаришларга муносабатини аниqlashning muhim vositalaridan biriga aylanmokda”¹³.

Fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lidan sobitlik bilan ilgarilab borishimizda jamoatchilik nazoratining zaruriyati boshqaruvdagi kamchiliklarning o‘z vaqtida oldini olish, shuningdek salbiy holatlarga butunlay barham berish uchun samarali ishlaydigan izchil nazorat tizimi va mexanizmlarini shakllantirish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’biri bilan aytganda, “bu tizim shunday ishlashi kerakki, bordi - yu biror - bir mansabdor shaxs davlat siyosatidan chekinib, qonunga xilof ishlar bilan shug‘ullanadigan, o‘z manfaatini davlat, xalq manfaatidan ustun qo‘yadigan bo‘lsa, u kimligi, kimning qarindoshi, qaysi rahbarning og‘aynisi ekanidan qat’iy nazar, muqarrar ravishda jazosini olishi shart. YA’ni, bunday jazoning muqarrarligini shu odamdan yuqori lavozimda o‘tirganlar emas, balki tizimning o‘zi talab etishi zarur”¹⁴.

Milliy mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yangi davlat va jamiyat kurish masalasida rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tarixiy tajribasini chuqur o‘rganish natijasida fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi «O‘zbek modeli»ning nazariy asoslari ishlab chiqildi. Uning nazariy qarashlari «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari» konseitual dasturda va O‘bekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish amaliyotida o‘z ifodasini topdi».

Birinchi Prezident I.A.Karimov ta’kidlab o‘tganidek, “faqatgina biz tanlagan bosqichma-bosqich tadrijiy rivojlanish yo‘li xalqimiz ko‘zlagan ezgu niyatlarga erishishga, zamonaviy demokratik talabalarga javob beradigan davlat, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliv qadriyat bo‘lgan, qonun ustuvorligini ta’minlaydigan jamiyat bario etishga olib kelishi muqarrar. Demokratik jarayonlarni sun’iy ravishda tezlashtirish, shoshmashosharlik, turli inqilobiy to‘ntarishlar yo‘li qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini bugun hayotning o‘zi isbotlab bermoqsa” .

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev istiqlol yillarida erishilgan yutuqlarga baho berib, “...biz muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Abduganiyevich Karimov boshlab bergen keng ko‘lamli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar yo‘lini og‘ishmasdan, qat’iy va izchil davom ettiramiz. Bu yo‘l - erkin, demokratik, insonparvar davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish va yanada ravnaq toptirishning mustahkam zaminidir” - deb ta’kidlagan edi.

¹³ И.А.Каримов Мамлакатимизда демократик ислоҳатларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси/Т.: “Ўзбекистон”. 2010. Б 41-43

¹⁴ И.А.Каримов Ўзбек ҳалқи ҳеч качон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13.-Т., “Ўзбекистон”, 2005-Б.237

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev istiqlol yillarda erishilgan yutuqlarga baho berib, “...biz muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov boshlab bergen keng ko‘lamlı siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar yo‘lini og‘ishmasdan, qat’iy va izchil davom ettiramiz. Bu yo‘l – erkin, demokratik, insonparvar davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish va yanada ravnaq toptirishning mustahkam zaminidir” 144 – deb ta’kidlagan edi. Bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko‘tarish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo‘yicha eng muhim ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonini (7.02.2017) qabul qilinishi mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Jamiyatning barcha sohalarini modernizatsiyalashga qaratilgan mazkur dastura’mol beshta yo‘nalishdan iborat bo‘lib, ularda respublikamizda, alohida olingan hududlar, turli tarmoqlar hamda yo‘nalishlar bo‘yicha yaqin besh yil ichida modernizatsiyalash maqsadlari mujassamlashgan. 2017 – 2021 yillarad O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e’tibor, eng avvalo, davlat va jamiyat qurilishini tubdan isloh qilishag qaratildi. Shuning uchun ham ushbu vazifa birinchi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olindi va “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiysi qoidalarni to‘liq o‘zida aks ettirdi. Bu borada davlat Dasturining I – bo‘limi 50 dan ortiq normativ – huquqiy hujjatlar, shuningdek konsepsiya va “Yo‘l xaritalari” ishlab chiqish bilan bog‘liq 53 ta bandni o‘z ichiga olgan bo‘lib, davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor vazifalarini amalga oshirish maqsadida 81 ta normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Buning natijasida: Davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning roli oshirilib, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish va ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha vakolatlari yanada kengaytirildi, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning roli kuchaytirildi; - “Elektron hukumat” tizimi takomillashtirildi, davlatxizmatlari ko‘rsatishning sifati oshirildi; Jamoatchilik boshqaruvi tizimi yangilandi, xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlari joriy etildi, shuningdek mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va faoliyati takomillashtirildi. Harakatlar strategiyasida Prezident SH.M.Mirziyoyev ilgari surgan - “Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” – prinsipini ijtimoiysiyoziy hayotda amalga oshirishga doir dasturiy maqsadlar mujassamlashgan. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senating joylarda ishlarning holatini o‘rganish va xalq bilan muloqot qilishga doir faoliyatini tubdan takomillashtirishga oid Oliy Majlis

palatalari Kengashlarining qo'shma qarori loyihasini ishlab chiqish, unda hududlardan saylangan deputat va senatorlar har oyda 10-12 kun davomida bir tumanda bo'lib, davlat hokimiyati organlari faoliyatini o'rganib, tahlil qilishi, tegishli rahbarlarning hisobotini xalq deputatlari Kengashlari sessiyasi muhokamasiga kiritishi hamda tegishli xulosalar berishi, shuningdek Qonunchilik palatasi Spikeri va Senat Raisi ishtirokida o'rganish natijalari bo'yicha tegishli xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarini o'tkazish, Oliy Majlis Senati tomonidan har bir viloyatda navbatma-navbat namunaviy xalq deputatlari Kengashlari ishini tashkil etish masalalari amalga oshirilmogda. Agar parlamentning xalq irodasi va manfaatlari asosida faoliyat yuritishi hamda qonunlar qabul qilishi eng asosiy demokratik qadriyatlardan biri ekanligiga e'tibor berilsa, deputatlar va Senat a'zolarining o'z saylovchilari bilan o'zaro muloqotlari, joylardagi muammolardan habardor bo'lishi, ularning yechimlarini topishda ishtirok etishi, mahalliy vakillik organlarini jonlanishigako'maklashishi mamlakatimizda fuqarolik jamiyatni tamoyillarining rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratdi. Chunki, oliy vakillik organi deputati avvalambor o'z saylov okrugidagi fuqarolarning vakili, Senat a'zosi esa o'zi saylangan mintqa mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakilidir. Shuning uchun ham parlament a'zolarining xalq ichida ko'proq faoliyat yuritishi davlatimiz barqarorligini yanada mustahkamlash omillaridan biridir. Bu strategik vazifalarni ilgari surilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 dekabrda qabul qilingan "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir choratadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida tuzilgan

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridda, shuningdek har bir tuman va shaharda tuzilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi vazifalari va vakolatlarini belgilanishi bilan uzviy ravishda bog'liqdir.

Birinchi Prezident Farmonida ularning aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarni to'laqonli himoya qilishga qaratilgan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning sifat jihatidan yangi va samarali tizimi faoliyatini ta'minlash, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, Oliy Majlisga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga, Hukumatga, davlat boshqaruvi organlariga, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, boshqa davlat tashkilotlariga va xo'jalik boshqaruvi organlariga murojaat qilishga oid konstitusiyaviy huquqlarining so'zsiz amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratilmoqda. Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushgan hamda tegishliligi bo'yicha davlat

organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlariga yuborilgan murojaatlar ko‘rib chiqilishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirilmoqda. Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushayotgan murojaatlarning qayd etilishi, umumlashtirilishi, tizimlashtirilishi va ko‘rib chiqilishi ustidan nazorat qilinishi bo‘yicha yagona elektron axborot tizimini joriy etish va yuritish yo‘li bilan murojaatlar bilan ishslashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. “Harakatlar strategiyasi” loyihasining bir necha oy aholi va keng jamoatchilik tomonidan muxokama qilinishi, uni shakllantirishda olimlar, tadbirkorlar, barcha fuqarolarning taklif va tavsiyalarini inobatga olinishi, ularni mehnat jamoalarida keng muhokama qilinishi xalqimizning huquqiy va siyosiy ongini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu choratadbirlar o‘z o‘rnida loyihaning aholining real manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda takomillashtirishga imkon yaratdi.

Harakatlar strategiyasi umumjahon amaliyotida sinab ko‘rilgan taraqqiyot dasturlarida nazarda tutilgan maqsadlari, amalga oshirish muddati kabi jihatlari, qo‘llash mexanizmlari bilan ulardan farq qiladi: birinchidan, ko‘zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirish bilan bog‘liq vaqt omilining aniq va ravshan tarzda qo‘yilishi, ikkinchidan, bu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini huquqiy va iqtisodiy asoslarini oldindan yaratilishi, modernizatsiya jarayonini moliyalashtirish manbalarini belgilanishi, mamlakatdagi milliy shart-sharoitlarni e’tiborga olinishi va hokazo. Shuningdek, “Harakatlar strategiyasi” asosida amalga oshiriladigan modernizatsiya muddatining nisbatan qisqa – besh yil ichida amalga oshirish loyihasini barcha darajadagi ekspertizalardan o‘tganligi, undagi ko‘rsatkichlarni mamlakat salohiyatiga monandligi kabi jihatlari bilan xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda.

Mamlakatni modernizatsiyalashga oid davlat dasturlarida ko‘zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda mamlakatning ichki imkoniyatlari, shu bilan birga, xalqaro maydonda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar ham hisobga olingan. Hozirgi davrda xalqaro munosabatlarning berqaror, tez o‘zgaruvchan, yaxshi muvozanatlashmagan xususiyatlar kasb etib borayotganligi hisobga olingan holda “Harakatlar strategiyasi” qisqa muddatli taraqqiyot dasturi sifatida qabul qilinishi uning istiqbolli va samarali strategik maqsad ekanligini ifodalaydi.

Prezident SH.M.Mirziyoyev o‘z farmon va qarorlarida Harakatlar strategiyasida mo‘ljallangan maqsadlarni amalga oshirishning aniq vaqt mexanizmlarini ishlab chiqdi. Ayniqsa, 2018 yilga “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab –quv vatlash yili”, deb nomlanishi munosabati bilan qabul qiligan davlat dasturida Harakatlar strategiyasini amalga oshirishning asosiy shart-sharoitlari belgilab berildi.

Prezident SH.M.Mirziyoyev o‘zining Oliy Majlisga Murojaatnomasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va bu sohadagi muammolar to‘g‘risida to‘xtalib, “Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida amalga oshirayotgan islohotlarimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘rni va roli beqiyos ekanini alohida ta’kidlash joiz. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan alohida farmon va qarorlar qabul qilindi. Ammo ana shunday muhim say-harakatlarga qaramasdan, aholining muammolarini tizimli o‘rganish, ularni aniq hal etish, ayniqsa, ijtimoiy sharoiti og‘ir ayollarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlar va xotin-qizlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ularni ish bilan ta‘minlash masalalarida bu tashkilotlarning ishtiroki yetarli darajada sezilmayapti. Ular faqat nomiga yig‘ilishlar o‘tkazish bilan mashg‘ul bo‘lib qolmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari bugun aytilgan tanqidiy gaplardan xulosa chiqarib, o‘z faoliyatida burilish yasaydi, deb ishonamiz” - deb ta’kidlagan edi.

Hozirgi davrda “Harakatlar strategiyasi”ni amalga oshirish unda ko‘zda tutilgan vazifalarни bajarish maqsadida qabul qilinayotgan qonunlar, Prezident farmonlari, qarorlari, hukumat qarorlari, ularni amalga oshirish natijalari jamiyatning barcha sohalarini rivojlanishiga ijobiy ta’sirqilmoqda. «Davlat boshqaruvi asoslari to‘g‘risida»gi; «Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»; «Davlat xizmati to‘g‘risida»gi; «Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida»gi qonunlar loyihalari tayyorlanishi va qabul qilinishi, O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy islohotlar Konsepsiysi hamda O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy islohotlar o‘tkazish bo‘yicha choratadbirlar dasturi loyihalarini ishlarning belgilanishi aholining davlat hokimiyyat organlari bilan o‘zaro munosabatlarini zamonaviy talablar asosida yo‘lga qo‘yish, qabul qilinayotgan qonunlar, qarorlarning xalqchil bo‘lishiga, xalqning davlat boshqaruvida ishtiroki kengayishiga olib keladi.

Prezident SH.Mirziyoyev 2017 yilni yurtimizda “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e’lon qildi. Bundan maqsad, mamlakatdagi demokratlashtirish jarayonlari samaradorligi va sifatini tubdan yaxshilash, fuqarolarning erkinliklari, huquqlari, munosib turmush tarzi va manfaatlarini ta‘minlash, bunda davlat idoralari mas’uliyatini kuchaytirish, xalq bilan ochiq muloqotlarni yo‘lga qo‘yishda yangi samarador vositalar va usullarni joriy etish, “Inson manfaatlari — barcha narsadan ustun” shiori ostida ish olib borish hisoblanadi. Prezident SH.Mirziyoyev davlat va boshqaruuv organlari, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilot mutasaddilari faoliyatiga nisbatan ta’kidlaganlaridek, “Biz keyingi paytda odamlar bilan muloqot qilishni unutib qo‘ydik. Ularning ichiga kirib, ochiq va samimiy gaplashish, dardini eshitish bizning faoliyatimizda, afsuski, oxirgi o‘ringa tushib qoldi” . Xalq qabulxonalarining barcha hududlarda ish boshlagani, xalq bilan keng miqyosda muloqot olib borilayotgani davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari

faoliyatining ochiqoshkoraligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

3.3. "Harakatlar strategiya"da belgilangan ustivor vazifalarni bosqichma bosqich amalga oshirilishi

Bu holat "Harakatlar strategiya"dagi vazifalarni bosqichma bosqich amalga oshirilayotganligini anglatadi. Bu jarayonda Prezidentning Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari islohotlar uchun zarur bo'lgan muhim ishlarni amalga oshirmoqda. Zero, ularga kelib tushayotgan murojaat, ariza va takliflarni o'rghanish asosida muammolarni hal etish, rivojlanishga shartsharoitlar yaratish ishlari bajarilmoqda. Ta'kidlash kerakki, fuqarolar ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni o'z kundalik hayoti misolida biladi, qabul qilinayotgan qonunlar, davlat dasturlari ta'sirini ro'y berayotgan o'zgarish va yangilanishlar orqali teran anglab yetadi. Shu ma'noda, davlat organlari faoliyatining ochiqligini, davlat xizmatlari shaffofligini va sifatini kuchaytirish, "Elektron hukumat" tizimi salohiyatidan to'liq foydalanish aholining xabardorligini oshirishga, pirovardida ularning faolligiga zamin yaratib, jamiyatda boqimandalik kayfiyatini yo'qotishga, odamlarni barcha davlat ishida bevosita ishtirok etishga undaydi. Hozirgi davrga kelib "Harakatlar strategiyasi" jahonga taraqqiyotning milliy modeli sifatida tanildi va xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etildi. O'zbekiston o'tgan davr ichida davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish, iqtisodiyotni liberallashtirish, mulkdorlar ijtimoiy qatlami uchun qulay huquqiy va moliyaviy shart-sharoitlar yaratish, innovatsiyalar va investitsiyalarni mamlakatga kirib kelishini rag'batlantiradigan, rivojlangan davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan qisqa muddat ichida e'tirof etilgan davlat sifatida o'zini namoyon qila boshladi. Albatta, bu holat davlatimizni fuqarolik jamiyati sari jadallik bilan intilayotganligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (3.02.2017) fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni samarali hal qilishdagi rolini oshirish, fuqarolar yig'inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqini ro'yobga chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati instituti bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan tashkiliyhuquqiy choratadbirlarni belgilab berdi:

- fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o'rni va rolini yanada kuchaytirish, ularni joylarda xalqning chinakam maslakdoshi va ko'makdoshiga aylantirish;
- jamiyatimizda o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-

avaylash hamda rivojlantirishda mahallalarning ahamiyati va nufuzini yanada oshirish;

- yoshlarni ma'naviy boy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularning bandligini ta'minlash, yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo'llabquvvatlash borasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

- jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda, huquqbazarliklarning barvaqt oldini olishda, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirishda mahallalarning bevosita ishtirokini kengaytirish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish, mahalla tizimida yagona huquqni qo'llash amaliyotini ta'minlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Davlat boshqaruvi tizimidagi mavjud kamchiliklar jamiyatning o'sib borayotgan talablariga lozim darajada munosabat bildirish, joylarda to'planib qolgan muammolarni hal qilish, iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, oqibatda esa odamlarning hayotida kutilayotgan ijobiy o'zgarishlarga erishishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" (08.09.2017. PF-5185) Farmoni qabul qilindi. Farmonda davlat boshqaruvi tizimini isloh qilishning 6 ta ustuvor yo'nalishi belgilab berilgan bo'lib unda fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, ularning farovonligini va ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatidan qanoatlanish darajasini yanada oshirish, maqsadida quyidagi vazifalarga e'tibor qaratilgan:

- davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslar bilan huquqiy munosabatlarini aniq tartibga solishga qaratilgan ma'muriy tartibtaomillarni takomillashtirish;

- ijro etuvchi hokimiyat organlarining qarorlari va harakatlari ustidan shikoyat qilish tartibini takomillashtirishni, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini kollegial eshitish mexanizmlarini joriy etishni nazarda tutuvchi ma'muriy adliya tizimini rivojlantirish;

- "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish orqali davlat xizmatlari ko'rsatishning samaradorligini oshirish;

- jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash. Ma'muriy islohotlarni samarali amalga oshirishning pirovard natijasida "Xalq davlat idoralariiga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", degan g'oya hayotga to'liq tatbiq etilishi lozim. Bu bo'yicha qirqdan ortiq aniq tadbirlarni nazarda tutuvchi "Yo'l xaritasi" asosida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlar faoliyatini qayta ko'rib chiqish belgilangan. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini

rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini amalga oshirish, shuningdek, aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimining sifat jihatidan yangi darajaga o‘tishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 dekabrdagi PF-5278-son “Ahолига давлат хизматлари ко‘рсатишнинг миллий тизимини тубдан ислоҳ қилиш чоратадбirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Bundan asosiy maqsad: davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasida ularning sifati, tezkorligi, shaffofligi va foydalanish imkoniyatini tubdan oshirish orqali «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan ulug‘vor g‘oyani so‘zsiz amalga oshirish;

- tadbirkorlik subektlariga «yagona darcha» tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish yagona markazlarini ham yuridik, ham jismoniy shaxslarga «yagona darcha» tamoyili bo‘yicha xizmatlarni taqdim qiluvchi

Davlat xizmatlari markazlariga o‘zgartirish;

-davlat xizmatlarining har bir turi bo‘yicha «Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi» tamoyiliga ko‘ra davlat xizmatlari ko‘rsatish mexanizmini, eng avvalo, ortiqcha tartibtaomillarni bartaraf etish, vakolatli davlat organlari va boshqa tashkilotlar zarur hujjatlar va axborotlarni boshqa tuzilmalardan mustaqil ravishda olishi hisobigasoddallashtirishni nazarda tutuvchi ma’muriy reglamentlarni tasdiqlash;

-davlat xizmatlarini, shu jumladan olis joylarga chiqish orqali («mobil davlat xizmatlari») ko‘rsatishning maqbul, qulay va shaffof uslublaridan, mazkur sohada byurokratiya va korrupsiya yuzaga kelishini bartaraf etishga qaratilgan navbatni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi va ishlarning uzaytirilgan jadvalidan foydalanish kabi masalalarga asosiy e’tibor qaralib, bugungi kunda u o‘zining amaliy ifodasini topmoqda. Mazkur Farmon va Qaror davlat xizmatlarining sifati, tezkorligi, shaffofligi va foydalanish imkoniyatini tubdan oshirish bo‘yicha kompleks tashkiliy – huquqiy chora – tadbirlarni, “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan tamoyilini so‘zsiz amalga oshiruvchi asosiy g‘oyalarni belgilab berdi. Mazkur g‘oyalarning amalda tadbiq etilishi davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasida “Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi” degan muhim tamoyilni joriy etish imkonini beradi. Xususan, mazkur sohadagi davlat siyosatini amalga oshirishga ma’suliyat yuklangan alohida davlat organi –

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy bo‘linmalarini tashkil etildi. Amalga oshirilayotgan ushbu islohotlarning uyg‘unligi va izchilligini ta’minlaydi, davlat xizmatlarini sifatli bajarish uchun vakolatli organlar va tashkilotlarning javobgarligini oshiradi. Shu bilan birga, aholiga davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasida boshqaruvni amalga oshirishning aniq tashkiliy – institusional asoslarini

shakllantirish ta'minlanmoqda. Mamlakatda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi jamoatchilik nazoratining o'ratilishi bilan bog'liq. Bir tomondan, jamoatchilik nazoratining rivojlanishi fuqarolik jamiyatining rivojlanishi yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan fuqarolik jamiyati rivojlanib borgani sari jamoatchilik nazorati uchun kengroq imkoniyatlar va istiqbollar paydo bo'ladi. Jamoatchilik nazoratining maqsadi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining mavjud qonunlarga mosligini tekshirishdan iborat. Mamlakatimizda o'tkazilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning 2016 yil kuzidan boshlangan yangi bosqichi jamoatchilik nazoratini rivojlantirishga yangi talablar qo'ydi va ayni paytda yangi imkoniyatlar ochdi. Jamoatchilik nazorati oldiga yangi talablar qo'yilishi shu bilan izohlanadiki, belgilangan yangi vazifalar, Harakatlar strategiyasini to'la amalga oshirish jamoatchilik nazoratini keskin kuchaytirishni taqozo qiladi. Ikkinchi tomondan, Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan sayharakatlar davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning dolzarbligini yanada oshirib yuboradi.

Fuqarolarning davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash orqali Konstitusiyada kafolatlangan jamiyat va davlat ishlarini boshqarishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish maqsadida «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi qonuni (2018 yil 12 aprel, O'RQ-474-son) qabul qilindi. Qonunda fuqarolik jamiyatining rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan jamoatchilik nazorati subektlari, obektlari, asosiy prinsiplari, shakllari belgilab berilgan.

Xususan, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy tamoyillari quyidagicha ko'rsatilgan:

- qonuniylik;
- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi;
- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishning ixtiyoriligi;
- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ommaviyiligi va ochiqligi;
- jamoatchilik nazorati subektlarining xolisligi va beg'arazligi;
- jamoatchilik nazorati natijalarining ishonchliligi;
- jamoatchilik nazorati subektlarining davlat organlari, ularning mansabdor

Shaxslar faoliyatiga asossiz aralashuviga va ularga g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'yimasligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev 2018 yil 4 may kuni "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonni imzoladi. Farmonda O‘zbekiston Respublikasi prezidenti huzurida Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha Maslahat Kengashi tashkil etilib, uning vazifalari asosan quyidagilar etib belgilangan: davlatning va fuqarolik jamiyatni institutlarining mamlakatni yanada jadal va har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan say-harakatlarini birlashtiruvchi zamonaviy, demokratik hamda ochiq-oshkora maydon sifatida ularning yuqori darajadagi tizimli va samarali muloqotini yo‘lga qo‘yish;

O‘rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini aniqlash va milliy modelini shakllantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

Ilmiy va ekspertlar guruhlari ishtirokida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarni tashkil etish yuzasidan tashabbus ko‘rsatish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi davlat siyosati va uning amaliy natijalari haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli ravishda o‘rganish, umumlashtirish va tahlil qilishni tashkil etish;

Fuqarolik jamiyatni institutlari faoliyatining tashkiliyhuquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, mazkur institutlarning jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi prezidentiga takliflar kiritish; fuqarolik jamiyatining rivojlanishini, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan hamkorligi

arajasini, shuningdek, ularning mamlakatni ijtimoiyiqtisodiy rivojlantirishga qo‘shayotgan hissasini baholovchi ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish, bu ko‘rsatkichlar asosida davriy va maxsus, shu jumladan muqobil ma’ruzalar tayyorlanishini tashkil etish;

Fuqarolik jamiyatni institutlariga ularning xalqaro hamkorligini rivojlantirishda, ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganishda va ushbu tajribani O‘zbekiston sharoitida joriy etishda ko‘maklashish. Yuqorida ko‘rsatilgan meyoriy- huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi va amalga oshirilayotganligi respublikamizda “Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilsin” g‘oyasi xalqimizning fuqarolik pozitsiyalarining yanada kuchayishiga olib keldi. Prezidentimiz SH.Mirziyoyevning ta‘biricha bugungi kunda jamiyatning barcha sohasida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarning asosiy maqsadi xalqni rozi qilish, ularga maqbul shart – sharoitlar yaratib berishdan iborat.

Nazorat savollari:

- 1.** Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari va tamoyillari.
- 2.** Fuqarolik jamiyati va xuquqiy davlat tushunchalarining o‘zaro nisbati.

3. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurishning strategik maqsad sifatida belgilanishining nazariy asoslari.

4. Xarakatlar strategiyasi – O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning konseptual asosi.

5. Xarakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni samaradorlik ko‘rsatkichlari.

3-мавзу: Фуқаролик жамияти ғоялар эволюцияси.

REJA:

- 3.1 *Qadimgi va o'rta asrlarda Sharq va G'arbda fuqarolik jamiyatini tushunchasiga oid o'ziga xos yondoshuvlar.*
- 3.2. *Yangi davrda fuqarolik jamiyatining mumtoz paradigmalari.*
- 3.3. *Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi zamonaviy yondoshuv va konsepsiylar.*

Tayanch iboralar: *g'oya, nazariya, konsepsiya, fuqarolik jamiyati, demokratik davlat, adolatli jamiyat, fuqarolik jamiyatining antik, diniy va mumtoz paradigmalari.*

1. Qadimgi Sharq va G'arbda fuqarolik jamiyati to'g'risidagi o'ziga xos yondoshuvlar.

Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida fuqarolik jamiyatini qurish eng ezgu g'oya sifatida amal qilgan. Unga erishish uchun turli darajadagi nazariy qarashlar ilgari surilgan. Bir guruh olimlar fuqarolik jamiyatini qurish g'oyasi G'arb tamadduni mahsuli sifatida amaliyotga tadbiq etilmoqda deb hisoblamoqdalar, aslida Sharq mamlakatalari mutafakkirlari ijodida bu masalaga oqilona yondashuv uch ming yil ilgari shakllangan. Ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum davrlarida sharq mamlakatlari yetakchilik mavqeini egallagan. Har qanday fan, o'z mohiyatiga ko'rat umumbashariydir. Dunyo xalqlari katta-kichikligidan qatiy nazar uning rivojiga hissalarini qo'shgan. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish to'g'risidagi g'oyalari, bilimlarni bir yoqlama bo'rttirish yoki kamsitish noto'g'ri yondoshuvdir.

Fuqarolik jamiyati va uning tushunchalari Markaziy Osiyo ijtimoiysiyyosi va ma'nnaviy hayotining yorqin namunasi "Avesto" muqaddas kitobida keltirilgan. 2001 yilda millat ma'nnaviy madaniyatining eng qadimgi manbasi "Avesto"ning 2700 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov: "... bu noyob asar bebaho tarixiy xujjat bo'lib, u biz yashagan bu qadim yurtda, bu zaminda o'zining madaniyati va boy ma'nnaviyatiga ega bo'lgan buyuk davlat bo'lganligidan, ajdodlarimizga, asrlar

davomida bitmas tunganmas quch vaqudrat va tayanch sifatida xizmat qilganligidan dalolat beradi” deb alohida e’tirof etgan. Darhaqiqat, “Avesto”ning bosh g’oyasi “ezgu fikr, ezgu maqsad, ezgu amal” har qanday jamiyat va insonlararo munosabatlarning ma’naviy asosi ekanligidan dalolatdir.

Avestoning “Yashtlar”, “Vispirat”, “Vididod” qismlarida oila va jamoada berilgan so‘zdan yoki qasamdan voz kechish, odamlar o’rtasida tuzilgan ahdnomani buzish katta gunoh ekanligi o’z ifodasini topgan. Xususan, “O Spitama, shartnomani buzuvchi kishi butun mamlakatni buzadi, shu bilan birga Artaga tegishli barcha mulku mollarga putur yetkazadi”. “O Spitama, ahdingni buzma...” g’oyalari davlatlar siyosiy tizimining huquqiy asosi, adolat manbai bo‘lib, ular Rim huquqidan ham qadimiyoqdir.

Avestodagi fuqarolik jamiyatini qurishning birlamchi omili erkak va ayolning teng huquqliligi, oilaning barqarorligini ta’minalash g’oyasi bugungi kunda ham muhim ahamiyatga bo‘lib, bugun O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va boshqa meyoriy hujjatlarda ayollarning teng imkoniyati va keng huquqlari ta’minlangan. XXI asrda ba’zi mamlakatlarda ayollarning saylash va saylanish huquqi umuman inkor qilinayotgan bir davrda, O‘zbekiston Oliy majlis qonunchilik palatasiga ayollarning saylanishi uchun 30% kvotaning ajratilishi, 1995 yilda “Oila” kodeksining qabul qilinishi, bir tomondan yurtimizda ayollarga munosabat va oilaviy qadriyatlar qadimiy ildizlarga egaligini ifodalasa, ikkinchi tomondan fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lidagi oqilona siyosatning yorqin ifodasidir.

Fuqarolik jamiyatni konsepsiyasining Yevropacha an’anasi antik ildizlarga ega. Mazkur an’ananing mazmun-mohiyati nafaqat siyosiy, balki shaxsni ijtimoiy-axloqiy nuqtai nazardan baholash bilan bog‘liq edi. Bunga Aflatun, Arastu, Sitseron kabi mutafakkirlarning qarashlarini misol keltirish mumkin.

Fuqarolik jamiyatining antik konseptual ta’limotida jamiyat va davlat fenomenlarining uzviyligi qadimgi yunon dunyoqarashining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Aflatunning (mil. av. 427– 347 y.) “Davlat” dialogida fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy hayotini ajratishgina emas, ijtimoiy sohani hozirgidek zamonaviy talqinda, siyosiy faoliyk sifatida tushunilgan. Bunda jamiyat hayotining siyosiy jihatlari, fuqarolik jamiyatni tizimining umumiy tavsifi sifatida namoyon bo‘ladi.

Fuqarolik jamiyatni g’oyasining keyingi rivoji Aflatunning shogirdi Arastu(mil. av. 384–322 y.) ijodi bilan bog‘liq. Ustozi kabi Arastu ham eng mukammal jamiyat g’oyasini ishlab chiqishga diqqat e’tiborini qaratadi, biroq fuqarolik jamiyatni g’oyalari tarkibida bu masala o‘zgacha nazariy jihatlarni tashkil qiladi. Uni ko‘proq ijtimoiy transformatsiya emas, balki davlat tuzilmasidagi o‘zgarishlar qiziqtiradi. Bundan tashqari Arastu o‘zining nazariy ishlanmalarida davlat haqidagi mavhum g’oyaga tayanishni emas, jumladan Aflatunga xos bo‘lgan, balki voqe’likda mavjud bo‘lgan boshqaruv shakllarini solishtirish, qiyosiy

tahlil qilishga tayanadi, bu jihat esa uning davlat va jamiyat borasidagi pozitsiyasini konkretroq bo‘lishini ta’minlaydi.

Platondan farqli o‘larоq, Aristotel xususiy mulkni e’tirof etadi. Chunki u inson tabiatiga xos bo‘lib, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning o‘zagini tashkil etadi. Aristotel mulk huquqining fuqarolar farovonligi, davlat va uning boshqaruв shakli xavfsizligi, qonunchilik organi ishida fuqarolarning ishtiroki mexanizmi, lavozimlarni egallash va vazifalarni bajarish, sud organlari ishidagi rolini atroflicha o‘rgangan. Huquqni Aristotel adolat mezoni deb hisoblagan va unga ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va ayni vaqtda ularni muhofaza qiluvchi institut sifatida yondashgan. Aristotel fikriga ko‘ra, siyosiy boshqaruв – bu odamlarning emas, balki qonun boshqaruvidir: hatto eng yaxshi hukmdorlar ham tuyg‘ular va hissiyotga beriluvchan bo‘ladi, qonun esa «oqilona tafakkur»dir.

Qadimgi rim mutafakkiri **Mark Tulyi Sitseron** (mil. av. 106-43 yillar) ham jamiyat va davlat (respublika)ni tenglashtiradi. Davlatni u umumiy manfaatlar bilan o‘zaro bog‘langan odamlar majmui sifatida tasavvur qiladi, davlat xalqning umumiy mulki hisoblanadi va odamlar birgalikda yashashga tabiiy ehtiyoj sezadi. Uning fikricha, davlatning vazifasi mulkni muhofaza qilishdan iborat. Davlat ayni shu maqsadda tashkil etiladi. Sitseron fikriga ko‘ra, uch boshqaruв shakli (monarxiya, aristokratiya va demokratiya) unsurlarini o‘zida mujassamlashtirgan aralash davlat eng ideal davlatdir. Faqat shunday davlatda har bir jamiyat a’zosining manfaatlarini qondirish va u davlatni boshqarishda ishtirok etishi ta’minlanadi. «Davlatning mustahkamligi va fuqarolarning huquqiy tengligi» bunday davlat tuzumining muhim fazilati deb hisoblaydi. Sitseronning «Davlat haqida» va «Qonunlar haqida» asarlari davlat va huquq muammolariga bag‘ishlangan. Davlat Sitseron talqinida qadimgi yunon mutafakkirlarining konsepsiyalaridagi kabi davlatning barcha erkin a’zolari umummanfaat ifodasi sifatidagina emas, balki bu a’zolarning o‘zaro kelishilgan huquqiy munosabatlari majmui, muayyan huquqiy tuzilma, «umumiy huquqiy tartibot» sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Sitseron davlat tushunchasiga birinchilardan bo‘lib huquqiy tus beradi, bu ta’limot keyinchalik juda ko‘p mutafakkirlar, shu jumladan **«huquqiy davlat» g‘oyasining** hozirgi tarafдорлари tomonidan ham e’tirof etiladi.

Sitseron konsepsiyasiga ko‘ra, “fuqarolik jamiyati” g‘oyasi antik davr uchun klassik ahamiyatga ega bo‘ladi, bu o‘z navbatida yangi davrda shakllangan nazariy qarashlarga asos bo‘ladi. Ko‘pgina ekspertlar fikricha, aynan Sitseronning ijtimoiy-siyosiy ta’limotida “fuqarolik jamiyati” o‘zining tushunchaviy asoslariga ega bo‘ladi.

Fuqarolik jamiyatini qurish g‘oyasi Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodida o‘rganilganligi I.A.Karimovning 2014 yilda Samarqandda o‘tkazilgan “O‘rta asr Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi zamonaviy sivilizatsiyada o‘rnini va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyada so‘zlagan

nutqida“Olim va tadqiqotchilar fikricha, Sharq xususan Markaziy Osiyo, IXXII va XIV-XV asrlarda bo‘lganilmiy hamjamiyat tomonidan Buyuk Sharq uyg‘onishi deya nom olgan yirik ilmiy madaniy uyg‘onish uchun asos sifatida xizmat qildi”³ deb alohida ta’kidlagan. Darhaqiqat, Markaziy Osiyo uyg‘onish davri IX-XV asrlarda davlatni boshqarish va adolatli jamiyat qurish, davlat rahbari va xizmatchilarining faoliyat darajalari tasniflari, ijtimoiy mas’uliyati mezonlarining nazariy jihatlari haqidagi g‘oyalalar Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqalar ijodida keng tahlil qilingan. Xususan, Abu Nasr al-Farobiy (870–950) ning “Fozil odamlar shahri”, “Davlat arbobining aforizmlari” asarlarida sharqona siyosiy-huquqiy va ijtimoiy fikr tarixida ijtimoiy tizim, siyosat, davlat va hukumat haqidagi qarashlar nazariy asoslangan. Abu Nasr Farobiy fikricha adolatli jamiyat qurish uchun uni mudofaa qilish va oqilona boshqarish usulini bilish, odamlargayovuzlikdan saqlanish ezgulikka intilish yo‘llarini ko‘rsatish lozim. U davlat rahbarining boshqaruva mahorati umumiy baxtga erishish yo‘lidir deb hisoblaydi. Adolatli davlatni ma’rifatli hukmdor boshqaradi, u ma’naviyat, adolatetakchisi bo‘lishi, o‘z fazilatlari bilan qat‘iy talablarga javob berishi lozim. Bu borada Abu Nosir Forobiy “Ularning o‘zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutloq bo‘lmaydi. Ular odamlar ichidan ko‘tarilgan, sinalgan eng olivjanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo‘ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o‘z saylovchilarini to‘la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladilar”²⁰, deb davlat boshqaruvida demokratik tamoyillarni ta’minalash bilan bog‘liq axloqiy va madaniy qadriyatlarni tizimlashtiradi

Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston” asarlarida adolatli jamiyat va uning amal qilishi asoslarini shakllantirish haqidagi g‘oyalarni ilgari surgan. Uning fikricha, jamiyatning paydo bo‘lishiga odamlarning o‘zaro hamkorligi, birga yashashga ehtiyoji va intilishlari sabab bo‘ladi. Adolatli jamiyatni qurish axloqiy qadriyatlarga tayanishi va rivojlantirilishi lozim.. Davlat rahbarining asosiy vazifasi aholining turli qatlamlari, kuchlilar va kuchsizlar o‘rtasidagi siyosiy va huquqiy adolat mezonlarini o‘rnatishdadir. Bungauning fikricha ideal ijtimoiy tuzilmani qurish orqali erishiladi.

Abu Ali ibn Sino (980–1037) fikricha ijtimoiy munosabatlar odamlar o‘rtasidagi tafovut va tengliksizlik natijasidir. Hususan, Ibn Sino “iqtisodiy va ijtimoiy hamda shaxsiy xususiyatlarga ko‘ra tengliksizlik – inson ijtimoiy faolligi sababi hisoblanadi” deb ta’kidlaydi. Ideal davlat qurish esa jamiyat aholisining ma’naviyaxloqiy ravnaqi bilan bog‘liq.. Uning fikricha, ma’naviy axloqiy qadriyatlarning yuksak qadrlanishi nafaqat har tomonlama farovonlikni, balki jamiyatda adolat va barqarorlikni ham ta’minalaydi.

Bu davrda Sharqda ijtimoiy adolat, ma’rifat va tenglik nafaqat nazariy meyor, balki amaliy hayot meyori, ijtimoiy-siyosiy muammolar

¹Karimov I.A. O‘rtalik Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi zamonaliviy sivilizatsiyada o‘rni va ahamiyati. // Halq so‘zi. 2014 yil 24 may.

² Abu Nosir Forobi. Fozil odamlar shahri.-T.: A.Qodiriy nashriyoti. 1993, 190-b.

yechimini topish va jamoa bo‘lib yashashning asosi sifatida tushunilgan, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ma’rifat yo‘li tanlangan bo‘lsa, Yevropa ijtimoiy-siyosiy tafakkurida esa nasroniy larning diniy dogmatikasi hukmronlik qilib, diniy va dunyoviy manfaatlar o‘rtasida kurash rivoj olgan.

Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” dostonida davlatni boshqarish amallari, qoidalari va siyosiy - axloqiy munosabatlarni jamiyatda qaror toptirishgae’tibor qaratgan²¹⁵¹⁶¹⁷. U davlat boshqaruvi va xizmatini tashkil etish turlarini hamda shu darajalarga muvofiq sifatlarini tasniflaydi. Jumladan, «Shohlikka da’vogarlar onadan ajib bir iste’dod bilan tug‘iladilar va ular darhol yaxshi-yomonni ajratish fitratiga ega bo‘ladilar. Bundaylarga Xudo idrok, farosat va yumshoq bir ko‘ngil ato etadi, qolaversa yaxshi ish yuritish o‘quvi bilan ham siylaydi»¹ deb ta’kidlagan.

Adolatli davlat boshqaruvi, uning mukammal nazariy asoslarini yaratish borasida ulkan ilmiy meros qoldirgan o‘rtalik asrlar mutafakkiri, davlat arbobi **Nizomulmulkning “Siyosatnoma”** asari muhim manba hisoblanadi. U amaldorlarni axloqiy fazilatlariga qarab tanlash, adolat va insofni oyoq osti qiladigankishilarni davlat ishlariga aralashtirmaslikni, davlatni boshqarishda kengash bilan olib borish, faoliyatlarni muntazam nazoratqilish, itoat, ijro va sifatlari to‘g‘risidagi qarashlari bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa,

Nizomulmulkning «Ko‘pchilik bo‘lib qabul qilingan tadbir eng savobli bo‘ladi va shunday yo‘l tutish kerak»¹ degan fikrlari ajdodlarimizning davlat qurilishining adolatli tartibotlarigakatta e’tibor bergenligidan dalolatdir.

Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning ma’naviy asoslarini o‘rganishda O‘rtalik Osiyoda vujudga kelgan tasavvufchilik oqimining ahamiyati ham alohida muhim o‘rin tutadi. Tasavvuf garchi islom bag‘rida nish urib, Qur’on va hadislar hikmatidan oziqlangan, ko‘p hollarda shariat ahkomiga suyangan bo‘lsada, lekin u rasmiy diniy aqidaparastlik va mutaassiblikka hamda hokim tabaqalarning ayshu-ishratlarga g‘arb turmush tarzi, talonchilik va manfaatparastlikka zid o‘laroq, mehnatkash xalq noroziligini ifodalab keldi. Tasavvuf ta’limoti asosida adolat, haqiqat, to‘g‘rilik, mehr-shafqat, insof, iymon, e’tiqod, ilm, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi umuminsoniy g‘oyalarni targ‘ibot qiluvchi futuvvatga asoslangan bir qancha diniy, siyosiy oqimlar paydo bo‘ladi. Ular jamiyatning axloqsiz unsurlariga g‘oyaviy kuch sifatida qarshi qo‘yiladi

¹⁵ Йусуп Хосиб Кутадгу билиг.-Т.: Фан, 1971, 329-б.

¹⁶ Ўша асар. 329-бет

¹⁷ Низомулмулк. Сиёсатнома. Т.: Адолат, 1997. 98-бет.

Ijtimoiy-siyosiy tafakkur rivoji va huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy sharti – qonun ustuvorligi tamoyilini amaliyotda qo'llash tajribasini Sharqning buyuk davlat arbobi va sarkardasi Amir Temur (1336–1405) boy ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy merosi asosida ko'rish mumkin. Uning tuzuklarida davlat tizimi, uni idora qilish uslublari va vositalari, undagi turli lavozim-vazifalar darajasi, tabaqalarning toifalanishi, harbiy qo'shingarning tashkil etilishi, jang olib borish mahoratlari, davlat xizmatchilari rag'batini tashkil etish omillari, adolatli soliq turlarining joriy etilishi, mamlakatni obodonlashtirish tadbirlari milliy davlatchilikning yuksak madaniy va huquqiy darajada shakllantirishga erishganligidan dalolat beradi. "Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatiimdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o'zlariga loyiq ishlar topshirdim hamda hadlaridan oshishlariga yo'l qo'ymadim. Ulug'larini va sharaf-e'tiborli kishilarni hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo'lini to'sdim".¹⁸

Ma'lumki, fuqarolik jamiyatini – hayotiyligini va samaradorligini ta'minlovchi – huquqiy davlat doirasidan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu ma'noda, Sohibqiron Amir Temuring quyidagi so'zlari hozirgi zamon bilan hamnafas jaranglaydi: "Tajriba, - deb yozadi u, menga shuni ko'rsatdiki, din va qonunga tayanmagan hukumat, o'zining buyuk qudratini uzoq vaqt saqlab tura olmaydi. Uni har qanday yovuz kishi kirishi mumkin bo'lgan na tomi, na eshigi, na panjaralari bor uyga o'xshatish mumkin. Shuning uchun men o'z saltanatimni islom arkonlari va boshqaruvda o'zim qat'iy amal qiluvchi qonunlar asosida qurdim"¹⁹²⁰.

Shu nuqtai nazardan, muvafaqiyatlil boshqaruv qonuniyatiga ko'ra, amir Temur rahbarning adolatga tayanishini lozim topgan. Uning fikriga ko'ra: "Rahbar uchun barcha ishlarda adolatga amal qilishi kerak: u sotilmaydigan va fazilat egasi bo'lgan odamni vazirlikka tayinlashi lozim, chunki adolatli vazir o'zi mahdud-rahbar adaolatsizliklarni to'g'irlashi mumkin, ammo vazirning o'zi shunday bo'lsa, halokat yaqindir"³. Sohibqiron fikricha, davlat boshqaruvida yana bir muhim qonuniyat – qonun ustuvorligi. "Qat'iy tartib va qonunlarga amal qilishim baxt-saodatim kaliti bo'ldi". Bosh qonunlar sifatida diniy ahkomlarni va ular asosida yozilgan fikrlarni bilgan. Buning barchasi buyuk Temur adaolatli va fozil boshqaruvga alohida e'tibor qaratganligini ko'rsatib turibdi.

Komil insonlar jamiyatni haqidagi g'oyalar Alisher Navoiy (1441–1501) siyosiy va adabiy faoliyati asosi bo'lib xizmat qildi. A.Navoiy ideal ijtimoiy-iqtisodiy tuzum

¹⁸ Амир Темур тузуклари.-Т.:Фоур Ғулом нашриёти,1996, 24-бет.

¹⁹ Уша асар. 81-бет

²⁰ Амир Темур тузуклари.-Т.:Фоур Ғулом нашриёти,1996, Б- 83.

haqidagi qarashlarini o‘zining “Saddi Iskandariy”, “Mahbub ul qulub”, “Payg‘ambarlar va donolar tarixi” va b. asarlarida yoritgan. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzum muammolarini faqat adolatli hukmdor boshqarayotgan va qonun ustuvor bo‘lgan mamalkatda amalga oshishi mumkin. Shunday qilib, A.Navoiy uchunadolat va qonun ijtimoiy taraqqiyotning asosi hisoblanadi.Uning konsepiyasida hukumdar shaxsi alohida ahamiyat kasb etadi. Fazilatli va ideal shaxs haqida mulohaza yuritar ekan Navoiy o‘ziga xos insonparvar nazariyani yaratadi. O‘z nazariyasida mutafakkir, bir tomondan hukumdar va bog‘bonni, boshqa tomondan davlat va bog‘ni solishtiradi. Unga ko‘ra, agar bog‘bon aqli va mehnatsevar bo‘lsa, uning bog‘i gullab-yashnaydi. Huddi shunday agar mamlakatning aqli, dono, adolatli, xalqi uchun qayg‘uradigan va uni sevadigan hukumdori bo‘lsa, u rivojlnib farovonlashadi.

U nazariyotchi va amaliyotchi sifatida davlat siyosatining adolatli asoslari va uning ma’naviy mezonlarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Ayniqsa, adolatsizlik va zulm davlatni tanazzulga, jamiyatni jaholatga olib kelishi to‘g‘risidagi qarashlari o‘z ifodasini topadi: «...davlat ishi bilan mashg‘ul bo‘lgan amaldorlik chog‘larimda ko‘ngil mulkini turli odamlarning hujumi bulg‘aladi. Goh amirlik o‘rnida o‘tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arz-dodini so‘rdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qarab turgan elga muruvvat ko‘rsatdim»²¹ deydi. Adolatli jamiyat shakllanishining asosiy omili sifatida Navoiy insoniy fazilatlar: adolatlilik, rahmdillik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, vatanparvarlik, vijdonlilik, insonparvarlik va jasoratni keltirib o‘tadi.

Antik va o‘rta asr Sharq allomalarining fuqarolik jamiyatigi oid konseptual merosi va nazariy ishlanmali amaliyotdagi – davlat va jamiyatda hukmron meyorlarga to‘liq mos kelmasada, biroq ular fuqarolik jamiyati tamoyillarining obektivlashuvi va uning insoniyat sotsiumining tarixiy taraqqiyotining tarkibiy qismi sifatida tushunilishi uchun mustahkam asos yaratdilar.

O‘rta asrlarda Sharq va G‘arbda fuqarolik jamiyatni to‘g‘risidagi yo‘nalishlar.

Fuqarolik jamiyatining tarixiy ko‘rinishlari ifodasi Yevropa-O‘rta yer dengizi an’anasi asosida fuqarolik jamiyatining dastlabki ko‘rinishlari – Uyg‘onish davridagi italyan shahar-davlatlariga borib taqaladi. Bunda fuqarolik jamiyati shahar boshqaruvi tizimiga asoslangan, muayyan shahar doirasidagi, ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida xarakterlanadi.

Olimlar fuqarolik jamiyatining yana bir tarixiy ildizini, olmon madaniy doirasi ta’siridagi kontinental-yevropa an’anasi bilan bog‘lashadi. Erkin fuqaroning paydo

²¹ А. Навоий. Махбуб ул- Кулуб.–Т.: Фоур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983, Б-12.

bo‘lishiga, birinchilardan bo‘lib birlashgan hunarmandlar va savdogarlar gildiyasi, feodallardan himoyalovchi va shaharlar boshqaruviga ta’sir qilgan birinchi assotsiatsiya sabab bo‘lgan deb hisoblanadi.

Uchinchi tarixiy ildiz fuqarolik jamiyati zamonaviy tushunchasi shakllanishida liberal anglo-amerika an’anasi muhim ahamiyat kasb etgan. Tadqiqotchilar bu borada turlicha fikr bildiradi. Masalan, fuqarolik jamiyati tabiiy huquq va erkinlik asosida mulkka egalik qilishi haqidagi g‘oyani Jon Lokk, modernizatsiya va o‘z-o‘zini boshqarishni fuqarolik jamiyatining muhim komponentlari sifatida Adam Smit, minimal davlat konsepsiysi, fuqarolik jamiyati va zaruriy yovuzlik sifatidagi davlatning o‘ta chegaralangan roli haqidagi g‘oyani Tomas Peyn, amerikacha demokratiya tahlili hoyasini Aleksis de Tokvil, davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi munosabatlarni belgilab bergen va fuqarolik jamiyati mustaqil bo‘lishi kerakligini ta’kidalagan Jon Styuart Mill kabi olimlarni ko‘rsatish mumkin.

Fuqarolik jamiyati haqida turlicha tarixiy va metodologik yondashuvlar va interpretatsiyalarni inkor etmagan holda, yangi davrda fuqarolik jamiyati konseptuallashuvi jarayonida muhim rol o‘ynagan Uyg‘onish davri olimlardan biri Nikolo Makiavelli (1469–1527) bo‘lib, u pragmatik, tajribaviy ijtimoiy fanga asos soldi. Fuqarolik jamiyati Makiavelli uchun sinfiy, partiyaviy qarama-qarshi qiziqishlar majmuidir. Unga ko‘ra fuqarolik jamiyati xalqdan axloqiy asosni – ezgulik va fazilatni, ijtimoiy qiziqishlar va respublika tuzilmasi qiziqishlari oldida burchni his qilish va jasoratni talab qiladi. Boshqacha qilib aytganda, u erkin individlar uchun munosib birlashma bo‘ladi. Davlatni himoya qilish uchun hukmdor qo‘lidagi barcha vositalarni ishga solishi kerak bo‘ladi, yolg‘on, shafqatsizlik hatto urush ham bundan mustasno emas. Davlat qiziqishlari unda birlamchi ahamiyat kasb etgan. Makiavelli davlatning mutlaqo mustaqilligini talab qilgan, cherkovdan ham, ya’ni davlat va umuman siyosat sohasining sekulyarizatsiyasi tarafdori bo‘lgan. U davlat boshqaruvining o‘ziga xos siyosiy mahorat mifikabini yaratadi, unda hech qanday axloqiy normalar bilan hisoblashmay, “maqsad har qanday vositani oqlaydi” degan tamoyilni ishlab chiqqan.

Shunga qaramay, aynan shunday masalani ko‘ndalang qo‘yish g‘oyasi ortidan yangi davrda bir qator faylasuflar fuqarolik jamiyati konsepsiyasini yanada boyitdi. Xususan, “So‘z erkinligi haqida” Djon Milton, “Leviafan” Tomas Gobbs, “Davlat boshqaruvi haqida ikki traktat”

Jon Lokk, “Qonunlar ruhi haqida” Monteske, “Ijtimoiy kelishuv haqida” Jan Jak Russo, “Illohiy-siyosiy traktat” Benedikt Spinoza, “Fuqarolik jamiyati tarixi haqida xatlar” Anri Fergyuson kabilardir. Mazkur ishlarda u yoki bu darajada inson hayotining o‘ziga xos shakli sifatidagi fuqarolik jamiyati muammollari yoritibgina qolmay shaxs va davlatga fuqarolik jamiyatining asosiy subekti bo‘lgan fuqaroning butun potensialini yuzaga chiqarish uchun zarur bo‘lgan prinsipial yangi sifatlari ishlab chiqilgan.

Tomas Gobbs antik davr mutafakkirlariga (Platon, Aristotelga) ergashib, jamiyat va davlat tushunchalarini tenglashtiradi. U davlat, fuqarolik jamiyati va fuqaroviylar shaxs tushunchalari o‘rtasiga tenglik belgisini qo‘yadi. Biroq, ayni vaqtida, u agar davlat fuqaro bo‘lsa, bu har qanday fuqaro davlat hisoblanishini anglatmasligini qayd etadi. Muayyan xo‘jalik, savdo va tijorat ishlarini olib borish uchun a’zolari o‘zini hamjamiyat (davlat) xohish-irodasiga to‘la bo‘ysundirmagan birlashmalar, kompaniyalar, ya’ni «fuqaroviylar shaxslar» tashkil etilishi mumkin. Ayni vaqtida bunday fuqaroviylar shaxslar (shirkatlar) oxirigacha bo‘ysungan bo‘ladi. Mazkur mantiqni «fuqarolik jamiyati» tushunchasiga nisbatan ham tatbiq etish mumkin.

Ingliz ma’rifatchi faylasufi va siyosiy mutafakkiri **Jon Lokk** (1632-1704) haqli ravishda huquqiy davlatning atoqli mafkurachilaridan biri hisoblanadi. U o‘z g‘oyalarini «Davlatni boshqarish haqida ikki risola» asarida bayon etgan. Uning ta’limotida odamlarning tabiiy holati, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va davlatning tashkil topishi muammolari tushuntirilgan. Lokk huquqiy davlatning bosh elementi bo‘lgan hokimiyatning bo‘linishi nazariyasining asoschisi hisoblanadi.

Xususiy mulk nazariyasi Lokkda mehnat bilan uzviy bog‘liq. Odamlar asosan o‘z mol-mulkidan tinch va xavfsiz foydalanish maqsadida jamiyatga qo‘shiladilar, bunda mazkur jamiyatda qabul qilingan qonunlar buning asosiy quroli va vositasi bo‘lib xizmat qiladi, deb hisoblaydi Jon Lokk.

Fuqarolik jamiyatiga birlashish – bu qulay, tinch va farovon hayot kechirish, o‘z mol-mulkidan xotirjam foydalanish va o‘zini mazkur jamiyat a’zosi bo‘lmagan odamlarga qaraganda xavfsizroq his qilish uchun boshqalar bilan kelishish demakdir.

Fuqarolik jamiyati tushunchasining liberal talqini, yuqorida aytib o‘tganimizdek, Tomas Gobbs va Jon Lokk davrida yaratilgan. «Fuqarolik jamiyati» tushunchasini ular kishilik jamiyatining tarixiy rivojlanishini, insonning tabiiy mavjudlikdan ma’rifatli hayot tarziga o‘tishini aks ettirish uchun ilmiy muomalaga kiritgan.

Tomas Gobbs bunday holatga davlat mavjud bo‘lgan holda erishish mumkin deb hisoblagan. U davlat bo‘lmagan joyda urush, qo‘rquv, qashshoqlik, yolg‘izlik, yovvoyilik, jaholat, davlatda – oqilonalik, xavfsizlik, boylik, tartib, bilim va oljanoblik hukm suradi, deb yozgan.

Liberalizm asoschisi Jon Lokk birinchi bo‘lib shaxsni jamiyat va davlatdan, erkinlikni – boshqa qadriyatlardan ustun qo‘ygan. Erkinlikni u davlatning aralashuvidan xoli holat sifatida tushungan.

Fuqarolik jamiyatini tahlil qilishga nisbatan boshqa bir yondashuvni G.Gegel (1770-1831) taklif qiladi. U fuqarolik jamiyatiga o‘z kundalik ehtiyojlarini mehnat yordamida qondiruvchi individlar majmui deb

qaraydi. Uning fikriga ko‘ra, fuqarolik jamiyatining negizini xususiy mulk tashkil etadi.

G.Gegel fikri bo‘yicha, tarixiy jarayonni harakatlantiruvchi kuch sifatida fuqarolik jamiyati emas, balki davlat amal qiladi, u barcha fazilatlarni o‘zida mujassamlashtiradi, inson shaxsi, umumiy siyosiy, moddiy va ma’naviy asoslarning jamuljam ifodasi hisoblanadi. Davlat insonni har xil tasodiflardan himoya qiladi, adolatni ta’minlaydi, umumiy manfaatlarni ro‘yobga chiqaradi.

Davlat, oila, qabila, millat, diniy va boshqa birliklardan farqlanuvchi «fuqarolik jamiyati» kategoriyasi XVIII-XIX asrlarda tadqiqot predmetiga aylandi. G.Gegel o‘zining «Huquq falsafasi» asarida fuqarolik jamiyati tushunchasini atroflicha o‘rgandi va unga shaxslarning ehtiyoji va mehnat taqsimoti tizimi, adliya (huquqiy muassasalar va huquqiy tartibot), tashqi tartib (politsiya va korporatsiyalar) orqali aloqasi (munosabatlarga kirishishi) sifatida ta’rif berdi²².

O‘sha davr jamiyati va davlatiga nisbatan G. Gegelning qarashlari eskirganligiga qaramay, uning fuqarolik jamiyati davlatga nisbatan mustaqil bo‘lgan shaxsiy manfaatlar jabhasi, ijtimoiy tuzum, mehnat taqsimoti va mulk shakllariga bog‘liq ekanligi haqidagi fikrlari ijtimoiy fanlarning rivojlanish yo‘lida tashlangan muhim qadam bo‘ldi.

G.Gegel fikriga ko‘ra, fuqarolik jamiyati – bu, avvalo, xususiy mulkka asoslangan ehtiyojlar tizimi, shuningdek, din, oila, tabaqalar, davlat qurilishi, huquq, axloq, burch, madaniyat, maorif, qonunlar va ulardan kelib chiquvchi subektlarning o‘zaro yuridik aloqalaridir. Tabiiy, «nomadaniy» holatdan «odamlar fuqarolik jamiyatiga kirishlari lozim, chunki faqat shu jamiyatda huquqiy munosabatlar haqiqiy xususiyat kasb etadi». ²³Ayni vaqtda Gegel bunday jamiyat faqat «hozirgi dunyoda» mayjud bo‘lishi mumkinligini qayd etadi. Boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyati yovvoyilik, qoloqlik, ma’rifatsizlikka qarshi qo‘yiladi.

Gegel fuqarolik jamiyati oiladan boshlanib to davlatga qadar dialektik harakatlanuvchi alohida bosqich uzoq tarixiy davr davomida o‘rta asrdan to yangi davrgacha transformatsiyalashib kelgan tushunchadir. U fuqarolik jamiyati va davlatni aralashtirib yuboruvchi o‘sha davrda hukmron bo‘lgan tabiiy huquq nazariyasini tanqid qilgan, uning fikricha, ijtimoiylik xususiyatiga asoslanuvchi fuqarolik jamiyati, oilaning axloqiy va davlatning ommaviy hayotidan mutlaqo farqlanadi.U adolatili qonunlar va odil sudlarni fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismlari deb hisoblaydi.

Fuqarolik jamiyatini konseptual tushunishga Immanuil Kant (1724– 1804) harakat qilgan. Kant fuqarolik jamiyatini butun insoniyat uyi deb bilgan. Bu

²² Карапт: Гегель Г.В.Ф. Философия права. - Москва, «Мысль», 1990. – С.227.

²³ Гегель Г. Работы разных лет. Том 2. – Москва, 1973. – С. 50.

jamiyatda har bir inson hatti-harakati oliy axloqiy qonun – qat’iy imperativ bilan belgilanad. Uning fikricha, fuqarolik jamiyati mavjud qonunlar doirasida hech kim tomonidan cheklanmaydigan intilish, tamoyillarining erkilik bilan uyg‘unligi, boshqacha aytganda, fuqarolarga mos bo‘lgan jamiyatdir.

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, XVIII asr o‘rtalariga kelib fuqarolik jamiyati – davlat an’anaviy paradigmasi qayta ko‘rib chiqila boshlandi. Bu jarayon XVIII – XIX asrlarga kelib to‘xtadi, bu davrga kelib yangi tizim o‘zining – xususiy mulk, erkin bozor iqtisodiyoti, parlamentar demokratiya va huquqiy davlat, ijtimoiy va siyosiy sohalar o‘rtasidagi bo‘linish.

Fuqarolik jamiyati demokratik normalari va qadriyatlari zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda ham taxlil qilingan. Zamonaviyroq ko‘rinishda demokratiya g‘oyalari Turkistonda ma’rifatparvar jadidlar faoliyatida kuzatiladi. Yevropada bo‘lgani kabi Turkistonda ham o‘rta asrlar feudal munosabatlari, dogma va an’analarga qarshi bo‘lgan ma’rifatparvar g‘oyaviy oqim sifatida xarakterlanadi. U progressiv kuchlarning mamlakatni feudal turg‘unlik davridan olib chiqishga harakat qilgan va kurashganlarini aks ettiradi. Jadidlar ta’lim tizimini isloh etishni talab qilib, dunyoviy fanlar faolroq o‘qitiladigan yangi usuldagagi maktablarni ochgan, ularda aniq, tabiiy-ilmiy, iqtisodiy fanlar o‘qitilgan.

Zamonaviy tadqiqotchilar ta’kidlashicha, demokratik qayta qurish g‘oyalari va fuqarolik jamiyati shakllanishi yosh xivaliklar va yosh buxoroliklar uyushmalari dasturlarida o‘z aksini topgan. Ular jadidlar liberal harakati sifatida nafaqat ijtimoiy munosabatlarni isloh qilishda, balki 1920 yilda Xiva va Buxoroda xalq namoyishlarida ishtirok etganlar. Turkiston avtonomiysi uchun kurashgan jadidlar, mustaqillik uchun harakatga munosib hissasini qo‘shtigan.

Yurtimizda ijtimoiy-falsafiy fikr, xususan jadidlar qiyofasida, fuqarolik jamiyati g‘oyalari ma’rifat qadriyatining shakllanishiga qaratilgan edi. M.Behbudiy, A.Avloniy, A.Fitrat o‘z davridan ilgarilab o‘tib, fuqarolik jamiyati faqat mustaqil mamlakat doirasida amalga oshishi, haqidagi xulosasini aytadilar. Bundan tashqari, ular, an’ana va urf-odatlar demokratlashuvga to‘siq bo‘lmasligini, aksincha, mavjud an’analar doirasida amalga oshirilgan modernizatsiya, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va barqaror taraqqiyotining muhim omili ekanligini asoslaydi.

Prezident I.A.Karimovning so‘zlari bilan aytganda, “o‘zbek xalqi boy tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi, va uch ming yillik davrni o‘z ichiga olib, bizga boy tajriba va ibratli saboq beradi, uni qabul qilishimiz va rivojlantirishimiz kerak bo‘ladi”²⁴.

²⁴ Каримов И.А. Ўз келажагимизни ўз кулимиз билан қурамиз Т. 7. – Т.: Ўзбекистон, 1999. 156-6.

Umuman olganda, fuqarolik jamiyati falsafiy konsepsiyanining insoniyat tarixida o‘rni va rolini baxolar ekanmiz, uning nafaqat ilmiytexnikaviy yutuqlar bilan, balki inson borlig‘ining ekzistensial ibtidosini qayta tushunish bilan kechgan. Bu davrda inson erkinligini boshqacha tushunish usuli yuzaga kelib, u fanga jiddiy ta’sir qiladi. Bunda erkinlik o‘z qiziqishlari yo‘lida boshqariluvchi emas, balki har bir insonning o‘z taqdiri uchun javobgarligi ma’nosida tushuniladi.

3.2. Fuqarolik jamiyati xaqidagi zamonaviy konsepsiylar.

XX asr boshlaridan fuqarolik jamiyati sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar “fuqarolik jamiyati” kategoriyasini funksional xarakteristikalarini tushunish murakkablashadi. Bu fuqarolik jamiyati tushunchasini tadqiq etishda, fuqarolarning ijtimoiy hayotida dolzarb talablarini aks ettiruvchi, yangi mezonlarning kiritilganligi bilan asoslanadi. Shunday qilib fuqarolik jamiyati haqidagi tasavvurlar rivojini tizimlashtirish: birinchidan, ularning ijtimoiy-falsafiy asoslari xarakteristikasi bilan, ikkinchidan, mafkuraviy asoslarning xususiyatlariga ko‘ra, uchinchidan, fuqarolik jamiyatining sof ilmiy konsepsiyanini aniqlash bilan belgilanadi.

Biroq, fuqarolik jamiyati modeli ishlab chiqiluvchi dastlabki, bazaviy ijtimoiy-falsafiy nazariyalarda tadqiqotchilar konsepsiyanini ikki guruhga bo‘ladi:

- formatsion va sivilizatsion yondashuvlar;
- modernizatsiya va postmodernizm konsepsiysi.

Fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyanining asosiy yondoshuvlari

Formatsion yondoshuv	Sivilizatsion yondoshuv	Modernizatsiya yondoshuvi
----------------------	-------------------------	---------------------------

Fuqarolik jamiyatini tushunchasi kapitalistik tizimga bog'lanadi va keng (ya'ni jamiyatning shakli sifatida) va tor (ya'ni iqtisodiy va siyosiy munosabatlar o'ratsidagi shakllanadigan muayan ijtimoiy tashkilotlar majmuasi sifatida) ma'nolarda tushuniladi.	Fuqarolik jamiyatini sivilizatsiya tarraqqiyoti kontekstida ko'rib chiqadi. Uning nazariy asoslarini O.Shpengler, A.Toyntbi va P.Sorokin asrarlarida yaratilgan. Ularga qaraganda, fuqarolik jamiyat boshqa ijtimoiy shakllardan avvalo yuksak sivilizatsiya darajasi bilan ajralib turadi. Uning asosiy me'zoni sifatida esa insogn, uning erkinligi, rivojlanish va ijodiylik imkoniyatlari, shuningdek boshqa insonlar bilan tinchlik v totuvlikda yashash qobiliyatları tan olinadi	Modernizatsiya konsepsiyalarida (A. Turen, Y. Xabermas, E. Giddens, Z. Bauman va b.) fuqarolik jamiyat a'anaviy jamiyat urnini egallagan yoki zamonaviy jamiyatga xos bo'lgan belgilarni shakllantiradigan jamiyat tushuniladi.
---	---	---

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda fuqarolik jamiyatining quyidagi g'oyaviy-falsafiy doktrinalari ko'rsatiladi:

- «byurokratik davlat sotsializmi doktrinasi»;
- «avtoritar davlat kapitalizmi doktrinasi»;
- «demokratik sotsializm doktrinasi»;
- liberal-demokratik (“bozor demokratiyasi”).

Byurokratik davlat sotsializmi uchun fuqarolik jamiyat – bu burjua, kapitalistik jamiyat, u xususiy mulkka va yollanma mehnatga asoslanadi. Byurokratik-davlat sotsializmi tarafдорлари fuqarolik jamiyatini ijtimoiy notenglik va jamiyatda kuchayib borayotgan keskinlik sababi deb biladi.

Avtoritar-davlat kapitalizmi fuqarolik jamiyatini xususiy biznes, oilaviy-qarindoshlik va boshqa nodavlat munosabatlar sohasi bo'lib, o'zida kapitalistik davlatning ijtimoiy-iqtisodiy bazasini mujassam qiladi, deb hisoblaydi.


Demokratik sotsializm konsepsiysi tarafдорларiga ko'ra fuqarolik jamiyat - ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va institutlar majmui, u demokratik davlat bilan birga ijtimoiy (iqtisodiy, siyosiy va h.) demokratiya asosini tashkil qiladi.

“Bozor demokratiyasi” nazariyotchilari fuqarolik jamiyatini bozor demokratiyasi jamiyat analogi deb biladi. Ular fikricha, fuqarolik

jamiyatni iqtisodiy jamiyat bo‘lib, iqtisodiy hayotni boshqarish imkoniyatlarida cheklangan va ijtimoiy birlashmalar va harakatlar tomonidan nazorat qilinadi.

Shunday qilib, fuqarolik jamiyatni g‘oyasining qayta jonlanishida jamiyatni davlatlashtirishga, jamiyat hayotida davlat roli va ta’sirining favqulodda o‘sishiga qarshi harakatni ko‘rish mumkin. CH.Teylor, E.Arato, R.Dvorkin va boshqa tadqiqotchilardan iborat bo‘lgan o‘ziga xos normativ diskurs ham shakllanganligini aytish mumkin²⁵. Shuningdek, nodavlat sohaning ijtimoiy-siyosiy faolligi va o‘z-o‘zini tashkillashtirish ahamiyati yuzasidan, eng muhim quyidagi konsepsiylar ajratiladi:

- liberal an’ana konsepsiysi;
- amerikancha kommunitariz konsepsiysi; - yevropacha neokonservativmi konsepsiysi; - post-marksistcha konsepsiysi.



Fuqarolik jamiyatining liberal an’ana g‘oyasi umuman olganda yangi narsa emas. Fuqarolik jamiyati haqidagi tasavvurlar mumtoz ingliz liberalizmidayyoq ishlab chiqilgan.

Fuqarolik jamiyati konsepsiyasining amerikacha madaniy va tarixiy kontekstida «respublikanizm» ideali bilan bog‘liq edi. U XX o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z-o‘zini ijtimoiy tashkillashtirishga asoslanuvchi, teng huquqli fuqarolar tomonidan tuzilgan amerika kommunalari, ya’ni lokal birlashmalarning uyg‘un va faollikdagi ijtimoiy-siyosiy hayoti haqidagi tasavvurlarga asoslanadi.


Mazkur kommunalar o‘z-o‘zini tashkillashuvi o‘ziga xos fuqarolik jamiyati tipii bilan qo‘llab-quvvatlangan, bu haqda batafsil A. de Tokvil yozadi. Demokratik

²⁵ Гончаров Д. Нормативная дискуссия о гражданском обществе: основные направления. Москва. 2010. С. 86

madaniyat bunda kommunal o‘zarohamkorlik va sherikchilik qadriyatlarini, shuningdek xristian axloqi qadriyatlarning yuqori darajadagi amaliyoti bilan farqlanadi. Shuning bilan birga, kommunitaristik loyiha tarafдорлари kuzatganidek, jamoaviy qadriyatlар individual qadriyatlardan ustun bo‘lib, individlar o‘zaro ishonch va hamkorlik muhitida o‘z qiziqishlarini uyushma qiziqishlariga bo‘ysundirishga tayyor bo‘lgan²⁶.

Manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mumtoz marksizm zamonaviy diskursning alohida konseptual yo‘nalishi sifatida fuqarolik jamiyatini kelib chiqishini, jamiyatning feudal-aristokratik paternalistik tizimi o‘rniga kommersiya kapitalizmi davridagi iqtisodiy partikulyarizmi bilan bog‘lagan. Biroq Marks unda individual erkinlik va avtonomiyanı emas, sinfiy jamiyatda obektiv mavjud bo‘lgan notenglikni, erksizlik va ijtimoiy-iqtisodiy begonalashuvni berkituvchi, ya’ni, tashqi shaklni ko‘rgan xolos²⁷.

Keyinroq esa postmarksistik loyiha doirasida amal qiluvchi nazariyotchilar, fuqarolik jamiyat g‘oyasini qaytadan ko‘rib chiqishga harakat qilgan. Shunday qilib, postmarksistik tushunishda, u quyidagicha asoslanadi «oxirgi vaqtlarda paydo bo‘layotgan, jamiyatning, erkin ehtiyyoriy assotsiatsiyalari, shuningdek, huquqiy va ommaviy institutlari doirasida amalga oshiriluvchi jamoaviylikning nomumtoz shakllari, nafaqat davlat doirasidan, balki kapitalistik bozor iqtisodiyoti chegarasidan ham chiqib ketmoqda»²⁸. Bu yerda diqqat markazida, birinchidan, davlat-byurokratik mashinasining, umumiy manfaatlar davlati sharoitida, ta’sir doirasining kengayishi, ikkinchidan, jamiyatga transmilliy korporatsiyalar va globallashuv davrining markazlashgan iqtisodiyoti tomonidan bo‘lgan havfi turadi.



²⁶ Walzer M. 1995. Concept of Civil Society – Walzer M., ed. Toward a Global Civil Society. Providence RI: Berghahn Books.

²⁷ Baker G. 2002. Civil Society and Democratic Theory: Alternative Voices.

²⁸ Arato A. 1981. Civil Society Against the State: Poland, 1980-81 – Telos, #47.

Fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalarini ko'rib chiqar ekanmiz, ularda mazkur fenomenning ontologik va gnoseologik jihatlariga ijtimoiy qarashlar xilma-xilligini ko'ramiz. Ta'kidlash o'rinniki, fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalari ijtimoiy muammolar tahlilining tizimli mezonlarini ishlab chiqqanligi va ilmiy hamjamiyat oldiga original konseptual va amaliy yechimini talab qilayotgan yangi masalalarni ko'ndalang qilib qo'yganligi. XX asr nafaqat texnik progress, balki tizimli fikrlash shakllanishi va hukmronligi davri bo'lганligini olimlar biladi. Aynan shunday vaqtida, fuqarolik jamiyati – ijtimoiy borliqning tizimli tahlili kontekstida o'rganila boshlanadi. Bu albatta, bugun olim-faylasuflarga zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni nafaqat modellashtirish imkoniyatini, balki, ularning kelajagi haqida aniq tasavvurlar paydo bo'lishga olib keladi. Bugungi kunda ham fuqarolik jamiyatini o'rganish masalalarida bir qator muammolar mavjud: fuqarolik jamiyatining davlat va jamiyat dixotomiyasi yoki sherikligi chegarasi, fuqarolik jamiyati institutlarining individ shaxsiy hayotiga dahl qilishi chegarasi qayerda, fuqarolik jamiyatini tushunishning bazaviy asoslari, fuqarolik jamiyatini tushunishning universal yondashuvlari mavjudmi kabi masalalardir.

Shuning bilan birga, fuqarolik jamiyati haqidagi g'oyalar va tasavvurlar genezisi, mazkur fenomen antik va o'rta asrlarda – davlat qiziqishlari jamiyat, va albatta xususiy qiziqishlardan ustuvorligi kontekstida talqiq etilganligidan dalolat beradi. Antik va o'rta asrlar olimlari ijodida davlat, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni boshqarib turgan bosh institut sanalgan. Mazkur jihat insoniyat rivojining dastlabki bosqichida, davlat va jamiyat o'zaro hamkorligi va dixotomiyasi borasidagi konsepsiylar yo'qligining asosiy omili hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati konseptual diskursining antik paradigmasi – fuqaroning ijtimoiy boshqaruv sohasidagi roli va o'rmini aniqlashdan iborat bo'lgan. Agar ulardan ba'zilari, fuqarolar davlatdan muayyan darajada avtonomdir (Arastu), boshqalar davlat boshliqlarini fuqaro va jamiyat hayotini reglamentatsiya qilishga chaqirgan (Aflatun). Ularning har biri imkoni boricha ideal davlat qurilmasini ishlab chiqishga harakat qilgan. Aynan shu jihat fuqarolik jamiyati keyingi konseptual ishlanmalari turli talqini va yondashuvlarni keltirib chiqardi.

O'rta asr mutafakkirlarining antik davr olimlaridan farqi, ularning ijtimoiy munosabatlarni, davlat va jamiyat munosabatlari shu jumladan, teologik xarakterga ega, antik falsafa esa ijtimoiy munosabatlarni turli ranglarda ko'rib chiqadi, shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyati diniy paradigmasi o'rta asrlarda shakllana boshlagan deyish mumkin.

Sharqning fuqarolik jamiyatini konseptual tushunishidagi o'ziga xos jihat, ularning mazkur fenomenga oid talqinlari fazilat, ma'rifat va o'zaro mas'uliyat tushunchalari prizmasi orqali amalga oshirilganlidadir, bunda ijtimoiy-falsafiy fikr o'z diqqatini davlat boshqaruvchilari va jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning axloqiy-estetik jihatlariga qaratgan.

Yangi davrda davlat roli masalasi yangicha anglay boshlanadi: agar antik davr va o'rta asrlarda ijtimoiy-falsafiy fikr davlat ustuvorligiga qaratilgan bo'lsa, bu davrga kelib, mazkur nisbatda inson (fuqaro) fenomeni, o'z huquqlari, ehtiyoji va qiziqishlari bilan birgalikdaustuvor ahamiyat kasb eta boshlaydi. Davlat faqat mana shu qiziqishlarni mavjud bo'lgan qonuniy tizim doirasida amalga oshirilishini ta'minlovchi institut sifatida gavdalanadi.

Yangi davr ijtimoiy-falsafiy tafakkuri fundamental yutug'i, davlat va jamiyat tushunchalarini ajratganligida, bu fuqarolik jamiyatini tushunishda klassik paradigmasing shakllanishiga asos bo'lgan edi. Bu o'z navbatida, "davlat – fuqarolik jamiyat" dixotomiysi kuzatiluvchi konsepsialar shakllanishiga olib keladi. Birinchi marotaba Yangi davr mutafakkirlari davlat va jamiyat qiziqishlarining turlicha bo'lishiga o'z diqqat e'tiborini qaratadi, bunda davlat qonun ustuvorligiga tayansa, jamiyat esa xususiy mulkka. Fuqarolik jamiyat haqidagi konseptual diskursning asosiy muammolari sifatida, davlatning roli va davlat va jamiyat o'zaro munosabatlarining mezonlari qanday (axloqiy ideal va real siyosat nisbati mezonlari) degan masala ko'ndalang turadi.

Fuqarolik jamiyatini fenomenini konseptual qayta tushunishda kuzatilgan jiddiy rivojiga qaramay, ilmiy pozitsiyalarni o'rganish asosida, ularning qarashlari turli g'oyaviy asosdan mahrum emasligi aniqlandi, bu esa o'z navbatida, fuqarolik jamiyatni mazmun va mohiyatini tushunishda subektivizmning kuchayishiga olib kelgan. Va yana bir kamchiligi sifatida davlat va jamiyat o'rtasidagi chegaralar hanuz belgilanmaganligi masalasi bo'lib, bu mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda ma'lum darajada to'sqinlik qiladi.

Fuqarolik jamiyatini o'rganishda zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakurning muhim yutug'i sifatida esa, bu sohani o'rganishing yangi ilmiy yondashuvi sifatda – tizimli paradigmasing shakllanishi bo'ldi. O'z navbatida, bu fuqarolik jamiyatining normativ idrok etishdan uni transformatsiyalashayotgan fuqarolik jamiyatini zamonaviy konseptual diskursi turli yo'nalishlarini o'rganish kontekstida, empirik tahlil qilishga o'tish tendensiyalarini kuchaytirdi.

Umuman, hozirgi zamon ilg'or demokratik mamlakatlar jamiyatshunos olimlarining fuqarolik jamiyatni to'g'risidagi nazariy qarashlari bir tizimga keltirilsa, u holda fuqarolik jamiyat – bu:

birinchidan, jamiyat hayoti faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida ihtiyyoriy ravishda shakllangan, boshlang'ich nodavlat tizimlarini o'z ichiga qamrab olgan insoniy birlikdir; **ikkinchidan**, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma'naviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasidir; **uchinchidan**, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli organlar taziyqlari, aralashishlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyat

bo‘lib, unda ular o‘zligini namoyon qila olishlari uchun doimiy imkoniyatlarga ega bo‘ladilar.

XX asrning – 50-70 yillari zamonaviy ijtimoiy-siyosiy tizimlar nazariyasining rivojlanishi.

Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) siyosiy tizimi Germaniya tarixidagi ikkinchi demokratik tizimni ifoda etadi. Parlament kengashida majlis o‘tkazgan GFR asoschilari (avvalambor, uning rahbari - **Konrad Adenauer** (1876-1967 yy.) yangi Konstitusiyani ishlab chiqishda dastlabki demokratiya, Veymar Respublikasi hamda milliy-sotsialistik diktatura tanazzuli bilan bog‘liq saboqlarni inobatga olgan.

Germaniya kansleri (1949-1963 yy.) K.Adenauerga badenlik siyosatchi, tarixchi, huquqshunos, janubiy Germaniya liberalizmi mafkurachisi K.Fon Rottekning(1775-1840 yy.) qarashlari, xususan, uning “birdamliksiz erkinlik, erkin bo‘Imagan birdamlikdan yaxshiroq”, “askar fuqaro bo‘lishdan to‘xtamasligi kerak” kabi shiorlari katta ta’sir o‘tkazgan”. K.fon Rottek sud hokimiyati mustaqilligini inkor qilgan holda, hokimiyatning bo‘linish prinsiplarini asoslab bergen - sud organlari davlat maqomidan mahrum qilinishi kerak. Ideap davlat - bu hokimiyatning bo‘linish tizimi orqali umumiy xohish-iroda hukmronligi ta’milnadan davlatdir. YA’ni, mutafakkir uchun boshqaruv shakli emas, balki respublika ruhi muhimdir.

K.Adenauer siyosati ikki muhim omil - ijtimoiy bozor iqtisodiyoti va “yangi Yevropada yangi Germaniya” prinsipiga asoslangan edi. Xristian- demokratik ittifoqning birinchi raisi va kommunizmga qarshi yo‘nalish tarafdori bo‘lgan K.Adenauerning dasturiy maqsadlarida ijtimoiy tuzum asosi sifatida xristian etikasi, davlatning shaxs ustidan hukmronlik qilishidan voz kechishi, har bir insonga hayotning har qanday sohasida tashabbus ko‘rsatishga imkon berish asosiy o‘rinni egallagan. Kanslerning fikricha, siyosiy va iqtisodiy hokimiyatning davlat qo‘lida monopollashuvida har bir shaxs erkinligi uchun xavf mavjud; davlat cheklangan, faqat nazorat qiluvchi vazifani amapga oshirishi kerak.

1949 yilda qabul qilingan Konstitusiyaning birinchi bandida konstitusiyaviy tuzumning oliy ne’mati sifatida insonning qadr- qimmatini hurmat qilish qoida sifatida belgilangan: “Insonning qadr- qimmati daxlsizdir. Uni himoya qilish va hurmat qilish - davlat hokimiyatining burchidir”. Asosiy qonunda Germaniya huquqiy (“davlat organlarining barcha harakatlari sud nazoratida turishi lozim”) va ijtimoiy (qarilik, kasallik, nogironlik va ishsizlik holatlarida insonlarga yashash uchun munosib sharoitlarni ta’minalash maqsadida siyosiy chora-tadbirlar ko‘rilishi kerak) davlat sifatida mustahkamlangan. Mazkur asosiy konstitusiyaviy prinsiplar “abadiy xususiyat”ga ega. “Butun davlat hokimiyati xalqqa tayanady, - deyilgan GFRning Asosiy qonuni 20(2)bandida. U xalq tomonidan

saylovlari va ovoz berish, shuningdek qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining maxsus organlari orqali amalga oshiriladi”²⁹.

Asosiy qonun hokimiyatning uchta tarmog‘i organlarini ajratgan holda, ularning vazifalarini birlashtirish, bir-birining ishiga aralashish va boshqalarni taqiqlaydi. Aralashmaslik prinsipi ayniqsa adliya organlariga nisbatan qat’iy tatbiq qilingan.

Fuqarolik jamiyati bilan bog‘liq hokimiyat bo‘linishining zamonaviy nemis tizimi Germaniyaning federativ tuzumiga asoslangan. Bu davlatning siyosiy tizimi ikki bosqichga - davlat miqyosidagi umumiylar qarorlar qabul qilinadigan yuqori - federal bosqich hamda federal yerlar (jami 16 ta) vazifalari hal etiladigan quyi mintaqaviy bosqichga bo‘linishini anglatadi. Har ikki hokimiyat bosqichining har biri o‘zining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga ega. Yerlar yuridik jihatdan bir xil maqomga ega bo‘lib, bu hol hokimiyatlarning gorizontal va vertikal bo‘linishini tasdiqlaydi, Germaniyani simmetrik federatsiya sifatida ifoda etadi. Germaniyada siyosiy tizimni ba’zan “yashirin” federalizm deb atashadi; bundan tashqari, mamlakatda federal konstitusiyaviy sudning mavqeい juda kuchli va h.k.

Germaniyalik zamonaviy faylasuflar uchun “fuqarolik jamiyati” atamasi Gegelga emas, balki shotlandiyalik faylasuf, tarixchi, Edinburg universitetining falsafa bo‘yicha professori, Adam Smitning ustozasi, “zamonaviy jamiyatshunoslik asoschisi” Adam Fergusonga (1723-1816 yy.), uning mashhur Fuqarolik jamiyati tarixi ocherki asariga , “erkin davlat bu boshqariladigan erkinlik demakdir” (“Essey on the history of the civil society”) (1767)103, “mustaqil davlat yaxshi boshqariladigan erkinlik”, “yetakchining zaifligi yoki nazoratsiz amalga oshiriladigan har qanday hokimiyat harbiy hukumat tuzumiga, pirovard natijada istibdodga olib keladi”, “barcha shakldagi ijtimoiy tuzilmalar inson faoliyatining samarasidir”, “muvaffaqiyatli tijorat jamiyati siyosiy korrupsiyaga olib keladi” degan va boshqa farazlarga borib taqaladi.

XXI asr boshida Germaniyaning taniqli siyosatchilarining fikricha, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan mamlakatlarida “fuqarolik jamiyati rasmiy siyosatchilardan oldinda bormoqda”, bu esa“ushbu davlatlarda demokratiyaning ildiz otishiga imkon beradi” hamda G‘arb mamlakatlaridan “fuqarolik jamiyati vakillari bilan samarali ishslash”, “hukumat va fuqarolik jamiyati vakillari, yoshlar va keksalar, ishbilarmon odamlar va aql-idrok egalari, mashhur san’at ustalari, shuningdek, an’anaviy hokimiyat vakillarining” yuzma-yuz uchrashuvlarini tashkil qilishni talab etadi. Rivojlanayotgan davlatlarni Yevropa mamlakatlari bilan taqqoslab bo‘lmaydi — “demokratiyanı rivojlantirish, qonun ustuvorligini

²⁹ Основной закон Федеративной Республики Германия от 23 мая 1949 г. – Москва: Российская государственная библиотека, 1997.

ta'minlash, hokimiyatning bo'linishini bugungi kun talabi sifatida qabul qilish uchun Yevropaga asrlar kerak bo'ldi".

Mamlakat prezidenti sud hokimiyati mustaqilligining kafolati hisoblanadi, sudyalarining maqomi qonun bilan belgilanadi va ular almashtirilmaydi. Fransiyaning sud tizimi ko'p pog'onali bo'lib, uni ikki tarmoqqa - sud tizimi va ma'muriy sudlar tizimiga ajratish mumkin.

Fransiyaning ko'p partiyali tizimi ijtimoiy kuchlarning muntazam qutblashishi bilan ajralib turadi: ya'ni, bu 50-60 - yillarda so'l va o'ng qanotlar, 70-yillarda ikki qutbli modelning paydo bo'lishi, 80-yillarda kommunistik harakatning tanazzulga yuz tutishi va o'ng qanotlarning kuchayishi, XX asrning 90-yillarida siyosiy partiyalarning qismlarga ajralishi, 2000-yillarda noaniqlik, ayniqsa uning jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi davrida kuchayishi bilan bog'liqdir.

Fransiyada hayotga tatbiq etilgan mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimining roli va ahamiyatini oshirish siyosati katta xalqaro ahamiyatga ega. Bu siyosat fuqarolik jamiyati va hokimiyatning yetukligiga to'liq itttonch hosil qilgan holda, bosqichma-bosqich va kompleks ravishda davlat nazorati ostida amalga oshirildi. Aholi tomonidan saylangan organlar nafaqat davlat hokimiyati tizimining izdan chiqishiga yo'l qo'ymadni, balki aholiga ayniqsa maishiy va kommunal sohada xizmat ko'rsatishni yaxshiladi, fuqarolik institutlarining yuksak salohiyatidan foydalanib, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga qator vakolatlarni topshirish imkonini berdi. Mazkur siyosat, bir tomonidan, sezilarli ravishda davlat moliya resurslarini taqsim qilish, ikkinchi tomondan esa o'zini o'zi boshqarish organlari rahbarlarining kasbiy bilimlarini oshirish bilan birga kechdi.

Fransiyaning zamонавија falsafasi **SH.Monteske** va **J.J.Russoning** hokimiyatning bo'linishiga oid qarashlariga ancha tanqidiy yondashadi. Masalan, SH.Monteske hech qachon "bo'linish" so'zini ishlatmagan; u sud hokimiyatiga aniq ta'rif bermagan (SH.Monteske sudya bo'lgani uchungina sud hokimiyati nomigagina tilga olingan); alohida erkinlikka oid sentensiyalar huquqni muhofaza qilish organlari rolini oshirish chaqiriqlari bilan cheklangan. J.J.Russo o'z nazariy fikr-mulohazalarida diktaturadan qochishga intilgan, u hokimiyat tarmoqlari, xususan, qonun chiqaruvchi tarmoqning tubdan o'zgarish qobiliyatini yetarlicha baholamagan; uning uchun hokimiyatning bo'linishi - majburiyatlarning odatdag'i taqsimotidir.

Umuman olganda, hokimiyatning bo'linish nazariyasining fransiyalik asoschilari qarashlariga o'zgaruvchan siyosat tomonidan putur yetkazilmoqda.

Shuni qo'shimcha qilish kerakki, fransiyalik siyosat arbobi, Milliy Majlis prezidenti va Fransiya akademiyasi a'zosi, "jamiyatshunoslik" atamasining muallifi **Emmanuel-Jozef Siyesning** (1748-1836 yy.) fikrmulohazalari, uning Fuqaro va inson huquqlari deklaratsiyasidan (1789 yil avgust) oldingi ("Inson huquqlari va fuqarolar erkinligining tan olinishi hamda ularga ta'sir

ko‘rsatish”) nomli risolasi (1789 yil iyul) Fransiyaning zamonaviy faylasuflari orasida shuhrat qozongan. Uning risolasida milliy va xalq suvereniteti nazariyasi rivojlantirilgan, fuqarolarning faolligi va passivligi sabablari ochib berilgan, umumiy saylov huquqigada’vat etilgan.

Gabriel Tard (1843-1904 yy.) (hokimiyat, OAV to‘g‘risida), marksist faylasuf, markscha strukturalizm nazariyotchilaridan biri **Lui Altyusser** (1918-1990 yy.) (hokimiyat tarmoqlari vakolatlarining tadrijiy evolyusiyasi to‘g‘risida), huquqshunos va siyosatchi **Moris Dyuverje** (1917 yilda tug‘ilgan) (siyosiy partiyalarning roli to‘g‘risida) **Olive Dyuamelning** (1950 yilda tug‘ilgan) (matbuotning roli) to‘g‘risidagi g‘oyalari Fransiyada hokimiyatning bo‘linish nazariyasini rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Shuni tan olish kerakki, hokimiyatning bo‘linish prinsipi bavosita 1924, 1936, 1977 yilgi sovet davri konstitusiyasida, 1923, 1964, 1976, 1987, 1990 yillarda qabul qilingan Afg‘oniston konstitusiyasida ham mavjud bo‘lgan. Demak, biz ko‘rib chiqayotgan to‘qqizta mamlakatda **SSSRning parchalanishi arafasida uchala tizimning o‘zgarishi uchun muayyan siyosiy-huquqiy asos yaratilgan**. “Qayta qurish” deb nom olgan yillardasobiq ittifoq konstitusiyalari saylov tizimini takomillashtirish (1988 yil dekabr), SSSR xalq deputatlari sezdi rolini oshirish, konstitusiyaviy nazoratni kuchaytirish (1989 yil dekabr), ko‘p partiyaviylikni bekor qilish, prezidentlik institutini ta’sis etish (1990 yil mart), hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlari faoliyatini chegaralash (1990 yil dekabr) va boshqa qator yo‘nalishlarda tadrijiy tarzda rivojlantirilgan. SSSR tarkibidagi respublikalar mustaqillikka erishgach, **“hokimiyatniig demokratik bo‘linishining yangi sharoitlari” haqidafikrlar bildirildi** “.

Davlat hokimiyatining konstitusiyaviy asosda bo‘linishi va fuqarolik jamiyatining bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq ekani ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan eng e’tiborga molik zamonaviy falsafiy konsepsiylar orasida neomarksizm (Georg Lukach), liberal nazariya (L.Fon Mizes, Fridrix Xayek), ommaviy jamiyat nazariyasi (X.Ortega-i-Gasset), menejerial jamiyat nazariyasi (J.Bernxem), totalitar jamiyat nazariyasi (Yunger Arendt, Mangeym), Frankfurt mакtabining rivojlangan sanoat jamiyatni nazariyasi (Xorkxaymer va Adorno, Markuze), axborot jamiyatni va sanoatlashuvdan keyingi jamiyat nazariyasi (Bell, Toffler), “so‘nggi modern” jamiyatni nazariyasi (Giddens) va imperiya globalizmi nazariyasini (Xardt va Negri) alohida qayd etish mumkin.

Neomarksizm falsafasi vakili G.Lukach tarafda oralarini ba’zan “Budapesht maktabi” (Ishtvan Mesarosh, Miklosh Krashho, Agnesh Xeller, Dyord Markush, Ferens Fexer, Mixay Vayda) umumiy atamasi bilan birlashtiradilar. Aytish mumkinki, bu mакtab a’zolari o‘z ustozlarining neortodoksal marksizm yo‘nalishidagi falsafiy izlanishlarini davom ettirgan. Ammo,

keyinchalik ularning ko‘pchiligi uzil-kesil sotsial-liberalizm tomonga o‘tib olgan; A.Xeller neoliberalizm va neokonservativizm tarafdori bo‘lgan.

Vengriyalik faylasuf-neomarksist, adabiy tanqidchi, G‘arb marksizmiasoschilaridan biri G.Lukach (1885-1971 yy.) **stalinizmning barcha nuqsonlarini tanqnd qilib, V.Lenin va I.Stalin hokimiyatining nazariyasi va bu hokimiyatlarii tashkil qilish usullari bir-biriga znd deb hisoblaydi, u hoknmiyatni demokratlashtirish uchun kurashadi.**“Lenin faoliyatida, - deb yozadi G.Lukach, - hokimiyatni tashkil etish prinsiplari zaruratga qarab, yangi holat va tendensiyalarni qayta tahlil qilish sababli paydo bo‘lgan, Stalinda esa hokimiyat apparati prinsiplari azaldan tasdiqlangan edi, voqealarni targ‘ibot shaklida izohlash esa uning zarurligini asoslash uchun xizmat qilgan. (Bu borada KPSS XX sezdi tomonidan sinfiy kurashni avj oldirish zarurligi to‘grisida rad qilingan aksiomani eslashning o‘zi kifoya)”³⁰.

Ispaniyalik faylasuf va sotsiolog **Xose Ortega-i-Gasset** (1883-1955 yy.) “ommaviy jamiyat” doktrinasi doirasida G‘arbda demokratiyaning inqirozga uchrashi, ijtimoiy institutlarning byurokratlashuvi, shaxslararo aloqalarda pul munosabatlarining keng tarqalishi natijasida yuzaga kelgan ma’naviy muhitni tanqid qilgan.

“Omma odami, - deb yozadi X.Ortega-i-Gasset, - davlatni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lmagan kuch deb qabul qiladi va o‘zini ham xuddi shunday his etadi. Agarda mamlakat hayotida biron-bir qiyinchilik, mojaro va muammo paydo bo‘lsa, omma odami hokimiyatlar bunga zudlik bilan aralashib, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi, bu borada cheklanmagan va inkor etib bo‘lmaydigan vositalarni ishga solishi uchun harakat qiladi. Bunday holatda taraqqiyotni asosiy xavf kutib turadi, ya’ni hayot to‘liq davlat tomonidan boshqariladi, hokimiyat ko‘لامи yanada kengayadi, davlat barcha ijtimoiy mustaqillikni olib qo‘yadi - bir so‘z bilan aytganda, tarixning insontaqdiri quriladigan, ma’naviy ozuq oladigan va ravnaq topadigan ijodiy asosi bo‘g‘ib qo‘yiladi”. Buning oqibati yaxshilikka olib bormaydi, deydi X.Ortega-i-Gasset. “Davlat barcha ijtimoiy tashabbuslarni batamom bo‘gib qo‘yadi va buning natijasida hech qanday yangi kurtaklar unib chiqmaydi. Jamiyatni davlat, insonni esa davlat mashinasi uchun yashashga majbur etadi. Bu bor-yo‘gi mashina bo‘lsa-da, uning yaroqliligi va holati atrofdagi odamlarning kuchiga bogliq. Davlat esa oxir-oqibat jamiyatning qonini so‘rib oladi va pirovard natijada o‘zi ham so‘nib, zavol topadi”³¹.

X.Ortega i Gasset uchun boshqaruv - o‘z vakolatlarini tabiiy ravishda amalga oshirishdir. Bunday boshqaruv har doim va hamma joyda jamoatchilik fikriga

³⁰ Лукач Д. По поводу дебатов между Китаем и Советским Союзом// Философские науки. – 1989. -№6

³¹ Ортега –и-Гассет Х. Восстание масс/ Пер. А.М.Гелескула. – М.: Социум, 1991. –С.134-135.

tayanadi. Yer yuzidagi hech bir hokimiyat jamoatchilik fikridan boshqa hech qanday jiddiy narsaga tayanmagan.

XX asrning ikkinchi yarmida qator mualliflar “ommaviy jamiyat” jarayonlarining bir xil emasligi haqida yozgan. Masalan, kelib chiqishi italiyalik bo‘lgan nemis faylasufi va katolik ruhoniysi **Romano Gvardini** (1885-1968 yy.) bunday deydi: zamonaviy dunyoda shaxs to‘grisidagi tasavvurlar o‘zgarib turadi va bu fuqarolik jamiyatining mavjudligi bilan chambarchas bogliq; ammo, texnikaning rivojlanishi bilan yangi ijtimoiy tuzilma paydo bo‘lib, unda shaxs ijodkorligi, subekt mustaqilligi boshqalarga namuna bo‘la olmaydi. Shaxsga qarshilik ko‘rsatadigan omma odami bunga misoldir³².

Yuqorida zikr etilgan fransiyalik sotsiolog, tarixchi va siyosiy arbob **Aleksis de Tokvil** (1805-1859 yy.) inqiloblarni siyosiy, tasodifiy, majburiy va ohista inqiloblarga ajratgan. Amerikalik sotsiolog va siyosatshunos **Charlz Tilli** (1929-2008 yy.) davlat to‘ntarishlari, fuqarolar urushlari, qo‘zg‘olonlar va buyuk inqiloblarni ajratib ko‘rsatgan. Nyu-York universitetining professori Jeff Gudvinning fikriga ko‘ra, inqiloblar - bu siyosiy tuzum o‘zgarishini ko‘zda tutadigan ijtimoiyiqtisodiy institutlarning o‘zgarishidir. Amerikalik sotsiolog va siyosatshunos, tarixiy mikrosotsiologiya, inqiloblar va davlat to‘ntarishlar nazariyasini sohasi mutaxassis **Jek Goldstounning** aytishicha, inqiloblar - bu ommani safarbar qilish va oldingi hokimiyatga putur yetkazish bilan kechadigan siyosiy institutlarni qayta tashkil qilish demakdir.

“Davlat - fuqarolik jamiyat” dixotomiysi, butunjahon fuqarolik jamiyatining bo‘gini sifatida nodavlat tashkilotlar faoliyatining xalqaro huquqiy jihatlari, jamoatchilik ongini rivojlantirish, sekulyarizatsiya va desekulyarizatsiya jarayonlari, fuqarolik jamiyatining holati uchun evolyusiya nazariyasiga bo‘lgan munosabat ahamiyati faol ijtimoiy evolyusiya sharoitida fuqarolik jamiyat faoliyatining dolzarb muammolari sirasiga kiradi.

Boshlangan “imperiya prezidentiligi” asri to‘grisidagi tezisni rivojlantirgan amerikalik tarixchi **Artur Shlezinger** (1917-1907 yy.) ning yozishicha, “Konstitusiyada ko‘zda tutilgan prezident hokimiyati va vakillik organlari o‘rtasidagi muvozanat prezident foydasiga buziladi”. “Tashqi siyosat - ushbu konstitusiyaviy muvozanat buzilishi mumkin bo‘lgan sohadir”, deydi A.Shlezinger.

1933 yil 4 mart kuni Prezident **Franklin Delano Ruzvelt** inauguratsiya marosimidagi nutqida bunday degan edi: “Konstitusiyamiz P1u darajada oddiyki, uning mazmunini buzmagan holda yangi urgu qo‘yish orqali ham davrning gayrioddiy talablariga muvofiqlashtirish mumkin. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi

³² Гвардини Р. Конец нового времени// Вопросы философии. -1990. №4.

hokimiyat tarmoqlari o‘rtasidagi oddiy muvozanat oldimizda turgan misli ko‘rilmagan vazifalarga ham mos kelishiga umid qilish kerak. Biroq, mazkur vazifalar davlat hokimiyatining meyordagi muvozanatiga vaqtinchalik o‘zgartishlar kiritishi ham mumkin”³³. YA’ni, F.Ruzvelt AQSH siyosiy tizimida hokimiyat tarmoqlari muvozanati va bo‘linish prinsipining mustahkamligini tan olgan holda, 30-yillardagi favqulotda holatlarda ijro hokimiyati, ya’ni - prezident, jamiyatni qutqarishda muhim o‘rin tutishi darkor, deb hisoblagan.

Buyuk Britaniya va AQShda urushdan keyingi siyosat (1950 yil boshida) haqidagi ilm-fanda davlat va hokimiyatning rasmiy institutlarini tahlil qilishga qaratilgan “eski” institusionalizm hukmronlik qilgan (V.Vilson, J.Bryus, T.Koul, G.Karter, K.Fridrix va boshqalar). Shunday esada, zamonaviy falsafa, jamiyatshunoslik, siyosatshunoslik, ya’ni yangi institusionalizm siyosiy muassasalarga emas, balki aksincha asosiy e’tiborni shaxsni tahlil etishga qaratdi³⁴.

Metodologik institusionalizm - ilmiy bilimni alohida vabirlashgan aktorlar o‘rtasidagi o‘ziga xos ijtimoiy munosabatlar chambarchas bog‘lab qo‘yadigan noklassik ijtimoiy bilim uslubidir.

Amerikaning yetakchi siyosatchilaridan biri **Devid Istonning** (1917 yilda tug‘ilgan) ta’kidlashicha, “teng holatlardan tahlilida tizimlarning muhitning g‘azabni qo‘zg‘atuvchi ta’sirini yengish qobiliyatini e’tiborga olmaslik jiddiy kamchilik hisoblanishi”ni hokimiyatlar muvozanatini aniqlash jarayonlari tahliligi kiritish mumkin”.

“Muvozanatli yondashuv tizim elementlari faqat bitta asosi maqsadga ega bo‘lishi... muvozanatning boshlang‘ich nuqtasiga qaytishi yoki biron-bir yangi muvozanat nuqtasi sari harakatlanishi mumkinligi haqidagi tasavvurni yuzaga keltiradi”, - deydi D.Iston. Buning ustiga “tizimning ayrim elementlari ba’zan muvozanatning oldingi holatinibuzishga ko‘maklashuvchi harakatlarni sodir etishi yoki muvozanatsizlikning doimiy holatini saqlashi mumkin”. Muvozanatli holatlardan tahlilini, garchi noaniq shaklda bo‘lsa-da, uslubiy asos sifatida qabul qilish muvozanatli holatiga erishishga olib bora olmaydigan tizim maqsadlarini aniqlashni qiyinlashtiradi.

Tizimli tahlil, deb xulosa qiladi D.Iston, “yaxshi rivojlangan muvozanatli yondashuv doirasida erishish mumkin bo‘lgan nazariy tahlil darajasidan ko‘ra yanada moslashuvchan va samarali nazariy tuzilmani ishlab chiqish imkonini beradi”³⁵. Hokimiyatning bo‘linish xususiyatlarini tizimli tahlil qilishning mohiyati

³³ Шлэзингер А. Циклы американской истории. –М.: Прогресс, Прогресс-Академия, 1992. –С.399-485.

³⁴ Патрушев С.В. Институционализм в политической науке: этапы, течения, идеи, проблемы// Политическая наука.-2001. №2. С.146186.

³⁵ Истон Д. Категории системного анализа политики/ Пер.с англ. К.А.Зубова//Политология: Хрестоматия./ Сост.: М.А.Василик, М.С.Вершинин. – М.: Гардарики, 2000. –С.-310-311.

shundan iboratki, bunda hokimiya elementlar kompleksi sifatida, muhit - fuqarolik jamiyati va ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlar bilan bog‘liq holda o‘rganiladi.

Hokimiyat bo‘lnishini tizimli asosda tahlil etishning mohiyati shundaki, hokimiyat elementlar kompleksi sifatida, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Tizimli tahlil siyosatdagi ijtimoiy asoslarni hamda siyosatning ijtimoiy voqeliklarga teskari ta’sirini inobatga olgan holda, hokimiyatning bo‘linishini murakkab va o‘zaro bogliq holda tadqiq qilish imkonini beradi. Fuqarolik jamiyatini D.Iston “siyosiy tizimda jamiyat talablari va uni qo‘llab-quvvatlash filtri” deb atadi.

Argentinalik mashxur faylasuf, siyosatchi, Xalqaro siyosiy fanlar assotsiatsiyasi prezidenti (1988-1991 yy) **Gilermo O'Donnellning** (1936 yilda tugilgan) qayd etishicha, siyosiy institutlar “kutilgan natijalarni barqarorlashtiradi”. Siyosiy rahbar va vakillar ular kelgusida o‘zaro munosabatda bo‘ladigan muayyan guruhdagi odamlarning tor doiradagi imkoniyatlar darajasida harakat qilishiga umid qiladi. Ma’lum bir agentlar (muxolifat) bunday odamlardan kutayotgan harakatlar doirasini bu tarzda toraytirishga qarshi chiqishi mumkin, ular kutilayotgan natjalarga mos kelmaydigan nomaqbul oqibatlarni oldindan ko‘ra biladi. Aynan shu o‘rinda siyosiy institut o‘zining kuch-qudratini ko‘rsatishini ta’kidlash kerak. Siyosiy institut buzilishidan hech kim manfaatdor bo‘lmagan muvozanat holatida turadi.

Fuqarolik jamiyati faqatgina yetarli darajada qo‘llab- quvvatlaydigan kuchli davlatlar bo‘lgan taqdirda mavjud bo‘lishi mumkin, deb ta’kidlaydi I.Vallerstayn. Chunki, fuqarolik jamiyati davlat bilan bilvosita siyosiy munosabatlarga jalb qilish va ularning qonuniylashtirilgan faoliyatini amalga oshirish maqsadida davlat doirasida fuqarolarning tashkil qilinishini anglatadi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish dunyo va ichki tizimdagи tartibning cho‘qqisi bo‘lgani holda, liberal davlatlarni yuzaga keltirishning asosiy omili edi. Bundan tashqari, fuqarolik jamiyatidan ilgari liberal davlat tuzilmalarini yaratish uchun birlashtiruvchi omil sifatida foydalanilgan edi. Ammo, avvalambor, fuqarolik jamiyati davlat tomonidan yashirin tarzda amalga oshiriladigan, ammo oshkora tus olishi mumkin bo‘lgan halokatli zo‘ravonlikni to‘xtatish, xavfli sinflarni bostirish borasida tarixan bir vosita bo‘lib xizmat qildi. Ammo davlat tanazzulga yuz tutgani sari fuqarolik jamiyati muqarrar ravishda tarqoqlikka yuz tutishga moyil bo‘lib boradi, deb bashorat qiladi I.Vallerstayn³⁶.

I.Vallerstayn ijtimoiy tadqiqotlar predmetini aniqlashga e’tibor qaratgan. Ko‘plab hujjatli tarixiy manbalar hokimiyatga yaqin odamlar tomonidan yozilishi

³⁶ Валлерстайн И. Конец знакомого мира: Социология XXI века. М.: Логос, 2003. 368-с.

tadqqiqot predmetini jiddiy qisqartiradi. Hujjatlar bunday xususiyatni, masalan, hokimiyat bilan bog‘liq bo‘lmanvoqeliklar mohiyatiini deyarli ochib bermagan. Bundan tashqari, “milliy davlat yeki tarixii millat deiish mumkin bulgan masala oxirigacha hal etilmagan. Har qanday davlat fuqarolik va vatanparvarlikni hisobga oladigan milliy tarixni yaratishdan manfaatdor. “Tarixiy millat”, ya’ni tarixi yaxshi hujjatlashtirilgan davlatlar olimlari tarix manbalarini o‘rganuvchi fanni yaratish va xalqning tarixiy xotirasini “qayta tiklash” uchun ko‘p harakat qilgan³⁷.

XX asrning 90 yillari va XXI asrdagi global ijtimoiysiyoziy tizim konsepsiyalari.

Kelib chiqishi vengr bo‘lgan iqtisodchi va faylasuf, Sasseks universiteti professori (Buyuk Britaniya) Ishtvan Messarosh (1930 yilda tug‘ilgan) “Begonalashishning marksizm nazariyasi” (1930) kitobida fuqarolik jamiyati faqat xristian olamida o‘zining mukammal darajasiga yetishadi deb yozgan. Xristianlikda fuqarolik jamiyati o‘zini davlat hayotidan ajratadi, xudbinlik va xudbinlik zarurati yuzaga keladi, insonlar dunyosi atomistik va anatagonistik shaxslar dunyosida yo‘q bo‘lib ketadi. J.J.Russo va A.Fergyusonni tanqid qilgan I.Messarosh uchun fuqarolik jamiyati - xususiy mulk tayanchi, xudbinlik zarurati va pul ustunligi bilan ifodalanadigan qullikning yangi shaklidir.

Agnesh Xeller (1929 yilda tug‘ilgan) fuqarolik jamiyatini o‘ziga xos tarzda madaniy yodgorlik sifatida izohlagan.

D.Markush (1934 yilda tug‘ilgan) sotsial-liberalizm va G‘arb sotsialdemokratiyasiga o‘tgan hamda bozor iqtisodiyoti va huquqiy davlat prinsiplarini himoya qilgan (“Ehtiyojlardan ustun diktatura”, 1983 yil, A.Xeller bilan hammualliflikda yozilgan). Shu bilan birga, D.Markush Sharqiy Yevropa mamlakatlarining G‘arbiy Yevropa bilan yaqinlashuvi iqtisodiy muammolarni hal etishga yordam bermasdan, balki fuqarolik jamiyati konsepsiyasini obro‘sizlantirib, aql-zakovat egalari va ishlayotgan asosiy aholi o‘rtasida tengsizlikni murakkablashtirishi, ma’naviy keskinlikni kuchaytirishi, tafovutni yuzaga keltirishini e’tirof etgan.

Mixay Vayda (1935 yilda tug‘ilgan) fuqarolik jamiyati rivojlanishini ijtimoiy tabaqaaning eng yaxshi namoyandalari mavjudligi bilan bog‘lagan. Ularning asosiy vazifasi esa “qanday yashash, insonlar bilan bog‘liq vaziyatda axloq jihatidan o‘zini qanday tutish, inson ehtiyojlarini qanday chuqurlashtirish, oshirish va boyitish, madaniyatni shakllantirishda o‘rnak ko‘rsatish” bo‘lgan. Venger faylasufi bunday namoyandalar qanday yashashi, umumlashtirilishi, o‘ziga xos tarzda ifodalanishi

³⁷ Валлерстайн И. Мироисистемный анализ: Введение – М.: Територия будущего, 2006. С-56-57.. М.: Логос, 2003. 368-с. ³⁹
Вайда М. Проблема «новой элиты» // Международный философский журнал. – 1992. №1(2). С.254-258.

mumkin bo‘lgan o‘zini tutishni qanday sinab ko‘rishdan iborat bo‘lishi kerak deb hisoblaydi³⁹.

Faylasuf va iqtisodchi, liberalizm nazariyasi vakili, Avstriya falsafa va iqtisodiyot fani matabining asoschisi (Fridrix Avgust.fon Xayek (1899-1992 yy.) bilan birgalikda) hamda uning yorqin namoyandalaridan biri Lyudvig fon Mizes (1881-1973 yy.) natsizm va fashizm taraqqiy topmagan jamiyatlarning mantiqiy oqibati hisoblanadigan totalitar-mustabid jamoaviy tizimlarni ifoda etishini birinchi bo‘lib ko‘rsatib bergen edi (L.Mizes tomonidan aniqlangan fashizmning marksistik sotsializm bilan aloqasi XX asrning 40-yillariuchun haqiqiy dahshatga soladigan hodisaga aylandi)³⁸.

L.Mizesning fikricha, kollektivizmning har qanday shakli (shu jumladan, ixtiyoriy hamkorlikka asoslangan nazariy shakllar) davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan taqdirdagina mavjud bo‘lishi mumkin. Bunday boshqaruvin natijasida davlat hokimiyati har doim totalitarizm tomonga qarab harakat qiladi. **“Faqat ikkita partiya - hokimiyat tepasida turgan partiya va hokimiyatga ega bo‘lishni istaydigan partiya mavjud,** - deb yozgan edi L.Mizes. - Hattoki, muxolifat ham o‘z manfaatlarini ta’minlash yoki partiyasini amaldor a’zolar bilan to‘ldirish uchun emas, balki o‘z g‘oyalarini qonunchilikka tatbiq etish hamda mamlakatni boshqarishda ularni amalga oshirish uchun hokimiyatni egallashga intiladi”. Parlamentning belgilovchi rolini tanqid qilgan L.Mizesning fikricha, “davlatda siyosiy hokimiyatning bo‘linishini belgilab beradigan muhim qarorlar palata majlislarida yoki bu hokimiyat tarkibini aniqlab beradigan saylovlar jarayonida qabul qilinmaydi. **Davlat siyosatini shakllantirish jarayonida turli korporativ uyushmalarning konstntusnya tomonndan belgilangan nisbiy salmog‘i hokimiyat bo‘linishing hal qiluvchi omili hisoblanadi**”. L.Mizes uchun **“pirovard natijada mafkura har qanday hokimiyat va hukmronlikning asosidir”** - “liberalizm...goyalar hukmronligi va tinchlikka intiladi”. (L.Mizes yaratgan yaxlit xalqaro ilmiy yo‘nalish doirasida bir necha avlod olimlar va mutafakkirlar faoliyat ko‘rsatgan, degan fikrlar mavjud. Bunda kapitalistik jamiyat va institutlar nazariyasini ishlab chiqish ushbu yo‘nalishning asosiy maqsadi bo‘lgan. Ilmiy ishlar, avvalo, iqtisodiy, ijtimoiy nazariya, siyosiy falsafa sohasida olib borilmoqda).

Avstriyalik iqtisodchi va faylasuf, erkin bozor va liberal iqtisodiyot tarafdori Fridrix Avgust fon Xayek dastlabki **“liberal- demokratik tajriba** klassik liberalizm tarafdorlari erkinlikni qo‘llab- quvvatlash vositasi sifatida tanlagan institusional tizim erkinlikni qonun doirasida rivojlantirish vazifasini uddalay olmagani uchun

³⁸ Мизес Л. Всемогущее правительство: Тотальное государство и тотальная война. – М.: Социум, 2007.-466-с.

barbob bo‘lganini ko‘rsatib berdi. Klassik liberalizm asoschilari hokimiyatni - qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘lishni orzu qilgan edilar, ammo bu umid to‘la amalga oshmadi, - deb hisoblaydi F.Xayek. Bu borada “ilgari surilgan eng ilg‘or” tajriba - vakolatlarning federal hukumat va shtatlar o‘rtasida bo‘linishi, shuningdek, hukumatlarning federal darajada bo‘linishiga asoslangan AQSH Konstitusiyasi Markazni bo‘ysundirish imkonini bermadi, chunki qonunchilik jarayoni siyosiy jarayondan kerakli darajada ajratilmagan edi. Oliy sud qonunchilik jarayonini siyosiylashuvdan tiyib turishi kerak edi, biroq uning o‘zi siyosiylashuvga duchor bo‘ldi. F.Xayekning fikriga ko‘ra 1) ochiq va yopiq bo‘lmaydi, balki liberal va totalitar jamiyat mavjud; 2) xususiy mulk institutiga asoslangan va shaxs erkinligi oliv qadriyat hisoblangan jamiyat inson xohish-istiklariga ko‘proq mos keladi; 3) fuqarolar uyushmasi sifatida tashkil etilgan jamiyatda qonun guruhlar manfaati xizmat qiladigan vosita, davlatning quroli bo‘lmasligi darkor. Ushbu ma’naviy va oqilona normalar barcha uchun majburiy xususiyatga egadir.

F.Xayek uyushgan rahbariyatni kuchaytirish xilma-xillik o‘rniga birxillikka sabab bo‘lishidan kelib chiqqan³⁹ va qonun chiqaruvchi hokimiyatning ustuvor rolini tanqid qilgan: “Qonun vakolatlariga ega bo‘lgan vakillar majlisi, barcha zamonaviy davlatlarda bo‘lgani kabi, ijro hokimiyatining aniq harakatlarini boshqaradigan oliv hokimiyatga aylanadigan, hokimiyatning bo‘linishi esa qonun bilan vakolat berilmaganbunday ma’muriyat hech nima qilma olmasligini anglatadigan joydaqonunlar erkinlikni tom ma’noda chegaralaydigan holat yo‘qoladi.“Liberallar, - deb yozadi F.Xayek, - ijtimoiy fikr kabi kuch ham hokimiyatko‘rsatmalarining manbai bo‘lishga qodir bo‘lmasa-da, davlatning ayrimumumiyligini xususiyatlarga ega bo‘lgan barcha organlarini harakatga undaydiganqonuniy hokimiyatni olib borishi mumkinligiga ishonishadi”.

Huquq falsafasi sohasidagi ishlanmalari xalqaro e’tirofga sazovor bo‘lgan italiyalik faylasuf va huquqshunos Bruno Leoni (1913-1967 yy.)individualizm va libertarian prinsiplari tarafdori bo‘lgan. Parlamentomonidan ishlab chiqilgan qonunlarni B.Leoni ortiqcha va huquqlarnito‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi, deb hisoblagan hamda baborada V.Shekspirning “surbetlarcha vakolatlar” to‘g‘risidagi so‘zlaridaniqtibos keltirgan. B.Leoni, avstriyalik huquqshunos va jamiyatshunos OxygenErlix (1862-1922) singari «qonunchilik dorisi haddan ziyod juda ozchiliknitashkil qiladigan odamlar (qonun chiqaruvchilar) fikri bilan chambarchasbog‘liq va ular kim bo‘lishidan qat’i nazar barcha uchun dori bo‘la olmaydi»deb hisoblagan¹⁶⁴. B.Leonining fikricha, zamonaviy huquqni o‘zgartirish,yozilgan qonundan yozilmagan qonunga o‘tkazish zarur. Bunda

³⁹ Сысоева Л.С., Поппер К.Р., Хайек Ф.А. Сорос Дж. Три взгляда на открытие общества// Вестник Томского государственного педагогического университета.2004. №2.С21. ⁴² Леони Б. Свобода и закон.-С.157.

huquqiy normaqaonun ijodkorligi jarayoniga jalg qilingan barcha odamlarhamhijatligida namoyon bo‘ladigan umumiy manfaatni ifoda etishi lozim⁴².

F.Xayekning maslakdoshi, amerikalik buyuk iqtisodchi, libertariantlik asoschilaridan biri, Iqtisodiy ta’lim jamg‘armasi (G‘oipyayop £og Yesoposhls Yeyisayop) asosichisi va raisi Leonard Rid (1898- 1983 yy.) o‘zini o‘zi boshqarish tuzilmalari bilan cheklangan bozorni rivojlantirish tarafdori bo‘lgan.

Britaniyalik sotsiolog Devid Grin, F.Xayek va B.Leoni kabi, qonunchilik jarayonini siyosiylashtirmaslik uchun kurashgan, qonun davlatning quroli va manfaatdor guruhlarning vositasiga aylanmasligi uchun uni davlatdan ustun qo‘yish kerak, deb hisoblagan. D.Grinning ta’kidlashicha: “bugungi kunda eng muhim vazifa - erkinlik to‘g‘risidagi tasavvurlarimizni qonun doirasida “yangilashdir”. G‘arbdagi mavjud erkin hayot obrazi hokimiyatni faqat bitta markazga qaratmaslikka asoslangan. Bu tizim hokimiyatning bo‘linishi odamlarni harakat qilishga undab, ular nima qilish kerakligini bilgan taqdirda samarali ishlaydi.... Holbuki, jamiyatning oliy maqsadi faqat manfaat ko‘rish bo‘lsa, u qashshoqlashishi mumkin. Hammamizning ham keng ko‘lamli va oljanob maqsadlarimiz bor”⁴⁰.

F.Xayek, D.Grin, B.Leoni, L.Ridning asosiy tezisini quyidagicha ta’riflash mumkin: ijtimoiy davlat fuqarolik jamiyatini siqib chiqaradi; davlat ilgari hokimiyatning alohida huquqiga kirgan ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha ko‘plab vazifalarni o‘z zimmasiga olganida fuqarolik jamiyati tanazzulga uchraydi; ijtimoiy sohada o‘zini o‘zi tashkil qilish ko‘nikmalar yo‘qoladi; fuqarolik jamiyati bilan birga demokratiya ham inqirozga yuz tutadi. Yuqorida tilga olingan tadqiqotchilar bu borada ijtimoiy institutlar ijtimoiy masalalarni hal qilishni qaytarib oladigan fuqarolik jamiyati ijtimoiy davlat tortib olgan barcha vakolatlarni o‘ziga qaytarib olishi mumkinligiga ishonchi komil.

Targ‘ib qilingan fuqarolik kapitalizmi asosini quyidagi muhim g‘oyalar tashkil etgan. Birinchidan, erkinlik jamiyatda hokimiyatni to‘plash markazlari mavjud bo‘lmagan holda qayta tiklanadi. Ikkinchidan, hokimiyatning istagisiz, odamlar tomonidan tashkil etiladigan ijtimoiy institutlar fuqarolik jamiyatining poydevori hisoblanaldi. Uchinchidan, har bir shaxs o‘zini axloqiy jihatdan javobgar deb biliши kerak; erkin jamiyatda odamlarning bir-biriga bo‘lgan talabi ancha oshadi. To‘rtinchidan, quyidagi savolning javobi davlatning har qanday harakatini baholash uchun asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi: “Ular odamlarni davlat maqsadlariga erishish vositasiga aylantiradimi yoki aksincha, davlat odamlarga o‘z maqsadlariga erishishga imkon beradigan vositalarni yaratadimi?”.

⁴⁰ Грин Д. Возвращение в гражданское общество. Социальное обеспечение без участия государства. – М.: Новое издательство, 2009. – С.167-168.

R.Gvardini o‘zining “Yangi davr oxiri” asarida siyosat davlat hokimiyatini amalga oshiradi va uning inson qadr-qimmati, baxt-saodati bilan ishi yo‘q deb yozgan. Hokimiyat avvalo, odamlarni o‘ziga qaram qiladi; zamonaqiy texnik tizimlar o‘zini o‘zi rivojlantiradigan ijodkor shaxslar mavjud bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi; hokimiyatni suiiste’mol qilish, pirovard natijada nafaqat ehtimol va mumkin bo‘lgan, balki muqarrar jarayonga aylanadi¹⁷². Texnika va hokimiyat ittifoqi oldida inson mutlaqo ojiz bo‘lib qoladi. Yangi avlod texnikasi dunyoni egallah, tabiat va insonlarga hukmronlik qilish qurolidir.

Amerikalik taniqli faylasuf va siyosiy nazariyasi **Jeyms Bernxem** (1905-1987 yy.) o‘zining “Menejerlar inqilobi” asarida (1941), mashhur menejerlar jamiyat nazariyasida nisbatan qisqa vaqt ichida boshqaruvchilarning mulkdorlardan ajralib chiqishi ro‘y berishi, “ijtimoiy hukmronlik manfaati, hokimiyat va imtiyozlar, boshqaruv sinfi lavozimiga da’vogarlik qilish kampaniyasi”da ishtirok etadigan yangi “ijtimoiy guruh yoki sinf” - “menejerlar”dan iborat yangi sotsium paydo bo‘lganini ta’kidlagan.

Nemis yozuvchisi, mutafakkir, totalitar jamiyat va konservativ inqilob nazariyasi maddoxlaridan biri **Ernst Yunger** (1895-1998 yy.) shundai degan: Biz o‘ziga xos etik, ijtimoiy yeki siyesii tasniflashning tartibini o‘rnatishga harakat qilayotgan va o‘z o‘rnimizni topishga intilayotgan barcha joydalarda hal qiluvchi front pozitsiyasini egallay olmaymiz. Balki liberalizmning o‘n yillab olib borgan faoliyati davomida bema’nilashgan, umumiylar saylov huquqi, umumiylar harbiy majburiyat, umumiylar ta’lim, yer mulki va boshqa prinsiplar safarbar qilingan XIX asrning bir chekkasida qolib ketamiz. Chunki, bu borada keyinchalik ushbu vositalar yordamida qilingan har qanday say-harakat behudadir⁴¹.

E.Yunger urush davridayoq fuqarolik jamiyat mavzusiga to‘xtalibotgan. Uning fikricha, ma’naviy fikr yuritishni urush bilan aralashtirish «mardonavor xalqlar, jahon tarixi doirasida ularning halol bellashuvi, ma’naviyat, ko‘r-ko‘rona harakat qilishga undaydigan omillarga qarshi urush» davrini boshlab beradi. E.Yunger uchun siyosiy hokimiyat - qaror qabul qilish irodasi, milliy hayot voqeliklaridan xabardor bo‘lishdir⁴². Faylasufni yana davlat, hokimiyat, xalq mohiyati va ahamiyati kabi tushunchalar ham qiziqtirgan - bu tushunchalar “yangi millatchilik” tuzilmasining, ya’ni “bir insonning mavjud bo‘lishidan ko‘ra o‘ta muhim mavjudot bo‘lgan millat orasida yashash erki”ning tarkibiy qismlariga aylanishi lozim.

⁴¹ Юнгер Э. Рабочий. Господство и гештальт. -: «Наука», 2000.

⁴² Родиков Ю.Ю. Война и государство: динамическая и субстанциональная основы политической сферы общества в концепции Э.Юнгера// Вопросы экономики и права. -2010.№ 2. С-48-52.

Taniqli nemis va amerikalik faylasuf, siyosatchi va tarixchi, totalitarizm nazariyasi asoschisi **Xana Arendtning** (1906-1975 yy.) fikricha, ommaviylik va g‘ayrirasmiylik }ftasidagi muvozanat har qanday jamiyatning asosiy xususiyati hisoblanadi. Ijtimoiy-fuqarolik va xususiy sohalar o‘rtasidagi muvozanatsizlik inson hayotining normal kechishini o‘zgartirib yuboradi. Totalitar jamiyatni ifodalovchi ochiq va oshkora ommaviylik insonning g‘ayrirasmiy sohada o‘zini namoyon etishimkoniyatlarini pasaytirib, qonuniylik chegaralarini rasman kengaitiradi.

Hokimiyatning mavjudligi fuqarolarning siyosiy hayotda faol ishtirok etishi uchun zarur shart hisoblanadi. Jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyati institutlarida zo‘ravonlikning eng so‘nggi shakllari ta’sirida yuzaga kelgan hokimiyatsizlik X.Arendt tomonidan yolg‘iz odamning tanho hokimiyati, ya’ni zolimona hukmronlik sifatidaizohlangan.

Quruq zo‘ravonlik va hukmronlikka asoslangan siyosiy hokimiyat nima o‘zi?

X.Arendtning fikricha, bunday hokimiyat “odamlar birgalikdagi kelishilgan faoliyatda ishtirok etadigan barcha joylarda bor”.

Vengriyada tug‘ilgan Germaniya va Britaniya faylasufi, sotsiologiya fani asoschilaridan biri **Karl Mangeym**ning (1893-1947 yy.) yozishicha, totalitar tizim barcha ma’naviy va emotsiyal hayotni yagona markaziy hokimiyatga bo‘ysundirishga harakat qilgan holda, o‘z rahbariyatiga hokimiyatni tashkil qilish masalalarini majburan qabul qildiradi. Ulkan sanoat komplekslari asrida jamiyat tomonidan nazoratning yo‘qligi ijtimoiy fikrni shakllantirish bo‘yicha hokimiyatni bir qancha yirik monopolistlar qo‘liga topshirib qo‘yadi. Kelajakdagi axloq modellari imkoniyatlari jamiyatning nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy tuzilmasi tomonidan aniqlanadi. Demak, biz hokimiyatning qanday shakllari mavjud bo‘lishi, hokimiyatni qanday taqsimlash va nazorat qilish kerakligini o‘rganishimiz lozim. Mazkur masalalarga yondashuvimiz haqiqiy bo‘lishi, ya’ni reaksiyon, xayoliy bo‘lmasligi kerak⁴³.

K.Mangeym uchun mavjud mafkura - hokimiyat tepasida turgan, mavjud tartibni saqlab qolishga intilayotgan ma’lum bir guruh yoki sinflar manfaatlarini ifoda etadigan ijtimoiy voqelikning taxminlarga asoslangan in’ikosi; “soxta bilim”, yolgon va o‘zini o‘zi aldashdan iborat. Istiqbolli o‘zgarishlar xususida so‘z borganda K.Mangeym avlodlar o‘zgarishini, ya’ni sovetlarga xos “hayot tajribasi” ta’siridan xoli sobiq kommunizm fuqarolarining yangi avlodi voyaga yetishini eng maqbul o‘zgarish deb hisoblaydi.

Umuman olganda, **konservativ inqilob nazariyotchilari** uchun millatchilik, o‘z mamlakatini mustaqil rivojlantirish, “yangi tartib”ni o‘rnatish, qadimiy tarixga

⁴³ Мангейм К. Диагноз нашего времени. – М.: Юрист, 1994.

qiziqish, birdamlik (demokratik yoki iyerarxik) prinsipiga asoslangan adolatli jamiyat g‘oyasi, o‘tmishdagi va an‘anaviy elementlarni zamonaviy texnik g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirish xosdir⁴⁴. Buning ustiga, mashhur siyosatchi va adabiy tanqidchi, Garvard universitetining sobiq xodimi Andreas Umlandning ta’kidlashicha, “turli mamlakatlar yoki turli madaniyatlar konservativizmini hatto yuzaki o‘rganish, Buyuk Britaniya, Germaniya va Rossiyada XIX-XX asr konservatorlarining asosiy g‘oyalarini taqqoslash xususiy mulk, hokimiyatlar bo‘linishi, alohida erkinlik, hukumatning ijtimoiy hayotga aralashuvi, fuqarolik mezonlari kabi muhim ijtimoiy masalalarga turlicha yondashuvlardan dalolat beradi”.

Nemis faylasufi va sotsiologi, “sanoatlashgan jamiyat” nazariyotchisi, Frankfurt maktabi asoschilaridan biri **Maks Xorkxaymer** (1895-1973 yy.) demokratik oliy maqsadlar obe’ktiv haqiqatlarga emas, balki odamlar “manfaatlari”ga bog‘liq, deb hisoblaydi. M.Xorkxaymer o‘zining jamiyat tanqidiy nazariyasida (mazkur nazariyada anglash subektini uning obektidagn uzoqlashtirishni bartaraf etish muammosiga alohida e’tibor qaratilgan) burju jamiyatining marksistik tanqid asoslarini Zigmund Freydning psixoanaliz g‘oyalari, Artur Shopengauer etikasi bilan bog‘lashga uringan.

Nemis faylasuflari va sotsiologlari **Maks Xorkxaymer** hamda **Teodor Lyudvig Vizengrud Adorno** (1903-1969 yy.) bilan hamkorlikda yozgan mashhur “Ma’rifat dialektikasi” (1944 y) kitobida, vijdon hokimiyatga intilish istagidan voz kechish orqali paydo bo‘ladi, deb yozgan. Ichki qarama-qarshiliklar, nonkonforizm, insonlarning o‘zaro birdamligi ijtimoiy o‘zgarishlarga olib boradigan yo‘ldir.

T.Adorno monopolistik “boshqariladigan jamiyat”dagi munosabatlar standartlashtiradigan “ommaviy madaniy sanoat”ga alohida e’tibor qaratgan. T.Adornoning fikricha, madaniy sanoat aholiga o‘z manfaatini ko‘zda tutgan holda yo‘nalish beradi, madaniy tovarni tayyorlab, ommaviy axborot vositalari orqali tarqatadi. Madaniy sanoat odamlarning moddiy ahvoli qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, ularni passiv va itoatkor qilib qo‘yadi.

T.Adorno uchun inson - o‘zini boshqa dunyoga qarshi qo‘yuvchi destruktiv mavjudotdir; umumiy ijtimoiy kafolatlar davlati ishla chiqarish vositalari mulkdorlari manfaatlariga xizmat qiladi: ular ishchi sinfiga o‘zining tinchligi va xavfsizligini kafolatlash uchun biron-bir va’dani kafolatlaydi; “jamiyat” deganda “odamlarning birgalikdagi hayoti va ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish turlarining” xilma-xilligi tushuniladi. O‘rta sinf - mustaqil tadbirkorlar emas, balki yirik korporatsiyalarning malakali va katta miqdorda haq to‘lanadigan xodimlaridir.

⁴⁴ Умланд А. Консервативная революция: имя собственное или родовое понятие? // Вопросы философии. -2006. №2. С.116-126.

Sinfiy kurash obro‘-e’tibor uchun kurashga o‘z o‘rnini bo‘shatib beradi. Bu kurash yuqori tabaqadagi guruhga mansub bo‘lish, qandaydir real yoki xayoliy ustunliklarga erishish uchun qimmatbaho iste’mol predmetlariga ega bo‘lishga intilishdan iborat.

Nemis va amerikalik faylasuf, Frankfurt maktabining boshqa bir vakili **Gerbert Markuze** (1898-1979 yy.) jamoa va shaxs psixologiyasini o‘rganishga e’tibor qaratgan holda, jamiyat qanday qilib shaxsni o‘zgartirishi mumkinligi to‘grisida bosh qotiradi.

Mashhur “Bir o‘lchamli odam” kitobida G. Markuze uchun jamiyat sifisiz hisoblanadi, unda niqoblangan neotalitarizm hukm suradi, inson bir yoqlama fikrlaydi, ommaviy axborot vositalari har bir shaxs ongiga yolg‘on, keraksiz narsalar va ulardan foydalanish ehtiyojini singdiradi. “Hukmronlik va muvofiqlashtirish tizimini qamrab olgan texnik taraqqiyot, - deb yozadi G. Markuze, - zohiran tizimga qarshi kuchlarni yarashtiradigan, aslida esa istiqbolda og‘ir mehnat va hukmronlikdan ozod bo‘lish yo‘lidagi har qanday e’tirozning negizini yo‘q qiladigan hayot (va hokimiyat) shakllarini yaratadi⁴⁵. “Ayni paytda siyosiy hokimiyat mashinalashtirilgan ishlab chiqarish va apparatni texnik tashkil qilish jarayoni ustidan hukmronlik qilish orqali o‘z mavqeni mustahkamlaydi. Rivojlangan va rivojlanayotgan sanoatlashgan jamiyat hukumati o‘z o‘rnini sanoatlashgan taraqqiyot ega bo‘lgan texnik, ilmiy va mexanik mahsuldarlikni tashkil qilish, undan foydalanish hamda safarbar etish orqaligina saqlab turishi mumkin”. Uning fikricha, “kapitalizmni rivojlantirishning yuqori bosqichida jamiyat cheklangan plyuralizm tizimi bo‘lib, unda institutlar shaxs ustidan hukmronlik qilishni mustahkamlash uchun kurashadi. Shunday bo‘lsa-da, boshqariladigan shaxs uchun plyuralistik ma’muriyatçilik ommaviy ma’muriyatçilikdan afzaldir. Bir institut uni boshqasidan himoya qilishi, bir tashkilot ikkinchisining ta’sirini yumshatishi mumkin. Qonun hokimiysi cheklangan bo‘lsa-da, qonundan ustun yoki uni e’tiborga olmaydigan hokimiyatdan ko‘ra ishonchliroqdir”. “Har qanday holatda, - deydi G. Markuze, - markazlashgan hokimiyat va to‘g‘ridan- to‘g‘ri demokratiyaning birlashishi, rivojlanish darajasiga qarab, cheksiz juz’iy o‘zgarishlarda namoyon bo‘lishi mumkin”.

Frankfurt maktabining fuqarolik jamiyatni va hokimiyat bo‘linishi nazariyasiga ta’siri haqida gapirganda, kapitalistik jamiyatning ushbu maktabining monolit tizim sifatida izohlanishi ta’kidlash lozim. Bunday tizimda inqilob roli marginal ziylolar va autsayderlarga o‘tadi. Texnokratik bo‘lgan ushbu jamiyat ommaviy axborot vositalari orqali yolg‘on fikrlarni tarqatish hisobidan mavjud bo‘ladi. Falsafaning

⁴⁵ Маркузе Г. Эрос и цивилизация.

roli gumanizm, totalitarizm va avtoritar shaxsni tanqid qilish, insonni har qanday shakldagi ekspluatatsiyadan ozod etish, ijtimoiy munosabatlarda inson omili ahamiyatiga e'tibor qaratishdan iborat.

Amerikalik sotsiolog va publitsist, sanoatlashuvdan keyingi(axborot) jamiyat nazariyasi asoschisi **Deniyel Bell** uchun (1919-2011 yy.) sanoatlashuvdan keyingi jamiyat - hokimiyat meritokratiya - aql-zakovat egalariga tegishli “professionallar”, “aql-zakovatli kishilar jamiyat”dir. “Sanoatlashuvdan keyingi jamiyat, - deb yozadi D.Bell, - vakillari siyosiy darajada maslahatchilar, ekspert yoki texnokratlar bo‘lgan intellektual sinfning paydo bo‘lishini ko‘zda tutadi”. Fuqarolik jamiyatida intellektual tabaqalashuv ro‘y beradi. Bunday tabaqada aqliymehnatga nisbatan salohiyati past odamlar jamiyatning eng quyi pog‘onasiga kiritiladi.

Bundan tashqari, axborotning ustuvor ahamiyati fuqarolik jamiyatni uchun o‘ziga xos xususiyatdir. D.Bellning fikricha, jamiyatni axborot bilan ta’minalash siyosatda ishtirok etishga qodir, boshqaruv tizimi samaradorligini yetarli darajada ta’minalaydigan “vakolatli fuqaro” konsepsiyasiga mosdir.

Amerikalik sotsiolog va futurolog, sanoatlashuvdan keyingi jamiyat konsepsiysi mualliflaridan biri **Elvin (Olvin) Toffler** (1928 yilda tugilgan) “Yaqin kelajakda tashkil etilishi rejalashtirilayotgan institutlarda diniy va shunga o‘xshash guruuhlar, global korporatsiyalar, atrof-muhit va inson huquqlarini himoya qilish harakatlari va boshqa shakldagi fuqarolik jamiyatlari qay darajada ifodalanishi kerak?” degan savolni o‘rtaga tashlaydi⁴⁶. Bugungi kunda o‘zini mustaqil davlat sifatida saqlab qolishga urinayotgan jamiyat ommaviy kompyuterlashtirilmasligi darkor. “Fuqarolik jamiyatining faoliyat yuritishi uchun keragidan ortiq narsalarni majburan qabul qildirish va tuzumni abadiylashtirishga qaratilgan tartib bema’nilikdir”, - deb yozadi E.Toffler. Hokimiyat - bu insonlar o‘rtasidagi har qanday o‘zaro munosabatning muqarrar jihatidir, hukmdorlar yoki xalqning odamlar faoliyati, fe’l-atvori, ongi va fikriga keskin hamda keng ko‘lamli ta’sir ko‘rsatish, ularning taqdirini boshqarish qobiliyati va imkoniyatidir. Bizni oldinda hokimiyat uchun global kurashlar kutmoqda, ammo uning asosini zo‘ravonlik yoki pul emas, balki bilim tashkil qiladi.

Amerikalik taniqli tahlilchi, xalqaro munosabatlar sohasidagi ekspert, “NewsweekInternational” haftalik jurnali muharriri **Farid Zakariyoniiq** fikriga ko‘ra, zamonaviy g‘arb dunyosining qadriyatlari “demokratiya ko‘pincha shaxsning ko‘pincha hamjamiyat hokimiyatiga bo‘ysunishini ko‘zda tutadigan” yunon an’analardan emas, balki “ barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi”ni ta’milagan Rim qonun- qoidalaridan kelib chiqqan. “Hokimiyatning bo‘linishi,

⁴⁶ Тоффлер Э. Метаморфозы власти. –М.: ООО «Издательство ACT», 2002.. –Т.2. –С.566.

mansabdor shaxslarni cheklangan muddatga saylash va qonun oldida tenglik ta'minlangan Rim respublikasi, - deb yozadi F.Zakariyo, - Amerika respublikasini tashkil qilishda namuna bo'lib xizmat qildi".

Qariyb yil davomida G'arbda demokratiya liberal demokratiya - nafaqat erkin va haqqoniy saylovlar, balki qonunni boshqarish, hokimiyatni bo'lish va asosiy erkinliklar bo'lган so'z, yig'ilish, din va mulkdor erkinligini himoya qilishni ifoda etgan siyosiy tizimni anglatgan, deb yozadi F.Zakariya²¹³. Oraliqda rivojlanish mahsuli - bu demokratik institutlar mavjud bo'lган, ammo aslida yangilanish uchun emas, balki hukmron guruh hokimiyatini saqlab qolishga xizmat qilgan gibrid, yasama demokratiya mahsulidir. F.Zakariya bunday rejimlarni "noliberal demokratiya" deb ataydi⁴⁷.

Ma'lumki, vestminster tizimi (Buyuk Britaniya davlat modeli prinsiplari asosiga qurilgan davlat boshqaruvining demokratik parlament tizimi) to'qqizta ajratib turadigan belgiga ega (davlatning rahbari nomigagina bo'lishi; hukumat rahbari parlamentda ko'pchilikni tashkil etadigan kuchlarning yetakchisi sifatida; parlamentdagi ko'pchilik ishtirokidagi hukumat; ikki palatali parlament; parlament muxolifati; quyi palataning hukumatni iste'foga chiqarishga qodirligi; parlamentni tarqatib yuborish imkoniyati; deputatlar daxlsizligi; yozma qarorlar). Bu tizimdan bugungi kunda Avstraliya, Kanada, Hindiston, Irlandiya, Isroil, Malayziya, Yangi Zelandiya, Pokiston, Singapur, Tailand, Buyuk Britaniya kabi 32 ta davlat foydalanmokda.

Bosh vazir mahkamasining, xususan, Vazirlar Mahkamasida murosaga erishish masalalarida muhim o'rinn tutishi (1); hukumat a'zolari orasida Bosh vazir siyosatini ma'qullamaydigan kuchlar kamchilikni tashkil etishi (2); hukumat majlisining kun tartibidagi hatto bitta masalaga qarshi chiqqani uchun ham mahkama a'zosining iste'foga chiqish imkoniyati (3); parlament deputatining uning partiyasi a'zolari parlamentda ko'pchilikni tashkil qilgan taqdirda o'z pozitsiyasini ilgari surish qobiliyati (4); hokimiyatning bo'linish an'anasini rivojlantirish layoqatsizligi, Vazirlar Mahkamasini a'zolari, sudyalar, yuqori martabali amaldorlarni saylashda Bosh vazirga katta erkinlik berilgani (5) va boshqalar Vestminster tizimining kamchiliklari sirasiga kiradi.

Yevropa Ittifoqini boshqarish tizimida hokimiyatni qonun chiqaruvchi va ijro tarmoqlariga bo'lishga atayin rioya qilinmaydi. Qonun chiqarish vazifasi Yevropa kengashi (Yevropa ittifoqining unga a'zo mamlakatlar hukumatlari va davlat rahbarlaridan tashkil topgan oliy siyosiy organi) va Yevropa parlamentiga (uchtan muhim vazifani bajaradi: qonun chiqarish, byudjet masalasi va Yevropa

⁴⁷ Закария Ф. Будущее свободы: нелиберальная демократия в США и за их пределами. М.: Ладомир, 2004.

komissiyasini nazorat qilish), ijro vazifalari esa Yevropa komissiyasiga (YEI ijro hokimiyatining oliy organi) va Yevropa Ittifoqi kengashiga tegishlidir. Shu sababli qabul qilinayotgan qarorlarga kim javobgar ekanini aniq aytib bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda davlat qurilishining zamonaviy amaliyotiga xorijiy standartlarni tatbiq etish haqida ham to‘xtalib o‘tsak. Sharl-Lui Monteskening (*CharlesLouisMontesquieu*) hokimiyatning bo‘linishi to‘g‘risidagi mashhur doktrinasi, davlat rahbarlaridan birining ta’kidlashicha, “qat’iy emas, balki yo‘naltiruvchi xususiyatga egadir”. Shunday esa-da, rivojlangan davlatlar, demokratiyani amalga oshirgan mamlakatlarning tajribasini o‘rganish uch tarmoqsan iborat hokimiyat tizimini takomillashtirishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, ko‘rib chiqilayotgan mamlakatlar hokimiyat vakillik organlarining “quyi bo‘ginlari”ni rivojlantirishga e’tibor qaratishi hamda uch tarmoqdan iborat hokimiyat tizimini munitsipal darajaga bosqichma-bosqich o‘tkazish lozim (bu borada, bizningcha, Germaniya tajribasi foydaliroq). Yana bir boshqa yo‘nalish - bu hokimiyatning birorta ham asosiy tarmoqlariga kirmaydigan tuzilmalarning (Prokuratura, Markaziy bank, Markaziy saylov komissiyasi, Hisob palatasi, Ombudsman, Prezident devoni, Milliy xavfsizlik kengashi va boshqalar) funksional majburiyatlarini aniq belgilashdir (AQShning ijobiy tajribasi). Mazkur sohada yana qator boshqa masalalar ham mavjud.

Belgiyada hokimiyat bo‘linishining kompleks modeli ustuvor ahamiyatga ega. Gorizontal bo‘linish, subsidiarlik (vertikal bo‘linish) va sekulyarizm (davlatning dindan ajralishi) uning prinsiplaridir. Vazirlar qirol tomonidan tayinlanadi (u vazirlarni saylamaydi, balki aynan tayinlaydi), vazirlar odatda parlamentning saylangan a’zolari orasidan tanlanadi. Sudyalar saylanadigan lavozimga da’vo qilisholmaydi, ayni paytda esa ular boshqa lavozimlarga tayinlanishi mumkin (masalan, harbiy, politsiya, ruhoniy, notarius, sud ijrochilarli lavozimi). Hokimiyatning vertikal bo‘ylab bo‘linishi milliylikdan ustun direktivalar (Yevropa Ittifoqi qonunchiligi), ikki palatali parlament, federal hukumat, qator quyi tuzilmalarning qarorlarini ko‘zda tutadi.

Belgiya (Shveysariya singari) - konsotsional demokratiyaning o‘zigaxos namunasidir. YA’ni, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining roli ortib boradigan demokratik boshqaruvni oqilona taqsimlash prinsipi bo‘yicha tashkil qilingan respublikani boshqarishda turli etnik guruhlar (katta va kichik) vakillarining huquqiy jihatdan mustahkamlangan ishtiroki bu mamlakatda asosiy o‘rin tutadi. Bu yerda jamiyatning turli katta etnik guruhlarga bo‘lish tan olingan. Vallonlar fransuz tilida, flamandlar esa o‘z tilida so‘zlashadi. Belgiya - parlamentda, tarkibiy boshqaruvda mayda millatlarning proporsional vakilligiga, guruhlar manfaatlarini inobatga olgan holda qaror qabul qilish tartibini belgilaydigan konstitusiya normalariga ega bo‘lgan ikki palatali davlatdir. YA’ni, bu davlatda etnik

guruuhlar siyosiy subekt sifatida namoyon bo‘ladi, bunda mutlaq huquqlarga ega guruuhlar mavjud emas⁴⁸.

Konsotsionalizm o‘z-o‘zicha hokimiyatning bo‘linishi hisoblanmaydi, bushunday bo‘linish shakllaridan biri, demokratiyaning mavjud bo‘lishi va zo‘rovonlikning oldini olish usulidir; bu davlat boshqaruving muqobil shakli bo‘lib, ko‘p millatli, tilli va dinli jaamiyat ichidagi muammolar ijobiyligi etilishini ifoda etadi. Konsotsionalizm Britaniya demokratiyasini, “hukumat muxolifatga qarshi” modeli, raqobat yoki “musobaqalashish” prinsipining aksidir. Ko‘plab faylasuflar (chunonchi,

San-Diyegodagi Kaliforniya universiteti professori **Arend Leypxart**²⁴⁶(1936 yilda tugilgan), tomonidan aniqlangan ko‘plab konsotsionalizmning belgilari orasida quyidagilarni ajratish mumkin: partiyalarning keng koalitsiyasi, kamdan-kam o‘zgartishlar kiritilgan qat’iy konstitusiya, sud nazorati (birinchi navbatda, mayda millatlarga sudga murojaat qilish uchunimkon beradigan), davlat sektorida mutanosib bandlik, davlat rahbarining betarafligi, mustaqil Markaziy bank, Bosh vazir “teng vazirlar orasida birinchi” bo‘lishi. Eng yaxshi namoyandalarning keng ishtiroki; umummilliy jarayonda qatnashayotgan eng yaxshi namoyandalar mutanosib ravishda turli bo‘g‘inlarga ajratilgani; submadaniyatlarning barqarorligi konsotsionalizm faoliyat ko‘rsatishining muhim omillaridir. Ushbu uchta omildan tashqari faylasuflar tashqi tartibga soluvchi bosim, fuqarolik jamiyatiningishtirokini ham qaid etadi.

Ma’lumki, Vengriyada rasmiy hokimiyatning to‘rt tarmog‘i (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud, bosh prokuror) va oltita asosiy davlat organi (parlament, hukumat, oliv sud, konstitusiyaviy sud, prezident, bosh prokuror) faoliyat yuritmoqda.

Stenford universitetining siyosatshunoslik bo‘yicha professori **Filipp Shmitter** Vengriya kommunistik tuzumi qulashidan oldin demokratik qurilishning “qisqa va muvaffaqiyatsiz tajribasiga” ega edi, deb yozadi⁴⁹. Shunday esa-da, F.Fukuyamaning ta’kidlashicha, bu yerda “kommunistlarning keksa namoyandalarini yakson qilishga tayyor kuchlimuqobil eng yaxshi namoyandalar bor edi”, kompartiya esa “plyuralizm va hokimiyatlarni chinakam bo‘linishi tomon muhim qadam tashadi”.

F.Fukuyama fuqarolik jamiyati to‘grisida fikr yuritar ekan, bunday deb yozadi: “demokratik institutlar soglom fuqarolik jamiyatiga suyangani kabi, fuqarolik jamiyati ham, o‘z navbatida, madaniy darajada o‘z o‘tmishdoshlari va shart-sharoitlariga ega”. Zamonaviy demokratik davlatda fuqarolik jamiyatining

⁴⁸ Залман Кац. Алиса в стране ЕС. Европейские диалоги. – Рига. 2005.-С.241.

⁴⁹ Шмиттер Ф. Угрозы и дилеммы демократии// Пределы власти. -1997.-№1.-С.6.

an'anaviy siyosiy hamda iqtisodiy liberal doktrinaga xos tarqoq shaxsiyaparastlikni tenglashtirish yoki cheklashga qodirligi uning ahamiyati va madaniyatini belgilaydi. Olimning fikricha, haqiqiy kurash aynan fuqarolik jamiyatni va madaniyat darajasida ro'y beradi⁵⁰.

Amerikalik sotsiolog-nazariyotchi, tarkibiy funksionalizm maktabi rahbari, zamonaviy nazariy jamiyatshunoslik va ijtimoiy antropoliya asoschilaridan biri **Tolkott Parson** (1902-1979 yy.) uchun evolyusnya - “jamiyat ichida yaigi tuzilma turini yuzaga keltiruvchi”, “uzluksiz” va “muntazam” bo’lmagan, “madaniy singishish hamda boshqa omillarni yangi tuzilma turn bilan uyg‘un ravnshda jalb etnshni” ifodalaydigan “o’zgarishlar jarayonining ma’lum bir turi”dir. O’zgarishlarning mazkur turiga rioya qiluvchi jamiyatlar uchun bir qancha imkoniyatlar ochiladi: “innovatsiya, garchi unchalik rivojlanmagan bo’lsa-da, ancha kuchli raqiblar tomonidan barbod qilinishi mumkin”; “agar innovatsiya faqat madaniy bo’lsa, uni butunlay yo‘q qilish qiyin va hatto uni tashkil etgan jamiyat buzilganidan so‘ng ham katta ahamiyat kasb etishi mumkin”; “raqobatdoshlik darajalari innovatsiyalarni moslashtirish orqali tenglashishi mumkin (bugungi kunda rivojlanmagan mamlakatlarning “modernizatsiya” sari intilishlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi”); “jamiyat o’zining deyarli o’zgarmagan eski tuzilmasini saqlashni davom ettirishi mumkin bo‘lganalovida kamchiliklarni aniqlash va hokazo .

Ijtimoiy evolyusiya masalasida taraqqiyot va bir liniyali evolyusiya tushunchasini inkor etib, Darvinning “moslashuv” tushunchasiga e’tibor qaratgan va barcha jamiyatlar atrof-muhitga u yoki bu usulda moslashishi lozimligini ta’kidlagan amerikalik antropolod Julian Stewardning karashlaridan (1902-1972) keng foydalanimoqda.

Neoevolusionizmning yana bir tarafdiri antropolod, etnolog va madaniyatshunoslik asoschisi²⁹⁷ Lesli Uayt (1900-1975 yy.) texnologiyalarni rivojlantirish orqali butun isoniyat tarixini tushuntiradigan nazariyani yaratishga intilgan.

Fuqarolik jamiyatni institutlarini, xususan, siyosiy partiyalarni qarorlar qabul qilish jarayonidan deyarli butunlay chiqarib tashlash mudhish oqibatlarga olib kelishi mumkin, deb yozadi O'Donnell. Birinchidan, ijro hokimiysi qonunchilik tomonidan qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezganda, uning aralashmasligi uchun chetlashtirilgan siyosat uchun javobgarlikni his etmaydigan qattiqqo'l parlamentga duch keladi (mana shuning uchun yaxshi institusionallashtirilgan qonunchilik hokimiysi, qator konstitusiyaviy cheklovlar muhimdir). Ikkinchidan, parlamentning

⁵⁰ Фукияма Ф. Конец истории и последний человек. –М.: Ермак, АСТ, 2005.-С.46.

qatiqqa'lligi va takabburligi, ijro hokimiyati tomonidan ungasustkashligi va "mas'uliyatsizligi" tufayli ommaviy ayblar e'lon qilinishi natijasida parlamentning roli zaiflashadi (bu ijro hokimiyatini shakllantirishda shaxsiyatparastlik sharoitida ro'y beradi). Uchinchidan, qayd etilgan adovat barcha siyosiy partiyalar obro'siga putur yetkazadi. Bunday sharoitda, deydi O'Donnell, konstitusiyaga zid siyosat yo'liga to'siq qo'yadigan kuchli sud kerak bo'ladi⁵¹.

O'zaro tiyib turish va muvozanat o'zaro tiyib turish va muvozanat tizimi ikki xil va ba'zida bir-birini qo'llaydigan uslublar sababli izdan chiqadi. Birinchisi, deb yozadi G.O'Donnell, bu hokimiyatning bitta tarmogini boshqasining qonuniy vakolatiga "tajovuz qilitti" aralashishidir. Ikkinchisi esa - korrupsiY. O'Donnellning fikricha, demokratiyalar tajovuzdan ko'ra korrupsiyanidan ehtiyoj bo'lishi kerak. Negaki, dastlabki ikki omil demokratiyaning mavjud bo'lishiga xavf solsa, korrupsiya uni zaiflashtiradi, xolos.

Hokimiyat tarmoqlarining muvozanati haqida gap borganda, tashqi tomonni ham hisobga olish zarur. "Pirovard natijada, - deydi X.Klinton, - hokimiyat muvozanati mavjud bo'lishi kerak. Bu esa Amerikada davlat boshqaruvi tizimidagi asosiy prinsiplardan biridir. Bizda hokimiyat tarmoqlari muvozanati mavjud, bu yerda mustaqil sud tizimi, kuchli ijro hokimiyati, juda faol qonun chiqaruvchi hokimiyat faoliyat ko'rsatmoqda. Ammo, bundan tashqari, hukumat, bozor iqtisodiyoti va fuqarolik jamiyati o'rtasida ham hokimiyat muvozanati bo'lishi kerak. Bu muvozazanatga putur yetgan taqdirdagina ushbu jarayonga boshqa tomonlar aralashishi kerak"⁵².

Maykl Xardt va Antonio Negri ommaviy axborot vositalarini "o'zaro tiyib turish va muvozanat tizimini hukumat xatti-harakatlarining qo'shimcha unusuri" deb ataydi. Shuningdek, ular "aslida OAV ko'pincha bir tomon dan, kapital, ikkinchi tomon dan davlatdan ko'p ham mustaqil emas" deydi .

1976 yilda iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati va urushdan keyingi davrning eng taniqli iqtisodchilaridan biri **Milton Fridman** (1912-2006 yy.) so'nggi o'n yillikda dunyoning turli davlatlarida amalga oshirilgan liberal islohotlarning katta qismi uchun asos vazifasini o'tagan, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va iqtisodiy hamda siyosiy erkinlikning o'zaro bog'liqligini cheklash g'oyalarini targ'ib qilgani barchagama'lumdir. "Erkinlikni saqlab qolish o'zaro tiyib turish va muvozanat tizimi orqali... hokimiyatning bir joyda to'planishi, bo'linishi hamda tarqalib ketishini imkon qadar bartaraf etishni talab qiladi, - deb yozadi M.Fridman. - Iqtisodiy faoliyatni tashkil etishni siyosiy hokimiyat nazoratidan chiqargan holda, bozorni majburlash manbaiga barham beradi. U iqtisodiy qudratni siyosiy

⁵¹ О'Доннел Г. Делегативная демократия// Пределы власти. -1994.-№2-3.

⁵² Клинтон Х. МДУ ўқитувчилари ва талабалари билан бўлган учрашувдаги нутк. 2009 йил 16 октябрь.

hokimiyatni mustahkamlovchi emas, balki cheklovchi vositaga aylantiradi” . “Agar iqtisodiy hokimiyat siyosiy hokimiyat bilan birlashtirilsa, uning bir joyda to‘planishi deyarli muqarrar. Ikkinchi tomondan esa, agar iqtisodiy hokimiyat siyosiy hokimiyatni ushlab turgan qo‘llarda bo‘lmasa, u siyosiy hokimiyatni tiyib turadigan muvozanat bo‘lib xizmat qilishi mumkin”.

Yuqorida zikr etilgan Leshek Balserovich o‘zining “cheklangan davlat” nazariyasi ruhida o‘zaro tiyib turish va muvozanat tizimini tashkil etishni “institutional chora” deb ataydi. “Mazkur institutlarni tashkil qilish va qo‘llab-quvvatlash - oson ish emas, - deb yozadi polshalik iqtisodchi va siyosat arbobi. - Amalda davlatni “cheklangan” shaklda saqlab turishdan ko‘ra uni “kengaytirish” osonroq. Agarda davlat “kengaygan” bo‘lsa, uni avvalgi cheklangan doirada faoliyat ko‘rsatishga qaytarish ko‘pincha ancha murakkab kechadi”⁵³.

Demokratik davlatlarda siyosatchilarga hukumat tomonidan ko‘proqaralashishni talab qiladigai va islohotlarga g‘arazli yoki mafkuraviy fikrmulohazalar orqali qarshilik ko‘rsatadigan turli guruhrar tomonidan bosim o‘tkazilmoqda. L.Balserovich ijtimoiy nazorat zarurligini nazarda tutgan holda, bunday sharoitlarda “siyosatchilar faoliyatini kuzatib borayotganlar va bozor erkinligi, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyati ijtimoiy muammolarning eng yaxshi da‘vosi ekaniga ishonadiganlar tomonidan ko‘proq ijtimoiy bosim o‘tkazilishi zarur” deb ta’kidlaydi.

D.Lal G‘arb va Sharqning turli odob-aloq prinsiplari mavjud deb hisoblaydi. G‘arbda ayniqsa, individualizm harakatga keltiruvchi kuch sanaladi. Sharq jamiyatini tashkil etish, aksincha, umumiylilikni keng ma’noda his etadigan element hisoblangan guruhrar tengligi asosida amapga oshiriladi. G‘arb jamiyatiga qaraganda Sharq jamiyati insonning oila, ish joyi, maktab, qo‘shnilarga nisbatan javobgarligi va majburiyatlarining murakkab uygunligini ifoda etadi.

Har qanday davlat o‘zining hokimiyat vakolatlariga o‘ta rashk bilan qaraydi va tashqaridan bosim o‘tkazilishini yoqtirmaydi, deb yozadi Avstriya iqtisodiy fikr maktabi vakillaridan biri, libertariantlik manifesti muallifi, Lyudvig fon Mizes an’analari izdlshlaridan biri, tarixchi va faylasuf **Myurrey Rotbard** (1926-1995 yy.). Hukumatni odamlar yaratadi, ularning adolatli hokimiyati boshqariladiganlar roziligidagi asoslanadi. Sud davlat hokimiyatini tizimli ravishda markazlashtirishga ko‘maklashadi. Demak, adolat va iqtisodiyot faniga muvofiq himoya vositalari va xavfsizlik xizmatlarining erkin bozorini tashkil etib, davlatni butkul yo‘q qilishdan tashqari davlat hokimiyatini cheklashning boshqa hech qandayyo‘li yo‘q.

⁵³ Бальцерович Л. Навстречу ограниченному государству/ М.: Новое издательство, 2007.-С.25.

“Amerika tizimi o‘zaro tiyib turish va muvozanat mexanizmini ta’minlab turadi, chunki hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlari bir-birini tiyib turadi, shuning uchun hokimiyatning faqat bitta qo‘lda bo‘lishiga xavotirlanmasa ham bo‘ladi, degan fikr ham mavjud.

Ammo, ushbu tizim ko‘pincha chalg‘ituvchi rol o‘ynaydi. Chunki, hokimiyat institutlarining har biri o‘z sohasida majburlash monopoliyasiga ega, ularning barchasi esa istalgan paytda bitta partiya tomonidan nazorat qilinishi mumkin bo‘lgan yagona davlatning bir qismidir”⁵⁴, - deb yozadi Myurrey Rotbard. “Amerika boshqaruv tizimidagi ko‘klarga ko‘tarilgan o‘zaro tiyib turish va muvozanat hamda hokimiyat tarmoqlariga bo‘linish tizimi nihoyatda zaif, chunki, oxir-oqibatda mazkur tarmoqlar shu hukumatning uzviy qismi bo‘lib, bir guruhdagi hukmdorlarga bo‘ysunadi”.

Bugungi zamonning mashhur siyosatshunos-faylasuflaridan biri **Lari Zidentopning** fikricha (1936 yilda tug‘ilgan), ma’naviy tenglik haqidagi xristian ta’limoti Yevropada fuqarolik jamiyatini yaratgan. Islom dini xristianlik singari universalizm tilida shakllantirilgan, ammo Islom dini faqat Allohga itoat etishda tenglikka e’tibor qaratsa, xristianlik Alloh oldida teng erkinlikni targ‘ib qiladi.

L.Zidentop “hokimiyatning nisbiy ochiqligi singari deyarli hech narsani o‘zgartirmaydigan” “rasmiyatchilikka asoslangan o‘zaro tiyib turish va muvozanat tizimi”ni tanqid qilgan. Fransiya davlat modeli nisbatan oson eksport qilinishi mumkin, negaki u minimal cheklovlar bilan qarorlar qabul qilishning markazlashgan mexanizmini faqat rasmiylashtirishni ko‘zda tutadi. Mazkur modelning mazmun-mohiyati hokimiyatdir”. L.Zidentopning fikricha, bu borada “hokimiyatni bo‘lib bo‘lib joylashtiradigan, o‘zaro tiyib turish va muvoznat tizimiga ega bo‘lgan hamda muxtor Yevropa vakillik demokratiyasi bugungi kunda” muhim ahamiyatga molik masalaga aylanishi darkor”.

Konstitusiya tomonidan belgilangan o‘zaro muvozanat inson tabiatidagi yovuzlikni yo‘q qilish yoki jilovlashga qodir emas. Izzattalablik uning yagona muvozanatidir, deb ta’kidlaydi huquqshunos faylasuf, federalizm tanqidchisi **Patrik Genri** (1736-1799 yy.).

Amerikalik yozuvchi, essenavis, kino va teatr dramaturgi, XX asrning ikkinchi yarmida Amerika adabiyotining tan olingan mumtoz namoyondasi Go Vidalning ta’kidlashicha (1925 yilda tug‘ilgan), jahon tarixida o‘zig ortiq darajada ishongan va uning ayrim yetakchi-monopolistlari o‘rtasid til biriktirish, buning natijasida daromad xususiyashtirilgani v qarzlarni “umumlashtirish”ga doir ko‘plab misollar bor.

⁵⁴ Ротбард М. К новой свободе: Либертиарийский манифест/Пер.с анг. –М.: Новое издательство, 2009.-С.265.

Gor Vidal o‘zaro tiyib turish va muvozanat tizimining cheklanga: imkoniyatlarini qayd etar ekan, bunday deb yozadi: “o‘zaro tiyib turish v muvozanat tizimi hukumatning huquqbuzarliklari yoki zolimon harakatlariga zo‘ravonliksiz chek qo‘ya olishga qodir bo‘lmaganida, avom xal] g‘alayon ko‘tarish huquqini saqlab qoladi. Ushbu huquqqa muvofiq, avog* xalqning har qanday hukumat tuzilmalari ichki siyosatni amalga oshirii jarayonida foydalanadigan qurol turlariga ega bo‘lishga hamda ularga ishlatishga to‘liq haqqi bor”.

Fuqarolik jamiyati “o‘zaro tiyib turish va muvozanat” tizimid; siyosiy hokimiyatning mutlaq hukmronlikka intilishini cheklashnin] qudratli va muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Permanent islohotlar davomli ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va sud-huquq sohasidagi o‘zgarishlarini ifoda etadi. Bu kabi islohotlar amalda ma’lum bir siyosiy tuzum doirasida yakunlanmaydi va ijobiy natijaga ega bo‘lmaydi. Surunkali inqilob (L.Trotskiy, E.Mandel avtoritar tuzumga nuqta qo‘yadigan “parchalanish islohotlari” (X.Lins) “uzluksiz modernizatsiya” kabi tushunchalar Yevropada paydo bo‘lgan va rivojlanayotgan iqtisodiy formatsiyaning muhim belgisiga aylanmoqd Biroq, ijtimoiy safarbarlik va modernizatsiyani permanent islohotlar bilan adashtirmaslik lozim.

Permanent (uzoq davom etadigan, doimiy) islohotlar ijtimoi tartibsizlik shakllaridan biridir. Bu kabi tartibsizlik, biznig‘ fikrimizcha, islohotlarning dastlabki shartlari, mavridi, sur’ati jadalligi va izchillagini inkor etish oqibatida yuzaga keladi.

T.Gobbs ijtimoiy tartibsizlik sabablari haqida bunday degan: “hukumatning o‘zboshimchalisiz fuqarolik urushi permanent holatga aylanishi darkor, bunda so‘zlar hamda va’dalar emas, balki gaplar, quro; aslahalar qonunlarga kuch beradi va ta’sir ko‘rsatadi”.

Fransianing e’tiborli sotsiologlaridan biri hisoblangan **PerBurde** (1930-2002 yy), permanent islohotlar fenomenining paydo bo‘lsh sabablarini tahlil qilar ekan, bunda partiya faollarini ayblagan, mazku sabablarni “hokimiyatning erkinlik berilgan ishchilar qo‘liga o‘tishinin oqibati” sifatida tasniflagan. Ular bunday hokimiyat apparati hech qanday ijtimoiy baza, tarafdr va faollarga ega bo‘lmasligini istaydi.

Fransiyalik sotsiolog olim va yozuvchi **Mishel Kroze** (1922-2013 yy.) hokimiyat munosabatlardan foydalanuvchi harakatni “strategik tahlil qilish” bo‘yicha uslubiyat muallifidir. U “hokimiyat”, “o‘yin”, “strategiya”, “ziddiyat” tushunchalari “takror ishlab chiqish”, “ijtimoiy sinf” yoki “kasb” tushunchalaridan ustun turadi, deb hisoblaydi.

“AQSH singari liberal an’analari mavjud bo‘lgan mamlakat hamda Fransiya kabi ma’muriy an’analari mavjud bo‘lgan davlat o‘rtasidagi farq ma’lum, - deb yozadi M.Kroze. - “fransuzcha usulda” ma’muriy davlatning haddan ortiq hukmronligi shundan kelib chiqadiki, u qonunlar ishlab chiqish

sohasida qonunchilik hokimiyati ustidan hamda ularni bajarish sohasida sud hokimiyati ustidan hukmronlik qiladi. Uning ixtiyorida qoldirilgan o‘ziga o‘zi sudya, hakam bo‘lish imkoniyati oddiy davlatning hokimiyat tepasiga kelishining asosiy to‘siqlaridan birini tashkil etadi. Ammo bu ishning faqat bir tomoni, xolos. AQShdek mamlakatda qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatining ustunligi ushbu davlatda qoidalarni ko‘paytirishga mutlaqo xalaqit bermaydi. Ushbu taqqoslash ko‘p narsani anglatadi, chunki u kasallikni yuzaga keltiradigan vaziyat sabablarini tushunishga imkon beradi hamda qabul qilmaslikning bu kabi munosabati mamlakatda har xildir⁵⁵. M.Krozening fikriga qaraganda, hokimiyatbo‘linishining fransuzcha modeli “iqtisodiy va ijtimoiy o‘yin ishtirokchilari o‘rtasida kelishuvning murakkabligini hayratda qoldiradigan darajada oshirib yuborishga”, “ijtimoiy va iqtisodiy o‘ying kirishning tengligini ta’minlash maqsadida aralashuvning zarurligiga”⁵⁶olib keladi.

Fuqarolik jamiyati — ko‘plab ziddiyat va muzokaralarni o‘z ichig olgan murakkab ijtimoiy munosabatlar jamlanmasi, deb yozadi fransiyalik faylasuf va jamiyatshunos **Alen Turen** (1925 yilda tug‘ilgan Sanoatlashgan jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy o‘yin ishtirokchilari hamd milliy davlat o‘rtasida juda katta masofa yuzaga keladi, deb hisoblayd A.Turen. Ushbu masofa dasturlashtirilgan, sanoatlashuvdan keyinp jamiyatda yanada chuqurlashadi. Bunday jamiyatda qarorlar qabul qilip markazlari markaziy punkti bo‘lmagan, o‘zini o‘zi tashkil qiladigan va o‘zini o‘zi o‘zgartiradigan tizimni hosil qiladi. Ijtimoiy harakatlarning turli va faol tizimlari uchun imkoniyat yaratib beradigan, sezilarli darajadap safarbarlikka ega bo‘lgan yanada ochiq jamiyat tomon harakatlanadi.

Ijtimoiy munosabatlarning o‘zaro bog‘liqligi va tabiatи anglashning eng yangi yondashuvlari vakillaridan biri, xalqaro darajada tan olingan polshalik mashhur sotsiolog **Pyotr Shtompka** (1944 yilda tug‘ilgan.) “ko‘plab nazariyachilar mavhum g‘oyalar bilan endi shug‘ullanishmayapti, globallashuv, shaxs, xavf-xatar, ishonch, fuqarolik jamiyati, demokratiya, mehnatning yangi shakllari, ijtimoiy eksklyuziyalar madaniy jarohatlar va hokazolar kabi real masalalarga murojaat qilishmoqda, debyozadi⁵⁷.

Polshalik olim “turli tarixiy davrdagi har xil harakatlarga e’tibor qaratadi. Ushbu harakatlar asosan oldingi zamонавиy davr uchun xususiyatli va iqtisodiy manfaatlarga qaratilgan bo‘lib, ularning a’zola markazlashgan holda alohida ijtimoiy sinflardan jalb qilingan. I shuningdek “yangi ijtimoiy harakatlardir” (ekologik va

⁵⁵ Кроль М. Современное государство – скромное государство. Другая стратегия изменения// Свободная мысль. – 1993.-№11.-С.35-43.

⁵⁶ Кроль М. Современное государство – скромное государство. Другая стратегия изменения// Свободная мысль. – 1993.-№11.-С.35-43.

⁵⁷ Штомка П. Теоритическая социология и социологическое воображение// Социологический журнал. – 2001.-№1. ⁶¹

Штомпка П. Социология социальных изменений. М.: Аспект Пресс, 1996. С.339-342.

feminist harakatlar, tinchlik uchun harakat). Oxirgisiga uchta xususiyat xos: ular e'tiborini yangi mavzular, yangi manfaatlar, ijtimoiy ziddiyatlarning yan uchaskalariga qaratadi; texnologiya, rasmiyatçilik, siyosatni iqtisodiyotning inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalariga kir: kelishiga nisbatan o'z munosabatini hayot sifati va uning maydoni kengaytirish borasidagi xavotir bilan ifodalaydi (1); bu kabi harakatlarning a'zolari qandaydir muayyan sinfning vakillari hisoblanmaydi (2); yangi ijtimoiy harakatlar odatda markazlashmagn bo'lib, keskin iyerarxik shakldagi tashkilotni qabul qilmaydi (3)⁶¹.

Fuqarolik jamiyatni va hokimiyat elitasi o'rta sidagi muxolifat yangi demokratik sharoitlarda ham yuzaga keladi, deb ta'kidlaydi P.Shtompka Hokimiyatdan uzoqlashish, oligarxlashuv, guruhbozlik, tanish-bilishchili siyosiy tabaqaning xudbin manfaatlari, "yangi nomenklatura", korrupsi mansab vakolatlaridan o'z manfaati yo'lida foydalanish - bugungi k) voqeliklaridir. Institusional va konstitusiyaviy darajada demokratiya uchun kurashish g'alaba qozongan hozirgi kunda "yangi chegaralar"ni zabit etg' kerak bo'ladi; demokratik instittlarni yaxshilash uchun kurash, ularni haqiqiy harakatlantiruvchi organlarga aylantirish, mavjud jinoyatlarni bartaraf qilish, fuqarolar ruhiga demokratiyani singdirish ana shula jumlasidandir.

Ijtimoiy fanlar vakili, deb ta'kidlaydi P.Shtompka, ma'navi jihatdan rag'batlantiradigan omillarni safarbar etishi, hokimsh faoliyatidagi kamchiliklarni oshkor qilishi, hukumatning vakillik organlari oldida yanada ko'proq hisobot berib borishi uchun fuqaroli jamiyatini qo'llab-quvvatlashi kerak. Ushbu talabni bajarishi uchun ularmurabbiylarning rolini bajarishi, jamiyat nomidan oshkor gapirini kerak. Ma'lum holatlarda mazkur vazifa ular uchun nafaqat xususiy talab v; fuqarolik burchi, balki professional majburiyat bo'ladi⁵⁸.

Muhim ijtimoiy aktorlar - individual, kollektiv va hokimiyat aktorlari mavjud, deydi P.Shtompka. Bu modernizatsiyaning xilma-xil yo'llari va uning ko'plab natijalarining paydo bo'lishiga olib keladi Modernizatsiya mazkur jamiyat an'analari, uning noyob ijtimoiy xotirasi mmadaniy merosi, diiniy yoki mafkuraviy ishonchi bilan bog'liq bo'lishi darkor. Ularning barchasi oqilona islohotlarni aamalga oshirish uchun avlodlar tajribasi va donoligidan foydalanadigan hokimiyatlar, o'tmip bilan chambarchas bog'liq holda tartibsizlik va o'zgarishlar davrida o'zhayotini himoya qiladigan xalq uchun modernizatsiya harakatlarini amalga oshirishda intellektual hamda ma'naviy resursni ifoda etadi.

Jorj Washington universitetining sotsiologiya bo'yicha professori kommunitar jamiyat konsepsiysi muallifi Amitay Etsioni (1929 yilda tug'ilgan) yangi global

⁵⁸ Штompка П. Миссия социологии в посткоммунистических обществах//Посев. -2006.№6.-С.24.

arxitektura huquq va erkinlikning nafaqat g‘arbong prinsiplariga, balki hokimiyat va hamjamiyatning sharqona tushunchalarig; ham asoslanishi kerak, deb hisoblaydi. A.Etsioni transmilliy masalalarning rivojlanishi muayyan millat tomonidan endi “qayt; ishlanmasligi” kerak hamda u global muassasalarning yangi qatlagini shuningdek, global fuqarolik jamiyati va global siyosiy institatlarni talab qiladi, deb ta’kidlaydi.

Avvalgi konsepsiyalarda hokimiyatni qonuniylashtirishda boshqariladiganlarning roliga e’tibor qaratilgan, ularning roziligg ko‘zda tutilgan va ushbu rozilikni ifoda etishda odamlarning faol ishtiroki talab etilmagan, deb yozadi A.Etsioni. Aksincha, qonuniylilikning zamonaviy konsepsiysi markazida - hukumatni qonuniylashtirishga rozilik beradigan yoki rad etadigan hokimiyatga ega individlarning huquqlari borligi to‘g‘risidagi tushuncha turadi. Konstitusiya normalarini ishlab chiqish, ijro etuvchi, qonunchilik va sud tizimlari o‘rtasida zarur o‘zaro tiyib turish va muvozanat tizimi sifatida hokimiyat bo‘linishi hamda cheklashini ta’minlaydigan jarayon demokratiya o‘zgarishlarga taiyorgarlikni ta’minlaydigan omildir.

Umuman olganda, sobiq kommunizm davridan keyingi o‘tish ijobiy jarayonni ifoda etadi. Islohotlar tufayli jamiyatda yuzaga keladigan noroziliklar sobiq kommunizm davridagi tub o‘zgarishlarni baholash mezoni va ularni muhokama etishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘tish davrining strategik muammosi, deydi Nyu-York universiteti professori **Adam Pshevorskiy** (1940 yilda tugilgan), “qo‘lida quroli borlar seni o‘ldirishiga yoki ishlab chiqarish resurslarini nazorat qilayotganlar ochdan o‘ldirishiga yo‘l qo‘ymasdan demokratiya o‘tishdir. Mana shu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, demokratiya olib boradigan yo‘l mashaqqatlidir. Yakuniy natija esa mana shu yo‘lga bog‘liqdir. Demokratiya o‘rnatilgan aksariyat davlatlarda bu demokratiya mustahkam bo‘lmadi. Ularning ko‘pchiligidagi o‘tish davri umuman harakatdan to‘xtadi”⁵⁹.

Demokratlashtirish, deb davom etadi L.Balserovich - bu siyosiy tuzumning o‘zgarishi, **davlatning roli va tuzilmasi**, siyosiy qayta o‘zgarishlardir. Bunda polshalik iqtisodchi Ikkinci jahon urushidan so‘ng qator mamlakatlardagi demokratlashuvning “yangi klassik” turi (1940 yy.da Germaniya, Italiya va Yaponiya, 1970 yy.da Ispaniya va Portugaliya, 1970-1980 yy.da bir qator Lotin Amerikasi mamlakatlari, 1980 yy.da Janubiy Koreya va Tayvan), shuningdek, Osiyoda demokratiyaning sobiq kommunistik turi (1970 yildan boshlab Xitoyda va 1980 yillari oxiridan Vietnamda). muvaffaqiyatli amalga oshirilganini ta’kidlaydi.

⁵⁹ Бальцерович Л. Навстречу ограниченному государству / Пер. С англ. – М.: Новое издательство, 2007.

Bir siyosiy tuzumdan boshqasiga, asosan avtoritar tuzumlardan demokratik tuzumlarga o‘tish jarayonini o‘rganish ijtimoiy-falsafiy tahlil, tranzitologiya obekti hisoblanadi. Trazitologiya muammolarisirasiga quyidagilar kiradi: o‘tish davri boshlanishining sabablari va dastlabki shartlarini aniqlash; o‘tish davri bosqichlarini va ularga amal qilish mantigini ko‘rib chiqish; tranzitning asosiy aktorlari va ularning siyosiy modelning amalga oshirilishiga ta’sirini tadqiq etish; tranzitning yakuniy maqsadlarini tahlil etish; o‘tish davrining asosiy obektiv muammolarini o‘rganish. (Shu asnoda, deb yozadi bibliograflardan biri, zamonaviy ijtimoiy falsafani ayniqsa demokratik institatlarning barqaror o‘sishi uchun muhim zamin sifatida fuqarolarning iqtisodiy huquqlarining kengayishi, individual erkinlikni saqlashning moddiy kafolatini rivojlantirish o‘ta qiziqtirib qoldi). Tranzitologiya mavzusi Stenford universiteti professori **Maykl Makfol** (1963 yilda tug‘ilgan), V.Bans, shuningdek, yuqorida nomlari tilga olingan Z.Bjezinskiy, L.Balserovich va boshqalarning asarlarida rivojlantirilgan.

Florensiyadagi Yevropa universiteti professori **Filipp Shmitter**, Yevropa va Stenford universiteti professori **Terri Linn Karl** kabi amerikalik siyosatshunoslar, “sharqona” ustunlik konsepsiysi tarafdarlarining dalillarini tahlil qilgan holda, shuni ko‘rsatadiki, ushbu dalillar asosida faraz va taxminlar, ya’ni demokratiyani birlashtirish nazariyasi va tranzitologiyaning soxta izohi yotadi. Demokratiyani aniq ta’riflash va uning mezonlariga aniqlik kiritish uchun ehtiyoj bor. Sobiq kommunistik mamlakatlar o‘ziga xos xsusiyatlarga ega, ammo ularning yaqinda eski tuzumdan yangi tuzumga o‘tish bilan bog‘liq o‘zgarishlarni boshidan kechirgan boshqa mamlakatlar bilan o‘xshashlikdarajasi haqidagi konsepsiya va farazlarni ifoda etish, ularni sinab ko‘rish, barcha mintaqalarning tajribasiga tayangan holda ularni tasdiqlash yoki rad qilish juda ko‘p va mehnatni talab etadi.

Iqtisodiy jihatdan demokratiya har doim ham boshqaruvning boshqa shakllaridan ko‘ra samarali shakli bo‘lavermaydi. Iqtisodiy, umuman, rivojlangan demokratik mamlakatlarda sarflangan va tejalgan mablag‘larning o‘sish sur’atlari nodemokratik mamlakatlardagiga qaraganda ko‘p bo‘lishi shart emas. Ayniqsa ish tashlashni uyushtirish, sarmoyani chetga olib chiqish yoki uni ishlatmasdan tashlab qo‘yan holda haqiqiy yoki xayoliy avtoritar tahdidga mulkdorlar va ma’muriy elita o‘z munosabatini bildira olgan paytdagi o‘tish davrida buning ehtimoli katta.

Albatta, demokratlashtirish hamma vaqt ham, iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy totuvlik, samarali boshqaruv, siyosiy uyg‘unlik, bozor erkinligini olib kelavermaydi. Bu borada, ijtimoiy siyosatga ta’sir qiluvchi va hukumatni shakllantiruvchi, eskicha qarashlar bilan raqobatlashuvchi; o‘rnatilgan yo‘l-yo‘riqlar orqali iqtisodiy va ijtimoiy mojarolarni hal qilishga qobiliyatli siyosiy tuzilmalarning tug‘ilishini siyosiy tuzum inobatga olishi kerak.

G‘arbdagi tranzitologiyaning eng yirik vakillaridan biri, amerikalik iqtisodchi, “nomutanosib axborotning mavjud bozorlarni tahlil qilish uchun” yo‘nalishi bo‘yicha iqtisodiyot sohasida Nobel mukofoti laureati **Jozef Stigletsning** yozishicha, G‘arb maslahatchilari ma’lum jamiyat sharoitida o‘zlarining islohot andozalarini tavsiya etishadi: ushbu jamiyat ijtimoiy sarmoya darajasi bilan yetishgan o‘z taraqqiyot tarixiga, muayyan siyosiy kuchlar ta’sir qilgan siyosiy jarayonlar, siyosiy institutmajmuiga ega⁶⁰.

O‘tish davri iqtisodiyotidagi mamlakatlar uchun boylik yaratish asosiy g‘oya bo‘lishi kerak. Inqirozga qarshi barcha choralarmi jamiyatning transformatsiyasi sifatida rivojlantirish uchun, mas’uliyatni xalqaro molivaviy institatlarga yuklamagan holda, ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishda ish olib borish kerak, deb ta’kidlaydi J.Stiglits. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun eng muhimi kuchli va mustaqil sud hokimiyati, saylovchilar oldida demokratik asosda hisob berib borish, ochiq, korrupsiyadan xoli bo‘lgan samarali davlatchilik mavjud bo‘lishi kerak, deb qayd etadi J.Stiglits.

O‘tish davridagi asosiy rol hokimiyatga tegishlidir. Iqtisodiy hokimiyatdan samarali foydalanish namunalari yetarlicha. Ulardan eng muhimi soliq solish hisoblanadi. Hukumat muayyan turdagи faoliyatni taqiqlash uchun, o‘z huquqlaridan foydalanib, kishilardan ijtimoiy ta’minot tizimida ishtirok etishni talab qiladi va hokazo. Bu o‘rinda masala shundan iboratki, ushbu xususiyatlar iqtisodiy tashkilot sifatida davlatga qanday fazilat va nuqsonlarni “yuqtirishi” mumkin? Hukumat, monopol huquqlarni taqdim etgan yoki o‘zining monopol qudratidan foydalanganda ehtiyyotkor bo‘lishi kerak. Ayni paytda J.Stiglits moliva kompaniyalarining lobbistik faoliyatidan va ularning hukumat muassasalari bilan birlashishidan ogohlantiradi.

Axborotning cheklangan, foydani nomaqbul taqsimlashning oldini olishning zaif imkoniyatlari - bularning barchasi ziddiyatlar tizimida tabiiy zaruratni keltirib chiqaradi, muhim ijtimoiy vazifalarni hal qilishda hukumatning zaifligini sezish va siyosiy institutlar konservativmi sababi bo‘ladi. Konservativm, raqobatli bosimlar mavjud bo‘lmagan holda, institutlarning qotib qolishiga olib keladi. J.Stiglitsning fikricha, o‘zgarishlar jarayonining o‘zi, amaliyot va yo‘lyo‘riqlarni qayta ko‘rib chiqish foydali bo‘lishi mumkin.

Davlat tomonidan boshqarish tizimining qiymati muhim omil hisoblanadi. Demokratik jamiyatlarda ayrim rahbarlarni saylash va boshqalarning saylanishi holati mavjud. Bunda elektorat iqtisodiy sohada faoliyat yuritadigan, yaxshi ishlaydigan menejerlarni saralab olish layoqati kabi qator xususiyatlar bo‘yicha yetakchilarni saylaydi. Ayrim saylovchilarining o‘z ovozlarini jiddiy ahamiyatga ega

⁶⁰ Стиглиц Дж. Куда ведут реформы? Вопросы экономики. -1999.-№7.-С.34.

emas, deb hisoblashi davlat siyosatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, J.Stiglits kelgusi hukumatlarga majburiyatlar yuklash maqsadida amaldagi hukumatlarning layoqatini cheklash singari salbiy fenomenlar borasida so'zyuritadi.

Siyosiy jarayonlar iqtisodiy taraqqiyot yo'nalishlarini tanlashga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun iqtisodiy siyosat faqat texnik ekspertlar tomonidan ishlab chiqilmasligi kerak. Siyosiy islohotlarning uzun tarixi shundan darak beradiki, daromadlarni to'g'ri taqsimlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda, "qonun ustuvorligini belgilashga qaratilgan islohotlar" deb ataladigan islohotlarni o'rta sinf talab qilar ekan⁶¹.

AQShdagi Michigan universitetining sotsiolog va siyosatshunos olimi **Ronald Inglxart** o'tgan asrning 90-yillaridayoq, "xalqning madaniyatini bir soatda o'zgartirib bo'lmaydi. Hukmdorlar va qonunlarni o'zgartirish mumkin, millat madaniyati o'ziga xosliginini belgilaydigan dasturlarni o'zgartirish uchun esa yillar ketadi. Hatto, inqilobi o'zgarishlarda ham ularning zamondan uzoqlashgan oqibatlari inqilobchilar umid qilgan natijalardan ancha farq qilishi va avvalgi modelning jiddiy unsurlari saqlanib qolishi ehtimoldan holi emas," - deb ta'kidlagan edi.

Muallifning fikricha, demokratiya yetuk, samarali bo'lishi uchun institusional tuzilma va elitalarning demokratik kayfiyatidan ham ko'proq narsalar zarur. U inson rivoji, demokratik tuzum qaror topishiga olib boradigan, o'zini nomoyon etish bilan bogliq qadriyatlarning ommalashishi tufayli yanada keng ko'lami **emansipatsion**kuchlar harakatining natijasiga aylanadi.

Demokratiyani va turli «ochiq jamiyat modellari»ni eksport qilib bo'limganidek, deb xulosa qiladi prezident I.Karimov, "davlat kurilishining universal loyihasini ham tashqaridan import qilish yoki giqishtirish mumkin emas".

Bu borada turli mafkuraviy markazlar chetdan turib, "mutlaqerkinlik, chegarasiz erkinlik, erkin axloq degan soxta g'oyalarni o'zлari«mo'ljalga olgan jamiyatlarning ongiga singdirishga zo'r bermoqda. Bu yo'lda "ommaviy madaniyat" namunalaridan, turli axborot texnologiyalaridan, radiotelevideniye, internetning ijtimoiy tarmoqlari kabi vositalardan makkorlik bilan foydalanmoqda.

"Ochiq jamiyat" to'g'risida gapirganda, aytish lozimki, avstriyalik va::ntaniyalik faylasuf va sotsiolog Karl Popper (1902-1994 yy.) rivojlanayotgan demokratik davlatlar uchun uning uch asosiy izdan chiqaruvchi jihat mavjud ekanini ko'rsatadi: instrumental ratsionallikijtimoiy va siyosiy meyor va tartibotlarni (desakralizatsiya) nazargailmaslik (2), uning a'zolari ijtimoiy maqomini o'zgartirish imkoniyati Ma'lumki, ochiq jamiyatda kishilar, murosadan kelib chiqqan holda,

⁶¹ Стиглиц Дж. Кто потерял Россию? //Эковест.-2004.-Вып.4.-№1.-С4-37.

qarorlar qabul qiladi. Bunday jamiyatda siyosiy elita cheklangan hokimiyatgaemas va qon to‘kishlarsiz hokimiyatdan chetlatilishi mumkin. Idealdavlat boshqaruvi nazariyasi umuman mavjud emas, hukumat o‘z siyosatini silliq ravishda o‘zgartirishi uchun siyosiy tizim yetarli darajada moslashuvchan bo‘lishi lozim. Jamiyat ko‘plab nuqtai nazar va madaniyatlar uchun ochiq bo‘lishi, plyuralizm va multikulturalizm alomatlariga ega bo‘lishi lozim⁶².

“Ochiq jamiyat” amaliyotchilaridan biri, “zarg‘aldoq inqilob”larning bosh nazariyotchisi, Albert Eynshteyn nomidagi Ijtimoiy institut asoschisi Jin Sharp (1928 yilda tug‘ilgan) siyosiy hokimiyatning quyidagi manbalarini ajratib ko‘rsatgan: **avtoritet (obro‘)** (hokimiyatning qonuniyligi va unga bo‘ysunishga majburlik borasida kishilarning ishonchi); **insoniy zaxiralar** - hukmdorlarga bo‘ysunadigan, ular bilan hamkorlik qiladigan yoki yordam ko‘rsatadigan alohida kishi va guruhlarningma’lum bir soni; tuzum uchun zarur bo‘lgan hamda u bilan hamkorlik kiluvchilar tomonidan taqdim etiladigan **ko‘nikma va bilimlar; nomoddiy omillar** - kishilarni hukmdorlarga bo‘ysundiradigan, ulaga yordam ko‘rsatishga majburlaydigan; **moddiy omillar** hukmdorlar tomonidan nazorat qilinadigan boyliklar, tabiiy zaxiralar, mablag‘lar, iqtisodiy tizim, shuningdek, aloqa va transport vositalari; sanksiyalar - tuzumming avjud bo‘lishi va uning siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan, xamkorlikdan bosh tortadigan yoki bo‘yin egmaydiganlarga tahdid qiluvchi jaazolar. (Eslatib o‘tamiz, Jin Sharp siyosiy zulmga qarshi kuch ishlatmaslik nazariyasi deb atalmish nazariyaga hissa qo‘sghan: kuch ishlatilmaydigan kurashning usullari, ularning o‘zaro harakatlari, ayrim ko‘rinishlarini kamlagan va batafsil tasvirlab bergen; bu usullar har qanday mamlakatda ;ar xil ko‘rinishda qo‘llanishi mumkin)⁶³.

Stenford universitetining siyosatshunoslik bo‘yicha professori Filipp Shmitterning ta’kidlashicha, Janubiy Amerika, Sharqiy Yevropa va~Osipyoda birlashishning yo‘qligi o‘tish davri hamda o‘zini o‘zi tashkil etuvchi tizim yo‘qligining belgisi hisoblanadi. Ehtimol, ushbu mintaqadagi ko‘plab davlatlar ularning ijtimoiy tuzilmalariga mos keluvchi yoki fuqarolar uchun maqbul bo‘lgan barqaror o‘zini o‘zi boshqarish shaklini o‘rnatishga erisha olmasligi mumkin. Umumiylar ma’noda tushuniladigan demokratiya, avtokratiya umrini o‘tab bo‘lganidan so‘ng qaror topadi, biroq hech qachon mustaqil ravishda qoidalarning o‘ziga xos tarzda ishonchli va umume’tirof etilgan yig‘indisiga aylana olmaydi. Saylovlar o‘tkaziladi; erkin yig‘ilishlar mavjud; huquqlar hurmat qilinadi; hukumat o‘zboshimchaligi kamaytirilgan, boshqacha aytganda, eng kam talablarga ma’lum

⁶² Поппер К. Открытое общество и его враги. - Москва: Международный фонд “Культурная инициатива”, 1992.

⁶³ Шарп Д. От диктатуры к демократии: стратегия и тактика освобождения. – Москва: Новое издательство, 2012.-84с. ⁶⁸

Шмиттер Ф. Угрозы и дилеммы демократии//Пределы власти. 1997.-№1.-С.6.

darajada riosa qilinadi, biroq muntazam, maqbul va oqibatlarini oldindan aytish mumkin bo‘lgan demokratik shakllar hech qachon to‘liq yuzaga chiqmaydi. Demokratiya almashmaydi, u saqlab qolinadi, ammo yangi muammolar vujudga kelishiga qarab ad hoc va ad hominem tartibida faoliyat ko‘rsatadi. Bunday holatlarda partiyalar, uyushgan manfaatlar va etnik yoki diniy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarni belgilovchi biron-bir umumiy murosa mavjud emas⁶⁸.

Davlat apparatidan nisbatan mustaqil hamda fuqarolar hayotining asosiy muammolarini hal qiladigan o‘zini o‘zi tashkil etuvchi va o‘zini o‘zi boshqaruvchi tizim, fuqarolarning huquq va majburiyatlari muvozanati ularning ijtimoiy-kasbiy maqomidan qat’i nazar, ular amaliy hamkorligining asosiy negiziga aylangan taqdirdagina shakllanadi.

O‘zini o‘zi boshqarish tizimlarining vujudga kelishi, faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanish jarayonlarini sayyoramizdagi o‘zini o‘zi boshqarishni rivojlantirishning global universal jarayonlari shakllaridan biri sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Chunki, “haqiqiy” demokratiya mahalliy va global darajadagi turli makon bosqichlaridan tashkil topgan o‘zini o‘zi boshqaradigan va o‘zini o‘zi tashkil etadigan xilma-xil jamoalarni taqqoslashda o‘z ifodasini topishi lozim. Ikkinchisi tomondan, keskin nazariyalar ham mavjud bo‘lib, ularga muvofiq global boshqaruvni parchalab tashlash hamda hokimiyatni o‘zini o‘ziboshqaruvchi barqaror mahalliy hamjamiyatlarga berish zarur.

Santa Barbaradagi Kaliforniya Universiteti professori U.I.Robinsonning ta’kidlashicha, zamonaviy demokratizatsiya - bu G‘arb va transmilliy elitalarning siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini ilgari suruvchi, tashqaridan boshqariladigan hamda puxta rejalashtirilgan jarayondir. Uning “demokratiyani ilgari surish konsepsiysi” ko‘plab davlatlarning tajribasida tasdigini topmoqsa hamda demokratik o‘tish davri mamlakatlarida boshqa nazariyalarda ko‘zga tashlanmagan jihatlarni ko‘rib chiqishga yordam bermoqda.

“Zargaldoq inqiloblar” sharoitida kuch ishlatmasdan majburlash oqibatları o‘ta noxush natijalar bermoqda. Siyosiy tuzum harakat **qilitti** qobiliyatini yo‘qotadi va hokimiyat tuzilmasi izdan chiqadi. To‘satdan vujudga kelgan hamda mustahkamlangan o‘zini o‘zi boshqarish, hamkorlikdan bosh tortish hamda bo‘ysunmaslik shu qadar kengayib ketadiki, hokimiyat ular ustidan nazoratni yo‘qotadi.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish fuqarolik jamiyatining eng muhim elementi hisoblanadi hamda fuqarolik jamiyatiga xos bo‘lgan o‘zini o‘zi boshqarish, rivojlantirish, tashkil etish xususiyatlariga, plyuralistik tizimga egadir. Agar fuqarolik jamiyatining amal qilish sharti sifatida huquqii davlat ko‘rib chiqiladigan bo‘lsa, unda mahallii o‘zini o‘zi boshqaruvini amalga oshirish, birinchi navbatda, hokimiyatning bo‘linish prinsipi yuzaga chiqishi bilan bogliqdir. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishmaqsadlaridan biri mahallii

hamjamiyatlar hayeti faoliyatining, o‘zini o‘zi boshqaruvchi hududiy birliklar faoliyat ko‘rsatishining maqbul sharoitlarini yaratishdir. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv fuqarolik jamiyatiga yaxshi yo‘lga qo‘yilgan va o‘zini o‘zi boshqaradigan yo‘lni takdim etadi, fuqarolarning o‘zini yanada to‘liq namoyon etishiga imkon yaratadi, huquqiy davlat rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish xususiyatining ikki yoqlamaliligin, davlat boshqaruviga nisbatan uning komplementar (to‘ldiriluvchi) rolini tushunmaslik amalda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish institutining joylardagi davlat boshqaruviga yoki ommaviy hokimiyat belgilariga ega bo‘lmagan ijtimoiy o‘zini o‘zi boshqarishga aylanishiga olib kelishi borasidagi fikriga qo‘shilmaslik mumkin emas.

Nazorat savollari:

1. Antik davrda fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi g‘oyalar tizimi.
2. IX–XII asrlarda Markaziy Osiyo mutaffakirlarining adolatli jamiyati haqidagi qarashlari.
3. Yangi davrda fuqarolik jamiyatining yangi talqinlar va nazariyalar.
4. XIX-XX asrlardagi fuqarolik jamiyati konsepsiyalari.
5. Fuqarolik jamiyati zamonaviy konsepsiyanining mafkuraviy modellari.

4-мавзу: Фуқаролик жамиятининг шаклланиш ва ривожланиш босқичлари.

РЕЖА:

- 4.1. Европада фуқаролик жамиятининг шаклланиши ва ривожланиши босқичлари.
- 4.2. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятининг шаклланиши ва ривожланиши босқичлари.

4.1. Yevropada fuqarolikning shakllanish va rivojlanish boqichlari.

Fuqarolik jamiyati kategoriyasi tarixan insoniyat rivojlanishining shunday bir alohida yo‘nalishini aks ettiradiki, u har bir davrning o‘ziga xos fikrlaydigan mutafakkirining oqilonalik, erkinlik, farovonlik va adolat hukm suruvchi ideal jamiyat modelini yaratishga intilishi bilan tavsiflanadi. Davlat, oila, qabila, millat tushunchalari, diniy va boshqa birliliklardan farq qiluvchi fuqarolik jamiyati

kategoriyasi, yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, XVIII-XIX asrlarga kelib o‘rganila boshlandi.

Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida fuqarolik jamiyatining shakllanishi yangi davrda boshlandi. Olimlar va mutaxassislar fikriga ko‘ra, fuqarolik jamiyatining rivojlanishini uch bosqichga ajratish mumkin. Bunda bir bosqichdan keyingi bosqichga o‘tishda jamiyat va davlat tuzumida yuz bergan katta o‘zgarishlar, ijtimoiy va siyosiy tangliklar, ommaviy harakatlar, ijtimoiy qatlamlar va sinflarning to‘qnashuvlari, jamiyat mafkurasida tub o‘zgarishlarning ro‘y berib turishi an’anaga aylandi.

Birinchi bosqich shartli ravishda XVI-XVII asrlarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy asoslari yaratildi. Ular jumlasiga sanoat va savdoning rivojlanishi, ishlab chiqarish turlarining ixtisoslashuvi, mehnat taqsimotining teranlashuvi, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi kiritish mumkin. Shuningdek, yagona markazlashgan davlatlarning tashkil topishi bilan feodal tarqoqlik davrida mavjud bo‘lgan tengsizlik, huquqsizliklarga barham berishga e’tibor berila boshlandi.

Ikkinchi bosqich XVIII asr oxiridan XIX asr oxirigacha davom etdi. Bu davrda eng rivojlangan mamlakatlarda umumi yuridik tenglik va erkinlik, shuningdek iqtisodiy erkinlik va shaxsiy tashabbusga asoslangan dastlabki kapitalizm ko‘rinishidagi fuqarolik jamiyati shakllandı.

Uchinchi bosqich (XIX asr oxiri va undan keyingi davr) vertikal feodal tuzilmalar o‘rnini erkin odamlarning huquqiy tengligi va o‘zaro bitimlariga asoslangan gorizontal munosabatlar egallagani bilan tavsiflanadi. Insoniyatning ko‘p asrlik tarixida barcha odamlar, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan qat’i nazar, jamiyat hayotining huquqiy jihatdan teng ishtirokchilari deb e’tirof etilishi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etdi. Ular har kimga o‘zini erkin xohish-irodaga ega bo‘lgan, o‘z harakatlari va ularning huquqiy oqibatlari uchun o‘zi javob berishga qodir shaxs sifatida namoyon etish imkoniyatini beruvchi qonunlar bilan e’tirof etilgan qator huquqlar va erkinliklarga ega bo‘la boshladi.

Fuqarolik jamiyatining hayotda yuzaga kelishiga Huquqlar haqidagi bill (Angliya, 1689 y.; AQSH, 1791 y.) yoki Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi (Fransiya, 1789 y.) kabi inson huquq va erkinliklarini himoyalovchi huquqiy aktlarning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Fuqarolik jamiyati – o‘z shaxsi, ijodiy tashabbusini erkin namoyon etuvchi teng huquqli odamlar jamiyati, ortiqcha ta’qiqlar va ortiqcha ma’muriy tartibga solishlardan holi bo‘lgan teng imkoniyatlar jamiyati sifatida shakllandı.

Ma’lumki, Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish bosh strategik maqsad sifatida belgilandi. Shu kabi jamiyatgina O‘zbekiston xalqining munosib turmushini,

huquq va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an'analar va ma'naviyatimizni qayta tiklashi, shaxs sifatida insonning ma'naviyaxloqiy kamol topishini ta'minlay olishi e'tirof etildi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy mezonlaridan biri -bu uning huquqiy negizini yaratishdan iborat bo'lganligi bois, bиринчи navbatda, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini o'rnatishga, uning asosiy qoida va talablarini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi huquqiy normalarining o'z ifodasini topishiga alohida e'tibor berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida fuqarolik jamiyatining asosiy qoida va talablarini aks ettiruvchi prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan normalar sifatida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdar shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanligi (2-modda), xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai hisoblanishi (7-modda), O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiiga asoslanishi (11-modda), O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkurlar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi (12-modda)⁶⁴ kabi fuqarolik jamiyatining asosiy prinsiplari yuridik jihatdan mustahkamlangandir.

Mustaqillik davrida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha Konstitusiyamizda qayd etilgan asosiy prinsiplar va normalar asosida davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimini isloh etish, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash, saylov huquqi erkinligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberalallashtirishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha tadrijiy islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslariini yaratish va rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishini uch bosqichga bo'linadi:

Birinchi bosqich o'z ichiga 1991-2000 yillarni qamrab oladi. Bu davrda, bиринчи navbatda fuqarolik jamiyatining asoslari yaratildi.

Ikkinci bosqich 2000-2010 yillardamamlakatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash bo'yicha faol jarayonlar davom ettirildi.

Uchinchi bosqich 2011-2016 yillar. Bu davrda fuqarolik jamiyati qurishga doir huquqiy asoslar rivojlantirildi, fuqarolik jamiyatining ijtimoiy tayanchi – o'rta ijtimoiy qatlama yanada mustahkamlandi.

⁶⁴ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Т.:Ўзбекистон, 2016.-Б.4-6.

To‘rtinchi bosqich 2017 yilda boshlanib, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning amaliy jihatlarini namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda fuqarolik jamiyati qurish g‘oyalari “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” va “O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiysi”da yanada rivojlantirilib, bu sohadagi tub burilish davrini boshlab berdi. Bu bosqichda fuqarolik jamiyati shiddat bilan rivojlanib, o‘zini har tomonlama namoyon eta boshladi. Bu davrda Prezident SH.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar mazmuni yangi bosqich boshlanganidan dalolat bermoqda.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi bo‘yicha qo‘yidagi xulosalar chiqarish mumkin:

-fuqarolik jamiyatining shakillanishi uzoq davom etib kelayotgan murakkab tarixiy jarayondir. Fuqarolik jamiyatining ba’zi bir unsurlari qadimgi Yunoniston va Rimda namoyon bo‘ldi, Yangi davrda esa uning ba’zi shakllanish unsurlari kashf etildi, xozirgi davrda esa uning bir butun tizim sifatidagi tasavvurlar shaklland;

- fuqarolik jamiyati g‘oyasi insoniyatning antik davrdan buyon davom etib kelayotgan tafakkurlashi mahsulidir. Avestoda, Qadimgi yunon faylasuflari fikrlarida, O‘rta asr Sharq mutafakkirlarining qarashlarida, Uyg‘onish va Reformatsiya davri g‘oyalari va bugun XXI asr jahon xamjamiyati tomonidan umuminsoniy ijtimoiy madaniy qadriyatlar sifatida e’tirof etildi. Ma’lumki, har qanday fan, o‘z mohiyatiga ko‘ra umumbashariydir. Dunyoning barcha xalqlari o‘zining katta-kichikligidan qat’iy nazar fuqarolik jamiyati nazariyasiga o‘zlarining hissalarni qo‘shdi. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi to‘g‘risidagi g‘oyalar qarashlarga bir yoqlama yondashish uni ularni kamsitish mumkin emas;

-fuqarolik jamiyatining xususiyatlari, belgilari, tamoyillari har qanday ijtimoiy tuzimda mavjuddir, biroq ularning rivojlanish darajasi turli xilda bo‘lishi mumkin.

-fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonlari xolati ijtimoiy hayotning va davlat hokimiyyati boshqaruvining demokratlashib borishi bilan birgalikda kechadi.

-fuqarolik jamiyatining shakllanishi huquqiy davlatchilikning shakllanish jarayoni bilan uyg‘unlikda takomillashib boradi.

-har bir davlatda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi o‘ziga xos milliy mental xususiyatlarga bog‘liq holda, shaklan milliy modellarda namoyon bo‘lishi mumkin;

-hozirgi davrdagi dunyodagi biron-bir mamlakat fuqarolik jamiyati eng so‘ngi yetuklik bosqichiga erisha olgani yo‘q va uni takomillashtirish uzuluksiz davom etadigan jarayondir.

Nazorat savollari:

1. Yevropada fuqarolik jamiyatining shakllanishining xuquqiy asoslari.
2. Fuqarolik jamiyatining shakllanish bosqichlarining o‘ziga xs xususiyatlari.
3. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishining nazariy asoslari.
4. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanish va rivojlanish boqichlari.
5. Xarakatlar strategiyasi – O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining rivojlanishining konseptual asosi

5-мавзу: ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ИНСОНИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ - ЮҚОРИ БОСҚИЧИ.

РЕЖА:

- 1.1. Фуқаролик жамияти – тараққиётнинг юқори босқичи.
- 3.2. Фуқаролик жамиятининг асосий белгилари

Tayanch iboralar: “fuqarolik jamiyati”, “davlat”, ijtimoiy shakllar, institutlar, kasaba uyushmalari, partiyalar, birlashmalar, tadbirkorlar.

1.1. Fuqarolik jamiyati – taraqqiyotning yuqori bosqichi.

Ijtimoiy-siyosiy fanlarda “fuqarolik jamiyati” va “davlat” tushunchalari uzoq davrlar bir-biridan unchalik farqlanmay keldi, ular aynan bir mazmundagi tushunchalar sifatida ishlatildi. Biroq, XVII asr o‘rtalaridan boshlab, jamiyatning turli jabhalarini tabaqalashishi, nodavlat o‘zini o‘zi boshqarish unsurlarini shakllanishi, ba’zi fuqarolarning o‘z huquq va erkinliklarini qo‘lga kiritishi, erkin fikrlaydigan va mustaqil individni shakllanishi jarayoni ijtimoiy taraqqiyotning ikki tamoyilini yuzaga keltirdi. Ular endi fan obekti sifatida o‘rganila boshlandi.

Davlatda hokimiyatning uchga bo‘linish prinsipini asoslanishi, siyosiy partiyalar, manfaatlar guruhlari (kasaba uyushmalari, ommaviy axborot vositalari va h.k.) paydo bo‘lishi bilan jamiat hayoti mazmuni endi faqat davlat hokimiyati bilan cheklanib qolmaslikni taqozo etdi. Jamiat boshqaruvi dunyosiga yangi ishtirokchi institutlar kirib kela boshladi, ular siyosiy qarorlar qabul qilish, fuqarolik jamiyati strategiyasini ishlab chiqish, shaxs faoliyatining umumiyligini maqsad va mazmunini shakllantirish jarayoniga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsata boshladi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi absolyutizm rejimi ag‘darilganidan so‘ng shakllangan yangi hayotni, ya’ni fuqarolarning shaxsiy hayotini davlat tazyiqidan xalos etishni aks ettira boshladi. Fuqarolik jamiyati unsurlari davlatning jamiyatdagi nodavlat ijtimoiy tuzilmalaridan ajralishi, nodavlat ijtimoiy

munosabatlarning nisbatan mustaqillikka erishishi natijasi o‘laroq paydo bo‘ldi. Fuqarolik jamiyat shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga monand ravishda huquqiy davlat shakllana boshladi.

Fuqarolik jamiyatining davlatdan ajralishi aynan ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi tengsizlikni tugatish va ijtimoiy munosabatlarni davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni hosilasi o‘laroq yuz berdi. Bu jarayonga butun aholi nomidan ish ko‘rishga asoslangan vakillik davlat organlarining shakllanishi asos bo‘ldi.

Natijada odamlarning huquqiy o‘zaro tengligi ularga huquq va erkinliklar berish vositasida, ya’ni qonunlarda belgilab qo‘yish yo‘li bilan tan olindi. Tabaqaviy tengsizlik o‘rnini egallagan umumiy huquqiy tenglik shaxsning mutlaqo yangi ijtimoiy holatini belgilab berdi. Endi individlar, ularning ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, erkin hamda ijtimoiy hayotning to‘laqonli ishtirokchilari, deb e’tirof etildi.

“Fuqarolik jamiyati” va “huquqiy davlat” tushunchalari XVIII asrda paydo bo‘lgan. Odamlar hayoti va faoliyatining ikki tomoni: ularning shaxsiy manfaatlari, tashabbusi, ixtiyoriy faoliyati jabhasi va odamlar xulqatvorlarini davlatning xohish-irodasiga bo‘ysunuvchi xalq hokimiyati jabhasi shu tushunchalarda o‘z ifodasini topdi.

Fuqarolik jamiyati – ochiq ijtimoiy tuzilma. Unda so‘z erkinligi, shu jumladan, tanqid qilish erkinligi, oshkoraliq, har xil axborotlar olish erkinligi, har bir hududga erkin kirish va chiqish huquqi, boshqa mamlakatlar bilan keng miqyosda, doimiy asosda axborot, ta’lim texnologiyalari almashinuvi, chet davlatlar va jamoat tashkilotlari bilan madaniy va ilmiy hamkorlik, xalqaro huquq prinsiplari va normalariga muvofiq xalqaro xorijiy birlashmalar faoliyatiga ko‘maklashish ta’milanadi. U umumiy insonparvarlik tamoyillariga sodiq bo‘lib, dunyo miqyosidagi shunday tuzilmalar bilan o‘zaro aloqa qilish uchun ochiqdir.

Huquqiy davlat – bu shunday bir davlat hokimiyatdirki, u huquq normalariga binoan va ular doirasida ish ko‘radi, bu normalarni buzish, bekor qilish yoki cheklashga jur’at etmaydi, fuqarolar va ularning birlashmalarining uzviy tabiiy-tarixiy huquqlarini e’tirof etadi.

Totalitar davlatda xavfsizlikni ta’minlash huquqiy tartibotni muhofaza qilish, odamlar xulq-atvorini davlat belgilagan huquqiy qoidalarga muvofiqligini ta’minlash faoliyatidan iborat bo‘ladi, davlat hokimiyatiga tatbiqan xavfsizlikni davlat xavfsizligi va fuqarolik jamiyati xavfsizligiga ajratish yuz bermaydi.

Fuqarolik jamiyatining xavfsizligi (jamoat xavfsizligi) quyidagi ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- ijtimoiyadolat;
- davlat bilan o‘zaro munosabatlarda fuqarolarning va umuman jamiyatning huquqlarini e’tirof etilishi;
- qonuniylik tartibi;

- fuqarolarning iqtisodiy farovonligi;
- demokratik plyuralizm;
- jamiyatning ochiqligi;
- fuqarolik jamiyatining shaklan milliy, mazmunan umuminsoniyligi.

Fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi inson huquqlari va fuqaro huquqlarining farqlanishini belgilab berdi. Inson huquqlarini fuqarolik jamiyati, fuqaro huquqlarini – davlat ta'minlaydi. Ikkala holatda ham shaxs huquqlari to‘g‘rsida so‘z yuritiladi, biroq birinchi holatda ayrim inson sifatidagi shaxsning yashash, erkinlik huquqlari nazarda tutilsa, ikkinchi holatda – uning siyosiy huquqlari nazarda tutiladi.

Inson huquqlari va fuqaro huquqlari o‘rtasidagi farq muayyan asoslarga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1)inson huquqlari davlat tomonidan e’tirof etilgani va qonun yo‘li bilan mustahkamlanganidan, ularning egasi - inson u yoki bu davlatga mansubligidan qat’i nazar mavjud bo‘lishi mumkin. Fuqaro huquqlari esa mazkur shaxs qarashli bo‘lgan davlat tomonidan himoya qilinadi;

2)dunyoda hali anchagina odamlar umuman fuqarolik maqomiga ega emas (fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar - apatriidlar). Binobarin, ular rasmiy darajada fuqaro huquqlariga emas, balki inson huquqlariga egadirlar. Fuqarolik jamiyatining vazifasi ijtimoiy hayotning rivojlanishini ta’minalashdan iboratdir. Shu sababli, uning asosiy tarkibiy qismlarining vazifalari qatoriga bu jarayon normal kechishi uchun shart-sharoit yaratib beruvchi institutlar faoliyati tashkil etadi.

5.2.Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari.

Fuqarolik jamiyatining asosiy qadriyatlarini oila, mulk, shaxs, erkinlik, huquq, ma’naviyat, tartib, davlatchilik kabilar tashkil etadi. Bunda hammani majburiy tartibda mulkdorlarga aylantirish nazarda tutilmaydi – ularning ko‘pchiligi buni xohlamaydi, biroq bunday imkoniyat har kim uchun saqlanishi lozim. Mulk har doim shaxs va butun jamiyat erkinligining bosh omili sifatida amal qiladi. Mulkka nisbatan hurmat mavjud bo‘lmagan joyda shaxsga nisbatan hurmat ham mavjud bo‘lmaydi.

Fuqarolik jamiyati tuzilmalari “yuqoridan” turib emas, balki “quyidan” - fuqarolarning tashabbusi bilan, ixtiyoriy asosda, tabiiyki, muassislarining manfaatlari, qiziqishlari va moyilliklariga muvofiq tuziladi. Ularning erkinligi davlat tuzilmalariga qaram emaslikda, ichki qoidalar bilan nazarda tutilgan vazifalarni hal qilishga qaratilgan o‘zini o‘zi boshqarish faoliyatida namoyon bo‘ladi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari mavjud bo‘lib ular quyidagilardir:

- erkin individlar uyushmasi;
- o‘zaro hamkorlikka asoslangan ijtimoiy tuzilma;
- murakkab tuzilishga ega bo‘lgan plyuratistik tizim;
- o‘zini o‘zi rivojlantiradigan va o‘zini o‘zi boshqaradigan nodavlat tuzilmalarning mavjudligi.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim omillari:

- 1) iqtisodiy erkinlik, mulk shakllarining rang-barangligi, bozor munosabatlari;
- 2) inson va fuqaroning tabiiy huquqlarini so‘zsiz e’tirof etish va himoya qilish;
- 3) hokimiyatning qonuniyligi va demokratik xususiyati;
- 4) qonun va odil sud oldida hammaning tengligi, har bir shaxsning yuridik jihatdan ishonchli himoyalanganligi;
- 5) hokimiyatning uchga bo‘linishi va hokimiyatlarning o‘zaro aloqasi prinsipiga asoslangan huquqiy davlat;
- 6) siyosiy va mafkuraviy plyuralizm, konstruktiv muxolifatning mavjudligi;
- 7) so‘z va matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi;
- 8) fuqarolarning shaxsiy hayotiga davlatning aralashmasligi, ularning o‘zaro majburiyatlari va burchlari;
- 9) sinfiy va milliy totuvlik, ijtimoiy sherikchilik;
- 10) odamlarning o‘zlariga munosib turmush darajasini ta’minlovchi samarali ijtimoiy siyosat.

Fuqarolik jamiyati qator tamoyillarga tayangan holda faoliyat ko‘rsatadi. Jumladan:

- siyosiy sohada hamma odamlarning huquq va erkinliklarining tengligi;
- butun jahon hamjamiyatida yuridik kuchga ega bo‘lgan qonunlar asosida fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlangan huquqiy himoya;
- individlarning mulkka ega bo‘lish va halol mehnati uchun adolatli haq olish huquqiga asoslangan iqtisodiy mustaqil ekanligi;
- qonun bilan kafolatlangan fuqarolarning manfaatlari, kasbiy belgilari bo‘yicha davlatdan va siyosiy partiyalardan mustaqil ijtimoiy birlashmalarga birlashish imkoniyatlari;
- siyosiy partiya va fuqarolik harakatlarini tashkil etishda fuqarolarning erkinligi;
- fuqarolarni erkin, madaniyatli, ma’naviy va ijtimoiy faol, jamiyat a’zolarini qonun oldida ma’suliyatli qilib shakllantiradigan fan, madaniyat, ta’lim va tarbiya uchun zaruriy moddiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratish;
- faqat qonun bilan cheklangan davlat senzurasidan tashqari erkin aoliyat yuritadigan OAV yaratish va faoliyat yuritish erkinligi;
- davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtiradigan mexanizmning (konsensusning) mavjudligi, hamda fuqarolik jamiyati xavfsizligini davlat organlari tomonidan ta’milanishi. Bu mexanizm, rasmiy bo‘ladimi, norasmiy bo‘ladimi, u o‘z ichiga qonuniy aktlarni, xalq vakillarini demokratik saylov yo‘li bilan hokimiyatning, o‘z-o‘zini boshqarishning turli organlari kabilar vositasida tayinlash kabilarni oladi.

Iqtisodiy sohada fuqarolik jamiyat asosini ko‘p ukladli iqtisod, mulkning turli shakllari va boshqariladigan bozor munosabatlari tashkil etadi; Huquqiy sohada esa – hokimiyat boshqaruvi vakolatlarini markazda yig‘ilib qolmasligi, hokimiyatlar bo‘linishi, siyosiy plyuralizm, fuqarolarning davlat va jamoat ishlarida ishtirok etishlari, qonun ustivorligi, hammaning ular oldida tengligi; ma’naviy sohada - yagona mafkura va dunyoqarashning yakka hokimligini mavjud emasligi, vijdon erkinligi, madaniylik, yuqori ma’naviyat va axloq tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyati shaxs erkinligisiz yashamaydi. Erkinlik meyoriy ko‘rinishga ega bo‘lgani uchun, bunday shunday xulosa kelib chiqadiki, bir tomondan inson erkinlikka uning normativ talablariga bo‘ysunish qobiliyati natijasida ega bo‘ladi, boshqa tomondan, shaxs erkinligi borlig‘ining tashqi shakli - bu erkinlikning chegaralarini belgilovchi ijtimoiy meyorlar mavjudligini anglatadi. Va faqatgina, jamiyat uchun yoki insonning o‘zi uchun eng muhim ahamiyatga ega, eng assosiy hisoblangan sohalardagina davlatning o‘zi erkinlikning o‘lchovini, meyorini belgilab beradi. Bu esa huquqiy meyorlar, qonunlar, konstitusiya yordamida amalga oshiriladi.

Bunda huquq va erkinliklarning o‘zi, jumladan, bir tomondan, konstitusiyaviyligi, ikkinchi tomondan, fuqarolik jamiyatining rivojlanganlik darajasi bilan, shuningdek uning iqtisodiy, ijtimoiy, ijtimoiy-siyosiy uyushganligining yetukligi darajasi bilan belgilanadi. Boshqa tomondan qaraganda, inson va fuqaroning huquq hamda erkinligining to‘liqligi, ularning kafolatlanganligi darajasi, ularni hayotdagi izchilligi fuqarolik jamiyatining haqiqiy erkinlik va ijtimoiy adolatli jamiyat sifatida muhim tavsiflarini namoyon etadi. Demak, faqat fuqarolik jamiyati sharoitidagina inson va fuqaro huquqlari har tomonlama ro‘yobga chiqadi. Shu tariqa fuqarolik jamiyati qator muhim funksiyalarini bajaradi:

1.Qonun ustuvorligi asosida u insonning va fuqarolarning shaxsiy xayot sohasini davlat va boshqa siyosiy tuzilmalarning asoslanmagan qat’iy muvofiqlashtirishidan himoya qilishni ta’minlaydi.

2.Fuqarolik jamiyati uyushmalari asosida ijtimoiy (jamoatchilik) o‘zini – o‘zi boshqarish mexanizmlari yaratiladi va rivojlantiriladi.

3.Fuqarolik jamiyati davlatning demokratik organlarini, uning barcha siyosiy tizimini shakllanishi va sodda ko‘rinishga keltirishiga ko‘mak beradi; bunda u turli vositalardan foydalanadi: saylov kampaniyalari va referendumlar, norozilik yoki bu yoki u talablarini qo‘llab-quvvatlash aksiyalarida, u yoki bu masaladar bo‘yicha jamiyatni shakllantirishda faol ishtirok etish kabilar.

4.Fuqarolik jamiyatining institutlari va tashkilotlari o‘z e’tiborini insonlarning huquq va erkinliklarini amalda kafolatlashni va davlat va jamoat ishlarida teng ishtirokini ta’minlashga qaratadi.

5.Fuqarolik jamiyati o‘z a’zolariga nisbatan ijtimoiy nazorat funksiyalarini bajaradi: u davlatdan mustaqil ravishda vosita va

sanksiyalar berishga ega bo‘lishi mumkinki, ularning yordamida u individlarning jamoa talablariga rioya qilishlariga majburlashi, fuqarolarning ijtimoiylashuvini va tarbiyalanishini ta’minlashi mumkin.

6.Fuqarolik jamiyati kommunikatsiyaviy vazifani bajaradi. Bu jamiyat davlat organlariga fuqarolarning aniq manfaatlari haqida axbortlar berib turadi, bu manfaatlarni amalga oshirish esa faqat davlat organlariga tegishlidir.

7.Fuqarolik jamiyati o‘z institutlari va tashkilotlari vositasida barqarorlashtiruvchilik vazifasini bajaradi. U davlat faoliyatida tang holatlar yuz bergapnida unga yordam beradi, jamiyat hayotini yashashini ta’minlaydigan mustahkam tuzilmalarini yaratadi.

Nazorat savollari:

1. Fuqarolik jamiyati va davlat tushunchalarining nisbati va o‘ziga xosligi.
2. Fuqarolik jamiyati va xuquqiy davlat tushunchalarining birbiriga bog‘liqligi.
3. Fuqarolik jamiyati murakkab pulyuralistik tizim.
4. Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari va tamoyillari.
5. Qonun ustivorligining ta’minlanishi – fuqarolik jamiyati rivojlanishining asosiy omili.

6-mavzu: O'ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA FUQAROLIK JAMIYATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI.

РЕЖА:

- 6.1.** *Фуқаролик жамиятининг шакллантириши ва ривожлантиришда демократик институтларнинг тутган ўрни.*
- 6.2.** *Жамоатчилик назорати тушунчаси , тизими, субъектлари, шакллари ва турли кўринишлари.*
- 6.3.** *Ижтимоий шерикл икнинг ривожланишининг назарий -хукуқий асослар.*

Tayanch iboralar: *fuqaroviylilik, jamoatchilik, jamoatchilik nazorati, jamoatchilik nazorati subekti, jamoatchilik nazorati obekti, jamoatchilik nazorati shakllari, jamoatchilik nazorati instituti, elektron xizmat, “elektron hukumat”, hokimiyat organlarining shaffofligi.*

6.1. Fuqarolik jamiyatining shakllantirish va rivojlanirishda demokratik institutlarning tutgan o'rni.

Hozirgi davrda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, huquqiy davlat qurish vazifalari nodavlat notijorat tashkilotlarni yanada rivojlanirishni taqozo etmoqda. Fuqarolik jamiyati sharoitlarida fuqarolarning turli tuman o'zaro munosabatlari va hamkorligi, ularning ixtiyoriy ravishda jamiyat boshqaruvida ishtirok etishi jarayonlari asosan nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Davlat bilan jamiyatning bir-birlaridan begonalashmasligi ham nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 34-moddasidagi «O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar»⁶⁵ kabi fuqarolarning jamiyat institutlarida ishtirok etishini ta'minlab beradigan

⁶⁵ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Т.: Ўзбекистон, 2016.-Б.13-14.

huquqiy asoslarning e'tirof etilishi respublikada jamiyat taraqqiyoti insoniyat hayotining bir necha asrlar mobaynidagi tajribalari va sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan erkinlik jamiyati - fuqarolik jamiyati sari intilayotganligini anglatadi.

Hozirgi davrda O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlar va siyosiy partiylar faoliyati 1991 y. 14 fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi Qonuni (1997 y. aprelda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan), O'zbekiston

Respublikasining «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni (1992 y. iyul), O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiylar to'g'risida»gi Qonuni (1996 y. dekabr), O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» yangi tahrirdagi Qonuni (1998 y. may), O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida» yangi tahrirdagi Qonuni (1999 y. aprel), O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonuni (1999 yil aprel) kabi qonunlar vositasida muvofiqlashadi.

O'zbekistonda nodavlat tashkilotlarga doir qonunchilik rivojlangan mamlakatlar tajribasi, xalqaro huquqiy meyorlar va milliy an'analar asosida shakllantirilgan bo'lib, u o'zida demokratik prinsiplar va qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Mamlakatda davlat bosh islohotchi sifatida nodavlat tashkilotlarning qonunchilik asoslarini har tomonlama rivojlantirishga muhim ahamiyat bermoqda. Parlamentda nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishga doir yuzlab qonunlar va boshqa huquqiy meyorlar qabul qilingan bo'lib, ularning ichida O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonuni (1999 yil 14 aprel) nodavlat notijorat tashkilotlarning serqirra faoliyatini har tomonlama muvofiqlashtirish va huquqiy jihatlardan ta'minlashga qaratildi.

Qonunning 1-moddasida nodavlat notijorat tashkiloti tuzishning umumiy maqsadi ijtimoiy foydali manfaatlarning qondirilishi ekanligi e'tirof etilib, bu bilan nodavlat tashkiloti o'z faoliyatida xalqchillik prinsipiga amal qilishi shart ekanligi belgilab qo'yildi⁶⁶.

Mazkur Qonunning 2-moddasida «Nodavlat notijorat tashkiloti tushunchasi»ning ta'rifi demokratik qadriyatlар asosida talqin qilinadi: «Nodavlat notijorat tashkiloti - jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyorilik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydan) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtaida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir.

⁶⁶ Ўзбекистон Республикасининг «Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўгрисида»ги Конуни.// «Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўгрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Конунига шархлар.-Т.:Адолат,2001.-Б.15. ⁷² Ўша жойда.-Б.14.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi»⁷².

Ushbu qonunda nodavlat notijorat tashkilotlar bilan davlatning hamkorligi shunday o'z ifodasini topganki, davlat organi, ya'ni parlament qonun qabul qiladi, bu qonunga binoan «uchinchi sektor» a'zolari va jamiyat manfaatlari uchun xizmat qiladi. Qonunda qayd etilgan ijtimoiy foydali maqsad tushunchasi nodavlat tashkilotlar faoliyatini aholining nochor qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltiradi. Davlat organlarining muhim funksiyalaridan biri aholini ijtimoiy himoya qilish ekanligini e'tiborga olsak, bu sohada davlat organlari bilan nodavlat tashkilotlarning o'zaro hamkorligi uchun huquqiy asoslarning yaratilganligi namoyon bo'ladi.

«Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi qonunga binoan nodavlat notijorat tashkilotlarining maqsadlari quyidagi yo'nalishlardagi faoliyatlar bo'yicha amalga oshiriladi:

-birinchidan, keng ma'nodagi madaniy maqsadlarga erishish ko'zlab tuzilgan. Bunda maorif, ilm-fan, madaniyat sohalarida faoliyat olib boriladi;

-ikkinchidan, mamlakat aholisining sihat-salomatligini ta'minlashni ko'zlab faoliyat yuritish (sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi, turli xil xastaliklarning oldini olish va ularni davolashning ilg'or tajriba ham usullarini targ'ib etuvchi tashkilotlar);

-uchinchidan, turlicha faoliyat yo'nalishidagi huquqni muhofazalovchi tashkilotlar (masalan, iste'molchilar huquqini himoyalash jamiyat);

-to'rtinchidan, fuqarolarning ma'naviy va boshqa xildagi nomoddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tashkilotlar (nosiyosiy uyushmalar, ijtimoiy jamg'armalar va boshqalar);

-beshinchidan, xayr-ehson ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar⁶⁷.

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarning o'zaro munosabatlari va hamkorligi ushbu Qonunning 4-moddasida quyidagicha ta'riflanadi: «Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining alohida ijtimoiy foydali dasturlariga davlat ko'mak ko'rsatishi mumkin.

⁶⁷ Ўша жойда.-Б.16.

Qonunning mazkur 4-moddasi nodavlat notijorat tashkilotlarning davlat organlari bilan o‘zaro munosabati asoslarini belgilab beradi. Davlat, bir tomonidan, qonuniy asosda nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqi va qonuniy manfaatlarini mustahkamlaydi, ikkinchi tomonidan, nodavlat notijorat tashkilotlarning huquqi va qonuniy manfaatlarini huquqiy jihatdan himoya qilish mas’uliyatini o‘z zimmasiga oladi.

Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqi va qonuniy manfaatlari amalga oshishini kafolatlovchi shart-sharoitlar yaratadi, barcha davlat organlari va mansabdor shaxslarning zimmasiga qonun talablarini so‘zsiz ijro etish vazifasini yuklaydi, zarur holatlarda nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqi va qonuniy manfaatlarini har xil tajovuzlardan himoyalaydi. Nodavlat notijorat tashkilotlari o‘z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya etilishini mavjud barcha huquqiy usullar bilan muhofazalashga haqlidir.

Shuningdek, qonunning 4-moddasiga muvofiq nodavlat notijorat tashkilotlari o‘zlarining moliyaviy manbaini shakllantirish, ichki tizilma va asosiy faoliyat yo‘nalishlarini o‘z ixtiyori bilan o‘zi belgilash masalalarida to‘la mustaqildir⁶⁸.

Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlar va xalqaro huquq meyorlari va milliy qonunchilikdan kelib chiqib davlat quyidagi yo‘nalishlarda nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini nazorat etish huquqiga egadir:

-nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatları O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlari doirasida amalga oshish lozimligi davlat tomonidan nazorat etiladi (Qonunning 34-moddasiga muvofiq)⁶⁹;

-nodavlat notijorat tashkilotlarini ro‘yxatga olgan davlat organi mazkur tashkilotlar faoliyatları yo‘nalishlari ular nizomi doirasida bo‘lishini nazorat etadi (Qonunning 21-moddasiga muvofiq)⁷⁰;

-nodavlat notijorat tashkilotlari anjumanlari va tadbirlarida davlat organlari vakili ishtirok etishi mumkin;-nodavlat notijorat tashkilotlari statistika va soliq organlariga o‘z vaqtida hamda tegishli tarzda hisobot berishlarini nazorat qiladi (Qonunning 33-moddasiga muvofiq)⁷¹.

-nodavlat notijorat tashkilotlari, o‘z navbatida, davlat organlari va mansabdor shaxslarning ishiga aralashmaydi⁷², ya’ni, ular davlat organlarining ishi ustidan nazorat o‘rnatish, hisobot talab etish, moliyaviy nazorat o‘rnatishga haqli emas. (Konstitusiyaning 58-moddasi).

⁶⁸ Ўша жойда.-Б.22-23.

⁶⁹ Ўша жойда -Б.129-130.

⁷⁰ Ўша жойда.-Б.90.

⁷¹ Ўша жойда.-Б.126.

⁷² Каранг: Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Т.: Ўзбекистон, 2016.-Б.20.

«Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida»gi Qonunning 7-moddasi davlat organlari bilan nodavlat tashkilotlar o‘zaro munosabatlari va hamkorligi faoliyatini huquqiy jihatlardan muvofiqlashtiradi. Bu modda shunday talqin etiladi:

«Nodavlat notijorat tashkiloti quyidagi huquqlarga ega:

-o‘z a’zolari va qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish;

-ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish;

-davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarini ishlab chiqishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish»⁷³.

Shuningdek, nodavlat tashkilotlar tizimini yanada mustahkamlash, mazkur tashkilotlarning jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini ifoda etish maqsadlarida 2003 yil 29 avgustida Oliy Majlis tomonidan O‘zbekiston Respublikasining «Jamoat jamg‘armalari to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi. Uning 3-moddasiga binoan jamoat jamg‘armasi deb, yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar asosida tuzilgan, o‘zining a’zolariga ega bo‘limgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ta’lim yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko‘zda tutgan nodavlat notijorat tashkilotiga aytiladi. Shuningdek, viloyatlar, shaharlar va tumanlarda ham mahalliy jamoat jamg‘armalar tuzish mumkin⁷⁴.

Mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining fuqarolik jamiyatni instituti darajasida bo‘lishining huquqiy asoslarini rivojlantirish maqsadlarida 2007 yilda O‘zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunda nodavlat tashkilotlarni qo‘llabquvvatlash va ularning erkin hamda mustaqil faoliyatlarining mavjud qonunchilik va davlat organlari tomonidan kafolatlanishi asosiy maqsad qilib olindi.

Mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlar mustaqilligini ta’minalash, shuningdek, ularning fuqarolik jamiyatining muhim institutiga aylanishini ta’minalash maqsadida davlatning «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari» konseptual siyosiy dasturi qabul qilindi va u mamlakatda jamiyatni rivojlantirishning asosiy tamoyiliga aylandi. Jamiyat siyosiy tizimini yanada erkinlashtirish masalalari mazkur siyosiy dastur qabul qilinganidan keyin yanada dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi.

⁷³ Ўзбекистон Республикасининг «Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида»ги Қонуни.// «Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунига шарҳлар.-Т.: Адолат, 2001.-Б.28-29.

⁷⁴ Ўзбекистон Республикасининг «Жамоат жамғармалари тўғрисида»ги Қонуни.//Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, № 9-10 (1329-1330).2003.-Б.89-90.

6.3. Jamoatchilik nazorati tushunchasi, tizimi, subektlari, shakllari va turli ko‘rinishlari.

Hozirgi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat sharoitida davlat hokimiyati organlarining samarali ishlashi uchun albatta ularni faoliyati jamoatchilik nazorati ostida kechshi lozimligini hozirgi davr rivojlangan davlatlar tajribasi isbotlamoqda. Agar, hozirgi g‘arb davlatlari tajribasiga e’tibor bersak, fuqarolik nazoratidan holi bo‘lgan davlat hokimiyati loganlarinimng mas’liyatsizligi aniq seziladi: qonunning ishlashi to‘liq ta’minlamaydi, hisobsiz davlat vakolatlaridan chetga chiqadigan va turli kampaniyabozliklarga berilishlar avj oladi, byudjet ijrosini amalga oshirishda chetga chiqishlar ro‘y beradi, korrupsiya avj oladi, inson huquq va erkinliklariga amal qilish qiyin kechadi, ularni himoya qilishga unchalik ahamiyat berilmaydi, mansabdorlar boshqaruv faoliyati samarasiz kechadi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish ikkinchi darajali ishga aylanadi, davlat hokimiyati resurslarini boshqarishda subektivlik avj oladi.

Fuqarolik jamiyati sharoitida jamoatchilik nazorati – bu fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari tomonidan davlat hokimiyati organlarini qonunga amal qilishga majbur etish, ularning o‘z vazifalarini ma’suliyat bilan bajarishi va buning oqibati o‘laroq jamiyatda malakali va samarali boshqaruvni bajarishga majburlash maqsadida davlat hokimiyati organlari va mahalliy boshqaruv organlari faoliyati ustidan nazorat qilish va tekshirishidir.

Jamoatchilik nazorati – bu jamiyatning alohida fuqarolar shaxsida hamda fuqarolik jamiyati institutlari vositasida davlat hokimiyati organlarining qonunlarni va o‘z qarorlarini qo‘llash, amalga oshirish, shuningdek bu jarayonlar natijalarini baholash mexanizmidir. Jamoatchilik nazorati – bu fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari – jamoat va nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalarining davlat va mahalliy hokimiyati organlarining qonunga amal qilishlarini ta’minalashga majburlash, o‘z vazifasini bajarishida mas’uliyatni his etishi, o‘z majburiyatlarini sifatli tarzda bajarishi kabi faoliyatları ustidan turli shakldagi tekshiruvlarni amalga oshirishidir. Shuningdek, rivojlangan davlatlarda jamoatchilik nazoratini jamiyatda tutgan o‘rnini uning qanchalik “transparent” ekanligi, ya’ni shaffoflik darajasi bilan o‘lchanadi⁷⁵.

Hozirgi davrga xos zamonaviy davlatlarda jamoatchilik nazorati ijroiya va boshqa hokimiyat tarmoqlarini qonunga amal qilishni, o‘z huquq va vakolatlarini malakali tarzda bajarishga majburlaydi. Jamoatchilik nazorati kuchsiz bo‘lgan

⁷⁵ Баркер Р. Подотчетность власти и ее пределы. <http://usinfo.state.gov/journals/itgic/1103/ijgr/gj02.htm>.

holatlar ko‘pincha o‘tish davrini o‘z boshidan kechirayotgan davlatlarda uchraydi. Albatta, olimlarning tadqiqot natijalarida ko‘rsatilishicha, bu kabi holatning asosan uchta sababi mavjud:

birinchidan, hokimiyat faoliyatini shaffoflik (ochiqlik) bilan ro‘y berishini ta’minlaydigan mexanizmlarning yetishmasligi; Ikkinchidan, hali o‘rta sinfning jamoatchilik nazoratining bosh ijtimoiy bazasining tashkil etshga ulgurmaganligi; uchinchidan, davlat hokimiyati organlari mansabдорларида va fuqarolarida jamoatchilik nazoratining moxiyati, usullari, uslublari, shakllari, mexanizmlari va vosita-kurollari to‘g‘risida zarur bilimlar va tasavvurlarning yetishmasligi. Shuning uchun ham Rossiya fuqarolik jamiyatini shakllanishiga shart-sharoitlarni yaxshilash omili sifatida G‘arbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlari va AKSH kabi davlatlarning jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga doir tajribalarini o‘rganishga zarurat tug‘iladi. Zero, bu vazifa fuqarolik jamiyatini qurishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. rivojlanishi tajribasini bir necha makolada ochib berish dolzarb masala bo‘lib kolmokda.

Ma’lumki, davlat hokimiyati organlari boshqaruvchilar – mansabдорлар davlatning markaziy va mintaqaviy moliyaviy muonsabatlarini boshqaradi, yer va boshqa resurslarni taqsimlaydi, ommaviy axborot vositalari (OAV) va boshqa jamoat resurslarini nazorat qiladi, jamiyatning turli sohalari bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlarning qabul qilinishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi, kadrlarni va xizmachilarni ishga oladi va o‘z lavozmidan, mehnat jamoalarini o‘z ortidan ergashtiradi, mamlakatni rivojlantirish strategiyasini aniqlashda ishtirot etadi.

Davlat hokimiyati organlari rahbarlari o‘z shaxsiy manfalatlarini mamlakatning milliy manfaatlari bilan aynanlashtirgan taqdirdagina ular boshqaruv tizimining haqiqiy va samarali namoyondaga aylanadi. “Milliy manfaatlari” deganda xalqning xavfsizligi ta’minlash, huquqning, qonun ijrosini ustuvorligi, inson erkinligi va huquqlarini himoya qilish, mulkdorlar qatlami - o‘rta sinfni fuqarolik jamiyatni iqtisodiy va ijtimoiy tayanchi bo‘la oladigan darajada shakllantirishi, demokratik qadriyatlarni va bozor munosabatlari asosida iktisodiyeyoni rivojlantirish kabilar tushuniladi. Boshkacha aytganda, agar boshqaruvchilar qatlamida o‘zining jamiyatdagi yukori o‘rnini, moliyaviy jihatlarga va mulkga ega bo‘lishga oid o‘z manfaatlarni mamlakatning milliy manfaatlarni himoya qilishi g‘oyasining kichik bir qismiga aylangan taqdirdagina u samarali va xalqchil mansabdorga aylanadi. Davlat mansabdoi o‘zini kuchli va gullab-yashnayetgan mamlakatidagina yaxshi yashashi va o‘z xavfsizligini saqlay olishini chuqur anglagan bo‘lishi lozim. Mohiyatan samarali boshqarish qobiliyatga ega bo‘lgan, nafaqat o‘zini, balki barcha fuqarolarning xavfsiz, kulay va barqaror hayotini ta’minlash ishida faol ishtirot etadigan, faqat o‘zidan yuqori davlat hokimiyati organlari oldidagina emas, balki fuqarolar oldida ham mas’uliyatni his qila oladigan – ya’ni fuqarolik

jamiyatni talablariga javob bera oladigan mansabdorlar ko‘pchilikni tashkil etgandagina davlat rivojlanma boslaydi.

Jahon tajribasidan ma’lumki, jamoatchilik nazorati jamiyatga ham, davlat hokimiyatiga ham foydali omil sifatida ta’sir etadi. Haqiqatan, u davlat hokimiyati organlarining ma’sul bilan faoliyat yuritishiga - qonunning ishlashini ta’minlashga, inson huquqi va erkinliklarini xurmat qilishga va himoyalashga, binobarin, umumi farovonlikka samarali va ijobjiy ta’sir ko‘rsatishga majbur kiladi. Jamoatchilik nazorati davlat hokimiyati organlarini doimiy va muttasil ravishda takomillashib borishini rag‘batlantiradi:

birinchidan, u davlat xizmati xodimlarini turli tuman, son-sanoksiz o‘ziga tortadigan, hoyu-havasga beriladigan boyliklar va lazzatlarga igtimaslik immunitetiga ega bo‘lishi, ma’naviy boy bo‘lishga intiladi; ikkinchidan, fuqarolarning jamoatchilik nazorati jamiyatning hokimiyat organlari bilan o‘zaro – ta’sir – aks ta’sir aloqalarining bir omili sifatida namoyon bo‘ladi, fuqarolarga mamlakat taraqqiyotining maqsadlari va uning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida haqqoni tasavvurlarga ega bo‘lishi va davlat hokimiyati organlari bilan ochiq muloqatlarda bo‘lib turishini ta’minlaydi. Davlat – jamiyat – fuqarolar o‘zaro aloqalari yordamida hokimiyat organlari fuqarolarning mamlakatda zarur islohotlarni o‘tkazishga doir talablariga nafakat qulq tutadi, balki bu islohotlarni amalga oshirishga kirishadi; uchinchidan, jamoatchilik nazorati davlat hokimiyati organlarini samarali ishlashga undaydi, u fuqarolarning jamoatchilik nazorati vositasida boshqaruv kadrlarini o‘z vazifalarini astoydil bajarishga undash omili sifatida namoyon bo‘ladi. Boshqaruv tizimi kadrlari jamiyat a’zolarining nazorati ostidagina samarali boshqaruvni amalga oshirishi mumkin, jamoatchilik nazorati kuchi bilan fuqarolarning yaratuvchilik takliflari hayotda o‘z ifodasini topishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, jamoatchilik nazoratining faollashuvi natijasida raqobatbardosh iktisodiyot rivojlanadi, kadrlarning ichki salohiyati ro‘yobga chiqdi, xalqning turmush darjasini oshadi, kuchli fuqarolik jamiyatni shakllanadi, milliy xavfsizlik mustaxkamlanadi, insoniy kapital va uning resursi hayotda ishga tushadi. Bularning barchasi pirovard natijada mamlakatni salohiyatli bo‘lishiga olib keladi, jamiyat gullab-yashnaydi, boshqacha aytganda, milliy manfaatlar ro‘yobga chiqadi.

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki davridan boshlab huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishni asosiy strategik pirovard maqsad sifatida e’lon qilinishi, bozor iqtisodiyotiga o‘tish islohotlarini boshlanishi natijasida jamoatchilik nazoratini shakllantirishga zarurat paydo bo‘ldi. Chunki, jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri hisoblanadi.

Mustaqillik davrida fuqarolik jamiyatni institutlarining turli sohalar bo‘yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga doir u yoki bu qoidalar 40 dan ortiq meyoriy-huquqiy hujjatlarda o‘z ifodasini topdi. O‘zbekiston

Respublikasi Konstitusiyasida va milliy qonunchilikda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ustuvor qoidalari mustahkamlangan. Xususan, Konstitusianing 2-, 35- va 60-moddalarida fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarlarning jamoatchilik nazorati amalga oshirishining ba'zi qoidalari mustahkamlandi. 2014 yilning 16 aprelida Konstitusianing 32-moddasiga fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etishning yo'li sifatida "davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi"⁷⁶ prinsipi kiritildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi, "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi va boshqa qator qonunlarda fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlar tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishga doir moddalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 29-moddasiga muvofiq "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitusiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin"⁷⁷. Mazkur konstitusiyaviy huquq asosida 1997 yili 24 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish erkinligi va kafolatlari to'g'risida"gi, 2002 yili 12 dekabrda "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunlaring qabul qilinishi OAV tomonidan jamoatchilik nazratini amalga oshirishga huquqiy asoslar yaratdi. O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda qabul qilingan "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunining 4-moddasiga binoan "O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga muvofiq har kim axborotni moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqiga ega. Axborot olish faqat qonunga muvofiq hamda inson huquq va erkinliklari, konstitusiyaviy tuzum asoslari, jamiyatning axloqiy qadriyatlari, mamlakatning ma'naviy, madaniy va ilmiy salohiyatini muhofaza qilish, xavfsizligini ta'minlash maqsadida cheklanishi mumkin"⁷⁸.

Shuningdek, mazkur qonunning 8-moddasida "Davlat har kimning axborotni izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqini himoya

⁷⁶ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Т.:Ўзбекистон,2016.-Б.13.

⁷⁷ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Т.:Ўзбекистон,2016.-Б.12.

⁷⁸ Ўзбекистон Республикасининг «Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида»ги қонуни//Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 йил, № 1, 2-модда. ⁸⁹Уша жойда.

qiladi. Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiga qarab axborot olish huquqi cheklanishiga yo'l qo'yilmaydi. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har kimga o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan axborot bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlab berishga, maqbul axborot resurslari yaratishga, foydalanuvchilarni fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlariga, ularning xavfsizligiga doir hamda jamiyat manfaatlariga taalluqli boshqa masalalar yuzasidan axborot bilan ommaviy tarzda ta'minlashga majburdirlar. O'zbekiston Respublikasida senzuraga va axborotni monopollashtirishga yo'l qo'yilmaydi”⁸⁵.

Mustaqillik davrida mamlakatda "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining asoslari haqida"gi, "Siyosiy partiyalar to‘g‘risida"gi qonunlarda davlat hokimiyati organlarining fuqarolik jamiyati institutlari oldidagi mas’uliyatlari huquqiy jihatlardan mustahkamlab qo‘yildi. nodavlat tashkilotlarining faoliyatini ta’minalashga qaratilgan qoida va meyorlar o‘z aksini topgan bo‘lsa, Prezidentimiz farmonlarida va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, imtiyozli soliq to‘lovlarini belgilash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash shartsharoitlari yaratib berilmoqda.

Mamlakatdagi milliy qonunchilkka binoan kasaba uyushmalari mehnat, mehnatni muhofaza qilish va kasaba uyushmalari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini olib boradilar. Fuqarolarning mehnat qilish, ishni, kasbni erkin tanlash, adolatli va munosib mehnat sharoitlarida ishlash borasidagi huquqlarini himoya qilish kasaba uyushmalarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi o‘n yillikda kasaba uyushmalariga fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarning mazmuni ham tubdan o‘zgardi. YA’ni, ilgari murojaatlarning akasariyati moddiy yordam ko‘rsatish, yo‘llanma ajratish masalalariga oid bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi davrga kelib ularning 68 foizga yaqinini jamoa shartnomalarida belgilangan meyorlarga rioya etish, ishdan noqonuniy bo‘shatish, ishlab chiqarishda qulay va bexatar mehnat sharoitlarini yaratish masalalari tashkil etmoqda. 2011-2015 yillar davomida kasaba uyushmalari tomonidan fuqarolardan kelib tushgan jami 57.254 ta murojaat ko‘rib chiqilib, jamoatchilik nazorati natijasida ularning 51.031 tasi hal etildi.

Shuningdek, xodimlarning qonuniy haq-huquqlarini tiklash maqsadida kasaba uyushmalari tomonidan sndlarga da’vo arizalari, ish beruvchilarga hamda davlat organlariga taqdimnama kiritish amaliyoti keng joriy etildi. Xususan, o‘tgan 2011-2016 yillar davomida kasaba uyushmalari tomonidan sndlarga jami 361

ta da'vo arizalari va ish beruvchilarga 1.980 ta taqdimnoma kiritilib, buning natijasida 5.354 nafar shaxsning qonuniy huquqlari tiklanishiga erishildi.

2016 yil uchun jamoa shartnomasining yangi maketi ishlab chiqilib, Federatsiya Kengashining internet portaliga, “norma.uz” saytiga joylashtirildi, “Ishonch” va “Ishonch-Doveriye” gazetalarida davlat va rus tillarida chop etildi. Kasaba uyushmalari tomonidan jamoa kelishuvlari va shartnomalari loyihibarini jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazish taomili joriy etilgani ularning sifatini yaxshilash va ijtimoiy yuklanmasini kuchaytirish imkonini berdi⁷⁹.

2017 yil 1-yarim yilligi davomida turli darajadagi kasaba uyushmalari tashkilotlari tomonidan 4 ming 321 ta murojaat o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqildi. Xususan, ularning 845 tasi qanoatlantirildi, 2292 ta murojaatlar bo'yicha mualliflarga tushuntirish berildi, 123 ta murojaatda ko'rsatilgan vajlar o'z tasdig'ini topmadi, 42 ta murojaat qonun talablariga muvofiq ko'rmay qoldirildi, 11 ta murojaat anonim deb topildi.

Kasaba uyushmalariga yo'llangan, lekin mazmun jihatidan ko'rib chiqish kasaba uyushmalari vakolatiga kirmaydigan masalalar aks ettirilgan 71 ta murojaat mualliflar xabardor qilingan holda, vakolatli organlarga yuborildi.

Xodimlarning mehnat huquqlari buzilganligi aniqlangan holatlar yuzasidan ish beruvchilarga kiritilgan 173 ta taqdimnomaning 64 tasi qanoatlantirildi, sudlarga kiritilgan 75 ta da'vo arizasining 21 tasi murojaat mualliflari foydasiga hal qilindi,⁴⁷ 47 ta da'vo arizalari ko'rib chiqilmoqda. Fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, jami 535 nafar shaxsning mehnat huquqi tiklanishi va xodimlar foydasiga 2 mlrd. 450 mln. so'm miqdorida ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lov larning undirilishiga erishildi.

Murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi, O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ga, shuningdek hududlar va tarmoqlar kesimida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga tahliliy ma'lumotnomalar kiritildi⁸⁰.

Mamlakatda mehnat munosabatlarini demokratik prinsiplar asosida rivojlantirish, bu sohada kasaba uyushmalarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi rolini kuchaytirish, bu sohaga xalqaro standartlarni oli kirish kabi yangi g'oyalarni hayotga tatbiq etish 2016 yilning oxirgi choragida boshlandi. Ayniqsa, Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya

⁷⁹ Исаев М.Мехнат муносабатлари жамоатчилик назорати остида бўлиши шарт.23.06.2016//http://www.norma.uz/bizning_sharhlar/mehnat_munosabatlari_jamoatchilik_nazorati_ostida_bulishi_shart.

⁸⁰ Ўзбекистон касаба уюшмалари Федерациясининг жорий архиви. 2017 yil 1-yarim yilligiga давомида амалга оширилган ишлар тўғрисида маълумотнома.-Б.2.

qilingan konvensiyalarini hayotga tatbiq etish masalasi 2016 yil 12 oktabrda parlament tomonidan “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqida”gi hamda “Xalqaro mehnat tashkilotining birlashmalar erkinligi va kasaba uyushmalariga birlashish huquqini himoya qilish to‘g‘risidagi 87-sonli Konvensiyasini ratifikatsiya qilish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining ma’qullanishi muhim o‘zgarishlarga olib keldi. “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunda kasaba uyushmalari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, qonunning amalda qo‘llanish amaliyotini tahlil qilish natijasida aniqlangan eskirgan norma va qoidalarni bartaraf etish, qonunning ayrim normalarini yangi qabul qilingan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqlashtirishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar ifodalandi.

Xususan, qonunda kasaba uyushmalari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari takomillashtirildi. Jumladan, xodimlarning alohida toifalari, jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar, hunarmandlar va bir martalik ishlarda band shaxslar uchun O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga muvofiq birlashish erkinligi kafolatlari mustahkamlandi. Yangi davr talablarini inobatga olgan holda yakka tartibdagi tadbirkorlar ishlaydigan joylarda, shuningdek, tarmoqlar va hududlar darajasida kasaba uyushmalari tashkilotlarini tuzish va faoliyatini ta’minlash tartibi belgilandi. Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan yollangan xodimlarga ham kasaba uyushmalariga birlashish huquqi berilib, xususiy sektorda mehnat qiluvchi shaxslarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini himoya qilish samaradorligi oshirildi.

Qonunga o‘zgartishlar kiritilishi natijasida kasaba uyushmalarining huquqiy himoya funksiyalarini ham kuchaytirdi. Xususan, mehnat nizolarini ko‘rib chiqishning soddallashtirilgan va samarali vositasi sifatida sudga da’vo arizasidan tashqari sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilish huquqi kiritildi. Ish beruvchilar tomonidan kasaba uyushmalarining mehnat qonunchiligi talablari buzilishini bartaraf etish to‘g‘risida kiritgan taqdimnomasini ko‘rib chiqish muddatlari qisqartirildi. Shu bilan birgalikda kasaba uyushmalarining ijtimoiy himoya funksiyalari ham kuchaytirilib, xodimlarning mehnat va ijtimoiy huquqlarini himoya qilishda kasaba uyushmalarining rolini oshirishga qaratilgan mexanizmlar mustahkamlandi. Kasaba uyushmalarining ish beruvchilar bilan jamoa muzokaralarini o‘tkazishda ustuvor huquqdan foydalanish, ish beruvchilarning mehnat va kasaba uyushmalari to‘g‘risidagi qonunchilikni, shuningdek, jamoa shartnomalari va kelishuvlari talablarini bajarishini nazorat qilish hamda mehnat nizolarini ko‘rib chiqishda ishtirok etish huquqlari kafolatlari kuchaytirildi. Albatta, bu yangi o‘zgarishlar fuqarolarning mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari himoyasini kuchaytirish hamda ijtimoiy-mehnat sohasida

qonuniylikni ta'minlash, muhimi kasaba uyushmalari tomonidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qila boshladi.

“Xalqaro mehnat tashkilotining birlashmalar erkinligi va kasaba uyushmalariga birlashish huquqini himoya qilish to‘g‘risidagi 87-sonli Konvensiyasini ratifikatsiya qilish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ma’lumki, mazkur Konvensiya Xalqaro mehnat tashkilotining 1948 yilgi Bosh Konferensiyasida qabul qilingan bo‘lib, unda xodimlar va ish beruvchilarning tashkilotlar tuzish, shuningdek, bunday tashkilotlarga a’zo bo‘lish huquqi nazarda tutilgan. Konvensiyada ushbu tashkilotlarning o‘z ustavlari va ma’muriy reglamentlarini ishlab chiqish, o‘z faoliyatini tashkil etish, harakat dasturini tasdiqlash hamda ro‘yobga chiqarish huquqlari nazarda tutilgan edi. Birlashish huquqini cheklovchi yoki uning qonunchilik yo‘li bilan amalga oshirilishiga to‘sinqlik qiluvchi davlat organlari aralashuvidan holi bo‘lish ko‘zda tutilgan hamda xodimlar va ish beruvchilarning birlashish bo‘yicha o‘z huquqini erkin amalga oshirishini kafolatlovchi chora-tadbirlar hamda boshqa huquqlar qayd etilgan.

Xususan, mamlakatimizda fuqarolarning kasaba uyushmalariga birlashish huquqlari O‘zbekiston Respublikasining 20 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatida, shu jumladan, “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda va O‘zbekiston

Respublikasining Mehnat kodeksida mustahkamlab qo‘yilgan. Hozirgi vaqtida 14 ta tarmoq, 14 ta hududiy va 37 mingdan ortiq boshlang‘ich kasaba uyushmasi tashkilotini birlashtiruvchi O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi 6,2 milliondan ziyod xodimning manfaatlarini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mazkur Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi har bir kishining o‘zgalar bilan erkin uyushma tuzish huquqini, shu jumladan, kasaba uyushmalarini tuzish va o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmalariga a’zo bo‘lish huquqini kafolatlovchi 1948 yilgi Butunjahon inson huquqlari deklaratsiyasida aks etgan inson huquqlarini himoya qilishning umume’tirof etilgan normalariga O‘zbekiston sodiq ekanligining yorqin namunasi bo‘ldi. Bu holat mamlakat kasaba uyushmalarini jamoat nazoratini olib borish faoliyatini yanada kengaytirish va chuqurlashtirshning asosi bo‘ldi⁸¹.

Kasaba uyushmalari huquqiy asoslarini fuqarolik jamiyati talablari asosida takomillashtirilishi, davlat hokimiyati organlari vakolatlari va funksiyalarini xalqqa xizmat qilishga qaratilgan Prezident farmonlari, “O‘zbekiston Respublikasining

⁸¹ Ўзбекистон касаба уюшмалари Федерацияси Кенгаши матбуот хизмати.25.10.2016.//<https://kasaba.uz/kasaba-uyushma-lari -ularning-huquqlari-vafaoliyatining-kafolatlari-tugrisida-gi-uzbekiston-respublikasi-qonuniga-uzgartishlar-kiritish-haqida-gi-hamda-hmtning-birlashmalar-erkinligi-va-kasaba-uyushmal/>

Ma'muriy islohotlar konsepsiysi"ni amalga joriy etish asnosida "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 11-moddasidagi quyidagi vakolatlar va huquqlarni amalga oshirishga shart-sharoitlar tug'ildi:

"Kasaba uyushmalari ish beruvchi tomonidan mehnat va kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonun hujjatlari normalariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi, aniqlangan xukuqbuzarliklar bartaraf etilishini talab qilishga haqli. Ish beruvchi qonun hujjatlari buzilishlarini bartaraf etish to'g'risidagi taqdimnomalarni ko'rib chiqishi va ko'rib chiqish natijalari haqida kasaba uyushmasiga o'n besh kunlik muddat ichida xabar berishi shart.

Kasaba uyushmalari xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilib sudga da'vo arizasi bilan, shuningdek sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishga haqli. Kasaba uyushmalari huquqiy yordam xizmatlariga va boshqa zarur organlarga ega bo'lishi mumkin"⁸².

Mamlakatda davlat hokimiyati organlari va mansabdorlar ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 5 mayda qabul qilingan "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonuni muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur qonun davlat hokimiyati organlari faoliyatini shaffof kechishi ustidan jurnalistlar, o'z huquqini himoya qilish istagidagi tadbirkorlar, fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda muhim ilgari siljish bo'ldi. Qonunning 4-moddasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligining asosiy prinsiplari sifatida quyidagilar e'lon qilindi:

ular tomonidan taqdim etiladigan axborotdan hammaning foydalanishi mumkinligi, uning o'z vaqtida berilishi va ishonchliligi; ular faoliyatining oshkoraliqi va shaffofligi;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligi; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risida axborot taqdim etishda fuqarolarning o'z sha'ni va qadr-qimmatini tajovuzlardan, o'z shaxsiy hayotiga aralashuvlardan himoya qilishga bo'lgan huquqlari va qonuniy manfaatlariga, shuningdek fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z ishchanlik obro'sini himoya qilishga bo'lgan huquqlariga rioya etish⁸³.

⁸² Kasaba uyoshmalari ish beruvchi tomonidan mehnat va kasaba uyoshmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida//Узбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2016 й., 48-сон, 546-модда.

⁸³ Узбекистон Республикасининг "Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида"ги қонуни. 5 май 2014 й.// http://senat.gov.uz/uz/laws/urq-369_05.05.2014.html.

Shu bilan birga, qonunning 7-moddasida axborotdan foydalanuvchi va uning huquqlariga doir quyidagi qoidalar o‘rnatildi:

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risida axborot izlashni amalga oshirayotgan jismoniy yoki yuridik shaxs axborotdan foydalanuvchidir.

Axborotdan foydalanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risidagi ishonchli axborotni olish va tarqatish; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risida ushbu Qonunning 5-moddasida nazarda tutilgan axborotni olish uchun bevosita yoxud o‘z vakillari orqali so‘rov bilan murojaat etish; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risida axborot olishni rad etish; axborotdan foydalanuvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin⁸⁴.

Albatta, mazkur qonun mamlakatda jamoatchilik nazoratini shakllanishi va fuqarolar huquqiy madaniyatini rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Mamlakatda OAV, tadbirkorlar, nodavlat notijorat tashkilotlar faollari mazkur qonunga tayangan holda nafaqat o‘z haq-huquqlarini himoya qildi, balki fuqarolik jamiyatiga xos bo‘lgan demokratik qadriyatlardan xabardor bo‘ldi, ularning fuqaroviylit pozitsiyalari shakllana boshladi.

O‘zbekiston Respublikasining 22 aprel 2013 yilda qabul qilingan «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi Qonunning yangi tahririning 16-moddasida mahalla, shaharcha va ovul fuqarolar yig‘inlariga jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga doir quyidagi vakolatlar va huquqlar berildi. Mazkur modda shunday ifodalandi:

“Jamoatchilik nazorati fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

tegishli hududda qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining ijro etilishi holatini o‘rganish; tegishli choralar ko‘rilishi uchun davlat organlariga murojaat etish; davlat organlari vakolatiga kiruvchi va ijtimoiy ahamiyatga molik masalalar bo‘yicha so‘rovlar yuborish.

Jamoatchilik nazorati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Jamoatchilik nazorati ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin.

⁸⁴ Ўша жойда.

Davlat organlari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ko‘maklashishi va qonun hujjatlariga muvofiq ularning murojaatlari yuzasidan o‘z vaqtida choratadbirlar ko‘rishi shart”⁸⁵.

Shuningdek, qonunning yangi tahririga binoan davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining o‘rnatilishi fuqarolik jamiyatni barpo etishning eng muhim shartlaridan biri ekanligini e’tiborga olinib, fuqarolar yig‘inlari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar ijroiya hokimiyati rahbarlarining turli sohalarga oid masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitish, fuqarolar yig‘inlarining murojaatlari ko‘rib chiqilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish masalalari yuzasidan o‘z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitish hamda ularning natijalari bo‘yicha qarorlar qabul qilish kabi vakolatlarga ega bo‘lishi o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirish faoliyatini kuchaytirishga qaratildi.

Mamlakatda fuqarolik jamiyatni sharoitida tabiat va atrof-muhitni himoyalash sohasidagi vazifalar yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, inson o‘zini tabiat va jamiyatning bir unsuri sifatida his etish uning atrof tabiatga bo‘lgan munosabatlarini ijobiy ahamiyat kasb etishini taqozo etadi. Mustaqillik yillarida mamlakatda ekologiya sohasida 120 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari tashkil topdi. Ularning aksariyati mamlakatda ekologik nazoratni olib borishda faol ishtirok etmoqda. O‘tgan davr ichida mamlakatda atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazoratni amalga oshirishning qonunchilik asosi shakllantirildi.

Bu sohada asosiy hujjat - O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunida alohida “Ekologik nazorat” bo‘limi mavjud. Unda ekologik nazoratning vazifalari, atrof tabiiy muhit holati monitoringi, davlat, shuningdek, idoraviy, ishlab chiqarish hamda jamoatchilik nazoratining mohiyati ko‘rsatib o‘tilgan, mazkur nazoratni olib boradigan vakolatli organlar ro‘yxati belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Chiqindilar to‘g‘risida”gi, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonunlarida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksida tabiatni, uning obektlarini muhofaza qilish va ulardan tejamli foydalanish maqsadida davlat va jamoatchilik nazoratini amalga oshiradigan vakolatli organlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish

⁸⁵ Ўзбекистон Республикасининг “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида”ги Қонуни.22 апрель 2013 й://http://www.senat.uz/uz/laws/urq_22.04.2013.html.

organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirshdagi ishtiroklari belgilab qo‘yilgan.

Mamlakatda parlament tomonidan 2013 yil 27 dnkabrda “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilinishi, unda milliy va rivojlangan mamlakatlarning tabiatni muhofaza qilishni tartibga solish qonunchiligi tajribasi asosidagi huquqiy asoslar mujassamlashdi. Qonunning 4-moddasida ekologik nazoratning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo‘yish;

atrof muhit holatini kuzatib borish, atrof muhitning ifloslanishiga, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanilishiga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid solishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni aniqlash; mo‘ljallanayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik faoliyatni va boshqa

faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash; yuridik va jismoniy shaxslarning atrof muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini, ular tomonidan majburiyatlar bajarilishini ta‘minlash; atrof muhitdagi o‘zgarishlar, uning prognoz qilinayotgan holati, tabiiy resurslardan foydalanilishi va ko‘rilayotgan tegishli chora-tadbirlar to‘g‘risida davlat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarni hamda fuqarolarni xabardor qilish; tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish hamda davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarning amalga oshirilishida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning ishtirokini ta‘minlash⁸⁶.

Shuningdek, qonunda ekologik nazoratning turlari — davlat, idoraviy, ishlab chiqarish jamoatchilik ekologik nazorati, uni amalga oshirish tartibi va uslubi, nazorat natijasini rasmiylashtirish va amalga oshirish shakllari belgilab berilgan. Davlat organlarining, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari va fuqarolarning huquqlari hamda majburiyatlarini ifodalandi.

Qonunda jamoatchilik ekologik nazoratining subektlari sifatida fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar belgilab qo‘yilganligi, jamoatchilik ekologik nazorati faoliyatini muvofiqlashtirish fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga yuklatilganligi uning muhim jihatlaridir. Qonunning 15–moddasida fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ekologik nazorat sohasidagi vakolatlari quyidagicha belgilandi:

⁸⁶ Ўзбекистон Республикасининг “Экологик назорат тўғрисида”ти конуни. 27 декабрь 2013 й. // Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами, 2013 й., 52-сон, 688-модда.

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari:
atrof muhitni muhofaza qilishni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari bo‘yicha qarorlar tayyorlashda va qabul qilishda, shuningdek davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi; tegishli hududda jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshiradi; atrof muhit holatini va atrof muhitning ifloslanishiga hamda tabiiy resurslardan nooqilona foydalanishga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid solishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni kuzatib borishni amalga oshiradi; ekologik nazorat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi; maxsus vakolatli davlat organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga, xo‘jalik yurituvchi subektlarga davlat, idoraviy va ishlab chiqarish ekologik nazoratini amalga oshirishda o‘z vakilining kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi to‘g‘risida takliflar kiritadi; atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishining o‘zi tomonidan aniqlangan fakti to‘g‘risida maxsus vakolatli davlat organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarini, xo‘jalik yurituvchi subektlarni xabardor qiladi; atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlarining talablari buzilganligi aniqlangan faktlar yuzasidan choralar ko‘rish to‘g‘risida tegishli davlat organlariga takliflar kiritadi; atrof muhitning holati, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, mazkur sohadagi qonun hujjatlari buzilishi yuzasidan aniqlangan fakti bartaraf etish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida tegishli davlat organlariga murojaat qiladi va axborot oladi; atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalariga doir jamoatchilik fikrini o‘rganishni, jamoatchilik ekologik ekspertizasini o‘tkazadi; atrof muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish masalalari yuzasidan o‘z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi hamda ularning natijalari bo‘yicha qarorlar qabul qiladi; atrof muhitni muhofaza qilishga ko‘maklashadi, ekologik nazoratning boshqa subektlari va ommaviy axborot vositalari bilan jamoatchilik ekologik nazorati masalalari bo‘yicha, shu jumladan ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlari tizimini shakllantirishda hamkorlik qiladi; aholining ekologik madaniyatini oshirish, ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirishga doir ishda ko‘maklashadi”⁸⁷.

⁸⁷ Ўзбекистон Республикасининг “Экологик нazorat тўғрисида”ги қонуни. 27 декабрь 2013 й. // Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2013 й., 52-сон, 688-модда.

Qonunga binoan o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘z vakolatlari doirasida tegishli hududda atrof-muhit muhofazasiga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi, nodavlat notijorat tashkilotlariga atrof-muhit ifloslanishi va tabiiy resurslardan nooqilona foydalanishga olib kelishi mumkin bo‘lgan, fuqarolarning sog‘lig‘i va hayotiga xavf soluvchi favqulodda vaziyatlarni kuzatib borish va oldini olish, aniqlashning samarali tizimi yaratilishida, shuningdek, jamoatchilik ekologik nazoratini tashkil etish va amalga oshirishda, jamoatchi inspektorlar institutini shakllantirish va ularning o‘quvini tashkil etishda ko‘maklashadi. Fuqarolar yig‘inlari ekologik nazoratning boshqa turlari amalga oshirilishida, ekologik nazorat sohasidagi maxsus vakolatli davlat organiga takliflar kiritishda ishtirok etadilar, ijo hokimiyati organlari, tegishli hududda joylashgan muassasa va tashkilot rahbarlarining atrof-muhitni muhofaza qilish va hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish masalalari yuzasidan hisobotlarini eshitadi hamda ularning natijalari bo‘yicha qarorlar qabul qiladi. Bu, shubhasiz, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining roli va ahamiyatini yanada oshirishga, jamoatchilik tuzilmalarining atrof-muhit muhofazasida hamda ekologik vaziyatni yaxshilashdagi ishtirokini faollashtirishga xizmat qiladi.

Albatta, 1991-2015 yillarda mamlakatda jamoatchilik nazoratining shakllanishi va rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratildi. Jamoatchilik nazorati fuqarolar huquqiy madaniyatining bir unsuri sifatida namoyon bo‘la boshladи. Lekin, bu davrda davlat hokimiyati organlari va boshqaruving jamiyat hayotini barcha jabhalarini boshqarishda ustuvor rol o‘ynashi, rivojlangan davlatlarga hos qonunchilik asoslarini yaratilmaganligi tufayli jamoatchilik nazorati instituti faoliyati o‘z resursslari namoyon qila olmadi. Bu sohadagi islohotlar asosan 2017 yildan – jamiyatni isloh etishdagi tub burilish davrining boshlanishi asnosida rivojlandi. Bunda davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimiga Prezident SH.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” prinsipni qo‘llash, shu asosda yangi, fuqarolik jamiyatini shakllanishiga imkon yaratidagigan huquqiy asoslarni yaratilishi, davlat organlarini modernizatsiyalashning boshlanishi muhim rol o‘ynadi.

Mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha **Harakatlar strategiyasi**”ning qabul qilinishi va undagi maqsadvazifalarni ro‘yobga chiqa boshlashi jamiyat va davlat taraqqiyotining tub burilish davrini boshlab berdi. **Harakatlar strategiyasining 1-yo‘nalishi - “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari”da quyidagi fuqarolik jamiyatni va huquqiy davlatni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilandi:**

-davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarini yanada kengaytirish;

-qabul qilinayotgan qonunlarning amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta’sirini kuchaytirishga yo‘naltirgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish;

-siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish.

-davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta’minot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish;

-mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha vazifalarni amalga oshirishda o‘zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

-davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish;

-“Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko‘rsatishning samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan aholi hamda tadbirkorlik subektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish.

Albatta, mazkur konseptual dasturda belgilangan maqsad va vazifalar asosan davlat hokimiyati organlari va boshqaruvini modernizatsiyalash, aksariyat davlat xizmati ko‘rsatishga doir vakolatlarni uning quyi organlariga berish, hokimiyatning uchga bo‘linish prinsipini tuman, shahar va viloyatlarda ham joriy etish, boshqaruv va davlat xizmatini aholiga yaqinlashtirish va uning samarasini keskin oshirish, davlat boshqaruvida fuqarolarning faol ishtirok etishlariga har tomonlama shart-sharoitlar yarptishga qaratildi. Chunki, bu omillar davlat hokimiyati organlari va boshqaruvini nomarkazlashtirgan holda ularni oldingi jamiyatdagi ustuvor maqeini cheklaydi, mahalliy ijroiya hokimiyati tuzilmalari faoliyati vakillik organlari nazoratida kechishi natijasida unga nisbatan jamiyat institutlarining ta’siri kuchayadi. Bu holat o‘zida ayni fuqarolik jamiyati rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan muhitni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, fuqarolarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat tashkilotlar vositasida o‘z manfaatlarini qondirishlari uchun imkoniyatlar tug‘iladi, manfaatlar uchun intilishlar fuqarolarni davlat boshqaruvi jarayonlarida faol ishtirok etish mayllarini uyg‘otadi.

Albatta, bu tahlillarni fuqarolarni davlat hokimiyati organlariga nisbatan ta’sirini oshirish nuqtai nazaridan talqin etadigan bo‘lsak, Harakatlar strategiyasi g‘oyalarini hayotda namoyon bo‘lishi mamlakatda

jamoatchilik nazoraottini haqiqiy tarzda – demokratik qadriyatlar asosida kechishini ta'minlaydi. Shundan kelib chiqib, bu sohada Harakatlar strategiyasida **jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirishga** quyidagi vazifalar qo'yildi:

- xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etish;
- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish;
- fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish;
- mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyati samaradorligini oshirish;
- ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish⁸⁸.

Ana shu konseptual maqsadlarni ijrosini ta'minlash uchun aniq va ravshan chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, davlat organlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish samaradorligining oshishiga, ular tomonidan inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga rioya etishiga, fuqarolarning murojaatlarini, ularda ko'tarilgan muammolarni joyida hal etishda davlat organlari rahbarlari tomonidan qay darajada munosabat bildirilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishga imkon berishi kabilar amaliyotga qo'llash maqsadida "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish; jismoniy va yuridik shaxslarning taklif, ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqishni, aholi bilan doimiy va ochiq muloqotni, ularning muammolarini atroflicha o'rganish va hal etishni, shuningdek, aholining davlatga bo'lgan ishonchi ortishini ta'minlash maqsadida har bir tuman va shaharda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha "Xalq qabulxonalari"ni tashkil etishga qaratilgan choratadbirlarni amalga oshirishning amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish; davlat organlari faoliyatining ochiqligi va ularning fuqarolik jamiyati institatlari bilan o'zaro samarali hamkorligi ta'minlash maqsadida qonun hujjalari huquqni muhofaza qiluvchi va davlat boshqaruvi organlari huzurida ushbu organlar faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi jamoatchilik kengashlari tuzishni nazarda tutuvchi o'zgartish va qo'shimchalar kiritish; ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning aniq mexanizmlari; ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini (jurnalistik tekshiruvini) amalga oshirish tartibi va jurnalistning erkin faoliyat yuritishi uchun qo'shimcha kafolatlar yaratish maqsadida "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi va "Jurnalistning kasbiy faoliyatini

⁸⁸ "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича **Харакатлар стратегияси**"//Ўзбекистон Республикаси қонун хуҷжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда

himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritishga doir qonunlar loyihalarini ishlab chiqish; “Mahalla” jamg‘armasi tuzilmasi va faoliyatini yanada takomillashtirish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari vakolatlarini amalga oshirish mexanizmlarini tartibga solish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari moddiy-texnika bazasini yaxshilash maqsadida “2018-2020 yillarda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish va rivojlantirish Dasturi” va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasini ishlab chiqish.

Mazkur vazifalarning ko‘lami, mohiyati, maqsad va vazifalari ko‘rsatib turibdiki, ularning barchasi fuqarolik jamiyatining u yoki bu sohasini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni hal etishga qaratilgan. Muhimi, ularni ijrosini ta’minalash mamlakatda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning rivojlangan davlatlarga xos amaliyotini shakllantiradi.

Harakatlar strategiyasini hayotda amalga oshirishning bir yillik yakunlariga e’tibor

bersak, qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy asoslarning aksariyati 2017-2018 yillarda e’lon qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlarida o‘z ifodasini topdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktabrda qabul qilgan “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minalashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmoni mamlakatda “Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan prinsipni amalga oshirishning boshlanishi sifatida namoyon bo‘ldi. Farmonda respublikamiz hududida «Xalq qabulxonalarini»ning tashkil qilinishi aholi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to‘laqoni himoya qilishga qaratilgan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning sifat jihatidan yangi va samarali tizimi faoliyatini ta’minalashga, fuqarolarning oliy davlat hokimiyyati organlariga, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga, mahalliy davlat hokimiyyati organlariga, boshqa davlat tashkilotlariga va xo‘jalik boshqaruvi organlariga murojaat qilishga oid konstitusiyaviy huquqlarining so‘zsiz amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratishga qaratildi.

Har bir tuman va shaharda ham “Xalq qabulxonalarini” tashkil etilishi va ularning to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishini ta’minalash odamlar bilan ochiq muloqotda bo‘lib, aholini o‘ylantirayotgan masalalardan boxabar bo‘lish, fuqarolar maqsad va manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda muhim o‘rin tutdi. Qabulxonalarga fuqarolardan bir yil ichida 1,5 mln.dan ortiq murojaat kelib tushdi. Agar bu sohadagi jarayonga davlat boshqaruvi ochiqligi va uni fuqarolar tomonidan nazorat qilish nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, mamlakatdagi bu jarayon o‘ziga xos jamoatchilik nazoratining bir shakli vazifasini bajardi. Qabulxonaga

murojaat etgan har bir fuqaro dastavval o‘zining manfaatlari va muammolarini bayon qilish asnosida o‘zi yashayotgan yoki ishlayotgan hududda hokimiyat organlari tuzilmalari yoki mansabдорлarning huququbuzarlik faoliyatlarini to‘g‘risida axborotlar beradi. Qabulxona xizmatchilarining tekshiruvi natijasida fuqarolarning aksariyat axborotlari o‘z tasdig‘ini topadi. Demak, o‘z tashvishi bilan qabulxonaga murojaat etgan fuqaro o‘zining muammolarini hal bo‘lmayotganligi dalili sifatida huququbuzarlik yoki korruptsiyaviy holatlar to‘g‘risida axborotlar beradi. Bu jarayonda o‘ziga xos jamoatchilik nazorati ro‘y beradi – mahalliy mansabдор yoki tashkilotning o‘z funksiyasi yoki vakolatlarini amalga oshirishdagi hatolari va kamchiliklari fosh bo‘ladi. Agar bu kabi murojaatlarning millionlab huququbuzarliklar to‘g‘risidagi axborotlari tahlil etilsa, jamiyatda ildiz otgan byurokratik illatlar va korruptsiyaviy harakatlarni fosh etish uchun imkoniyatlar tug‘iladi.

Bu sohada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 dekabrda qabul qilgan “Ahliga davlat xizmatlari ko‘rsatishning milliy tizimini tubdan isloq qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni muhim ahamiyat kasb etdi. Farmon Harakatlar strategiyasi va O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini amalga oshirish, shuningdek, ahliga davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimining sifat jihatidan yangi darajaga o‘tishini ta’minlash maqsadida qabul qilingani bo‘lib, unda quyidagilar davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini tubdan isloq qilishning eng muhim yo‘nalishlari deb hisoblandi:

birinchidan, davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasida ularning sifati, tezkorligi, shaffofligi va foydalanish imkoniyatini tubdan oshirish orqali “Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan ulug‘vor g‘oyani so‘zsiz amalga oshirish; ikkinchidan, Tadbirkorlik subektlariga “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish yagona markazlarini ham yuridik, ham jismoniy shaxslarga “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha xizmatlarni taqdim qiluvchi Davlat xizmatlari markazlariga o‘zgartirish; uchinchidan, davlat xizmatlarining har bir turi bo‘yicha “Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi” tamoyiliga ko‘ra davlat xizmatlari ko‘rsatish mexanizmini, eng avvalo, ortiqcha tartib-taomillarni bartaraf etish, vakolatli davlat organlari va boshqa tashkilotlar zarur hujjatlar va axborotlarni boshqa tuzilmalardan mustaqil ravishda olishi hisobiga soddalashtirishni nazarda tutuvchi ma’muriy reglamentlarni tasdiqlash; to‘rtinchidan, davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasiga innovatsion yechimlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal joriy etish, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning ma’lumotlar bazalarini idoralararo elektron hamkorlik yagona tizimiga integratsiya qilish, O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini orqali davlat xizmatlari ko‘rsatish amaliyotini kengaytirish; beshinchidan, davlat xizmatlarini, shu jumladan olis joylarga chiqish orqali (“mobil davlat xizmatlari”) ko‘rsatishning maqbul, qulay va

shaffof uslublaridan, mazkur sohada byurokratiya va korrupsiya yuzaga kelishini bartaraf etishga qaratilgan navbatni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi va ishlarning uzaytirilgan grafigidan foydalanish; oltinchidan, davlat xizmatlari ko'rsatish sifati va tezkorligini monitoring qilish va baholashning ilg'or mexanizmlarini joriy etish, aholi bilan qayta aloqaning samarali tizimini, shu jumladan tezkor aloqalarni, rasmiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalarda on-layn so'rovlarni tashkil qilish; yettingidan, davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida malakali kadrlarni tizimli tayyorlash va qayta tayyorlashni, ularning malakasini, shu jumladan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ixtisoslashgan muassasalarida stajirovka o'tash orqali tizimli ravishda oshirishni tashkil etish⁸⁹.

Prezidentning mazkur farmoniga binoan davlat organlari aholiga "fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyili asosida xizmat ko'rsatib, uch yil ichida Davlat xizmatlari markazlari 60 ga yaqin davlat xizmatlarini ko'rsata boshlaydi. Davlat xizmati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga mas'uliyat yuklangan alohida davlat organi — Adliya vazirligi huzurida Davlat xizmatlari agentligi o'zining hududiy bo'linmalarini bilan tashkil etildi. Endilikda «yagona darcha» tamoyili nafaqat tadbirkorlik subektlariga, balki bevosita fuqarolarga ham xizmat ko'rsatishda amal qiladi. Davlat xizmatchilarini bilan bevosita muloqot qilmasdan hamkorlikni ta'minlash aholi uchun davlat xizmatlarini korrupsiya xavfisiz tezkorlik bilan ko'rsatish imkonini beradi, fuqarolarning kundalik hayotini jiddiy ravishda yengillashtiradi, byurokratiya va sansalorlik holatlarini bartaraf etadi.

Davlat xizmatlari ko'rsatishda yangi o'ziga xos institut - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonalarining faol ishtiroki o'xshashi bo'Imagan eng muhim yangiliklardan biri hisoblanadi. Davlat hokimiyatining aholi bilan samarali muloqotini tashkil etish, fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqishning sifat jihatidan yangi tizimini yo'lga qo'yishda muhim rol o'ynaydigan mazkur institutlar o'z navbatida Xalq qabulxonalari va Davlat xizmatlari markazlari tuman (shahar) miqyosida yagona yaxlit faoliyat olib borib, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarali tizimini shakllantirish imkonini berdi.

Farmonga binoan davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida, shu jumladan sog'liqni saqlash, litsenziyalash, soliq, bojxona va boshqa sohalarda jadal sifat jihatidan yaxshilashning muhim mexanizmlari, shuningdek, davlat xizmatlari bo'yicha mobil ilovalarni ishlab chiqish, xizmatlarni olis joylarga chiqqan holda ko'rsatish, aholi bilan tezkor aloqalar, rasmiy veb-saytlardagi internetbotlar, ijtimoiy tarmoqlar yordamida qayta aloqaning samarali tizimini tashkil etishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi.

⁸⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ахолига давлат хизматлари кўрсатишнинг миллий тизимини тубдан ислоҳ қилиш чоратадбирлари тўғрисида"ти Фармони.12.12.2017 й:// <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1336>.

Mamlakatda jamoatchilik nazoratini rivojlantirishdagi muhim bosqich 2018 yil 10 aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi muhim voqelik bo‘ldi. Qonunning 5-moddasida jamoatchilik nazoratining quyidagi asosiy prinsiplari ifodalandi: fuqarolarning huquqi, erkinligi va qonuniy manfaatlarining ustunligi; jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi ishtirokning ixtiyoriyligi; jamoatchilik nazoratining oshkoraliyi va ochiqligi; jamoatchilik nazorati subektlarining qonuniyligi; jamoatchilik nazorati subektlarining davlat organlaridan mustaqilligi; jamoatchilik nazorati subektlarining obektivligi va xolisligi, jamoatchilik nazorati natijalarining ishonchliligi.

Qonunning 3-moddasida ko‘rsatilgan jamoatchilik nazoratining subektlarini “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari”dan holda belgilanishi jamoatchilik nazoratining tamomila va to‘liq holda fuqarolik jamiyati instituti ekanligini dalillaydi. Qonunda “jamoatchilik nazoratining obekti davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari” sifatida belgilanishi uning mohiyatini fuqarolik jamiyatini davlat hokimiyati ustidan nazorat olib borishini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, qonunga binoan, davlat mustaqil institut sifatida emas, balki jamiyatning siyosiy instituti sifatida faoliyat yuritadi, u jamiyat oldida hisobdordir.

Mazkur Qonunning 6-moddasiga binoan jamoatchilik nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: davlat organlari murojaatlar va so‘rovlar; davlat organlarining ochiq jamoaviy majlislarida ishtirok etish; jamoatchilik muhokamasi; jamoatchilik eshitushi; jamoatchilik monitoringi; jamoatchilik ekspertizasi; ijtimoiy fikrni o‘rganish; fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ijroiya hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari hisobotlarini eshitishi.

Ko‘rinib turibdiki, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlanishiga shart-sharoitlar va iimkoniyatlar yaratish uchun davlat hokimiyati organlarini jamiyat oldida hisoborligini ta’minlaydi, fuqarolarning mijoz sifatida samarali va qulay davlat xizmati asosida o‘z manfaatlarini qondirish, muammolarini hal etish imkoniyatiga erishadi, qonun yaratgan huquqiy erkinliklar fuqarolarning faollashuviga, ularning davlat boshqaruvi jarayonida faol ishtirokm etishiga zamin yaratadi. Muhimi, Prezidentning Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir islohotlari jarayoni xalq nazoratida bo‘ladi, bu yo‘ldagi og‘ishlar yoki chetga chiqishlar jamoatchilik nazorati vositasida bartaraf etib boriladi. Mamlakatda jamoatchilik nazorati maqomi va nufuzini yuqori darajaga ko‘tarilishi – bu davlatimizning huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni talablariga moslashib borayotganligini anglatadi.

6.4. Ijtimoiy sheriklikning rivojlanishining nazariy-huquqiy asoslar.

Hozirgi davrda mamlakatimiz ijtimoiy-ma’naviy jihatdan yuksak darajada rivojlangan, ilg‘or va dunyoviy demokratik davlat, qonun ustuvor bo‘ladigan fuqarolik jamiyatি qurish yo‘lidan bormoqda. Bu jarayonda jamiyatning har tomonlama yuksalishi, huquqiy demokratik tamoyillarning barcha sohalarda amal qilishi davlat qarorlarining xalqchil bo‘lishi, jamiyat hayoti barqarorligiga samarali ta’siri fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki va faolligiga bog‘liq. Mamlakatimizda ilgari surilayotgan “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatni sari” g‘oyasining asosida aynan shu haqchil mohiyat yotadi. Kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish, avvalambor, fuqarolarning o‘z huquq va erkinligini to‘g‘ri anglab yetishi bilan bog‘liq holda amalga oshadi.

“Fuqarolik jamiyat” tushunchasi asosida inson erkinligi, uning barcha ko‘rinish va munosabatlarda namoyon bo‘lish g‘oyasi yotadi. Albatta, erkin fikrlash bor joyda fikrlar xilma-xil bo‘ladi va turli mafkuralar, siyosiy institutlar, harakatlar paydo bo‘lishi mumkin. Bu fuqarolik jamiyatining asosiy mezonlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi

Konstitusiyasining 13-moddasiga binoan: “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitusiya va qonunlar bilan himoya qilinadi”⁹⁰.

Ilmiy adabiyotlarda fuqarolik jamiyatiga nisbatan turlicha ta’riflar ko‘p, bu esa, o‘z navbatida, mazkur tushunchaning mazmuni yoritilishida umumiyl yakdillik mavjud emasligidan dalolat beradi. Bu tabiiy hol, albatta. Negaki, bu tushuncha murakkab xarakterga ega bo‘lib, unga turlicha ta’riflar, yondashuvlar ham ko‘plab uchramoqda. Bu yondashuvlarda fuqarolik jamiyat har qancha murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lmasisin, ayni paytda, amaliyotda uning umumiyl parametrlari mavjudligi haqida ham fikrlar bildirilmoqda.

Darhaqiqat, O‘zbekistonda “fuqarolik jamiyat” tushunchasining mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish zarurati ham ayni shu umumijtimoiy voqelik bilan uzviy bog‘liq. Bu jarayonda fuqarolar hokimiyat bilan birga ichki va tashqi siyosatning eng muhim muammolarini muhokama qilish, ularning yechimlarini topish, bu boradagi dolzarb vazifalarni amalga oshirishda hamkorlik qilishga qodir bo‘lishini hisobga olish zarur. Aks holda, haqiqiy fuqarolik jamiyatini ham, ijtimoiy sheriklikni ham, ular haqidagi obektiv tadqiqotni ham tasavvur etib bo‘lmaydi.

⁹⁰ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2017. –Б.5.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida fuqarolik jamiyatni institutlari rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu tarixiy hujjatda Prezidentimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan islohotlarning ochiq-oshkoraligi va samaradorligini ta’minlash, aholi farovonligini oshirishda jamiyat say-harakatlarini birlashtirish, davlat hamda keng aholi ehtiyojlarini ifodalaydigan, turli jamoat tashkilotlari manfaatlariga javob beradigan mexanizmlarni yaratish ko‘zda tutilgan.

Shu ma’noda, fuqarolik jamiyatni deganda, mazkur mamlakatning har bir fuqarosiga iqtisodiy va siyosiy turmushini o‘z ixtiyori asosida qurishga to‘la erkinlikni kafolatlovchi ma’lum ijtimoiy tizim tushuniladi.

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish maqsadi inson huquqlari va manfaatlarini, jamiyatni rivojlantirish va davlat qurilishining eng ustuvor yo‘nalishi etib belgilanishiga olib keldi. Ayni shu ma’noda, fuqarolik jamiyatni huquqiy davlat rivojlanishining yuqoriroq bosqichi desak, xato bo‘lmaydi. Bu borada M.Qirg‘izboyev “Mamlakatda tub siyosiy islohotlarni, jumladan, jamiyat hayotini, shuningdek, har tomonlama erkinlashtirishni og‘ishmay amalga oshirish, qonun ustuvorligiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etish asosiy strategik maqsadga aylanadi”⁹¹ degan bo‘lsa, G.G.Jamalova “Fuqarolik jamiyatining institutlari – siyosiy partiyalar, o‘zini o‘zi boshqarish va nodavlat, jamoat tashkilotlari o‘zaro munosabatlarining majmuasini tashkil qiladi”⁹² deb ta’kidlaydi. Fikrimizcha, mazkur

tadqiqotlardagi asosiy e’tibor fuqarolik jamiyatining siyosiy xususiyatlarini oolib berishga qaratilgan, biroq uning universal ijtimoiyfalsafiy asoslari nazardan chetda qolgan. Zero, fuqarolik jamiyatni universal ijtimoiy-falsafiy tushuncha hisoblanadi. Yuqorida fikrlardan ko‘rinib turibdiki, “fuqarolik jamiyat” tushunchasini bir so‘z bilan ifodalash ham mushkul.

Fuqarolik jamiyatida har qanday masala qonunlar, huquqiy normalar asosida adolatli yo‘l bilan hal etiladi. Qonun fuqarolik jamiyatni hayotidagi barcha munosabatlarni tartibga solib turadi. YA’ni, fuqarolik jamiyatining negizi qonun va qonuniylikdir. Qonuniylik va huquqtartibot tantana qilmasa, shaxsning huquqlari va erkinliklari, qattiq intizom, ichki uyushqoqlik va mas’uliyat ustuvor bo‘lmasa, qonunlar va an’analar hurmat qilinmasa, huquqiy davlatni tasavvur etib bo‘lmaydi⁹³. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mamlakatimizda erkin va farovon hayot, kuchli

⁹¹ Қаранг: Қирғизбоев М. Ўзбекистонда фуқаролик жамияти институтларининг шаклланиши ва ривожланиши: дис. сиёсий фан. д-ри. –Т., 2007. –Б.342.

⁹² Жамалова Г.Ф. Ўзбекистонда фуқаролик жамияти қурилишининг сиёсий масалалари: дис. сиёсий фан. номзоди. –Т., 2006. –Б.181.

⁹³ Қаранг: Каримов И.А. Бозор иқтисодига босқичма-босқич ўтиш – иқтисодий ислоҳотлар йўлнинг негизи. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. –Т.: Ўзбекистон, 1994. –Б.47.

huquqiy-demokratik davlat, adolatli fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu ezgu maqsad zamirida inson va uning manfaatlari mujassam bo‘lib, uning samaradorligi xalqimiz ma’naviy-ruhiy qarashlaridagi yangilanish, jamiyatimiz ongu tafakkuridagi yuksalish bilan uzbek bog‘liq. Shu ma’noda, mamlakatimiz fuqarolarida tafakkur erkinligi shakllanib bormoqda. Mamlakatimizda mustaqillik tufayli yangi demokratik qadriyatlar ildiz otishiga, inson haqhuquqlari va uning erki asosiy boyligi bo‘lgan dunyoviy-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatiga mos keladigan yangi zamonaviy siyosiy, xo‘jalik va jamoa tuzilmalari qaror topishiga imkon tug‘ildi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda, F.Jo‘raqulov ta’kidlaganidek, ‘Fuqarolar o‘zini o‘zi haqiqatan ham erkin namoyon etishga intilgan holda, islohotlarning sur’ati, amalga oshirilishi va sifati uchun o‘z ma’naviy-huquqiy mas’uliyatini keskin his qilishlari lozim. Buni tushunish bugungi yoshlarga nafaqat barkamol rivojlangan shaxs, balki e’tiqodli vatanparvar bo‘lishga yordam beradi’⁹⁴. Insonning erkinlikka, adolatga, mehr-muhabbatga, go‘zallikka, kamolotga intilishi, qobiliyatlarini namoyon etishga, ijod etishga urinishi – uning ma’naviy ehtiyoji.

Demokratik tamoyillarga asoslangan fuqarolik jamiyatni deganda, jamiyat a’zolarining manfaatlari mushtarakligi ta’minlangan, fuqarolarning huquqlari har tomonlama kafolatlangan, insonning har tomonlama kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratilgan jamiyat nazarda tutiladi. Zero, T.Alimardonov ta’kidlaganidek, ‘Fuqarolarning jamiyatdagi boshqaruva jarayonlarida ishtirok etish darajasi, ko‘p jihatdan ularning amalga oshirilayotgan siyosiy jarayonlar, davlat strategiyasi maqsadlari va uning asosiy yo‘nalishlarini qanday aniq tasavvur etishlariga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shunda ularning faoliyati davlat va umummillat manfaatlari bilan uyg‘un holda namoyon bo‘ladi, har bir fuqaro, o‘z huquq va erkinliklarini mamlakat ozodligi, uning istiqboli bilan bog‘lagan holda uyg‘un ko‘radi. Shunda fuqaroning burchi bilan erkinligi o‘zaro uyg‘unlashadi. Ular o‘z xohishlari asosida birovning tazyig‘ida emas, balki ongli holda demokratik jarayonlarda ishtirok etadi’⁹⁵.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, fuqarolik jamiyatining umumiyligi tan olingan tamoyillaridan biri ijtimoiy sherklik hisoblanadi. Darhaqiqat, ushbu O‘quv uslubiy majmuuning obekti sifatida olingan ijtimoiy sherklik muammosining konseptual tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ijtimoiy sherklikning shakllanishini nazariy-metodologik tushunishning genezisi va rivojlanish qonuniyatlari atroflicha tadqiq etilgan bo‘lsa-da, biroq hanuzgacha ijtimoiy sherklikning mazmun-mohiyatining yagona tushunchasi mavjud emas.

⁹⁴ Жўрақулов Ф. Ҳокимият бўйинишининг ижтимоий-фалсафий асослари: хориж тажрибаси ва миллий амалиёт. –Т.: Нишон ношир, 2015. –Б.185.

⁹⁵ Алимардонов Т. Эркинлик руҳи. –Т.: Нишон-Ношир, 2014. –Б.240.

O‘z-o‘zidan ayonki, hayotimizda tobora ko‘proq ishlatalayotgan «ijtimoiy sheriklik» tushunchasini yanada chuqurroq anglash, uning mazmun-mohiyatidan boxabar bo‘lish ehtiyoji ham kuchayib bormoqda. Shu bois, mazkur tushuncha va uning mohiyati xususida to‘xtalib o‘tishni lozim topdik. Ijtimoiy sheriklikning muhim xususiyatlaridan biri –taraflarning huquq va majburiyatlarga rioya qilish haqidagi o‘zaro kelishuvigina emas, balki ular o‘rtasidagi yuksak axloqiy qoidalar majmui. Darhaqiqat, ijtimoiy sheriklikka bozor iqtisodiyotiga asoslangan madaniyatli jamiyatga xos bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarning bir turi sifatida qarash mumkin. Birinchidan, bu umumi manfaat va qarashlar bilan birga, mutlaqo farq qiluvchi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy manfaatlarga ega taraflar o‘rtasidagi munosabatdir. Ikkinchidan, ijtimoiy sheriklik taraflarning qarama-qarshiligiga emas, balki ijtimoiy konsensus (kelishuv)ga erishishga asoslanadi. Uchinchidan, bu shunday munosabatlar turiki, uni amalga oshirishdan barcha ijtimoiy guruqlar hamda davlat manfaatdor bo‘ladi. Chunki aynan ijtimoiy sheriklik sharoitida jamiyat ijtimoiy barqarorlik hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishadi. Siyosatshunos A.Mirzayevning fikricha, bu dolzarb muammoni puxta va mukammal holda oqilona hal etish har qanday davlatning, u qaysi ijtimoiy-siyosiy tizimda bo‘lishidan qat’i nazar, eng zaruriy va mas’uliyatli vazifalaridan biriga aylanishi obektiv qonuniyatdir⁹⁶.

Ijtimoiy sheriklik ham tashkilot sifatida, ham mafkura sifatida, bir tomondan, turli vajlarni belgilab olish, birgalikdagi faoliyat davomida ularga qat’iy rioya qilish, ikkinchchi tomondan, yuzaga kelayotgan vaziyatlarni hisobga olgan holda ularni o‘zgartirish imkoniga muhtoj bo‘ladi. Bu borada faylasuf olim A.Begmatov ta’kidlaganidek, o‘z davrida “Ijtimoiy sheriklik mafkurasi sinfiy ziddiyatlarni yumshatish, manfaatlar uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan mafkura edi”⁹⁷.

Bizningcha, *ijtimoiy sheriklik* - bu davlat hokimiyyati organlari va fuqarolik jamiyatni institutlarining o‘zaro hamkorligi va manfaatlarni uyg‘unlashtirish asosida jamiyatda mavjud bo‘lgan muayyan ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan muloqot hamda konsensusga kelish tizimidir.(N.E)

Fuqarolik jamiyatida sheriklik har biri uchun turlicha vazifalarga muvofiq tuzilgani va faoliyat ko‘rsatgani tufayli, uning boshqaruvi obektlari ham, shakllari, usullari, vositalari ham yangi sharoitlardagi faoliyatni ifodalashi haqida gapirish mumkin bo‘ladi. Darhaqiqat, sheriklik subektlarining tavsifi munosabatlar turini belgilaydi va sheriklik faoliyat ko‘rsatadigan barcha bosqichlarda uni boshqarishga imkon beradi. Chunki sheriklik subektlari har xil sur’atlarda harakat qiladi. Bu jarayonda yana xronologik jihatdan xilma-xillikning boshqa miqyoslari ham yuzaga

⁹⁶ Мирзаев А. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. –Т.: ТошДТУ, 2000. –Б.159.

⁹⁷ Бегматов А. Ижтимоий шериклик ва ижтимоий хавфсизлик // Жамият ва бошқарув. –Т.: 2014. №1. –Б.43.

kelishi mumkin. Ikkinchidan, ijtimoiy sheriklik tizimi – sheriklar tomonidan tuziladigan organlarning doim amal qiladigan yig‘indisi; ularning o‘zлari tomonidan belgilangan o‘zaro hamkorligi va ushbu organlar faoliyat ko‘rsatishining tartibi; xalqaro normalar, milliy qonunlari asosida ijtimoiy sheriklar tomonidan qabul qilinadigan birgalikdagi hujjatlar (bitimlar, shartnomalar)dan iborat.

Shuning bilan bir qatorda ijtimoiy sheriklik mohiyatini anglash va turli subektlar (davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari) o‘zaro hamkorligining yangi shakllarini rivojlantirishga oid tadqiqotlar, ularning eng maqbul hamkorlik yo‘llari, umuman, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi, ijtimoiy-mehnat munosabatlari va boshqa jabhalardagi dolzARB muammolarni hal etish jamiyatda ehtimolli nizolarni prognoz qilish va ularning oldini olishga xizmat qiladi. Ana shu nuqtai nazardan, bugungi kunda ijtimoiy sheriklikni jamiyat rivoji va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aksariyat falsafiy va ijtimoiy-gumanitar soha adabiyotlarida “fuqarolik jamiyati” tushunchasi turlicha nuqtai nazardan ta’rif va tasnif etiladi⁹⁸. Shuning bilan bir qatorda ko‘p holatlarda mazkur tushuncha olimlarning o‘ziga xos nuqtai nazarlaridan kelib chiqqan holda, subektiv qabul qilinadi. Masalan, F.X.Raximov “fuqarolik jamiyati” tushunchasi fikrlar xilma-xilligi va siyosiy plyuralizmning mavjudligi, fuqarolarning erkin va farovon yashashlari, so‘z erkinligi, oshkorlik va o‘zini o‘zi boshqarish tizimining yo‘lga qo‘yilganligi kabi bir qancha muhim talablarni o‘z ichiga olishini e’tirof etadi⁹⁹. K.Normatov ham “Fuqarolik jamiyati – bu fuqarolarning fikr erkinligi, ya’ni fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi”¹⁰⁰, deb hisoblaydi. “Fuqarolik jamiyati” tushunchasi fuqaro va davlat, huquq hamda majburiyatlar uyg‘unligiga assoslangan huquqiy jamiyat tizimini qamrab oladi. Ayni shu ma’noda A.X.Saidov va U.T.Tadjixanovlar “...fuqarolik jamiyati – teng huquqli insonlarning, yakka shaxslar yoki jamoalar manfaatlarini amalga oshirishga ko‘maklashadigan jamoat institutlarining tizimidir”¹⁰¹, deb ta’kidlashgan.

Yuqorida qayd etilganidek, bugungi kunda “ijtimoiy sheriklik” tushunchasiga turli qarashlar mavjud. Ijtimoiy sheriklikning turli xil jihatlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan monografik izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati rivojlanishida ijtimoiy sheriklikning o‘rni masalalarini atroflichha o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bu borada quyidagi jihatni qayd etish muhim ahamiyat kasb etadi: ijtimoiy sheriklik fuqarolik jamiyatiga xos, davlat va fuqarolik

⁹⁸ Энциклопедия менеджмента. Справочник. Социальное партнерство. Социальное партнерство в социально-трудовой сфере как общественное явление // <http://besonus.narod.ru/partnership.htm>.2005.

⁹⁹ Рахимов Ф.Х. Конституциявий ҳуқуқларни таъминлашда давлат органларининг масъулияти. –Т.: Адолат, 2001. –Б.8.

¹⁰⁰ Норматов К. Фуқаролик жамияти ривожланишининг конституциявий асослари // Фуқаролик жамияти. –Т.: 2012. №4(4). –Б.9.

¹⁰¹ Saidov A.X., Tadjixanov U.T. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Т.1. –Т.: Адолат, 2001. –Б.238.

jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligi uchun eng qulay muvozanatni ta’minlaydigan ijtimoiy munosabatlарining alohida turi hisobланади. Bunday munosabatlarda ijtimoiy sheriklik – davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimi bo‘lib, unda manfaatlar qarama-qarshiligi va uni hal etish yo‘llari ko‘zda tutiladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, ijtimoiy sheriklikning shakllari xilma-xil bo‘lib, u kooperatsiyaning uyushma (alyans)lar, tarmoq strukturalari, transmilliy korporatsiyalar kabi boshqa shakllaridan farqli ravishda, sheriklik poydevoriga kelishuv g‘oyasi qo‘yilgan bo‘lganida, maqsad qo‘yish va unga erishish esa ishonch bo‘lgandagina amalga oshadi. Ijtimoiy sheriklik boshqa ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lib, bunda o‘zgalarning o‘ziga xos imkoniyatlaridan foydalanishga ehtiyoj uni mustahkamlaydi, u, o‘z navbatida, bunday munosabatlar nizoli xarakterda emas, balki mavjud rivojlangan huquq va axloq institutlari nazorati ostida murosa xarakterida bo‘lishi kerak. Zero, M.Xajiyeva ta’kidlaganidek, “Murosa qilish deganda, murakkab muammoni hal qilish zaruriyatidan kelib chiqqan holda manfaatdor tomonlarning o‘zaro kelishuvi, bir-birlariga yon berishlari nazarda tutiladi”¹⁰². Bularning barchasi ijtimoiy tartibning organik, ya’ni ijtimoiy subektlarning tabiiy, ixtiyoriy birdamligini ta’minlaydi, bunda ijtimoiy hamkorlikning asosiy turlaridan biri sifatida sheriklik namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham ijtimoiy sheriklikka oid munosabatlar davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi o‘ziga xos huquqiy munosabatlarning bir tarmog‘i bo‘lib hisobланади.

Mahalliy va xorijiy olimlar olib borgan tadqiqotlardan kelib chiqqan holda ta’kidlash mumkinki, ijtimoiy sheriklik keng tushuncha bo‘lib, uning mazmunini ham mehnat munosabatlari, ham davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining manfaatli aloqalari nuqtai nazaridan kelib chiqib talqin qilish mumkin. Tor ma’noda, ijtimoiy sheriklik mehnat yoki davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining aniq munosabatlari shakli hisobланади. Keng ma’noda, ijtimoiy guruhlarning o‘zaro maxsus sherikligi bo‘lib, bunday munosabatlarni olib borishga qaratilgan obektning qanday bo‘lishidan qat’i nazar, nafaqat mehnat munosabatlari, balki boshqa sohalarda, jumladan, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligini mustahkamlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish, ijti-moiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish kabilar ham bo‘lishi, shu bilan birga, davlat va nodavlat tashkilotlari manfaatlarining yagona bir sohadagi mushtarakligi ham tushuniladi. Yanada aniqroq qilib aytganda, ijtimoiy sheriklik deganda, davlat organlarining

¹⁰² Хажиева М. Ўзбекистонда толерантлик жараёни. –Т.: ABU MATBUOT-KONSALT, 2008. –Б.57.

nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institatlari bilan ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi samarali hamkorligi tushuniladi.

Boshqa ilmiy-siyosiy adabiyotlarda ham «ijtimoiy sheriklik» tushunchasiga turlicha ta’rif berish holatlari uchrab turadi. Ayrim tadqiqotchilar ijtimoiy sheriklikni ijtimoiy-mehnat ziddiyatlarini bartaraf etish usuli deb bilsa, boshqalari uni murakkab, ko‘p tarmoqli ijtimoiy jarayon deb tushunishadi. Bunday yondashishlarning xilma-xilligiga qaramasdan, bir narsa aniqki, ijtimoiy sheriklik, avvalo, odamlar orasidagi o‘zaro munosabatlar majmuasidir. Ikkinchidan, ijtimoiyiqtisodiy nuqtai nazardan bu munosabatlarning uch asosiy subekti mavjud: ish beruvchi, ishchi va davlat. Uchinchidan, bunday munosabatlar obektini mehnat sharoiti, daromadlar darajasi, subektlarning ijtimoiy ahvoli, ularning ishlab chiqarilgan mahsulotni taqsimlashdagi o‘rni, roli va huquqlari tashkil etadi. Ijtimoiy sheriklikning bosh maqsadi deya uning asosiy subektlarining manfaatlarini hisobga olish va muvofiqlashtirishni aytish mumkin. Bugungi kunda “Boshqalarning xattiharakatlariga bog‘liq, tobe bo‘lib, ularni yo‘q qilish imkoniyati real mavjud sharoitda gumanitar qarorlar qabul qilish, yangi normalar ishlab chiqish zarur. Inson fe’l-atvorining umumiyligi qoida va tamoyillari konkret tarixiy shart-sharoitlarda shakllangan va rivojlangan. Ammo tobora murakkablashib borayotgan dunyoda madaniyatlar va mafkuralarning keng spektriga mos keladigan umuminsoniy qadriyatlarni topish talab qilinadi”¹⁰³.

Shuning uchun ijtimoiy sheriklik bugungi kunda jamiyatda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta’minlaydigan ijtimoiy institatlarning o‘zaro kelishuv jarayonini, unda umumiyligi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy maqsadlarga erishishda taraflar manfaatlarining uyg‘unligini ta’minlab turuvchi fuqarolik jamiyatni institatlarning ishlash mexanizmini ham ifodalashi lozim. “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunda bu tushunchaga quyidagicha ta’rif berilgan: “Ijtimoiy sheriklik davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institatlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniyligi manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir”¹⁰⁴.

Bu ta’rif shuni anglatadiki, huquqiy davlatni ijtimoiy sheriklikning tamoyil va qadriyatlarini amalga oshirmsandan ham tasavvur qilib bo‘lmaydi, chunki ular davlatga zaruriy mafkuraviy barqarorlikni ta’minlab beradi. “Ijtimoiy sheriklik”

¹⁰³ Сохранит ли человечество человечность? Доклад Независимой комиссии по международным гуманитарным вопросам. –М: Международные отношения, 1989. – 21 с.

¹⁰⁴ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 39-сон, 488-модда.

deganda, inson huquq va erkinliklari, qadr-qimmati, ijtimoiy adolat va o‘zaro birdamlik tamoyillari tan olinuvchi har qanday munosabatlarga aytildi. O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunida ijtimoiy sheriklikning asosiy shakllari quyidagilardan iborat qilib belgilab qo‘yilgan: nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatni boshqa institutlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi; nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatni boshqa institutlarining normativhuquqiy hujjatlar ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi; nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatni boshqa institutlari vakillarining davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlari faoliyatida ishtirok etishi; ijtimoiy sheriklik subektlari tomonidan birgalikda tadbirlar, maslahatlashuvlar va muzokaralar o‘tkazish; ijtimoiy sheriklik subektlari tomonidan ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida bitimlar va shartnomalar tuzish, birgalikdagi loyihalar va rejalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish; ijtimoiy sheriklik subektlari o‘rtasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, axborot almashish”¹⁰⁵.

Ijtimoiy sheriklikning qayd etilgan mazkur shakllari bir-biri bilan uzviy aloqador va o‘zaro bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, ijtimoiy sheriklik, nafaqat jamiyatning iqtisodiy chiqimlarini kamaytiradi, balki investitsiyalarning uzoq muddatli bo‘lishini, shuningdek, ijtimoiy hamkorlarning imkoniyatlari, taraqqiyot yo‘nalishlari va bir-birining qiziqishlari haqidagi ma’lumotga ega bo‘lishini ta’minlaydi. O‘z navbatida, ijtimoiy sheriklik umumiyligi ma’naviy-qadriyatli jarayon bo‘lib, uning vositasida fuqarolarining farovonligi uchun qayg‘uradigan va ijtimoiy mas’uliyat ustuvor bo‘lgan tizimni yanada rivojlantirish mumkin.

Shuning uchun ijtimoiy sheriklik institutlari ijtimoiy-iqtisodiy makonda alohida subektlarning ta’siri va ahamiyatini oshiradi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, ijtimoiy sheriklik – jamiyatning barcha qatlamlari qiziqishlarini obektiv hisobga olib jamiyat barqarorligi ta’milanishida davlat tuzilmalari va notijorat tashkilotlari vakillari o‘rtasidagi munosabatlarni xarakteri va yo‘nalishini boshqarib turuvchi an’anaviy va madaniy qadriyatlar majmui, ma’naviy va mafkuraviy asoslaridir.

Ijtimoiy sheriklik munosabatlari biz uchun yangilik emas. Negaki, mamlakatimizda davlat hokimiyati organlari bilan fuqarolik jamiyatni institutlari o‘rtasida muayyan masalalarni hal qilishda o‘zaro hamkorlikning o‘ziga xos tajribasi shakllangan. Bu hamkorlik jahon amaliyotidan qamrovi kengligi, faqatgina mehnat munosabatlari bilan chegaralanib qolmasdan, balki ijtimoiy hayotning muhim sohalarini o‘z ichiga olishi, muhimi, aholining ko‘plab ijtimoiy guruhlarini jalb etishi

¹⁰⁵ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 39-сон, 488-модда.

bilan yaqqol ajralib turadi¹⁰⁶. “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunda belgilab qo‘yilgandek, uni quyidagi sohalarda amalga oshirish mumkin: aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qo‘llab-quvvatlash va uning ijtimoiy faolligini oshirish; aholining bandligini ta‘minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, fermerlikni rivojlantirish; atrof muhitni, aholining sog‘lig‘ini muhofaza qilish va sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish; har tomonlama barkamol va sog‘lom yosh avlodni shakllantirish, yoshlarga bilim berish, ularni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va kasbga yo‘naltirish; onalik va bolalikni, shuningdek, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, sotsialiqtisodiy, madaniy hayotida to‘laqonli ishtirok etishini ta‘minlash, sog‘lom oilani shakllantirish; fan, ta‘lim, axborotlashtirish, madaniyat va sportni rivojlantirish; aholining huquqiy bilimlari, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolik jamiyatni va demokratik huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash; millatlararo, madaniyatlararo totuvlik va fuqarolar totuvligi g‘oyalarini mustahkamlash, ko‘p asrlik, an‘anaviy ma’naviy-axloqiy hamda tarixiy-madaniy qadriyatlarni tiklash va saqlash; iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish. Ijtimoiy sheriklik qonun hujjalariiga muvofiq boshqa sohalarda ham amalga oshirilishi mumkin”¹⁰⁷.

Ta’kidlash joizki, ijtimoiy sheriklikning muhim jihatlaridan biri davlatning fuqarolar uchun munosib bo‘lgan yashash sharoitini ta‘minlashda yangicha faoliyat yuritishi bilan belgilanadi. Chunki, jahon iqtisodiyotidagi berqarorlik tufayli turmush sifatining pasayishi siyosiy tizimning samaradorligi va fundamentiga tahdid solishi mumkin. Shuning uchun ham bugungi kunda bunday muammolarning oldini olish jamiyatning turli qatlamlariga, xususan, ijtimoiy, diniy va etnik guruhlar hamda siyosiy kuchlarning barobar sheriklikdagi harakatiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bundan ma’lum bo‘ladiki, faqatgina mazkur ijtimoiy sheriklik doirasidagina aholiga munosib yashashlari uchun sharoit yaratish mumkin.

Ijtimoiy sheriklik jamiyatda ehtimolli nizolarni maqbul yo‘l bilan hal etish, jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni shakllantirish va qo‘llab-quvvatlashni ham nazarda tutadi. Shuningdek, bozor iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan jamiyatda ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solishning uch ustuvor omili mavjud bo‘lib, ular yollanma mehnat va kapitalning sherikligini tan olishga asoslanadi: iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy (mehnatni tashkil qilish shakllari, yollanma ishchi va ish beruvchi munosabatlarini ishlab chiqarish jarayonida o‘zgartirish; jamiyatda ijtimoiy strukturani takomillashtirish; kasaba uyushmalari tashkil etish; davlatda kuchli ijtimoiy siyosat; jamiyat boshqaruvida demokratik tamoyillarni rivojlantirish va h.k.).

¹⁰⁶ Ахмедшаева М., Нажимов М. Ижтимоий шериклик – демократик янгиланишларнинг мухим омили // “Халқ сўзи”, 2014 йил 22 октябрь.

¹⁰⁷ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 39-сон, 488-модда.

Ijtimoiy sheriklik munosabatlari mohiyat jihatdan davlat va fuqarolik jamiyatni institutlari hamkorligiga oid huquqiy munosabatlardan iborat bo‘lib, bu munosabatlarning yuzaga kelishida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar yetakchi o‘rinni egallaydi, ya’ni ana shunday asoslar mavjud emasligi tomonlar erki-xohishidan qat’i nazar, ijtimoiy sheriklikka oid huquqiy munosabatlardan yuzaga kelishiga monelik qiladi. Ijtimoiy sheriklikka oid huquqiy munosabatlardan – davlat va fuqarolik jamiyatni institutlari o‘rtasida jamoa-shartnomaviy normativ aktlarni qabul qilish yuzasidan jamoa muzokaralar olib borish, tuzish, qabul qilingan jamoa-shartnomaviy aktlarning ijrosini ta’minalash yuzasidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar hamda tartiblarga muvofiq ravishda, tegishli yuridik faktlar mavjud bo‘lganida ijtimoiy sheriklikni amalga oshiruvchi organlar orasida vujudga keluvchi qonunlar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardan iborat.

Fuqarolik jamiyatni va ijtimoiy sheriklik dialektikasi nimani anglatadi? – degan masala alohida diqqatni talab qiladi. Avvalo, ta’kidlash joizki, bu tushunchalar shaxsning, bir tomondan, davlatga mansubligini bildirsa, ikkinchi tomondan, shaxsning erkin jamiyat a’zosi ekanligidan dalolat beradi. Shuning uchun fuqarolik jamiyatida ijtimoiy sheriklik asosini insonlarning maqsadga muvofiq o‘zaro samarali hamkorligi tashkil etadi, ya’ni bu jarayonda o‘zaro hamkorlarning o‘z qiziqishlari muvaffaqiyatga erishishlarining yuqori darajadagi kafolati ta’milanadi. M.Veber davlat va fuqarolar o‘rtasida tashkil etiladigan munosabat o‘zaro maqsadli xattiharakatlarning mahsuli ekanligini alohida ta’kidlab o‘tadi.¹⁰⁸ Ijtimoiy sheriklik shakllari, ularning jamiyatda bajaradigan vazifalari, huquqiy boshqaruv, ifodalananish xarakteri va shartlari asosida ajratib o‘rganiladi. Ayni shu ma’noda, G.I.Avitsinova: “Ijtimoiy sheriklik – bu turli subektlarning, institutlarning, tuzilmalarning bevosita yoki bilvosita, ichki yoki tashqi munosabatlari, aloqalar jarayoni, bu obektlarning, shuningdek, butun jamiyatning, davlat institutlari, biznes va fuqarolik jamiyatni institutlarining o‘zaro hamkorligini mustahkamlashga xizmat qiladi”¹⁰⁹, deb ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ijtimoiy sheriklik jamiyatda barqarorlikni tarkib toptirish uchun kerak, albatta. Chunki barcha qatlamlarning asosiy qiziqishlarini alohida hisobga olish lozim. Shuning uchun ham ijtimoiy-falsafiy mohiyatiga ko‘ra sheriklik munosabatlari guruhli egoizmga, siyosiy lobbizm va liberal individualizmga qaramaqarshi tushuncha. U davlat organlari, tashkilotlari, fuqarolik jamiyatni va uning institutlari o‘rtasidagi dialog modeliga asoslanadi. Shu ma’noda, ijtimoiy sheriklik muayyan tizim sifatida namoyon bo‘ladi, bu jarayonda u o‘zida umumiy qadriyatlar, ma’naviy va g‘oyaviy asoslarga tayanib, o‘zaro yon

¹⁰⁸ Вебер М. Избранное: Образ общества. –М.: Центр гуманитарных инициатив. 2012. –767 с.

¹⁰⁹ Авицинова Г.И. Принципы трёхсекторного взаимодействия и тенденции его развития / Г.И.Авицинова // Государство, НКО и бизнес: процесс и взаимодействие: материалы межд.науч.-прак.конф. –М.: МГОФ «Знание», 2007. –320 с.

berish, shuningdek, jamoaviy-kelishuv shartnomalarini (ishtirok etayotgan barcha ijtimoiy subektlar tomonidan) aks ettiradi¹¹⁰.

Hozirgi davrda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan davlatlarda ijtimoiy subektlarning o‘zaro manfaatli hamkorlik, ijtimoiy dialog, huquq va manfaatlari teng, zimmaga olingan majburiyatlar singari belgilar mavjud bo‘lgan ijtimoiy sheriklik shakllanmoqda. Shu nuqtai nazaridan qaraganda, fuqarolik jamiyatida ijtimoiy sheriklik yangi boshqaruv usuli, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro munosabatlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan tamoyildir. Ushbu tamoyil davlat va fuqarolik jamiyati instituti munosabatlarini zamon ruhiga mos ravishda belgilangan shakl va tamoyillarga asoslangan holda yaxshilashga qaratilgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda ta’kidlash joizki, ijtimoiy sheriklik ijtimoiy subektlar integratsiyasi va ijtimoiy tizim yaxlitligini mustahkamlovchi qurol sifatida namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda ijtimoiy sheriklikni mehnat munosabatlari jabhasini nazorat qilish bilan bog‘liq bo‘lgan industrial jamiyat shakllanishi bosqichida yuzaga kelgan hamkorlikning doimo funksional va ijtimoiy-pozitiv shakli sifatida tushunish noo‘rinligiga to‘xtalish lozim. Chunki ijtimoiy fenomen sifatidagi sheriklik xronologik, soha va deyarli chegaralanmagan maqsadli universallikka ega va ijtimoiy subektlar tomonidan nafaqat ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadlarga, balki bunday mazmunga ega bo‘lmagan faoliyatdagi maqsadlarga erishishni ham naza da tutadi. Shu bilan bir qatorda, ijtimoiy sheriklikning o‘ziga xos tasnifi faqat untagina tegishli bo‘lgan jihatlarni ochib berishga xizmat qilishini unutmaslik lozim.

Iqtisodiy sohadagi munosabatlar nuqtai nazaridan qaraganda, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy sheriklik dialektikasiga ijobiy ta’sir etadigan tizimni rivojlantirish – mehnat jabhasida turlicha namoyon bo‘ladigan xodimlar va ish beruvchilarning manfaatlari orasida nisbiy muvozanatni, kelishuvni sheriklik asosida vujudga keltirishga sharoit yaratadi. Shuning uchun A.Begmatov mehnat munosabatlarida ijtimoiy sheriklik masalasiga to‘xtalib, “Ijtimoiy sheriklik nazariyasining maqsadi jamiyatdagi mehnat munosabatlarida, antagonist sinflar manfaatlari o‘rtasida mavjud bo‘lgan ziddiyatlarni bartaraf etish va konsensusni ta’minlashga qaratilgan edi”¹¹¹, deb ta’kidlaydi. Darhaqiqat, ijtimoiy sheriklik iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiyadolatning birga aks etishi mexanizmi bo‘lib hisoblanadi.

Shu ma’noda, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy sheriklik dialektikasi deganda, davlatning faol ishtirokida vujudga keladigan ijtimoiy-mehnat sohasida xodimlar va ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlar ham tushuniladi. Mehnat sohasida ijtimoiy

¹¹⁰ Грин Д.Дж. Возвращение в гражданское общество: социальное обеспечение без участия государства Пер.с англ. –М.: Новое изд-во, 2009. 220 с.

¹¹¹ Бегматов А. Ижтимоий шериклик ва ижтимоий хавфсизлик // “Жамият ва бошқарув”, 2014. №1. –Б.43.

sheriklik faqat bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan ijtimoiy-mehnat munosabatlarining alohida tizimi bo‘lib, u davlat, ish beruvchilar va xodimlar manfaatlari muvozanatini ta’minlashga xizmat qiladi. Bunday sheriklikni amalga oshirish mexanizmi esa jamoa shartnomalari va kelishuvlari, qo‘shma qarorlar, lokal hujjatlar, kasaba uyushmalari bilan kelishib qabul qilinadigan boshqa hujjatlarni tuzish va tatbiq etish asosida amalga oshiriladi. Xalqaro mehnat tashkilotining hujjatlarida bu tamoyil “ijtimoiy muloqot” deb nomlangan bo‘lib, tripartizm (ya’ni davlat, ish beruvchilar va xodimlar o‘rtasidagi uch taraflama hamkorlik) asosida amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan. Mamlakatimizda esa mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik to‘rtta, ya’ni umummilliylar, tarmoq, xududiy va lokal miqyoslarda amalga oshiriladi. Har bir pog‘onadagi ijtimoiy sheriklikning o‘ziga hos ijtimoiy sheriklik hujjati mavjud bo‘lib, bular bosh, tarmoq (tarif), hududiy (mintaqaviy) kelishuvlar va jamoa shartnomalari bo‘lib hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyatni va ijtimoiy sheriklik dialektikasiga ko‘ra, avvalo, davlat va fuqarolik jamiyatni institutlari o‘rtasidagi munosabatlari ijtimoiy sheriklik sohasidagi qonunchilik aktlari bilan tartibga solinishi, ya’ni qonun hujjatlarining «ta’sir doirasi» bilan qoplanishi lozim. Shunday qilib, davlat va fuqarolik jamiyatni institutlari, ularning vakillik organlari alohida hollarda o‘zaro manfaatlarni inobatga olgan holda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni belgilash, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni aniqlash, ular o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklik shakllarining amalga oshirilishi mexanizmlarini tobora takomillashtirib borish fuqarolik jamiyatni va ijtimoiy sheriklik dialektikasi ta’sirini kuchaytirishning muhim sharti hisoblanadi.

Bu esa, fuqarolik jamiyatni institutlari va davlat hokimiyati organlari o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklik munosabatlari jamoatchilik nazorati instituti bilan bir qatorda, fuqarolarning jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishini kafolatlovchi ishonchli vositalardir. Demokratik taraqqiyot yillarida jamiyatning huquqiy ongi va madaniyati yuksalishi, aholining siyosiy-huquqiy hamda ijtimoiy faolligi tobora oshib borishi, nodavlat notijorat tashkilotlari mustaqilligi ta’minlanishi natijasida davlat hokimiyati organlari bilan ular o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklik munosabatlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqish imkoniyati yanada ortib bormoqda¹¹².

Xullas, ijtimoiy sheriklikning shakllanishi va genezisi haqida ma’lumot beruvchi nazariy manbalarni, shuningdek, bu sohadagi falsafiy g‘oyalari va qarashlarni o‘rganib chiqish, mazkur jarayonda ham ijobjiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirishga halaqit beruvchi salbiy hodisalarini aniqlashga imkon beradi. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy sheriklik o‘z

¹¹² Ахмедшаева М., Нажимов М. Ижтимоий шериклик – демократик янгиланишларнинг мухим омили // “Халқ сўзи”. 2014 йил 22 октябрь.

rivojlanish va takomillashish jarayonida o‘ziga xos xususiyatlarga ega, bu tajriba barcha rivojlangan mamlakatlarda turli ijtimoiy munosabatlarni nazorat qilishda qo‘llanilishi mumkin. Hozirgi kunda ijtimoiy sheriklik bilan bog‘liq bo‘lgan va insoniyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan g‘oyalar jamiyat taraqqiyoti, undagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni saqlashda faol qo‘llanilmoqda.

Ijtimoiy sheriklik xilma-xil subektlar, turli tashkilotlar, institut va individlar yoki ijtimoiy guruhlar hamkorligi asosida yuzaga keluvchi kelishmovchiliklarni hal qilish maqsadidagi faoliyat sifatida iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlashning taraqqiy topgan usuli hamdir. Bunday sheriklik tizimining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi: ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish metod va mexanizmlari; ijtimoiy sheriklik subektlari; ijtimoiy subektlarning o‘zaro munosabatlari nazoratini ta’minlovchi huquqiy normativ baza; ijtimoiy sheriklik jarayoni, uning imkoniyatlari haqida aholini axborot bilan ta’minlovchi; ijtimoiy sheriklikka nisbatan ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi axborot maydoni va h.k. Ijtimoiy sheriklikning subektli tuzilmasida, qoida bo‘yicha, ish beruvchilar va ishchilar (ularning birlashmalari) ajratiladi. Hozirgi kunda ijtimoiy sheriklik ijtimoiy mehnat chegarasidan chiqib ketgan, chunki hamkorlikda ishtirok etuvchi ijtimoiy subektlar doirasi nihoyatda keng bo‘lib, ular sinfiy, demografik, etnik, hududiy va hokazo subektlar bo‘lishi ham mumkin, ammo ijtimoiy sheriklik potensiali to‘g‘risida subektlar qiziqishlari o‘zaro kesishgandagina fikr yuritishimiz mumkin bo‘ladi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati va ijtimoiy sheriklik dialektikasi samarasini ta’minlaydigan iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish tizimiga oid masalalarni hal etish zarurati, ijtimoiy sheriklikning nazariy va amaliy xususiyatlari yetarlicha o‘rganilmagani bu sohadagi tadqiqotlarning eng muhim jihatlaridan biridir. Zero, masalaga ijtimoiy-siyosiy yondashuv “ijtimoiy sheriklik” tushunchasining ko‘p qirrali ekanligi, unga nisbatan xilma-xil qarash va yondashuvlar mavjudligi, bugungi kunda mazkur sohadagi mavjud tajribada turli tadqiqotlarda foydalanish imkoniyatlari haqida muayyan taassurotni shakllantirishga yordam beradi. Bu esa har qanday ilmiy tadqiqotning eng asosiy maqsad va vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy sheriklik subektlari – kelishuv ishtirokchilari ular ifodalayotgan aholi qatlamlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq masalalarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida ko‘rib chiqilishida istisno huquqidan foydalanadilar. Shuning uchun ham 2014 yilda «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishi fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirishda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini ta’minalashda, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoyalashda nodavlat

notijorat tashkilotlarining davlat hokimiyati organlari bilan o‘zaro hamkorligi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishning muhim huquqiy tayanchi bo‘lib xizmat qiladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarni yanada rivojlantirishga ko‘maklashish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 12 dekabrdagi “Fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlan-tirishga ko‘maklashish borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga ko‘ra, nodavlat notijorat tashkilotlarini ro‘yxatga olish, ularning hisobot topshirish tartiblarini soddalashtirish, davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o‘zaro munosabatlarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Bundan tashqari, davlat boji va nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning ramzlarini davlat ro‘yxatiga olish uchun to‘lanadigan yig‘malar miqdori sezilarli darajada kamaytirildi, davlat ro‘yxatiga olish bo‘yicha murojaatlarning adliya organlari tomonidan ko‘rib chiqish muddati qisqartirildi.

Ijtimoiy sheriklikning asosiy tamoyillariga qonunga bo‘ysunishdan, teng huquqlilik, ochiqlik va shaffoflik, hammaboplik, mustaqillik, xolislik, o‘zaro hurmat, manfaatlarning inobatga olinishi va mas’uliyat, majburiyatlar qabul qilishning ixtiyoriyligi va hisobdorligi kiradi. Mazkur tamoyillar, avvalo, aholini ijtimoiy himoya qilish, qo‘llabquvvatlash, ijtimoiy faolligini oshirish, bandlikni ta’minalash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, fermerlikni rivojlantirish, atrof muhitni, odamlar sog‘lig‘ini muhofaza qilish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish kabi sohalarda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, fan, ta’lim, axborotlashtirish, madaniyat, sportni rivojlantirish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, millatlararo totuvlik va fuqarolar totuvligi g‘oyalarini mustahkamlash, iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq masalalarni ham qamrab oladi.

Shu bilan bir qatorda, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, normativ-huquqiy hujjalarni ishlab chiqish va ularning ijrosini ta’minalashda, davlat organlari huzuridagi ishchi guruhrar, komissiyalar faoliyatida, ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida bitim yoki shartnomalar tuzish, mazkur sheriklikning boshqa tomon subektlari bilan birgalikdagi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish kabi jarayonlarda ishtiroy etadi.

Davlat nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatni boshqa institutlariga ijtimoiy sheriklik jarayonida mulkiy, axborot, maslahat, tashkiliy, o‘quv-uslubiy jihatdan yordam beradi. Masalan, ijtimoiy sheriklik sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi ushbu tashkilotlarga qonunchilikda belgilangan tartibda shartnama asosida davlat mulki bepul yoki imtiyozli shartlarda faqat ko‘zda tutilgan maqsadda foydalanishga vaqtincha beriladi. O‘z

navbatida, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga moddiy yordam ko'rsatayotgan yuridik yoki jismoniy shaxslarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha imtiyoz taqdim etiladi. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga davlat subsidiyalari, grantlari va ijtimoiy buyurtmalarni berish hamda ijtimoiy sheriklik borasidagi tadbirlarni moliyalashtirish ham ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llabquvvatlash hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunda Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi, ushbu fond mablag'larini boshqarish bo'yicha parlament komissiyasining vakolatlari haqida alohida normalar aks etgan. O'z navbatida, mazkur Qonunning tegishli moddalarida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining rolini kuchaytirish, ularning tashabbuslarini rivojlantirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan jamoat fondlari tuzilishi va jamoat komissiyalari tashkil etilishi hamda ularning vazifalari belgilangan.

Davlat organi bilan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa instituti o'rtasida shartnoma tuzish yo'li bilan ijtimoiy va umum ahamiyatga ega loyihalar davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida amalga oshiriladi. Buyurtmada davlat organi faoliyatining ustuvor yo'naliishlari, ishlarni bajarish yoki tadbirlarni o'tkazishga doir topshiriqning maqsad-vazifalari hamda shartlari ko'rsatiladi. Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi yoki joylardagi jamoat fondlari bunday buyurtmalarni berish bo'yicha tanlov tashkil etadi, tushgan takliflarni umumlashtirib, Parlament komissiyasi yoki jamoat komissiyalariga taqdim etadi. "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunda tabiiy ravishda ijtimoiy sheriklik munosabatlarining ishtirokchilari bo'lgan tegishli tomonlar – davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari-ning huquq hamda majburiyatlari alohida normalarda ko'rsatilgan.

"Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni tayyorlashda, tegishli qonunlarni ishlab chiqishda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining faol ishtirokini ta'minlashga, bu jarayonda aholi keng qatlamlarining manfaatlari har tomonlama hisobga olinishiga ko'maklashishga, o'zaro hamkorlik samarasini oshirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy madaniyat metodologiyasida ijtimoiy sheriklik individlar, guruhlar, jamiyat qatlamlari o'rtasidagi kelishuv munosabatlariga erishish mexanizmi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Qator olimlar fikricha,

ijtimoiy sheriklik – jamiyat turli guruhlarining, barqarorlikka erishish maqsadida, o‘z qiziqishlarini o‘zaro muvofiqlashtirish, o‘zaro bog‘liqligi. Ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy sheriklik hukmni amalga oshirish bilan bog‘liq. Ayni paytda, bunday konkretlashtirish zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy sheriklikning nazariy tahlili va amaliyoti imkoniyatlarini qisqartiradi. Xullas, iqtisodchilar uchun ijtimoiy sheriklik ishchilar va ish beruvchilar o‘rtasida, davlat organlari va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish tizimi o‘rtasida o‘zaro munosabatlar tizimi, ishchilar va ish beruvchilar qiziqishlarining moslashuvini ta’minlashga qaratiladi.

Ijtimoiy sheriklik munosabatlarining mazkur sohada rivojlanish istiqboli katta. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi mehnat munosabatlari ijtimoiy sheriklikni taqozo etadi. Ijtimoiy sheriklik bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan ijtimoiy mehnat munosabatlarining alohida turi hisoblanib, u turli ijtimoiy guruhlar, birinchi navbatda, ish beruvchilar va xodimlar asosiy manfaatlari eng maqbul nisbatini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Ijtimoiy sheriklik – ishlab chiqarish jarayoni ishtiroychilari: xodimlar va ish beruvchilarning teng hamkorligiga asoslangan manfaatlarning o‘zaro kelishuvi va mexanizmlari tizimi.

Ijtimoiy sheriklik shakllarining rivojlanishi, ma’lum ma’noda, hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining ijtimoiy kuchayishi bilan bevosita bog‘liq. Ijtimoiy hamkorlik tizimida xodimlar manfaati – kasaba uyushmalari tomonidan, ish beruvchilar manfaati – ishlab chiqaruvchilar ittifoqlari tomonidan himoya qilinadi. Boshqa jihatdan tomonlar manfaatlarini o‘zaro kelishtirish jarayonida davlat bevosita ishtiroychi bo‘ladi, shu bilan birga, qabul qilingan qarorlar bajarilishiga kafil bo‘lib hisoblanadi. Manfaatlar kelishuviga muzokalar orqali erishiladi, muzokalar jarayonida tomonlar, xodimlarning mehnat sharoitlari, unga haq to‘lash, xodimlarning ijtimoiy muhofazasi hamda ularning korxona faoliyatidagi o‘rni kabi masalalar xususida kelishuvga erishadilar. Ijtimoiy sheriklik va mehnat munosabatlarini kengaytirish hamda chuqurlashtirish bugungi kunda personalni boshqarishning eng muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Bunday sheriklikda alohida ijtimoiy guruhlarning turli ijtimoiy manfaatlarini o‘zaro bog‘liqligini e’tirof etish hamda shu sababli ularga iqtisodiy jarayonlarda, qaror qabul qilishda ishtiroy etish huquqlari berilishi ham nazarda tutiladi.

Ijtimoiy sheriklik tizimi belgilangan organlarning tashkil etilishi va faoliyat ko‘rsatishi, ijtimoiy sheriklik g‘oya hamda tamoyillarini amalga oshirish, ijtimoiy-mehnat va mehnatga oid iqtisodiy munosabatlarni ijtimoiy konsensusga tayangan holda tartibga solish kabi aniq belgilangan ijtimoiy maqsadga ega. Umuman olganda, ijtimoiy sheriklik tizimining maqsad va vazifalari quyidagi masalalarni hal etishda o‘z aksini topadi:

- bozor iqtisodiy islohotlarni ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta’minlash;

- jamoa mehnat nizolarining oldini olish va ular hal etilishiga ko‘maklashish;
- ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilik bazasini belgilangan tartibda yanada takomillashtirish;
- aholi turmush sharoitini yaxshilash, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikka erishish.

Ijtimoiy sheriklik ishtirokchilariga o‘z qiziqishlari va umumqiziqish yo‘lida birlashishga sharoit yaratadi. U bozor iqtisodiyoti sharoitida zamonaviy talabda malakali kadrlar tayyorlaydi. Madaniyat sohasida ijtimoiy sheriklik – muammolar yechimi uchun resurslarning qayta taqsimotigina emas. Bunda ijtimoiy muammolar ijtimoiy tahlil uchun dolzarb bo‘lib, ularning yechish usuli ham katta ahamiyatga ega.

Ijtimoiy guruhlarga rivojlangan mamlakatlarda mobillik, bir guruhdan boshqasiga o‘tishdagi ochiqlik kabi belgilar xos. Turli ijtimoiymutaxassis guruhlarning ta’lim va madaniyat darajasi jihatidan yaqinlashishi umumiyl ijtimoiy madaniy ehtiyojlarning shakllanishiga olib keladi, shu bilan birga, ijtimoiy guruhlarning, ularning qadriyat, xattiharakat, motivatsiyasining sekin-asta integratsiyalashuviga sharoit yaratiladi. Madaniyat zamonaviy jamiyatda borgan sari ko‘proq ijtimoiyiqtisodiy va siyosiy taraqqiyot oqibati sifatida ifodalanayotgani va tushunilayotgani yo‘q, balki mana shu taraqqiyotning zaruriy sharti, muhim omili, shaxs va jamiyat axloqiy kamolot darajasi sifatida anglanmoqda. Ijtimoiy sheriklik subektlari (tomonlari) hamkorlikning barcha ishtirokchilari hisoblanadi, taxmin qilinayotgan va aniq maqsadli faoliyatning roli xatti-harakatlarining eng ahamiyatli modellarini amalga oshiradi. Ijtimoiy sheriklik obekti ijtimoiy-madaniy sohada subektlar o‘rtasidagi amaldagi qonunchilikka asoslangan, munosabatlar hisoblanadi. Ular, avvalo, ijtimoiy-madaniy va mehnat sohasidagi kelishuvga asoslangan siyosat ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish jarayonini o‘z ichiga oladi. Bu ijtimoiy sheriklik tizimining yaxlit bo‘lib paydo bo‘lishida hal qiluvchi shart hisoblanadi.

Ijtimoiy sheriklik mutlaqo aniq ijtimoiy talabdagisi ijtimoiymadaniy jihatga ega. Yanada to‘liqroq u madaniyat sohasida ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos turi sifatida namoyon bo‘ladi, shartnomalar va kelishuvlar, o‘zaro kompromisslarga erishish, rivojlanish bo‘yicha dolzarb muammolar yuzasidan yagona pozitsiyani ishlab chiqish va amalga oshirish yo‘li bilan kelishuvga erishish va ishchilar hamda ish beruvchilar, davlat organlari va aholining qiziqishlari uchun sivilizatsion kurashishga asoslanadi. Ayni vaqtda kuchli va hayotga yaroqlilikni saqlab qolgan holda madaniyat ijtimoiy organizmga tez o‘zgaruvchi olamga adekvat ta’sirlanishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy sheriklik innovatsion rivojlanishni tashkil qiluvchi asosiy elementlardan biridir. Ijtimoiy mas’uliyat oshib borishi dinamikasida hukumatning kasaba uyushma tashkilotlari hamda madaniyat muassasalari bilan sheriklik munosabatlarining rivoji dolzarblashadi.

Ijtimoiy sheriklikning rivoji ta’lim sohasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki nisbiy ishtirok etuvchi moddiy, moliyaviy, barcha subektlarning intellektual imkoniyat-larini birlashtirishni talab etadi. Madaniyat sohasi taraqqiyotida shakllanib bo‘lgan korporativ madaniyatni to‘g‘ri baholash, ayniqsa, ahamiyatli. Shuningdek, ikki ehtimoliy muqobil yo‘llardan birini tanlash talab etiladi: evolyusion va revolyusion (inqirozli). Ichki korporativ ijtimoiy sheriklik aniq tashkilot madaniy rivojila-nishi jarayonida ham, sotsium madaniy paradigmasi shakllanishi usul va vositalarni tanlashda ham roli tobora kuchayib bormoqda. Ijtimoiy sheriklik, o‘z mohiyatiga ko‘ra, konsensus, jamiyatda tinchlik, barqarorlik hamda turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlardagi taranglikni kamaytirishga yordam beradi.

Nazorat sovollari.

1. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsyasining qabul qilinishi va undagi ustuvor vazifalar.
2. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ko‘rsatkichlari.
3. Inson xaq-huquqlarining ta’milanishi – fuqarolik jamiyatini rivojlantirish omili.
4. Jamoatchilik nazoratini takomillashtirish – fuqarolik jamiyatini rivojlantirish strategiyasining asosiy yo‘nalishi.
5. Ijtimoiy sheriklik munosabatlari rivojlanishining nazariyhuquqiy asoslari.

7-mavzu: “MILLIY TIKLANISHDAN MILLIY YUKSALISHGA” KONSEPTUAL G‘OYASI. O‘ZBEKISTONDA 2021-2025 YILLARDA FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI.

REJA:

- 7.1. O‘zbekistonda 2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi, Konsepsiyada belgilangan ustuvor yo‘nalishlar
- 7.2. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari.
- 7.3. Jamoatchilik palatasining takomillashtirilishi va uning asosiy vazifalari.

7.1. O‘zbekistonda 2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi, Konsepsiyada belgilangan ustuvor yo‘nalishlar.

2021 yil 4 martda “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilindi.

So‘nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash, davlat organlari va ular o‘rtasida ijtimoiy sherklikni kuchaytirish, ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida izchil ishlar olib borildi. Xususan, oxirgi to‘rt yilda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik

jamiyati boshqa institutlarining **1 270 dan ortiq** loyihibarini qo‘llabquvvatlash maqsadida Davlat **117 milliard** byudjetidan so‘m miqdordagi mablag‘lar ajratilgan.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy kafolatlarini ta’minlaydigan, zamonaviy demokratik talablarga va xalqaro standartlarga javob beradigan normativhuquqiy baza yanada takomillashtirildi. Buning natijasida **20 ga** yaqin qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va Hukumatning qarorlari qabul qilingan.

Nodavlat notijorat tashkilotlari manfaatlarini ifoda etish, davlat bilan ular o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajarishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi tashkil qilinishi va aholi bilan ochiq muloqot olib borishning yangi samarali vositalarini joriy etish maqsadida davlat organlari huzurida **jamoatchilik kengashlari** faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish, inson huquqlarini, qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilish, aholining siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishga munosib hissa qo‘sghan nodavlat notijorat tashkilotlari

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga

qo‘sghan hissasi uchun nishoni ta’sis etildi hamda sohaning **126**
nafar faollari ushbu vakillarini rag‘batlantirish maqsadida “ ” ko‘krak yuksak mukofot bilan taqdirlangan.

Birgina so‘nggi to‘rt yilda fuqarolik jamiyatining eng asosiy instituti hisoblanadigan nodavlat notijorat tashkilotlari soni **20,7 foiz**ga oshdi, shu jumladan, **187 ta** yirik respublika nodavlat notijorat tashkilotlari o‘z faoliyatini boshladi. Shu bilan birga, ushbu ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish hamda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yaqin va o‘rta muddatli istiqbollarini belgilab olishga konsepsiyada asosiy e’tibor qaratildi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, nodavlat notijorat tashkilotlarining roli va ahamiyatini, ijtimoiy faolligi va faoliyatining samaradorligini oshirish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” va “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturlari ijrosini ta’minlash

maqsadida: **2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida** quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan:

- fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish;
- fuqarolik jamiyati institutlariga ko‘mak berish hamda ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish;
- davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- davlat ijtimoiy loyihiborlarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish;
- fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash.

7.2. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari. Konsepiyada Maqsadli ko‘rsatkichlar etib quyidagilar belgilangan:

- ❖ nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining institutlari boshqa va davlat tomonidan subsidiyalar, grantlar buyurtmalar shakllari ijtimoiy yilda qo‘llab-quvvatlash hajmini 2021 kamida **1,2 baravar**ga, 2025 yilda **1,8 baravar**ga oshirish;
- ❖ Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq viloyatlar deputatlari Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondlariga 2021 yilda **16 milliard** so‘m, 2025 yilda **70 milliard** so‘m mablag‘lar ajratish;
- ❖ O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi a’zolari sonini jami faoliyat ko‘rsatayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari soniga nisbatan 2021 yilda **10 foiz**ga, 2025 yilda **30 foiz**ga yetkazish;
- ❖ har bir davlat organi huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatida fuqarolar tashabbusi bilan tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarining sonini (jami jamoatchilik kengashlari tarkiblariga kiritilgan nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarining soniga nisbatan) 2021 yilda **5 foiz**ga, 2025 yilda **25 foiz**ga yetkazish;
- ❖ nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan yuqori turuvchi tashkilotlarga qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan kiritilgan takliflarning umumiy sonini 2021 yilda **1 000 taga**, 2025 yilda **5 000 taga** yetkazilishini ta’minlash;
- ❖ mamlakatimizda e’lon qilinadigan yilga oid davlat dasturida ishtirok etayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari sonini 2021 yilda **30 taga**, 2025 yildagi davlat dasturida – **50 taga** yetkazish;

- ❖ amaldagi jarayonlarni soddalashtirish va profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish orqali nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan sodir qilinayotgan huquqbuzarliklarni (jami 2020 yilda sodir qilingan huquqbuzarliklar soniga nisbatan) 2021 yilda **3,8 foizga**, 2025 yilda **19,2 foizga** kamaytirish;
- ❖ 2021 yilda **50 ta**, 2025 yilda **250 ta** nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlarini Davlat boshqaruvi akademiyasida qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.
- ❖ 2021 yil 1 apreldan boshlab nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining ochiqlik indeksi joriy qilinadi va unga ko‘ra har yil yakunlari bo‘yicha nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar, ijtimoiy sheriklik darajasi, ajratilgan subsidiya, grant va ijtimoiy buyurtmalar natijadorligi va boshqa muhim faoliyat ko‘rsatkichlariga asosan ularning reytingi tuzilishi belgilangan. Bu borada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

7.3. Jamoatchilik palatasining takomillashtirilishi va uning asosiy vazifalari.

Konsepsepsiya da nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining ochiqlik indeksini aniqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi, O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi va Adliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda shakllantiriladi va indeks natijalari ularning rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinishi belgilandi. Shuningdek, **Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining ochiqlik indeksini** ishlab chiqish va to'liq amaliyotga joriy qilish adliya organlariga yuklatildi va nodavlat notijorat tashkilotlarining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va uning qo'mitalari (komissiyalar) majlislarida ishtirok etuvchi **doimiy vakili instituti** joriy etildi. Doimiy vakilning **asosiy vazifalari sifatida** qonun loyihalari va quyi palataning vakolatlariga kiradigan masalalar bo'yicha muhokamalarida, yig'ilishlarda ishtirok etib **ijtimoiy sheriklik, ta'sirchan jamoatchilik nazorati mexanizmlarini** joriy qilish va ularni amaliyotga to'g'ri qo'llash, nodavlat notijorat tashkilotlarining huquq hamda manfaatlarini ifoda qilish bo'yicha o'z taklif-muloxazalarini bildirish imkoniyati berildi. Shuningdek, doimiy vakil fuqarolik jamiyati rivojiga hissa qo'shgan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda faollik ko'rsatgan, el-yurt izzat-hurmatiga sazovor bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlari xodimlari orasidan Jamoatchilik palatasi tomonidan lavozimga tayinlanishi va lavozimidan ozod qilinish tartibi belgilangan.

Konsepsepsiya da davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari tarkibining kamida **50 foizini** nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari tashkil etishi, jamoatchilik kengashlarining tarkibi **Jamoatchilik palatasi** bilan kelishilgandan so'ng davlat organi rahbarining qarori bilan har **2 yilda** tasdiqlanishi, jamoatchilik kengashlarining umumiy a'zolari soni **15 nafardan** kam bo'lmasligi tartibi joriy etildi.

2021 yil 1 maydan boshlab homiylik mablag'larini markazlashtirilgan holda to'plash va tarqatish, ularning maqsadli hamda manzilli yo'naltirilishini monitoring qilish, ushbu jarayonlarni to'liq avtomatlashtirish va oshkoraligni ta'minlash, shuningdek, xayriya etuvchi o'z mablag'inining ishlatilishini kuzatib borish imkonini beruvchi "**Shaffof xayriya**" yagona interaktiv portalı ishga tushirildi.

2021 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahrida "**Nodavlat notijorat tashkilotlari uylari**" tashkil etilayotganligi fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga o'ziga xos yondashuv sifatida qarash lozim.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.

AMALIY MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISHDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI.

I.I. "Taqdimot" metodi o'rganiladigan mavzu mohiyatini kompyuter xizmatidan foydalanilgan holda slaydlar majmuasi yordamida ochib

borilishini ta'minlaydi. Metodni qo'llashda mavzuning asosiy g'oyalari, tayanch tushunchalar, muhim xususiyatlari kichik matn, jadval, tasvirsxema, rasm va diagrammalar asosida yoritiladi. ushbu metod talabalarni mavzu mazmunini obrazli, yaxlit tarzda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

I.2. "Savol-javob" metodi mavzuning talabalar tomonidan qanday o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun xizmat qiladi. Bunda o'qituvchi **I.3. "Menga so'z bering" metodi** talabalarda o'rganilayotgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala yoki tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha shaxsiy fikrmulohazalarini bildiriash, fikrlarini dalillar bilan isbotlash, ularni himoya qilish, mantiqiy xulosalarni ilgari surish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Metod o'qituvchi talabalar o'rtasidagi ta'limiy hamkorlikni qaror toptirishga yordam beradi. Mashg'ulot jarayonida ushbu metodni qo'llashda talabalar darsning tashkiliy jihatlari, samaradorligi xususida o'z fikrlarni bayon qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

I.4. "Tushunchalar tahlili" metodi.

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar va yoki qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, shuningdek, Yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashzis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ❖ ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- ❖ talabalarga mavzuga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar, nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi(individual yoki guruhli tartibda);
- ❖ talabalar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- ❖ belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- ❖ har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib baholaydi.

AMALIY MASHG‘ULOTI MAVZULARI BO‘YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati fani predmeti, obekti, maqsad va vazifalari kursini o‘qitishda foydalilaniladigan interfaol ta’lim metodlari **SEMINAR**

MASHG‘ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Ishlash bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	<i>O‘qituvchi</i>	<i>Talabalar</i>
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish. 10daqiqa.	<ol style="list-style-type: none">1. Nazariy mashg‘ulot mavzusi, maqsadi va rejasi e’lon qilinadi.2. Mazkur fanning o‘rganiladigan mavzulari bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlar, ularning uzviyligi xaqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro‘yxati bilan tanishtiradi.2. Seminar darsining maqsadi va o‘quv faoliyati natijalarini aytadi. Talabalarni aqliy xujumga tortish uchun jonlantiruvchi savollar beradi.	<ol style="list-style-type: none">1. Diqqat bilan tinglaydilar.2. O‘z fikrlarini bildiradilar.

<p>2bosqich. Asosiy (informasi o n bosqich). (60 qiga)</p>	<p>1.Seminar rejasining barcha savollari bo‘yicha vizual materialni namoyish qiladi. Mavzuning asosiy joylarini yozib olishlarini so‘raydi.</p> <p>2.Talabalarni faollashtirish maqsadida“ajurli arra” interaktiv pedagogik usulidan foydalaniladi. Javoblar tahlil qilinadi va xulosalanadi.</p> <p>3. Mavzu yuzasidanberilgan savol ko‘rgazmali sxemalar asosida bayon etiladi. Berilgan javoblar tahlil qilinadi va xulosalanadi.</p> <p>4. O‘rtaga savol munozara uchun tashlanadi “Fuqarolik jamiyati tushunchasi rivojining asosiy doktrinalari va konesiyalari” Munozara jarayonini kuzatib</p>	<p>2.1.Talabalar ma’ruzachi tomonidan berilgan ma’lumotlarni diqqat bilan tinglab, o‘z nuqtai nazarlarini erkin fikr orqali bayon etadi.</p> <p>2.2.Talabalar diqqat bilan tinglab,yozib oladilar.Talabalar har bir savollarga aniq javob beradilar.</p> <p>2.3.Talabalar juft-juft bo‘lib bahs-munozara qiladilar.</p>
	yo‘naltirib boradi. Yakun yasaydi.	

<p>3-bosqich. yakunlovchi bosqich. 10 daqiqa</p>	<p>Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qiladi.</p> <p>Faol ishtirok etgan talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholaydi.</p> <p>Navbatdagi mashg'ulotda ko'rildigan masalani e'lon qiladi, va mustaqil tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi.</p> <p>4. Ma'ruza anjuman darsining dokladlar mavzusi beriladi.</p> <p>5. Kelgusi mavzu e'lon qilinadi va seminarga tayyorlanib kelishni aytadi.</p> <p>6. O'z-o'zini nazorat yuzasidan savollar bilan tanishadi.</p> <p>7. Adabiyotlar ro'yxati tavsiya etiladi.</p>	<p>1. Talabalar tinglaydilar, aniqlaydilar.</p> <p>2. Faol talabalar baholanadi</p> <p>3. Mustaqil ishlash uchun topshiriqni yozib oladi</p> <p>4. Uyga vazifani yozib oladilar.</p>
---	--	--

V. GLOSSARY

Abolitionism – (lot. bekor qilish) biror qonunni bekor qilishga qaratilgan ommaviy harakat. XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida AQShda negrlarni qullikdan ozod qilish uchun boshlangan harakat ishtirokchilari – abolitionist deb atalgan.

Avtonomiya (yunon. autos+nomos-o‘zi+qonun); 1.yagona Davlat miqyosida hududiy-milliy tuzilmalarga (viloyat, o‘lka) o‘zini o‘zi boshqarish vakolatlarini berish; 2.Ma’muriy-hududiy birlik; 3.Qandaydir organlar (xo‘jalik, davlat, partiya va boshqalar) faoliyatlaridagi o‘zini o‘zi boshqarish huquqi.

Avtonomiya (yunon. autos+nomos-o‘zi+qonun); 1.yagona Davlat miqyosida hududiy-milliy tuzilmalarga (viloyat, o‘lka) o‘zini o‘zi boshqarish vakolatlarini berish; 2.Ma’muriy-hududiy birlik; 3.Qandaydir organlar (xo‘jalik, davlat, partiya va boshqalar) faoliyatlaridagi o‘zini o‘zi boshqarish huquqi.

Agregatsiya- (lot.) nodavlat va jamoat tashkilotlari ayrim manfaatlarni agregatsiya qilish, ya’ni turli munozaralar va muhokamalar vositasida turli manfaatlar uyg‘unlashtiriladi va ular o‘rtasida muayyan munosabatlar tizimini shakllantiradi. Bu jarayonda asosiy va muhim manfaatlar tanlab olinadi ularni qondirish chora va tadbirlari ko‘riladi.

Advokatura-huquqiy institut, advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning mustaqil, ko‘ngilli, kasbiy birlashmalarini o‘z ichiga oladi. O‘zb.Res. fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasining advokatura to‘g‘risidagi qonuni 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan.

Adliya-(arab.-adolat)-sud muassasalarining butun majmuini, ularning odil sudlovni amalga oshirish faoliyatini, shuningdek, sud idorasini bildiruvchi atama.

Adolat (arab. – odillik, to‘g‘rilik) – u yoki bu qadriyatlarning o‘zaro umumiy munosabatini va ularning individlar o‘rtasida konkret taqsimlanishini ifodalovchi tushuncha; insonning mohiyati va uning ajralmas huquqlarini haqidagi tasavvurlarga mos bo‘lgan jamoa tartibi.

Aktor - (lot. “actor” - arbob); muayyan xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi individ, ijtimoiy guruh, institut yoki boshqa subekt, ziddiyatlarda ishtirok etuvchi tomonlar. Siyosatshunoslikda aktor va subekt tushunchalari sinonim sifatida ishlataladi.

Alarmizm – intellektual va ekspertlarni birlashtiruvchi zamonaviy g‘oyaviy oqim. U xavf solayotgan global muammolar – yaroviylar, ekologik v.x. – borasida ogohlantiradi

Amnistiya-jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan to‘liq yoki qisman jazodan ozod qilish, shuningdek, ilgari sud tomonidan belgilangan jazoni o‘tab bo‘lgan shaxslardan sudlanganlikni olib tashlash.

Amnistiya akti normativ xususiyatga ega, ya’ni amnistiya akti bilan belgilangan talablarga javob beradigan barcha shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

Anaxronizm – (yunon. ana-orqaga, chromos-vaqt, zamon); yanglish holda bir davrdagi voqealarni hodisalarini boshqasiga almashtirib qo‘yish.

Apatiya – (yunon.) butunlay befarqlik holati, loqaydlik.

Artikulyatsiya – (lot.) nodavlat va jamoat tashkilotlari individlar va ijtimoiy guruahlarning tarqoq qarashlari, ijtimoiyruhiy kechinmalari va umidlarini aniq va ma’lumsiyosiy maqsadlar va talablarga aylantirishjarayonini anglatadi.

Axborot – (“informatio” lotinchadanma’lumotlar, tushuntirishlar, bayonlarni anglatadi) – bu ma’muriy, tashkiliy tadbirdilar o‘tkazish haqida qarorlarni qabul qilish uchun, shuningdek taklif va tavsiyalarni tayyorlash uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi muhim faktlar (shaxslar, harakatlar, tashkilotlar, voqealar) to‘g‘risidagi ma’lumotdir. Falsafiy nuqtai nazardan axborot bizning ma’lumot (belgi) olish natijasida o‘rganilayotgan hodisalar (jarayonlar) haqida tasavvurlarimizning noaniqligini kamaytirish yoki olib tashlashni ta’minlaydi.

Axborot- (informatsiya) - lot. informare-tasvirlamoq, nimadir haqida tushuncha tuzish; kimnidir faoliyati, nimadir faoliyati yokiishning ahvoli haqida habar, habardorlik.

Axborot madaniyati – jamiyatning axborot resurslar va axborotkommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek bu maqsadlarda axborotlashtirish vositalar va axborot texnologiyalarni rivojlantirish sohasida ilg‘or yutuqlarni qo‘llash qobiliyati. Axborot madaniyati kishida axborot muhiti bilan o‘zaro munosabatda bilim, mahorat, ko‘nikma va refleksli ko‘rsatmalar mavjud bo‘lishi bilan ifodalanadi. Kishining axborot madaniyatining eng muhim elementlaridan biri – axborot resurslarini bilish (ulardan erkin foydalanish imkoniyati).

Axborot makoni – (Axborot muhiti) axborotni saqlash, ishslash va uzatish bo‘yicha texnikaviy va dasturiy vositalar, shuningdek axborotlashtirish jarayonining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy shartsharoitlari majmuasi.

Axborot sohasini liberallashtirish – (libera lis lotinchadan erkinlikka taalluqli) OAV huquq va erkinliklarini kengayish jarayoni, shuningdek ularning faoliyatidagi cheklolalarini olib tashlash va davlat nazoratini susaytirish.

Axborot erkinligi-fuqarolarning konstitusiyaviy huquqlaridan biri bo‘lib, so‘z, matbuot va boshqa ommaviy axborotga ega bo‘lgan

axborotni olish huquqi va qonuniy asosda olingen axborotlarni tarqatish huquqi axborot erkinligi hisoblanadi. O‘z.Res. Konstitusiyasiga asosan, ommoviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riliqi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar, senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi (67-modda).

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari – axborot foydalanuvchilari manfaatida uni yig‘ish, ishslash, saqlash, tarqatish, aks etish va foydalanish maqsadida integrallashgan metodlar, ishlab chiqarish jarayonlar va dasturiy-texnikaviy vositalar majmui. Bugungi kunda AT tushunchasiga mikroelektronika, kompyuterlar va dasturiy ta’mnotni ishlab chiqish va ishlab chiqarish, aloqa va telefoniya, mobil servislar, Internetdan foydalanishni ta’minlash, Internet axborot resurslarini ta’minlash kiradi.

Beshta tashabbus -

Bill – ingl. Buyuk Britaniya, AQSH va boshqa davlatlarda qonun chiqaruvchi tashkilot e’tiboriga havola qilinuvchi qonun loyihasi.

Bipartizm-ijtimoiy sheriklikning ikki subekti o‘rtasidagi kelishuv

Bozor – ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o‘rtasida pul orqali ayrboshlash jarayonida bo‘ladigan munosabatlar yig‘indisidir.

Bozor iqtisodiyoti – tovar ishlab chiqarish, ayrboshlash va pul muomalasi qonun – qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

Bozor mexanizmi – bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg‘unlashtirishni ta’minlaydigan dastak va vositalardir.

Bundesrat – nem. GFRda yerlar palatasi. Germaniya Yerlari hukumatlarining uchdan beshtagacha vakillaridan iborat. Bundestag – nem. GFR parlamenti. 1949 yilda tashkil etilgan. Aralash saylov tizimida 4 yillik muddatga saylanadi.

Bunyodkor g‘oya — jamiyatni taraqqiyot sari yetaklovchi, turli guruh va qatlamlarni, millatlarni ezgu maqsad yo‘lida birgalikda harakat qilishga undovchi, amalga oshirishning real asoslari bo‘lgan g‘oY.

Bipartizm – ikki tomonlama (ishchilar va ish beruvchilar) sheriklik yoki ijtimoiy sheriklikning ikki subekti o‘rtasidagi kelishuv.

Bozor iqtisodiyoti – tovar ishlab chiqarish, ayrboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan hamda boshqariladigan iqtisodiy tizim.

Vayronkor (buzg‘unchi) g‘oya — yovuzlik va jaholatga, ayrim jinoyatkor kuchlarning hukmronligini o‘rnatishga xizmat qiladigan, insonlar, millatlar va jamiyatning mustaqilligiga, erkinligiga, ijodkorligiga zid bo‘lgan g‘oyalar majmuini ifodalovchi tushuncha.

Vatan (arabcha “Vatan” – ona yurt) – kishilarning yashab turgan, ularni avlod va ajdodlari tug‘ilib o‘sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati. Vatan bir-birini taqozo etuvchi tashqi muh it va ichki kechinmalar hamda tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Tashqi muhit nuqtai

nazaridan Vatan kishi yoki avlodlar tug‘ilib o‘sgan va kamol topgan joy,

Vatan ravnaqi – milliy istiqlol mafkurasining Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan g‘oyalaridan biri. Prezidentimiz Vatan ravnaqi g‘oyasini ilgari surar ekan, uning mazmunini har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg‘unlashtiruvchi, uni xalq baxtsaodati yo‘lida xizmat qilishga undovchi buniyodkor g‘oyadir deb ta’riflaydi. Zero, u milliy istiqlolning oliy maqsadi - O‘zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning el-yurt kamoli bilan bog‘liq orzu- umidlarini amalga oshirishni ifodalaydi.

Vatanparvarlik – Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g‘ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va oljanob faoliyatni anglatadigan insoniy his-tuyg‘udir. Vatanparvarlik - ona-yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo‘lida fidoiylik namunalarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shaxslarga xos fazilat.

Verbal – (lot.) og‘zaki; bunda siyosiy ishtirokni shaxsning subektiv jihatiga bog‘liq emasligiga ishoraqilinmoqda.

Veto – (lot. taqiqlayman) davlat boshlig‘i yoki parlament oliy palatasining qonun chiqaruvchi tashkilot qabul qilgan qonunni kuchga kirishini bir muddatga to‘xtatib qo‘yish yoki uni kuchga kiritmaslik huquqi: mutloq veto, kechiktiruvchi veto.

Vijdon erkinligi – ijtimoi-falsafiy tushuncha; har kimning o‘z e’tiqodiga ko‘ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy meyorlarni buzmagan holda vijdoni buyurgani bo‘yicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi.

Vijdon erkinligi – fuqarolarning istagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslik huquqi.

Genezis - yunon. genesis- kelib chiqish; paydo bo‘lish, tashkil topish jarayoni.

Gildiya tizimi – (nem. korporatsiya) elitalarni shakllantirish tizimlaridan biri. Unga 1) yepiklik, yuqori lavozimlarga elitaning quyi qatlamlaridan nomzod tanlash, yuqoriga siljishning pog‘onaviyligi; 2) lavozimlarni egallash uchun ko‘plab rasmiy shartlarning mavjudligi; 3) tanlovnali alohida imtiyozli kichik guruhi amalga oshirishi; 4) mavjud yetakchi tipini tiklashga, yaratishga, saqlab qolishga harakat qilinishi sigarilar xos.

Gipotetik – faraz qilingan, taxmin qilingan.

Global - fran. global-umumiy); umuman olganda, butun yer yuzi bo‘ylab.

Global - fran. global-umumiy); umuman olganda, butun yer yuzi bo‘ylab.

G‘oya – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan, ruhiyatga kuchli ta’sir o‘tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr

G‘oyaviy bo‘shliq - deb, eski xukmron mafkura halokatga uchrab, u bilan bog‘liq tushunchalarning qadrsizlanishi, bugungi hayot, o‘tmish va kelajakka dahldor qadriyatlar, tushuncha va tasavvurlarni to‘liq anglab yetmasligi oqibatida odamlarning qalbi va ongida vujudga keladigan bo‘shliqqa aytildi.

Gumanizm (insonparvarlik) – tenglik,adolat, o‘zaro hurmat, inson qadrini ardoqlash, odamlar farovonligi uchun g‘amxo‘rlik qilish g‘oyalari singdirilgan dunyoqarash.

Guruh - manfaatlar, qarashlar, kasbiy, faoliyat tarzi bo‘yicha birlik va umumiylit kasb etgan shaxslar yig‘indisi, birlashmasi.

Davlat – muayyan hududda jamiyat va uning siyosiy tizimini tashkil etish usuli, hokimiyatning markaziy instituti, jamiyatning siyosiy tashkiloti bo‘lib, ma’lum bir hudud va unda yashovchi xalqlarni o‘z ichiga oladi. Jamiyatni boshqaruvga tizim sifatida Davlat ichki tizimga o‘z vakolatlarini amalga oshirish uchun maxsus organlarga ega. Davlat odamlar va jamoat guruhlarining faoliyati hamda munosabatlarini tashkil etadi, ularni yo‘naltiradi va nazorat qiladi.

Davlat tessarrufidan chiqarish - davlat mulki hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirilishi.

Daxldorlik hissi– fuqarolarning tug‘ilgan joyi, ona Vatani, mustaqillikni anglash, uni asrab-avaylash, himoya qilish, uni yanada rivojlantirishga chorlaydigan, shart-sharoit, omillar majmui.

Demokratik institutlar – bu, davlat va jamiyatda demokratik tuzumni shakllantiruvchidemokratik tamoyillarni amalga oshirishning tashkiliy shakllari hisoblanadi.

Demokratik institutlar - jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror topishga xizmat qiladigan tashkilotlar va tuzilmalar majmuasi.

Demokratik kuchlar bloki–parlamentdagи ko‘pchilikni tashkil etish maqsadida o‘zdasturiy maqsadli vazifalarining yaqinligidan yoki mosligidan kelib chiqqan holdabir nechta siyosiy partiyalar fraksiyalari va O‘zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar o‘z sayharakatlarini birlashtirishi.

Demokratiya(yunoncha, “demos” – xalq, “kratos” – hokimiyat) – xalq hokimiyati ma’nosini anglatib, xalqni hokimiyat manbai, deb biluvchi siyosiy tizimni shakli. Demokratiya insonni har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun berilgan imkon bo‘lib, davlat konstitusiyasida ozchilikning ko‘pchilikka bo‘ysunishi tamoyili rasmiy e’lon qilindi, hamda fuqarolarning erkinligi teng huquqligi e’tirof etildi. Demokratiya har bir davrning ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlariga mos shakllanib, rivojlanib boruvchi chegarasiz tabiiy – tarixiy jarayondir.

Detsentralizatsiya - nomarkazlashtirish; markaziy hokimiyat organlari vakolatlarining bir qismini mahalliy hokimiyat organlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlarga berish; markazlashuvnibo‘shashtirish yoki bekor qilish, tugatish.

Diaspora – yun. diaspora -tarqalish ma’nosida bo‘lib, ma’lum bir davlat hududida yashovchi, ammo boshqa bir davlatda o‘z davlat tuzilmasiga ega, ma’lum bir xalq millat vakillarining yig‘indisi (masalan O‘zbekistonda yashovchi rus, ukrain millatining diasporasi).

Diversifikatsiya – lot. diversification – o‘zgarish, turli-tumanlik, faoliyatni har tomonlamava turli-tuman yo‘nalishlarda rivojlantirishga strategik mo‘ljal olish. Masalan, kapitalni diversifikatsiyalash – iqtisodiy tavakkalchilikning xavfli oqibatini kamaytirish maqsadida kapital mablag‘larni turli obektlar o‘rtasida bo‘lib-bo‘lib joylashtirish.

Diniy bag‘rikenglik - bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o‘zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hurfikr, vijdon va e’tiqod vujudga keltiradi.

Diskurs - ingl. discourse < lat. discursus – suhbat, muomala, monolog, dialog.

Differensiatsiya – (lot. differentia-farqlash, har xillik); taqsimlanish, nimanidir alohida turli xil unsurlarga ajralishi, bo‘laklarga bo‘linish.

Dualizm – (lot.) ikki taraflamalik (shuningdek, falsafadagi dunyo asosida ikkita mustaqil bosh sabab – ruh va modda, ideallik va moddiylik mavjud degan qarashlar haqidagi ta’limot).

Davlat subsidiyasi – sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatni amalga oshirayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan beriladigan hamda aniq loyihalar bilan bog‘liq bo‘limgan moliyaviy yoki boshqa moddiy ko‘mak. Davlat subsidiyalaridan faqat nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni bajarish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ijtimoiy foydali maqsadlarga erishish uchungina foydalilanadi.

Davlat granti – ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublika-sining Davlat byudjeti mablag‘lari, shuningdek, jamoat fondlarining mablag‘lari hisobidan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga ularning buyurtmalari bo‘yicha tanlov asosida beriladigan pul mablag‘lari va moddiy resurslar. Davlat grantlarini ajratish Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondlari orqali amalga oshiriladi.

Davlat-xususiy sherikligi – investitsiya, innovatsiya, infratuzilma va boshqa loyiha hamda muhim bo‘lgan davlat, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiytexnikaviy ahamiyatga ega dasturlarni ko‘zda tutuvchi chora-tadbirlar majmui. Bunda davlat boshqaruvi, hududiy hukumat organlari va Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolatlangan boshqa davlat tashkilotlari davlat sherigi bo‘la oladi.

Xususiy sherik – O‘zbekistondagi yuridik yoki jismoniy shaxs, xorijiy yuridik yoki jismoniy shaxs, davlat-xususiy sherikligini tuzgan yoki tuzish istagida bo‘lgan xalqaro tashkilot. Ular faoliyatining asosiy maqsadi foyda olishdir. Davlat-xususiy sherikligi quyidagi sohalarda amalga oshiriladi: fan, texnika va innovatsiyalar, tibbiyot; ta’lim, madaniyat va ijtimoiy xizmatlar; telekommunikatsiya; transport xizmatlari; yo‘l sektori; uy-joy va kommunal xizmatlar; qurilish materiallari ishlab chiqarish; yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati; energiyaning qayta tiklanuvchi manbalar; mexanik muhandislik; metallurgiya; qishloq va suv xo‘jaligi; tabiatni muhofaza qilish.

Demokratik institutlar – jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror toptirishga xizmat qiladigan tashkilot va tuzilmalar majmuasi, davlat va jamiyatda demokratik tuzumni shakllantiruvchi demokratik tamoyillarni amalga oshirishning tashkiliy shakllari.

Yevropotsentrizm - G‘arbiy Yevropa madaniyati butun insoniyat uchun na’muna, deb qarovchi konsepsiY. Unga ko‘ra G‘arbiy Yevropa – jahon taraqqiyoti markazidir.

Jazo – huquqbazarlik sodir etishda ayblangan shaxslarga nisbatan qo‘llanadigan ma’naviy, moddiy yoki jismoniy cheklashlar bilan bog‘liq bo‘lgan majburlov chorasi.

Jamiyat – insonlar munosabati va ijtimoiy aloqalar yig‘indisi. Jamiyat tarixiy, moddiy-ma’naviy hayot tarzidan kelib chiqqan holda umumiylorzu-maqsadlari bilan birlashgan insonlar uyushmasining alohida shakli. Jamiyat doimo o‘zgarish va rivojlanishda bo‘lib, uning asosini doimo insonlar tashkil etadi.

Jamoa manfaati – kishilar guruhi, korxona va firmalarga tegishli manfaatlar majmuidir.

Jamoat birlashmalari – fuqarolarning qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan birlashmalari. Ularga kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, faxriylar va yoshlarning tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari kiradi.

Jarayon – muayyan vaqt oralig‘ida bo‘lib o‘tgan o‘zgarishlar, voqeа va hodisalarining davomiyligi. J.lar uzlukli va uzlucksiz, tabiiy va sun’iy, takrorlanuvchi va betakror, boshqariluvchi va boshqarilmas bo‘lishi mumkin.

Jinoyat – qonundanazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish.

Jamoat birlashmalari – fuqarolarning qonunda belgi-langan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan birlashmalari. Ularga kasaba

uyushmalari, siyosiy partiylar, olimlar jamiyatlari, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari kiradi. *J.b.* – ma’naviy yoki boshqa nomoddiy ehtiyoj-larni qondirish uchun o‘z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolar ixtiyoriy birlashmasi.

Jamoat birlashmasi qatnashchilari mazkur birlashmaga mulk qilib bergan mol-mulklariga, shu jumladan, a’zolik badallariga bo‘lgan huquqlarini saqlab qolmaydilar. Ular a’zo sifatida qatnashayotgan jamoat birlashmasining majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydilar, mazkur birlashma esa o‘z a’zolari majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi.

Jamoat fondi – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo‘sish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko‘zlaydigan, a’zoligi bo‘lmagan nodavlat notijorat tashkiloti.

Identifikatsiya – (lot. o‘xshatmoq, tenglashtirmoq, baravarlamоq) monandlik. Siyosiy identifikatsiya - u yoki bu siyosiy guruhga o‘zini boshqalardan ajratish imkonini beruvchi barqaror belgilar, xususiyatlar birligi.

Ijtimoiyadolat – barcha ijtimoiy toifalarning jamiyatda o‘z o‘rni mavjudligini va qonun oldida ularning o‘zaro teng huquqlarga ega ekanligini e’tirof etish.

Ijtimoiy manfaat – bu barcha jamiyat a’zolarining birgalikda ro‘yobga chiqadigan manfaatlaridir.

Ijtimoiy uyushmalar – fuqarolar manfaatlari umumiyligi va ixtiyoriylik asosida vujudga keluvchi, lekin o‘z faoliyati natijasida daromad olishni ko‘zlamaydigan tashkilotlar (siyosiy partiylar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, ayollar, keksalar, nogironlar, yoshlar, bolalar tashkilotlari, ilmiy texnik, madaniy-ma’rifiy, sport va boshqa ko‘ngilli jamiyatlar, jamg‘armalar, assotsiatsiyalar, boshqa tuzilmalar). Demak, fuqarolarning har qanday ko‘ngilli uyushmasi – ijtimoiy uyushmadir. Mavjud siyosiy hayotni o‘zgartirishga yoki unga ta’sir etishga urinuvchi ijtimoiy uyushmalar siyosiy, deb qaraladi.

Ijtimoiy hamkorlik – turlimillat, irq va dinga mansub kishilar va guruhlarning umumiyligi maqsad yo‘lidagi hamjihatligi.

Ijtimoiy sheriklik - davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar - bu kishilar uchun zarur bo‘lgan hayotiy ne’matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va is’temol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Iqtisodiy mustaqillik –muayyan bir mamlakatning shu mamlakatda mavjud ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalariga, tabiiy va ma’naviy boyliklarga va shu boyliklar tufayli yaratilgan mahsulotdan tushgan milliy daromadga va uni taqsimlashga yagona egalik qilishi.

Iqtisodiy resurslar – ma’lum davrda ma’lum bir mamlakat ixtiyorida to‘plangan va mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, ularni iste’molchilarga yetkazib berish va iste’mol jarayonlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan vositalar, qo‘r-qutlar, imkoniyatlar va manbalardir

Individ - lot. individuum-bo‘linmas, alohida; inson zotining alohida olingan namunasi, uning vakillaridan biri; har biri alohida, mustaqil mavjud bo‘lgan tirik organizm; shaxs esa u yoki bu inson sifatida namoyon bo‘lib, u ma’lum va betakror individuallikka ega bo‘ladi.

Inson omili – inson mohiyatiga xos bo‘lgan eng muhim xususiyatlarni – insondagi jismoniy – ruhiy tomonlarning birligi.

Inson huquqlari- unga tor ma’noda faqat davlat himoya qiladigan va kafolat beradigan huquqlar kirib, bu huquqlarga barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, yashash va jismoniy daxlsizlik huquqi, inson qadrqimmatini hurmat qilish, o‘zboshimchalik va noqonuniy ushslash yoki qamash, vijdon va din erkinligi, ota-onalarning o‘z bolalarini tarbiya qilish huquklari kiradi. Keng ma’nodagi inson huquqlari esa o‘zida shaxs erkinligi va huquqlarining keng majmuasi va turlarini ifodalaydi

Insonparvar demokratik huquqiy davlatning o‘ziga xos belgilari - birinchidan, jamoat va davlat turmushining barcha sohalarida huquq va qonunning ustuvorligi, qonun talablarining davlat hokimiyati va barcha organlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi; ikkinchidan, shaxs huquqlari va erkinliklarining realligi, uni erkin kamol toptirish ta’minlanishi, davlat bilan shaxsning o‘zaro mas’ulligi; uchinchidan, davlat hokimiyatini qonunchilik, ijrochilik va sudhokimiyatiga bo‘lish asosida amalga oshirish.

Institut - lot. institutum-mahkama, idora, muassasa; tizimlashtirilgan, hammaga tanilgan, amalda qo‘llanilayotgan va e’tirof etilgan (har qachon ham o‘z rasmiy tasdig‘ini topavermaydigan), u yoki bu tarzda mustahkamlangan qoidalar va meyorlarga muvofiq o‘zaro xatti harakat qilish uchun qo‘llabquvvatlanayotgan ko‘rsatmalarga ega bo‘lgan ijtimoiy agentlarning o‘zaro hatti harakatlari shakllari kiradi.

Integratsiya - lot. integratio-tiklanish, bajarish; integer-bir butun; qandaydir qismlarning bir butunlikka birlashishi.

Interaktiv davlat xizmatlari – idoralar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiya tarmoqlari orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar.

Bizning mamlakatimizda bu xizmatlar 2013 yil 1 iyuldan harakat qiluvchi hamda davlat organlarining aholi va xo‘jalik yurituvchi subektlar bilan o‘zaro hamkorligining qulay va samarali vositasi sifatida xizmat qiluvchi my.gov.uz Interfaol Davlat xizmatlari yagona portali orqali ko‘rsatiladi.

Internet – axborot bilan almashish uchun ham kompyuter tarmoqlari foydalanuvchilarni, ham shaxsiy kompterlarni o‘zaro bog‘lovchi butun dunyo axborot kompyuter tarmog‘i.

Internet jurnalistika – bu internet makonida axborot shakllar dolzarbligini shakllantirish va taqdim qilish bo‘yicha faoliyatni kasb etuvchi sifat jihatidan yangi va sivilizatsiyali fenomendir, bunda bunday shakllar tashuvchisiga nafaqat so‘z, balki rasm, fotosurat, kino, video, tovush, veb-sahifa – keng ma’noda axborot yoki matn tashuvchisi sifatida namoyon bo‘lishga qodir har qaysi obekt aylanishi mumkin.

Internellyatsiya - fr. interpellation < lat. interpellātio < interpellāre – munosabat, aloqa, suhbat va boshqa shu kabilarni bo‘lib qo‘yish, qarshi chiqish.

Interfaol muloqot – real vaqt rejimida turli OAV (asosan Internet) vositasida “jonli” muloqot qilish. Shartli ravishda bunday muloqotning bir necha shaklini belgilash mumkin:

Informatsiya – lot. informatio – xabardor qilish, tushuntirish, bayon qilish ma’nolarini beradi. Shuningdek, lot. informare- shakl berish qabilida ham ishlatiladi.

Irratsional – (lot.irrationalis) bilishning asosiy vositasi sifatida histuyg‘u, instinkt va e’tiqodni tan oluvchi falsafiy qarash.

Ishlab chiqarish usuli - ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari birligi hamda o‘zaro ta’siri.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar - ishlab chiqarishning shaxsiy va moddiy omillari, ya’ni ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari birligi.

Ijtimoiy hamkorlik – turli millat, irq va dinga mansub kishilar hamda guruhlarning umumiy maqsad yo‘lidagi hamjihatligi. Shuningdek, jamiyat barcha a’zolari va ijtimoiy guruhlarning umumiy maqsad yo‘lida birgalikda faoliyat olib borishi, ularning o‘zaro hamjihatligini ifoda etadi. U jamiyatning bosh strategik maqsadi, rivojlanish g‘oyasi va maqsadi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning tub manfaatlari yo‘lida aholi hamda ijtimoiy guruhlarning taraqqiyotini ta’minlash uchun keng miqyosda olib boriladigan birgalikdagi faoliyat.

Ijtimoiy sheriklik – fuqarolar, ijtimoiy subektlar va muassasalar jamiyat hayotining muayyan bir sohasidagi o‘zaro birgalikdagi harakatlari majmui. I.sh. fuqarolik jamiyatiga xos, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligi uchun eng qulay muvozanatni ta’minlaydigan ijtimoiy munosabatlarning alohida turi hisoblanadi. Bunday munosabatlarda ijtimoiy sheriklik – davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimi bo‘lib, unda manfaatlar qarama-qarshiligi va uni

hal etish yo‘llari ko‘zda tutiladi. Ijtimoiy sheriklik boshqa ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan ham chambarchas bog‘liq.

Ijtimoiy sherikchilik – ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirishning muhim mexanizmi bo‘lib, bu davlat organlari, jamoat tashkilotlari hamda biznes vakillarining ijtimoiy hamkorlik asosidagi tarmoqlararo, sohalararo, idoralararo faoliyati.

Ijtimoiy sheriklik – davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan, tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlارiga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlar ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligi.

Ijtimoiy sheriklik subektlari – davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari.

Ijtimoiy sheriklikning asosiy prinsiplari – qonunga bo‘ysunish; teng huquqlilik; ochiqlik va shaffoflik; hammaboplik; mustaqillik; xolislik; o‘zaro hurmat, manfaatlarning inobatga olinishi va mas’uliyat; majburiyatlar qabul qilishning ixtiyoriyligi.

Ijtimoiy sheriklik sohalari – bu quyidagi sohalar-da amalga oshirilishi mumkin:

aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qo‘llab-quvvatlash va uning ijtimoiy faolligini oshirish; aholi bandligini ta’minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik,

fermerlikni rivojlantirish; atrof muhitni, aholi sog‘lig‘ini muhofaza qilish va sog‘lom turmush

tarzini qaror toptirish; har tomonlama barkamol va sog‘lom yosh avlodni shakllantirish, yoshlarga bilim berish, ularni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va kasbga yo‘naltirish; onalik va bolalikni, shuningdek, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy hayotida to‘laqonli ishtirok etishini ta’minlash, sog‘lom oilani shakllantirish; fan, ta’lim, axborotlashtirish, madaniyat va sportni rivojlantirish; aholining huquqiy bilimi, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolik jamiyatni va demokratik huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash; millatlararo, madaniyatlararo totuvlik va fuqarolar totuvligi g‘oyalarini mustahkamlash, ko‘p asrlik, an’anaviy ma’naviy-axloqiy hamda tarixiy-madaniy qadriyatlarni tiklash va saqlash; iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish.

Ijtimoiy sheriklikning asosiy shakllari – bu quyidagilardan iborat:

nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatni boshqa institutlarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi; nodavlat notijorat tashkilotlari

va fuqarolik jamiyatni boshqa institutlarining normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi; nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatni boshqa institutlari vakillarining davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlari faoliyatida ishtirok etishi; ijtimoiy sheriklik subektlari tomonidan birgalikda tadbirlar, maslahatlashuv va muzokaralar o‘tkazish; ijtimoiy sheriklik subektlari tomonidan ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida bitim va shartnomalar tuzish, birgalikda loyiha va rejalar ishlab chiqish hamda amalga oshirish; ijtimoiy sheriklik subektlari o‘rtasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, axborot almashish.

Ijtimoiyadolat – barcha ijtimoiy toifalarning jamiyat-da o‘z o‘rni mayjudligi va qonun oldida ularning o‘zaro teng huquqlarga ega ekanligini e’tirof etish.

Ixtilof (arab. qarama-qarshilik, kelishmovchilik, ziddiyat, nizo) – odamlarning birgalikda harakat qilish usuli bo‘lib, bunda qaramaqarshilik, g‘animlik, erishilgan yakdillik, kelishuv va hamkorlikni buzish tamoyillari ustun turadi.

Kasaba uyushmalari – korxona, muassasa, o‘quv yurti va boshqa mehnat jamoalarida ishlayotgan ishchi va xodimlarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish, ish beruvchilar bilan ishchilarning ijtimoiy sherikchilagini tashkil etish maqsadida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkiloti. **Konsensus** (lot. consensus – uyg‘unlik, yakdillik, kelishuv) – qaror qabul qilish, nizolarni hal etish usuli. Ushbu tushuncha fikr, mulohazalar birligi, o‘zaro kelishuv, ovoz beruvchilar barchasining roziligi olingan holdagina kuchga kiruvchi qaror qabul qilish ma’nolarini ham beradi. Keng ma’noda, biror-bir masala yuzasidan e’tiroz yo‘qligi asosiy masalalar bo‘yicha umumiyligi kelishuv bo‘ladi. Ko‘p fikr asosidagi ovoz. Xalqaro shartnomalar tuzishda parlament yoki kengashlarda tegishli qaror qabul qilish; bunda rasman e’tiroz bildirilmasa, ishtirokchilarning umumiyligi roziligi asosida rasmiy ravishda ovoz berilmaydi. K. usuli, shuningdek, BMT organlarida tan olingan bo‘lib, shu tashkilot doirasida o‘tkaziladigan halqaro konferensiya va kengashlarda qo‘llaniladi.

Kompromiss – (lot.) turli fikr, yo‘nalish, qarash, harakatlar kelishuvini.

Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari – ushbu konsepsiyaning mohiyati odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgani sari davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tishi, mahallalar nufuzi va mavqeining oshishi.

Kuchli fuqarolik jamiyatni – inson manfaatlari ustuvorligi va fuqarolik jamiyatni institutlari orqali ularning davlat hamda jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi ta’minlangan, qonun ustuvor bo‘lgan jamiyat.

Kadrlar tayyorlashning milliy modeli tizimi – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997 yilning 29 avgustida “Kadrlartayyorlashmilliy dasturi to‘g‘risida” qaror qabul qilindi. Ushbu

dasturda (3-bandi) kadrlar tayyorlashning milliy modeli quyidagi tarkibiy qismlardan iboratligi belgilab qo‘yilgan:

1. Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subekti va obekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchisi.

2. Davlat va jamiyat – ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga amlga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari.

3. Uzluksiz ta’lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

4. Kadrlar tayyorlash tizimida – fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi.

5. Kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarish – kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnik jihatidan ta’minalash jarayonining qatnashchisi (“Barkamol avlod–O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”, T., 2008., 41-53 b.).

Kasaba uyushmalari -korxona, muassasa, o‘quv yurti va boshqa mehnat jamolarida ishlayotgan ishchi va xodimlarni ijtimoy manfatlarini himoya qilish, ish beruvchilar bilan ishlovchilarning ijtimoiy sherikchiligini tashkil etish maqsadida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkiloti;

Kvazi... – lot. turli so‘zlar boshiga qo‘yiluvchi va «go‘yo», «sohta» ma’nolarini beruvchi qo‘shimcha. Masalan, kvazidemokratiY.

Kvintessensiya – (lot. beshinchi asos) biror narsaning asos, mohiyati; eng muhim, eng asosiy.

Kompetent – (lot. sompetents- loyiqlik, mutanosiblik); o‘z bilimi yoki vakolati bilan biron-bir qarorni qabul qilish, masalani yechish yoki ular yuzasidan hukm chiqarish uchun zarur bo‘lgan ilmga yoki qobiliyatga ega bo‘lishni anglatadi.

Konfessiya -lat. cōnfessio dinlar va uning shaxobchalari, tarmoqlari, mazhab, oqim va yo‘nalishlarini ifodalovchi umumiy tushuncha.

Konsepsiya - lot. conceptio-idrok qilish, idrok, o‘zlashtirish; u yoki bu hodisalarga nisbatan qarashlar tizimi; qandaydir hodisalarni ko‘rib chiqish, nimanidir anglash usuli.

Konyunktura – lot. conjunctura - bog‘lash, qo‘shish. Bozorkonyunkturasi – talab va taklif, baholar darajalari, mollar zaxiralari, shuningdek, iqtisodiy sikllar o‘zgarishlar davri – ko‘tarilish yoki tanazzul kabilar o‘zaro tegishli nisbati natijasida erkin bozordayuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatlar. Konyunkturaning

birinchi belgisi uning tez o‘zgaruvchanligi, doimiy emasligi va aksariyat hollarda tebranib turishi hisoblanadi.

Kooperatsiya- lot. cooperatio-hamkorlik; ko‘pchilik kishilarning birgalikda bitta yoki o‘zaro bir-birlariga bog‘lik o‘lgan bir necha faoliyatlardagi ishtiroki, mehnatni tashkil etish shakllaridan biri; ishlab chiqarish va mahsulot ayrboshlash sohasidagi jamoaviy birlashma.

Kosmopolitizm - (yunon. kosmopolites — dunyo fuqarosi) — dunyo fuqaroligini da’vo qilish, shuningdek, milliy va davlat suverenitetini rad etish, turli milliy an’ana, madaniyat hamda vatanparvarlik tuyg‘usidan voz kechish g‘oyasini ilgari suradigan qarash. Kosmopolitizm- ya’ni, qayerda yaxshi hayot bo‘lsa o‘sha yerni vatan deb bilish. Bu tamoyil insonda vatan hissini yo‘qotadi, g‘ururni o‘ldiradi. Bu esa har bir jamiyat uchun halokatlidir.

Ko‘ppartiyaviylik—mamlakat parlamentida ko‘pchilik o‘rinni olish uchun teng imkoniyatga ega bir necha siyosiy partiyalar mavjud bo‘lgan siyosiy tizim.

Kuchli davlat –omma faoliyatiga asoslangan kuchli boshqaruvi tizimiga, rivojlangan iqtisodiyot, yuksak ma’naviyatga egabo‘lgan davlat. Bunday davlat mustahkam iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy asosga ega bo‘ladi.Uningqudrati fuqarolar hamjihatligi, jamiyatdagi do‘stlik va bag‘rikenglik, har bir fuqaroning onglilik darajasi, davlat boshqaruvidagi faol ishtirokiga asoslanadi.

Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari – ushbu konsepsiyaning mohiyati odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgani sari davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tishi, mahallalarning nufuzi va mavqeining oshishi demakdir.

Kuchli jamiyat-mustahkam negizning barqaroligi ta’milangan, davlatning boshqaruvchilik faoliyati qisqarib, jamoat tashkilotlarining roli kuchaygan, fuqarolarning qonun asosida, ularning huquq va erkinliklari oliv qadriyatlarga aylangan jamiyat.

Kuchli fuqarolik jamiyati – inson manfaatlari ustuvorligi va fuqarolik jamiyati institutlari orqali ularning davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi ta’milangan, qonun ustuvor bo‘lgan jamiyat.

Qonun – qonunchilik hokimiyatining fuqarolar, jamiyat va davlat hayotiga taalluqli munosabatlarda muayyan tartib joriy etish borasidagi irodasining namoyon bo‘lishi.

Qonun ustuvorligi – ushbu tamoyilning mazmuni shuni anglatadiki, qonun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qat’iy hukmron bo‘ladi. YA’ni, hech kim, hech birdavlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor yoki boshqa bir fuqaro qonunga bo‘ysunishi, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha ishtirokchilari esa, hech bir istisnosiz, huquq normalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishi kerak. Huquqiy

normalarni tadbiq etishda konstitusiya va qonunlarning normalari boshqa huquqiy normalardan ustun turadi.

Legitimlik – (lot. qonuniy) muayyan davlat hokimyatining qonuniyligini a) fuqarolar tomonidan; b) xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishini anglatuvchi qadriyatiy tushuncha. Tarixan an’anaviy, xarizmatik, oqilona-qonuniy shakllarda nomoyon bo‘ladi.

Liberalizm – (lot. erkinlik) mafkura, ijtimoiy-siyosiy harakat. U ijtimoiy imtiyozlar va avloddan-avlodga o‘tuvchi hokimyatga qarshi chiqib burjua qatlamlarining qarashlarini o‘zida mujassam etadi. Asosiy tamoyillari: individualizm, erkinlik, bozor va raqobatning mutloqligi, davlatni cheklash zarurligi (asoschilari I.Bentam, J.Mill, A.Smit, G.Spenser).

Liberallashtirish – ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkinlik ustuvor bo‘lishini, jamiyatning evolyusion rivojlanish yo‘lini e’tirof etuvchi va asoslovchi nazariya, amaliyot.

Liga- lot. ligare-bog‘lamoq; ijtimoiy-siyosiy birlashma; davlatlar, tashkilotlar, alohida shaxslar ittifoqi.

Lobbi - lot. lobyy-kuluar; jamiyatdagi ma’lum bir siyosiy doiralar, kuchli iqtisodiy tizilmalar manfaatlarini ifodalovchi, ana shu manfaatlarni amalga oshirish parlament va mansabdorshaxslarga bosim o‘tkazishga intilayotgan guruhlar.

Madaniyat – kishilarining tabiatni, borliqni o‘zlashtirish va o‘zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma’naviy boyliklar hamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyod etish yo‘llari va uslublari majmui.

Madaniyatli odam – o‘qimishli, zamon talablari asosida kiyinish va muomala meyorlariga amal qiluvchi, ahloq normalariga to‘la amal qiladigan, ilg‘or falsafiy g‘oyalarga ega bo‘lgan, jahon madaniyati durdonalaridan xabardor bo‘lgan shaxsga aytildi.

Manfaat – individ va ijtimoiy guruhlar faoliyatinting asosiy sababi.

Manfaatlar - lot. interest ahamiyat kasb etish, muhim; obektiv ravishda ahamiyat kasb etgan, inson, jamoa, millat, jamiyat kabilar uchun zarur bo‘lgan zaruriy ehtiyojlar; kimgadir farovonlik bag‘ishlaydigan, kimgadir foyda keltiradigan narsalar.

Manfaatlar guruhlari - unga a’zo bo‘lgan kishilarining manfaatlarini boshqa guruhlar va siyosiy institutlarning o‘zaro munosabatlarida, shuningdek, o‘z guruhi ichida ifoda qilish uchun tuzilgan ixtiyoriy tashkilotlar.

Marginal – (fr. “marginal”) ikkinchi darajali, oxirgi, chetda turuvchi; siyosatshunoslikda – oldingi ijtimoiy aloqalarini yo‘qotgan, yangi hayot shartsharoitlariga hali moslasha olmagan, qandaydir ijtimoiy guruhlar orasida yoki eng chekkasida turgan ijtimoiy odam, jamiyatning sirtida qolgan: lyumpen, miskin va hokazo.

Mahalliy (yoki munitsipal) boshqaruv - ma'muriy-hududiy birliklardagi aholining manfaatlarini ifodalaydigan va saylab qo'yiladigan organlar hamda ularning ma'muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga molik ishlarni boshqarish.

Ma'naviy barkamol inson – komil inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ayni vaqtida ma'naviy barkamol inson tushunchasi sog'lom avlod tushunchasi bilan ham bog'lanib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida-alohida ishlatsa-da, mohiyatan ularning hammasi inson axloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiylari xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo'lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi.

Ma'naviy jasorat – yer yuzida barcha o'lmas obidalarni, insoniyat hayotini tubdan o'zgartirib yuborgan jamiki ulug' kashfiyat va ixtirolarni, mumtoz san'at va adabiyot durdonalari hamda mardlik va qahramonlik namunalarini ko'rsatgan insonlarning mislsiz aql-zakovati vayuksak ma'naviy salohiyatini ifodalaydi.

Ma'naviy tahdid – tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion hurujlarni nazarda tutadi.

Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

Ma'naviyatga tahdid – inson qalbi va imon e'tiqodini susaytirishga qaratilgan hamda insonning o'zligidan begonalashtirib, kelajagidan mahrum etishga yo'naltirilgan yot va begona g'oyalar.

Ma'naviyatni shakllantiradigan mezonlar – inson ongiga ta'sir ko'rsatadigan, uning dunyoqarashi tafakkur tarzini muayyan yo'nalishga soladigan, o'zgartiradigan, jamiyat, millatga xos ma'naviy, madaniy va moddiy asoslar, an'analar, qadriyatlar, meros, turmush tarzi, g'oyalar va qarashlarni umumlashtiruvchi tushuncha.

Ma'rifat – ta'lim tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy va ma'naviy boyliklarning, ularni yanada ko'paytirib hamda takomillashtirib borish usullarining majmui.

Mafkuraviy immunitet - lotincha Immunitatis so'zidan olingan bo'lib –biror narsadan ozod etish ma'nosini anglatadi. Shaxs, ijtimoiy gurux, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan ximoyalashga xizmat qiluvchi tizim. U mafkuraviy e'tiqod bilan uzviy bog'liq bo'lib, "ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiyon, buzg'unchi xarakterdagi g'oyaviy

tasirlarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda qo‘l keladi»¹¹³. Ma’lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog‘lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta’bir joiz bo‘lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur

Mentalitet - fran.mentalite; lot mentalis-aqliy, ruhiy, ma’naviy, aql yo‘nalishi aql bichimi, akliy yetuklik, zakovat; ma’lum shaxs, ijtimoiy guruh (kichik, katta, milliy) uchun xarakterli bo‘lgan dunyoqarash, dunyoni anglash, atrof voqelikni qabul usuli; fikrlash tarzi.

Mexanizm - yunon. mechan-e-qurol, inshoot; harakat va tezlikni amalga oshirish yoki uzatish qurilmasi. Siyosatda ma’joziy ma’noda biron-bir reja, dastur, maqsadni amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlarini va vositalariga nisbatan qo‘llaniladi.

Millat — til, ma’naviyat, milliy o‘zlikni angash ruhiyati, urf-odatlar, an’analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi iqtisodiy aloqalar bilan bog‘langan mustaqil subekt sifatida o‘ziga xos moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarningetnik birligidir.

Millatlararo munosabatlari — birga yoki ayri tarzda yashaydigan har xil millatlar o‘rtasida amalga oshadigan turli-tuman shakllardagi aloqalarni anglatuvchi tushunchadir.

Millatlararo totuvlik g‘oyasi - milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalardan biri bo‘lib, mamlakatimizda istiqomat qilib kelayotgan barcha etnik vakillari bilan, avvalambor, o‘zbek millati va shu bilan birga o‘zlarining o‘rtasida ko‘p yillarga mo‘ljallangan ezgulik, ishonchlilik, do‘stonalik, yakdillik, qarindoshlik, ma’naviy-axloqiy va mafkuraviy yaqinlik va birdamlik, murosalilik va boshqa insoniylik munosabatlari mavjudligini va kelajakda ham u yanada kamol topishini ifodalaydi.

Millatchilik bu - millat ayirish, bir millatni har tomonlama ulug‘lab, boshqalarining huquq, ehtiyoj va manfaatlarini nazar-pisand qilmaslik, ularni yerga urishdan iborat bo‘lgan nodemokratik mafkura.

Milliy g‘oya – ajdodlardan avlodlarga o‘tib, asrlar davomida e’zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqr ildiz otib, uning ma’naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta’bir joiz bo‘lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzuintilish va umid-maqsadlari yig‘indisi.

Milliy g‘oya negizlari – ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan, xalqning o‘ziga xos milliy xususiyatlarini ifodalagan milliy ma’naviy meros qadriyatları

¹¹³ Фалсафа: қомусий луғат. -Т.: Шарқ, 2004. 160-бет.

hamda dunyo xalqlari tomonidan e'tirof etilgan demokratiyaning umuminsoniy prinsiplar majmuidir.

Milliy qadriyat – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyat shakli.

Milliy mafkura – millatning etnoijtimoiy birlik sifatida mavjud bo'lishi va rivojlanishini, erkin va ozod taraqqiyotini g'oyaviy asoslash, ta'minlashga qaratilgan qarashlar tizimi

Model- fran. modele-namuna, tarx, nimanidir tasviri tavsifi.

Modernizatsiyalash- fran. modernizer-zamonaviy; zamonaviylashtirish, hozirgi davr talablari, tarzi va didiga mutanosib ravishdagi o'zgarishlarni amalga oshirish.

Mulk obektlari - mulkka aylangan barcha boylik turlari. Mulk subektlari - mulk obektini o'zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlar ishtirokchilar.

Mulkdan foydalanish - mol-mulkning Iqtisodiy faoliyatda ishlatalishi yoki ijtimoiy hayotda qo'llanilishi, ya'ni uning nafli jihatlarining bevosita iste'mol qilinishi.

Mulkni tasarruf etish - mol-mulk taqdirini mustaqil hal qilish. Mulkka egalik qilish - mulkdorlik huquqining uning egasi qo'lida saqlanib turishi va yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashtirishning ijtimoiy shakli.

Mulkchilik munosabatlari - mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni o'zlashtirish va tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Munitsipal boshqaruvi - ingl. municipal o'zini o'zi boshqarish; bu boshqaruvning nisbatan nomarkazlashgan shaklidir. Shu bilan bir vaqtning o'zida u fuqarolik jamiyatining instituti hisoblanadi. Bunday boshqaruvi organlarining asosiy belgilari, - ularning saylanishligi va o'z hududidagi aholi manfaatlari asosida mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarga rahbarlik qilishdagi nisbatan mustaqillik.

Munitsipalitet- fran.municipalite-shahar o'zini o'zi boshqarish organi; ko'pchilik mamlakatlardagi o'zini o'zi boshqarish organlari.

Mustaqil bosma OAV lari – davlat boshqaruvidan holi bo'lgan, o'zining fikr va so'z erkinligini ro'yobga chiqaruvchi, lekin bunda o'z faoliyatini amaldagi qonunchilik doirasidagina olib boruvchi ommaviy axborot vositalaridir.

Modernizatsiyalash – (fran. Modernizer – zamonaviy) zamonaviylashtirish, hozirgi davr talablari, tarzi va didiga mutanosib ravishda o'zgarishlarni amalga oshirish.

Nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan ixtiyorilik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromad (foyda) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtaida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkiloti.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni

himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

Nizom- muayyan davlat yoki jamoat tuzilmalarini tashkil etish tartibini, tuzilishi, vazifasi, funksiyalari va vakolatlarini belgilovchi kodekslashtirilgan normativ hujjat hisoblanadi.

Nodavlat notijorat tashkiloti (NNT) - jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyorilik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir.

Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari – o‘z oldida Internet tarmog‘ida ommaviy axborot vositasi (OAV) funksiyalarini bajarish vazifasini qo‘yuvchi nodavlat tusdagi ro‘yxatga olingan vebsaytlari.

Okkultizm, - fr. occultisme, nem. Okkultismus < lat. occultus – sirli, yashirin, dunyoning yashirin, g‘ayrishuuriy, ilmiy tafakkurga sig‘maydigan, ammo “tanlangan”, “taqim etilgan” largagina nasib etuvchi qudrati haqida notabiyy qarash.

Ommaviy axborot vositalari – keng ko‘lamda axborotni yig‘ish, ishlash va tarqatishni ta’minlovchi ijtimoiy institutlar va kanallar (matbuot, kitob nashriyotlari, matbuot agentliklari, radio, televide niye va h.k.). Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo‘lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir. «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida.(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 y., 3-son, 20-modda)

Parlament - ingl. parliament, frans. parlergapirmoq va so‘zlamoq; parlament oliv qonun chiqaruvchi vakillik organi hisoblanadi.

Parlamentdagи ko‘pchilik—O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida ko‘pchilik o‘rinni egallagan siyosiy partiya fraksiyasi.

Parlamentdagи muxolifat—yangitdanshakllantirilgan hukumatning tutgan yo‘li va dasturiga yoki uning ayrim yo‘nalishlariga qo‘silmaydigan siyosiy partiylar fraksiyalar, shuningdek O‘zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar guruhi.

Partitsipatsiya – (ingl) ishtirok etmoq; fuqarolar tomonidan davlat va jamiyat ishlarini boshqarish jarayonida u yoki bu funksiyalarni bajarishini shart qilib qo‘yadigan demokratianing modeliga doir nisbat.

Partiya - lot. pars (partis)-qism, guruh; qandaydir ijtimoiy qatlam yoki guruhmanfaatlarini ifodalovchi, qandaydir siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi tashkilot.

Passiv saylov huquqi - fuqarolarning saylanadigan davlat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga saylanish huquqi.

Plyuralizm - lot. pluralis-turlicha, turli tuman; turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifodalovchi turli tuman ijtimoiy-siyosiy kuchlar mavjud bo‘lgan siyosiy tizim.

Plyuralizm - lot. pluralis-turlicha, turli tuman; turli ijtimoiy qatlamlar

Polietnik – ko‘pmillatli, monoetnik – yakka, yagona yoki bir millatli.

Prezident – lot. praesidens (praesidentis) – oldinda o‘tiruvchi, raislik qiluvchi, boshda turuvchi so‘zlaridan olingan bo‘lib, ko‘pchilik Prezidentlik va parlament respublikalari joriy etilgan mamlakatlarda ma’lum bir muddatga saylangan davlat boshlig‘i.

Pressa - fran. presse; ommaviy axborot vositalari; ommaviy joriy matbuot.

Prinsip- lot. principium-asos, dastlabki, boshlang‘ich; asos bo‘ladigan poydevor g‘oyalalar; xulq, faoliyat va hatti-harakatning asosiy qoidasi.

Proporsional (- ot. proportionalis-mutanosib; saylovlarda nomzodlar uchun beriladigan ovozlar ro‘yxatlar bo‘yicha beriladigan, har bir ro‘yxat uchun berilgan ovozlarga mutanosib ravishda joy egallanadigan saylov huquqi tizimi.

Profitsit – byudjetga nisbatan qo‘llanilganida byudjetning daromad qismini uning xarajat qismiga nisbatan ortiq bo‘lganligini ifodalaydi.

Ratsional – (lot. rationalis-oqilona); maqsadga muvofiq, asoslangan, dalillangan (eng to‘g‘ri yo‘l ma’nosida ham ishlataladi).

Rejim- fran. rejime; davlat tuzumi, idora etish obrazi.

Saylov – aholining rasmiy mansabni egallahash uchun biror shaxsni tanlashi jarayonidir.

Saylov huquqi – davlat boshlig‘i, vakillik organlari va boshqani saylash tartibini belgilab beruvchi huquqiy normalar yig‘indisi. Caylov huquqi, odatda, konstitusiya va saylov to‘g‘risidagi maxsus qonunlar bilan belgilanadi.

Sektorlararo nazariya- ijtimoiy sheriklikning uch sektor: davlat organlari, biznes vakillari va fuqarolik jamiyatining institutlari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishi to‘g‘risidagi nazariya

Senat - lot. senatus-eski, qariya; ko‘pchilik mamlakatlar parlamentining yuqori palatasi.

Siyosat sebekti – siyosiy munosabatlarda ishtirok etayotgan kuchlar, sotsial guruuhlar, qatlamlar, tashkilotlar siyosiy faoliyatning tashuvchilari, siyosatning subekti hisoblanadi.

Siyosiy jarayonlar – turli siyosiy institutlar, ijtimoiy guruuhlar, tashkilotlar individlar munosabati sifatida namoyon bo‘ladi.

Siyosiy qarashlar – siyosiy qarashlarning shakllanishi va qaror topishida o‘ziga xos an’analar mavjud bo‘lib, siyosiy hodisalar turli xil talqin etilgan.

Siyosiy madaniyat - insonning siyosiy hodisalarga doir qadriyatlarga oid tasavvurlari va uning amaliyotda namoyon bo‘ladigan xulqi kodeksi yoki uning siyosiy hokimiyat subekti sifatidagi faoliyat uslubi. Shu ma’noda, siyosiy madaniyat fuqaroning umuminsoniy ahamiyatga molik bo‘lgan siyosiy faoliyat namunalarini qay darajada egallaganligini namoyish qiladi.

Siyosiy ong – turli ijtimoiy guruhlarning davlat hokimiyatiga, siyosiy tashkilotlar, ularning jamiyat hayotidagi roliga, boshqa davlat va millatlar bilan munosabatiga oid qarashlarning bir tizimga solingan nazariy ifodasi.

Siyosiy partiyalar – ijtimoiy guruuhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar. Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining muhim qismi, ular davlatning siyosiy yo‘nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi.

Siyosiy tashkilotlar – siyosiy partiyalar, turli ijtimoiy qatlam va guruhlarning manfaatlari, maqsadlarini ifoda etadi.

Siyosiy tizim jamiyatda davlat hokimiyati va boshqaruvni shakllantirish va amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlar harakatlarida o‘z ifodasini topadi.

Sotsial – lot. socialis – ijtimoiy, jamoatchilik; jamiyat va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘langan.

Sotsium - lot. socium-umumiyy, birgalikdagi; insonlar hayot faoliyati shart-sharoitlarini birligini xarakterlovchi ijtimoiy umumiyylik, birlik.

Strata – (lot.stratum)-qatlam.

Struktura (lotincha “structura” –“tuzilma”, “tuzilish”) – obektning bir butunligini va uning o‘ziga o‘zi aynanligini, ya’ni turli ichki va tashqi o‘zgarishlarda o‘zining asosiy xususiyatlarini saqlay olishini ta’minlovchi barqaror aloqalar yig‘indisidir.

Subordinatsiya – (lot.) tartibga keltirish; xizmat intizomi qoidalariga tegishli holda martaba darajalari bo‘yicha kichik mansabdorlarni katta mansabdorlarga bo‘ysunishiga qat’iy amal qilish.

Suveren – fran. souverain-oliy so‘zidan olingan bo‘lib, oliy, suverenitetga ega bo‘lish, mustaqil,qaram bo‘lmagan ma’nolarini beradi.

Suverenitet – (fran. “souveränität”) davlatning ichki ishlar va tashqi munosabatlarda xorijiy aralashuvlarga yo‘l qo‘ymagan holdagi mustaqilligi va muxtoriyati.

So‘z erkinligini ta’minalash – insonning fundamental va tabiiy huquqlaridan biri – o‘z fikrini (hayolini) oshkora (og‘zaki, yozma ravishda va/yoki ommaviy axborot vositalardan foydalangan holda) ifoda etish huquqini amalga oshirish uchun kompleksli shart-sharoitlarni yaratish.

So‘z erkinligini ta’minlash – insonning fundamental va tabiiy huquqlaridan biri – o‘z fikrini (hayolini) oshkora (og‘zaki, yozma ravishda va/yoki ommaviy axborot vositalardan foydalangan holda) ifoda etish huquqini amalga oshirish uchun kompleksli shart-sharoitlarni yaratish.

Tabaqa (qatlam) - o‘xhash kasb-hunar, mashg‘ulot, holati va ahvoli bilan manfatlar umumiyligi asosida birlashgan shaxslarning yirik guruhi.

Taraqqiyot – jamiyat rivojlanishining oddiydan murakkabga,YU quyidan yuqoriga yo‘nalgan, bir sifat bosqichidan yangi sifat bosqichiga o‘tishi jarayoni.

Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” - istiqlolning dastlabki yillarida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov rahbarligida ishlab chiqilgan islohotlar strategiya bo‘lib, taraqqiy topgan mamlakatlarning bozor munosabatlariga o‘tish tajribasi, mamlakatimiz boshidan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi asos qilib olindi. Shu tariqa yurtboshimiz tomonidan jamiyatni isloh etishning chuqur ilmiy asoslangan quyidagi besh tamoyili vujudga keldi: Birinchi tamoyil: iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi; Ikkinci tamoyil: davlat – bosh islohotchi; Uchinchi tamoyil: jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi; To‘rtinchi tamoyil: aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish; Beshinchi tamoyil: bozor iqtisodiyotiga obektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, tadrijiy asosda, puxta o‘ylab, bosqichma-bosqich o‘tish.

Tashabbus- lot. initsiativa initiative-tashabbus; qandaydir ishni boshlashga undash, ishbilarmonlik; muhokama qilish uchun takliflar berish.

Texnotronika -ingl. technetronic;. Elektronikadan foydalanib jamiyatga ta’sir etuvchi texnika vositalari.

Tinchlik – insonning hayotiy ehtiyoji, emin-erkin yashashi va kamol topishining eng zarur omili.

Tolerantlik - fr. tolyrant (lat. Tolerāns-tolerantis) hozirgi o‘zbek tilida lug‘aviy tarjima qilganda chidamlilik, sabrlilik, bardoshlilik, toqatlilik ma’nolarini anglatadi. Antik davr va o‘rta asrlarga qadar asosan tabobat sohasida keng istifoda etilgan mazkur tushuncha hayvonlar va insonlar organizmlarining turli-tuman kasalliklar, jarohatlar va umuman, hayot uchun kurashish jarayonlariga doir immun qobiliyatini o‘rganish masalalariga aloqador bo‘lgan. Keyinchalik boshqa fanlar doirasida ham e’tiborli asarlar yaratgan mashhur tabobat olimlari va aksincha, tabobat borasida ham diqqatga sazovor fikrlar bildirgan boshqa soha olimlari mazkur tushunchani kengroq ma’noda qo‘llay boshlaganlar (Epimenid, Gorgiy, Aristotel, Epiktet, Ibn Sino). XX asrga qadar tolerantlik tushunchasining ayniqsa din bilan bog‘liq muruvvat ma’nosidagi talqinlariga ko‘p duch kelish mumkin. Lekin mazkur asr boshlaridan texnika taraqqiyoti va uning asosida mehnatni tashkil etish munosabatlarining jadal rivojlanishi natijasida tolerantlik tushunchasi davlat va xalq munosabatlarida, ayniqsa huquqiy munosabatlar tizimida keng mazmun

kasb etadi. Endi tushuncha chidam, sabr-toqat ma'nolarini yo'qotmagan holda ko'proq bag'rikenglik, hamjihatlik, hamkorlik kabi mazmunda talqin etila boshlandi.

Totalitar - lot. totalis-butun, to'la, bir butun); davlat hokimiyati organlari tomonidan jamiyat hayotining hamma sohalarini nazorat qiladigan davlat shakli, amalda konstitusion huquq va erkinliklarni tugatilishi; bu rejimda davlat hokimiyati biron-bir guruh (siyosiy partiya) qo'lida to'planib, mamlakatda demokratik erkinliklar va siyosiy muholifatni amal qilishi uchun imkoniyatlar bo'lmaydi.

Tranzaksiya - ingl. bank transaction, ot lot. transactio - kelishuv, shartnoma; tranzaksiya – bu sotib olishga doir sharnomani tuzish/molivayiy vositalarni sotishga doir shartnoma. Bank tranzaksiyasini, deganda bir bank hisob raqamidan ikkinchisiga yoki bank ichidagi bir hisob raqamidan ikkinchisiga pul mablag'larini o'tkazish tushuniladi.

Transformatsiya - lot. transformatio – o'zgarish; tuzilmalarni, shakllarni va usullarni o'zgartirish, faroliyatning maqsadli yo'nalishini o'zgartirish.

Tred-yunionistik nazariya- ijtimoiy sheriklikning mhnat munosabatlarini tartibga solishi to'g'risidagi nazariya

Tripartizm-ijtimoiy sheriklikning davlat organlari, biznes vakillari va nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtaсидаги kelishuv.

Tripartizm – ijtimoiy sheriklikning davlat organlari, biznes vakillari va nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtaсидаги kelishuv.

Uchinchi sektor – dunyodagi barcha mamlakatlarda notijorat va xayriya maqsadlarida tashabbus ko'rsatayotgan va keng faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlariga (NNT) nisbatan qo'llaniladi (birinchi sektor – davlat, ikkinchi sektor – tijorat sektori yoki shaxsiy sektor deyiladi).

Uklad - tartib, tarz; ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning asosiy xo'jalik shakli.

Umumbashariy qadriyat – dunyo xalqlarining ko'pchiligi tomonidan tan olingan, huquqiy meyorlar tarkibiga kiritilgan yoki qadriyat, an'ana va mas'uliyatiga aylangan, voqe'lik vayohud munosabatlar tizimiga nisbatan qo'llaniladigan tushuncha.

Umuminsoniy qadriyatlar – butun insoniyatning tajribasini ifodalovchi va ma'lum farqlanishlar bo'lishidan qat'i nazar, barcha odamlar uchun mushtarak bo'lgan dunyoqarashning ideallari yoki axloqiy normalar.

Universal – (lot. universalis –umumiy); har tomonlama, keng qamrovli, ko'plab maqsadlar uchun yaroqli, turli vazifalarni va funsiyalarni bajara oladigan.

Uchinchi sektor - dunyodagi barcha mamlakatlarda notijorat va xayriya maqsadlarida tashabbus ko'rsatayotgan va keng faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarga (NNT) nisbatan qo'llaniladi (birinchi sektor - davlat, ikkinchi sektor - tijorat sektori yoki shaxsiy sektor deyiladi).

Faol (aktiv) saylov huquqi - fuqaroning saylanadigan davlat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga saylash huquqi.

Feminizm- lot. femina-ayol; erkaklar bilan ayollar huquqlarini tenglashtirish uchun faoliyat yuritadigan ayollar harakati.

Feminizm- lot. femina-ayol; erkaklar bilan ayollar huquqlarini tenglashtirish uchun faoliyat yuritadigan ayollar harakati.

Fikr erkinligi– bu jamiyat a’zosi bo‘lgan har bir shaxs tabiiy va ijtimoiy jarayonlarga, fuqarolar bilan siyosiy tashkilotlarga va milliy, irqiy, diniy, sinfiy munosabatlarga ega bo‘lgan mustaqil fikrlarini huquqiy, siyosiy diniy va boshqa muassasalar tomonidan bo‘lishi mumkin bo‘lgan turli tazyiqlardan muhofaza qiladigan ijtimoiy muhit.

Fiskal - engl. fiscal policy; lot. fiscus - savat;kassa, kazna, moliya, soliqbyudjet siyosati hukumat siyosati, yaiin istiqbolda barqaror iqtisodiy tizimni ta’minalash va biznes-sikllarni tebranishini kamaytirish maqsadida davlatning iqtisodiyotga aralashuv usullaridan biri; fiskal siyosatining asosiy quroli davlat byudjetining daromadlari va harajatlari, ya’ni: soliqlar, transfertlar va davlat sotib olgan tovarlar va xizmatlar.

Forum- lot. forum;vakillar majlisi, qurultoyi, kongressi; qadimgi Rimda xalq majlisi o‘tkazilgan maydon.

Fraksiya - lot. fractio-buzish, sinish, darz ketish; parlament a’zoligiga yoki boshqa vakillik organlariga saylangan deputatlar birlashmasi.

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining hududiy asosi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini tuzish, birlashtirish, tugatish hamda ularning chegaralarining o‘rnatish va o‘zgartirish tartibqoidalarini belgilab beruvchi huquqiy normalarning mushtarak tizimidir.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi -O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va Qonunlari bilan kafolatlanadigan ularning o‘z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishning tashkiliy asosi - o‘zini o‘zi boshqarishhuquqining instituti sifatida o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tuzilishi,faoliyat tartibi, shakli va prinsiplarini, faoliyat doirasini belgilab beruvchi huquqiy normalarning mushtarak tizimidir.

Fuqarolarning o‘zini o‘ziboshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asosi - fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘z mablag‘laridan, ushbu organlarga xalq deputatlari tuman va shahar kengashlari belgilangan tartibda ajratgan byudjet mablag‘laridan, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy hayr-ehsonlaridan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa mablag‘lardan tashkil topadi.

Fuqarolik – insonlarni muayyan davlat, davlatchilik bilan bog‘liq huquqiy holatlarini, munosabatlarini ifoda etuvchi tushunchadir.

Fuqarolik jamiyati – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida tegishli fuqarolik institutlari orqali faol ishtirok etishi ta’minlangan ijtimoiy makondir.

Fuqarolik jamiyati institutlari – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga xizmat qiladigan nodavlat, notijorat tashkilotlari, jamiyat birlashmalari, oila, mahalla, ijtimoiy harakatlar va boshqa tuzilmalar majmuidir.

Fuqarolik mas’uliyati – qonun ustivorligini tan olish va har bir shaxsning ijtimoiy hayotni takomillashtirish jarayonida ishtirok etish vazifasini teran his qilish.

Funksiya - lot. functio-faoliyat, o‘tash, bajarish; faoliyat, majburiyat, ish, tayinlash, burch, vazifa, topshiriq.

Funksiya - lot. functio-faoliyat, o‘tash, bajarish; faoliyat, majburiyat, ish, tayinlash, burch, vazifa, topshiriq.

Fuqarolik jamiyati institutlari – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga xizmat qiladigan nodavlat, notijorat tashkilotlari, jamiyat birlashmalari, oila, mahalla, ijtimoiy harakatlar va boshqa tuzilmalar majmui.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) – Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimining ixtisoslashgan muassacasi bo‘lib, u ijtimoiy adolat tamoyillarini, xalqaro tan olingan inson huquqlari va mehnat sohasidagi huquqlarni ilgari surishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. 1919 yilda tashkil topgan XMT 1946 yilda BMT tizimiga kirgan birinchi ixtisoslashgan muassasa bo‘lgan.

Xalq - (arab. yaratilgan jonzot, odamlar) –keng ma’noda, muayyan mamlakatning barcha aholisi, tor ma’noda, tarixiy-etnoijtimoiy birliklarning turli shakllari, chunonchi, millat, elat, etnik birlik, urug‘ va boshqalarni ifoda etuvchi tushunchadir. Xalq - birinchi marta xalqaro huquq subekti sifatida 1945 yili BMT Ustavida "Xalqlarning tengligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilash" tamoyilining mustahkamlanishi natijasida tan olingan.

Xalq farovonligi – milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalaridan biri. Xalq farovonligi harbir shaxs va oila farovonligi bilan bog‘liqdir. Bunda insonning shaxsiy manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashib ketadi va har bir fuqaroning farovonligi butun jamiyat farovonligidir, degan tamoyil amalga oshadi.

Xartiya – (yun. qog‘oz, yorliq) o‘rta asrlarda ommaviy huquqiy siyosiy xarakterdagi xujjat bo‘lgan. Hozirgi xalqaro huquqda deklaratasiyaning sinonimi. U – majburiy kuchga ega bo‘lmagan, umumiy tamoyillar va maqsadlarni ifoda etuvchi xujjat.

Harakatlar strategiyasi - uning maqsadi olib borilaётган islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har

tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va haётning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir. Xususan, mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilangan: 1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish; 2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sudhuquq tizimini yanada isloh qilish; 3. Iqtisodiётni yanada rivojlantirish va liberallashtirish; 4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish; 5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqr o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siёsat yuritish. Harakatlar strategiyasini besh bosqichda amalga oshirish nazarda tutilmoqda, bunda yillarga beriladigan nomlarga muvofiq har yili uni amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturi tasdiqlanadi

Xususiy lashtirish - mulkka egalik huquqining davlatdan xususiy shaxslarga o'tishi.

Hamkorlik siyosati – xalqaro siyosat subektlarining birgalikdagi siyosiy harakatlarda vujudga keladigan masalalar yuzasidan yagona nuqtai nazarlarni ishlab chiqishida ifodalanuvchi munosabat turlaridan biri. Unga ko'ra tomonlar o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlarida mustaqillikni saqlab qolgani holda qarashlar mos tushuvchi amaliy masalalarda birgalikda faoliyat ko'rsatadilar. Masalan, gitlerchi Germaniyasiga qarshi davlatlar hamkorligi.

Huquq - davlat qonunlari bilan beriladigan erkinlik, harakat qilish imkoniyati, nimanidir amalga oshirish yoki nimadandir foydalanish, nimagadir egalik qilish; jamiyatdagi munosabatlarni, kishilar va ularning harakati va xulqini muvofiqlashtirish, davlat va jamiyat organlarini yashashini ta'minlashga imkoniyat berish maqsadlarida davlat tomonidan o'rnatilgan va himoya qilinadigan umum majburiy ijtimoiy meyorlar va qoidalar.

Huquqiy davlat - huquq, Konstitusiya va Qonun hukmronlik qiladigan davlatdir. Davlat va uning institutlari, mansabdar shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o'z ma'suliyatlarini his qilishlari, o'z navbatida jamiyat va fuqaro, uning tashkilotlari davlat oldidagi ma'suliyatlarini his qilishlari kerak. Bu ma'suliyatni oshirish orqali huquqiy demokratik davlat shakllantiriladi va rivojlantiriladi hamda bu jarayon uzoq muddatni talab etadi.

Huquqiy madaniyat – umumiyligi madaniyatning muhim qismi. Huquqiy madaniyat tarixan asta – sekin shakllangan ijtimoiy voqealari bo'lib, hozirgi davrda ilg'or huquqiy davlatlarning va ularning fuqarolarining zaruriy xislati va taraqqiyot omiliga aylangan.

Shok terapiyasi (iqtisodiyotda) – iqtisodiyotni sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan qator salbiy oqibatlarni (narxlarning o'sishi, inflyatsiya, bandlikning pasayishi va shunga o'xshash boshqa holatlar) o'z ichiga oluvchi radikal chora-tadbirlar majmuasi.

Evolusiya (lotin tilidan tarjimasi – boshlash, vujudga kelish) – tizimning rivojlanish jarayonini anglatadigan tushuncha bo‘lib, birinchi galda jamiyatga xosdir. Unga ko‘ra, jamiyatda asta-sekin yuz berayotgan o‘zgarishlar tizimga, uning tuzilmalari tashkil qilinishi va funksiyalari sifatli o‘zgarishiga olib keladi.

Egalitarizm- fran. egalite-tenglik; umumiylenglashtirishni jamiyatni tashkil etishning prinsipi g‘oyasiga asoslangan ijtimoiy-siyosiy fikr yo‘nalishlaridan biri.

Elat - bir tilda so‘zlashuvchi, o‘ziga xos madaniyati mavjud bo‘lgan va ma’lum hududda yashaydigan hamda muayyan maqsad asosida birlashgan va o‘z tuzilmasiga ega bo‘lgan ijtimoiy-tarixiy birlik tushuniladi. Elat— kishilarningtil, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan birligi.

Elektorat – saylovlardaga ma’lum siyosiy partiyaga (siyosiy lider)ga ovoz beruvchi saylovchilar davrsi; ma’lum bir saylov okrugi yoki mamlakat saylovchilari majmui.

Elektron huqumat – (angl. e-Government) – bu fuqarolar, biznes, davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlari va davlat xizmatchilariga axborotni taqdim qilish va shakllanib bo‘lgan davlat xizmatlarining to‘plamini ko‘rsatish usulidir, bunda davlat va arizachi o‘rtasidagi o‘zaro shaxsiy aloqa minimallashtirilgan va imkon boricha maksimal ravishda axborot texnologiyalardan foydalilanadi. Elektron huqumat – mamlakat miqyosida boshqaruvining samaradorligini sezilarli darajada oshirish va jamiyatning har bir a’zosi uchun ijtimoiy kommunikatsiyalar harajatlarini kamaytirish maqsadiga xizmat qiluvchi davlat boshqaruvi elektron hujjat almashinushi tizimi. Elektron xuqumatni yaratish hujjatlarni va ularni ishslash jarayonlarini boshqarish bilan bog‘liq vazifalarning to‘liq ko‘lамини hal etishni amalga oshiruvchi ijtimoiy boshqaruvining umum davlat taqsimlash tizimi qurilishini nazarda tutadi.

Emissiya - fr. émission – chiqarish; pul emissiyasi - muomalaga yangii pullarni chiqarish, muamaladagi pul hajmini ko‘paytirish. Emissiya naqd yoki naqd pulsiz bo‘lishi mumkin.

Empirizm - yunon. emperia-tajriba; tajribani bilishning birdan-bir vositasi, deb tan oluvchi ta’limot.

Erkinlashtirish - mamlakatning demokratik jamiyatgao‘tish va islohotlar o‘tkazish jarayoni damavjud bo‘ladigan turli to‘siqlar, cheklashlar va yonberishga majbur etadigan omillardan qutilishga qaratilgan amaliy faoliyatdir. U demokratik jarayonlarning samarali rivojigayangikuch, quvvat va ilhom bag‘ishlash imkoniyatini yaratadi.

Etnos – yun. ethnوس - xalq, qabila, to‘da, kishilar guruhi, irq ma’nolarni anglatadi.

Yuksak ma’naviyat – inson ma’naviyatining eng yuqori darajasi bo‘lib, u insonlarni eng ezgu va ulug‘ maqsadlarga yo‘naltirishga

xizmat qiladigan ona Vatan baxti iqboli yo‘lida buyuk jasoratga chorlaydigan yengilmash kuchdir.

Yurt tinchligi – milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalaridan biri, mamlakat barqaror taraqqiyotining asosiysharti.

O‘zini o‘zi boshqarish (ingl. municipal o‘zini o‘zi boshqarish); u yoki bu ma’muriy-hududiy birliklardagi aholining vakolatlarini ifodalovchi saylangan organlar va ularning ma’muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlarni boshqarishga aytildi. O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish organlari tarkibiga mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig‘inlari kiradi.

O‘zini o‘zi boshqarishning asosiy prinsiplari - O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida va qonunlarida mustahkamlangan o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tabiati bilan bog‘liq bo‘lgan mustaqil faoliyatni amalga oshirishni tashkil qiluvchi rahbariy g‘oyalar yig‘indisidir.

O‘ng - siyosiy kuchlar joylashuvida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishini saqlanishini maqsad qilib olgan konservativ siyosiy oqim.

ISESCO - Islom Konferensiysi tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha muassasi.

Uz domen zonasi – ma’lum darajadagi “Uz” domeniga kiruvchi domen nomlarining majmuasi; barcha ro‘yxatga olingan “Uz” domen nomli saytlarni birlashtiruvchi va shu tarzda mazkur domen bilan yagona Internetmakonini tashkil etuvchi veb-zona.O‘zbekiston Respublikasining mamlakat kodini ifodalovchi, maxsus vakolatli tashkilot tomonidan boshqariladigan va muvofiqlashtiriladigan hamda O‘zbekiston Respublikasining yurisdiksiyasi ostidagi o‘z ichiga keyingi daraja domen nomlarini oluvchi yuqori daraja domen. «UZ» domenidagi domen nomlarini ro‘yxatdan o‘tkazish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida.(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 y., 2627сон, 255-modda; 2015 y., 5-son, 61-modda).

Ziyonet – ZiyonET jamoat axborot ta’lim tarmog‘i. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2005 yil 28 sentabrdagi PQ191-sonli “O‘zbekiston Respublikasining jamoat ta’lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq tashkil topgan. ZiyonET tarmog‘ining asosiy maqsadi, respublika yoshlari hamda ta’lim oluvchilari uchun ta’lim olish tizimida keng ko‘lamli axborotkommunikatsiya xizmatlarini joriy etishdan iborat. ZiyonET O‘zbekiston Respublikasiga taalluqli bo‘lgan turli resurslar tiplaridan axborot axborot ta’lim tarmog‘i: darsliklar, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, leksiyalar konseptlari, referatlar, taqdimotlar, ma’lumotnomalar va lug‘atlar, bakalavrlarning bitiruv ishlari, magistrlarning dissertatsiyalari, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarning avtoreferatlari va yana boshqalar.

VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

22. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
23. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
24. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
25. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
26. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

27. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
28. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
32. O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiysi.2018 yil 27 iyun. Taraqqiyot strategiyasi markazi. www.strategy.uz
33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy

universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

36. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

37. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

38. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

39. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

40. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

41. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

42. 2021-2025 yillarda Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni Toshkent, 2021 yil 4 mart.

43. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Toshkent, 2021 yil 26 mart.

III. Maxsus adabiyotlar

30. Moxammad Xotami Islam, dialog i grajdanskoye obshestvo. – M.: “ROSSPEN”. 2001. – 242 s.

31. Djon Kin Demokratiya i grajdanskoye obshestvo. – M.: “Progress Traditsiya”, 2001. – 400 s.

32. Sharifxo‘jayev M. O‘zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. –T.: Sharq, 2003.

33. D.Dj.Grin Vozvrasheniye v grajdanskoye obshestvo: sotsialnoye obespecheniye bez uchastiya gosudarstva. – M.: “Novoye izdatelstvo”. 2008, – 220 s.

34. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: O‘zbekiston, 2010

35. Djim L. Koen, Endryu Arato Grajdanskoye obshestvo i politicheskaya teoriY. – M.: “Ves mir”, 2011. – 784 s.
36. Jalilov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktriya press, 2015.
37. R.Xasanov, A.Utamuradov Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot (Uslubiy qo‘llanma) – T.: 2016. 14 b.t.
38. A.Utamuradov va boshq. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug‘ati. Lotin yozuvida. – T.: “Turon-Zamin-Ziyo”. 2017. 23 b.t.
39. M.Bekmurodov va boshq. Xarakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari, – T .: “G‘ofur G‘ulom NMIU”. 2017, - 236 b.
40. J.Mavlonov Kommunikativniye osnovi deyatelnosti institutov grajdanskogo obshestva: tendensii i innovatsii (Monografiya) - T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. 12 b.t.
41. A.Utamuradov Fuqarolik jamiyati g‘oyalari evolyusiyasi T.: “Adabiyot uchqunlari” 2018. 12 b.t.
42. A.Utamuradov va boshq. Fuqarolik jamiyati (O‘quv qo‘llanma) – T.: “Mumtoz so‘z”, 2018. 24,75 b.t.
43. A.Utamuradov va boshq. Fuqarolik jamiyati: G‘oyalalar evolyusiyasi (Sharq va G‘arb mutafakkirlari talqinida). Lotin yozuvida. – T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. 6 b.t.
44. Mualliflar jamoasi. A.Utamuradov tahririda O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati (Uslubiy qo‘llanma) – T.: “Info Capital Group”, 2019. – 432 b.
45. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida.
https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
46. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.–T.: “TKTI” nashriyoti, 2019.
47. Xakimov N.X., Sadikov A.K. Strategiya razvitiya strani. Grajdanskoye obshestvo (Uchebnoye posobiye) - T.: “Iqtisodiyot”, 2020. - 252 s.
48. A.Utamuradov va boshqalar O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati: Darslik – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2020. 24.5 b.t.
49. Harakatlar strategiyasi bilan 3 yil: Kutilgan natijalar, yuqori samaradorlik va yuksak marralar Toshkent 2020 “Taraqqiyo strategiyasi markazi” 185 bet.

IV. Internet saytlar

50. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi:
www.edu.uz.

51. Bosh ilmiy-metodik markaz: www.bimm.uz
52. www. Ziyonet. Uz
53. Otkritoye obrazovaniye. <https://openedu.ru/>
54. <https://foxford.ru/wiki/obschestvoznanie/grazhdanskoe-obschestvo>
55. <https://www.linguee.com/russian-english/translation>
56. https://enc.for.uz/w/index.php?title=Fuqarolik_jamiyati&variant=uz-cyril
57. <http://www.uzbekembassy.ir/Development.aspx>
58. <https://icscentre.org/tag/civil-society/>